V.SH. NURITDINOVA
M.A. SHARAPOVA

MOLIYAVIY NAZORAT



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

V.SH. NURITDINOVA, M.A. SHARAPOVA

MOLIYAVIY NAZORAT

O‘zbekiston Respublikasi oliy va
o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan

Toshkent
IQTISOD-MOLIYA
2019

UO'K 657.4(075)
KBK 65(5O')

Taqrizchilar: *i.f.d., prof.* **T.S. Malikov;**
i.f.d. **D.X. Pulatov**

N87 **Moliyaviy nazorat:** Darslik / V.Sh. Nuritdinova, M.A. Sharapova;
– T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – 480 b.

"Moliyaviy nazorat" darsligi bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalarini qamrab olib, unda moliyaviy nazorat va uni amalga oshiruvchi organlar faoliyatining o'ziga xos jihatlarini yoritib berishga harakat qilingan.

Darslik "Moliyaviy nazorat" fanining Namunaviy dasturiga muvofiq tayyorlangan va shu fanni o'qitiladigan boshqa barcha ta'lim yo'nalishlari talabalari va professor o'qituvchilari uchun mo'ljallangan.

UO'K 657.4(075)
KBK 65(5O')

ISBN 978-9943-13-842-1

© V.Sh. Nuritdinova, M.A. Sharapova, 2019
© «IQTISOD-MOLIYA», 2019

Библиотека
3414 ТФИ 44

KIRISH

Mustaqillikning dastlabki davridayoq bozor munosabatlariga o'tish, davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlari o'ziga mos bo'lgan moliyaviy tizim va mexanizmlar, shuningdek, moliyaviy nazoratni shakllantirishni taqozo etdi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kuchli moliyaviy nazoratni shakllantirishni davr talabi hisoblanadi. Moliyaviy nazoratni takomillashtirish doimo mamlakatimiz rahbariyatining diqqat-e'tiborida bo'ldi. Bu xususda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev fikr yuritar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Albatta, Davlat byudjeti o'lchovsiz emas, mablag'larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta'minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo'lmaydigan haqiqat. Shunday ekan, nima uchun G'aznachilik va Nazorat-taftish boshqarmasining apparatlari haddan tashqari kengayib ketgan? Ularda jami 4 ming nafar xodim ishlaydi va ularning xarajatiga yiliga 90 milliard so'm davlat mablag'i sarflanadi. Ana shu tuzilmalar rahbar va xodimlari shunday tasavvur bilan yashamoqdaki, ularning vazifasi go'yo faqatgina nazorat qilish va boshqalarni jazolashdir. Lekin faqat qamchi va qilich bilan ijobiy natijalarga erishib bo'ladimi? Bu - nafaqat xato fikr, balki chuqur yanglishish, deb hisoblayman. Bu borada profilaktika ishlarini kim samarali olib boradi?"[1]

Darhaqiqat, islohotlar izchilligini ta'minlash va davlat byudjeti xarajatlaridan oqilona foydalanish jarayonida moliyaviy nazoratning ilg'or usullarini qo'llash, mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda xarajatlarni tejashda moliyaviy nazorat organlarining profilaktik tadbirlarni o'tkazishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida, tovar va pul oqimlarini moliyaviy-

[1] Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston NMIU, 2017. 104 b.

iqtisodiy boshqarishda davlat moliyaviy nazoratining samarali tizimini yaratish o'ziga xos o'rin egallaydi, bundan tashqari davlatning moliyaviy mablag'laridan samarali foydalanishning kafolati bo'lib, Davlatning jamiyat oldidagi asosiy vazifalarini bajarishdagi rolini oshirish bu amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat xarajatlari va moliyaviy oqimlar yo'nalishlari ustidan samarali nazoratni ta'minlashga qodir bo'lgan zamonaviy moliya tizimini yaratishni talab qiladi.

Zamonaviy moliya tizimida mahalliy hududlarni rivojlantirish, mahalliy byudjetni ijro etish, ularda mavjud muammolarni hal qilish kabi dolzarb faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish muhim bo'lib, bu vazifa aynan xalqimizning o'z vakillari orqali amalga oshirilishi kerak.

Shu sababli jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etish maqsadida "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

Shuni alohida e'tirof etish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda davlat organlari tomonidan olib boriladigan moliyaviy nazorat bilan bir qatorda nodavlat moliyaviy nazoratiga ham alohida ahamiyat qaratilmoqda.

"Moliyaviy nazorat" fani moliya sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimida asosiy fanlardan biri hisoblanib, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida takomillashib bormoqda. Shu sababli "Moliyaviy nazorat" fanidan tayyorlangan ushbu darslik moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalarini qamrab olib, unda moliyaviy nazoratning nazariy va huquqiy asoslari, uni amalga oshiruvchi organlar faoliyatining o'ziga xos jihatlari, davlat va nodavlat moliyaviy nazorati turlari, shuningdek xorijiy davlatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish masalàlarini qamrab olgan.

Ushbu darslikdagi kamchiliklar yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar hamda taklif va tavsiyalaringizni mamnuniyat bilan qabul qilamiz.

I BO‘LIM. MOLIYAVIY NAZORATNING NAZARIY VA TASHKILIY ASOSLARI

1-BOB. “MOLIYAVIY NAZORAT” FANINING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. “Moliyaviy nazorat” fanining shakllanishi va rivojlanishi

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasini boshqarish hamda nazoratini takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shular jumlasidan byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo‘ysunuvidagi muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas’uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e’tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo‘li bilan byudjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratning rolini tubdan qayta ko‘rib chiqish belgilangan.

Shu narsa ma’lumki, O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlar bozor mexanizmlarini ko‘r-ko‘rona, sun’iylik bilan tadbiq etib bo‘lmaydi, chunki jamiyat a’zolari o‘rtasida shunday an’anaviy ierarxik munosabatlar tizimi shakllanganki, ularni mensimaslik, keskin qarorlar qabul qilish chog‘ida ularni e’tiborga olmaslik turli nohush holatlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiyotni boshqarishning jahon amaliyotida tan olingan bir qator mexanizmlarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish sharoitlarimizga tegishli tarzda moslashtirgan holda qo‘llash va ijobiy foydalanish maqsadga muvofiqdir. Byudjet mablag‘laridan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlovchi shunday mexanizmlardan biri –moliyaviy nazoratdir.

Nazorat iqtisodiy tizimning zarur elementi sifatida butun insoniyat sivilizatsiyasi bilan birga rivojlanadi, evolyusion taraqqiyot va inqilobiy to'fonlar jarayonida, jamiyat iqtisodiy formatsiyasi, siyosiy tizimi, davlat va xo'jalik boshqaruvi, qonun chiqaruvchi, ijroiya va sudlov hokimiyati organlari almashinuvi jarayonida o'zgarib boradi.

Yevropada davlat xo'jaligida nazoratni joriy etishga dastlabki urinishlar qirollik boshqaruvlari davriga to'g'ri keladi. Xo'jalikning o'sib borayotgan miqyoslari tufayli nazorat muhim boshqaruv omiliga aylanib bordi. Har qanday hokimiyat, ayniqsa, xarajatlar daromadlardan ortgan davlatlar moliyaviy ahvoli mushkulligidan dalolat beradigan urushlar davrida, tartibga solingan moliyaga katta ehtiyoj sezardi. Mablag' izlab, moliyaviy islohotlar, shu jumladan byudjet nazorat tusidagi islohotlar o'tkazilardi. Demokratik mamlakatlarda davlat moliyaviy resurslari yoki byudjetni boshqarish hukumatning jamiyat oldidagi ma'suliyatini keltirib chiqaradi. Oqibatda "moliya darvozasi oldida" nazorat tashkil etish boshqaruvning zarur elementiga aylandi. Shu sababli dunyoning rivojlangan barcha mamlakatlarida moliyaviy nazorat davlat nazoratining asosiy turiga aylandi.

Nazorat-jamiyat iqtisodiy hayotidagi obyektiv hodisa va har qanday davlat boshqaruvining muhim bo'g'inidir. Shu bilan birga u ko'p ming rahbar va mutaxassislar, mehnat jamoalari, jamoat va davlat tashkilotlarining subyektiv ijod sohasidir.

O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat, mustaqil audit, buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil mustaqil ixtisoslashgan iqtisodiy fan tarmoqlari hisoblanadi. Ularning har biri o'z predmetiga, vazifalariga, maqsadlariga, tadqiqot va amaliy qo'llanish usullariga ega. Fanlarning ixtisoslashuvi ularni o'ziga xos qo'llanish sohalari bo'yicha chuqurlashtirish va tabaqalashtirish imkonini beradi. Iqtisodiyot fanning mustaqil tarmog'i bo'la turib, ular o'zaro chambarchas bog'liq va yagona yo'nalishga, iqtisodiyot samaradorligini oshirishni, qo'yilgan xo'jalik maqsadlariga muvaffaqiyatli erishilishini ta'minlovchi boshqaruv yechimlarini tayyorlashga qaratilgan.

Har bir xo'jalik subyekti o'z davlatining umumiy xo'jaligini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Nazorat-hisobga asoslangan tahliliy

fanlar - oqilona boshqaruv yechimlarini tanlab olish uchun asosdir. Buxgalteriya hisobi va auditning iqtisodiy tahlili, moliyaviy nazorat butun davlatning iqtisodiy mexanizmi va har bir alohida korxona, tashkilot, firma, kompaniyaning maromli ishlashi uchun zarur.

Ana shu holatlarninig mavjudligi, shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy nazoratning ahamiyati, imkoniyatlari, afzalliklarini o'rganishning zarurligi mazkur fanning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Bozor sharoitida hisob-kitob axborotiga alohida e'tibor berilishi, bu mantiqan to'g'ri, chunki korxona, aksiyadorlik jamiyati, shirkat, firma, kompaniya moliyaviy ahvolining shakllantirilgan va qayta ishlangan ko'rsatkichlari ssuda, kredit, investitsiya va shu kabilarni berish chog'ida ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadlarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun amaliy omil xususiyatiga ega bo'lishi kerak. Bozorni iqtisodiy axborot bilan ta'minlash moliyaviy hisobotning xolis va ishonchli ma'lumotlariga tayanishi kerak. Bunday ma'lumotlar faqat mustaqil auditorlar tomonidan to'g'riligi tekshirilib tasdiqlanganidan, shuningdek korxona reytingini aniqlash uchun ushbu ma'lumotlar qayta ishlanganidan keyingina olinishi mumkin.

Nazorat – bu biror ishning, narsaning ahvoli, kishining yurish - turishi va shu kabilarning ustidan doimo kuzatish, tekshirishdir. Nazorat-davlat boshqaruv organlarining ayrim boshqaruv sohalarida davlat tomonidan belgilangan qoidalarga xo'jalik subyektlari, mansabdor shaxslar rioya etishni kuzatishdan iborat faoliyatdir.

1.2. "Moliyaviy nazorat" fanining maqsad va vazifalari, iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rni

"Moliyaviy nazorat" fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga moliyaviy nazorat haqida nazariy bilimlar berish, ularda mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarning bugungi bosqichida moliyaviy nazorat tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlari va uning samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha asosiy ko'nikmalar hosil qilish, moliyaviy nazorat organlarining

tashkiliy tuzilmasi va uning ishlash mexanizmlarini o‘rganish, ularni nazariy, amaliy va metodologik jihatdan takomillashtirishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda mazkur fan o‘z predmetini o‘rganish uchun quyidagi vazifalarni qo‘yadi:

• moliyaviy nazoratning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyatini o‘rganish;

• moliyaviy nazorat tizimi va uning nazariy-huquqiy asoslarini o‘rganish;

• moliyaviy nazoratni tashkil qilish tur, shakl va usullarini o‘rganish;

• moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlar va ularning moliyaviy nazoratni tashkil qilishdagi funksiyalari, huquq va majburiyatlarini o‘rganish;

• moliya organlarining davlat daromadlari istiqbollarini belgilash va iqtisodiy tahlil qilish sohasidagi nazorat-iqtisodiy ishlarini o‘rganish;

• moliya organlarida byudjetni tuzish va ijro etish jarayonidagi moliyaviy nazoratning asoslarini o‘rganish;

• davlat byudjeti daromadlar (maxsus maqsadli fondlar daromadlar) ini shakllanishi va ularning to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liq hamda o‘z vaqtida to‘lanishi holatlarini tahlil qilib o‘rganish;

• kredit muassasalari va ularning filallari tomonidan bank qonunchiligiga rioya qilinishi hamda pul-kredit, valyuta va narx munosabatlarini holatini tahlil qilib o‘rganish;

• soliq nazorati asoslari bilan tanishish, soliq nazorati shakllarini o‘rganish;

• sug‘urta xizmatlarini rivojlanishida moliyaviy nazoratning ahamiyatini va unga rioya qilinishini o‘rganish;

• nodavlat moliyaviy nazorat organlari va ularning moliyaviy nazoratni tashkil qilishdagi funksiyalari, huquq va majburiyatlari hamda uning ahamiyatini o‘rganish;

• taraqqiy etgan mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish amaliyotini o‘rganish va h.k.

Jamiyatda xo‘jalik yuritishning turli soha va tarmoqlarida, davlat boshqaruvining barcha pog‘onalarida pul oqimlari, moliyaviy resurslar

harakatini nazorat qilish va bu boradagi moliyaviy nazorat organlarining maqsadli faoliyati – fanning o'rganish predmeti hisoblanadi.

Nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham, metodologik hamda tashkiliy jihatdan moliyaviy nazorat ancha murakkab jarayondir. Ana shu jihatlar "Moliyaviy nazorat" fanining ham murakkabligini belgilab beradi. "Moliyaviy nazorat" fani amaliyot bilan uzviy bog'liqdir. Fan sifatida mavjud bo'lishi uning boshqa maxsus fanlar bilan nazariy jihatdan bog'liqlikda bo'lishini talab etadi. Moliyaviy nazorat ishtirokchilari: moliya organlari, byudjet tashkilotlari, banklar, g'aznachilik bo'linmalari, mol yetkazib beruvchilar va boshqalar faoliyatining xususiyatlari uning boshqa iqtisodiy fanlar: Davlat byudjeti, Mahalliy byudjetlar, Davlat maqsadli jamg'armalari, G'aznachilik, Buxgalteriya hisobi, Moliyaviy tahlil, Audit kabi fanlar bilan mantiqan uzviylikda bo'lishini va bog'liqligini belgilab beradi

2-BOB. MOLIYAVIY NAZORAT VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

2.1. Moliyaviy nazoratning mazmuni va ahamiyati

Moliyaviy nazoratni tashkil etish bu moliyaviy resurslarni boshqarishning majburiy elementi hisoblanib, bunday boshqaruv jamiyat oldidagi javobgarlikni aks ettiradi. Nazorat – bu oxirgi maqsad hisoblanmaydi, nazorat bu boshqarish tizimining ajralmas qismi bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy shartidir. Moliyaviy nazorat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish ustidan davlat nazoratining tarkibiy elementi bo'lib hisoblanadi.

Nazorat boshqarish siklining shakli sifatida qabul qilinayotgan yoki qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va samaradorligini baholash, bu qarorlarning amalga oshirilish darajasini haqiqiy natijalarning o'rnatilgan parametrlari va me'yoriy ko'rsatmalardan og'ish (farq qilish) darajasini aniqlash va salbiy holatlarni bartaraf etishga qaratiladigan boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida boshqariluvchi obyekt faoliyatini kuzatish, solishtirish, tekshirish va tahlil qilish tizimidir.

Moliyaviy nazorat – bu moliyaviy tekshirish va u bilan bog'liq bo'lgan masalalar harakatini va muomalasini majmui bo'lib, xo'jalik subyektlari faoliyatini boshqarishni o'ziga xos usullari, shakllar yordamida tashkil etish.

Davlatning moliyaviy nazorati har bir davlatning muhim funksiyasi bo'lib, moliya kredit tizimini normal harakat qilishida, albatta bajarilishi kerak bo'lgan shartlardan biridir. Qarshiliklar munosabatlariga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'tishda, iqtisodiyotni boshqarishga barqaror va samaradorli harakatlariga alohida e'tibor berilgan. Bu moliyaviy nazoratni ayrim bo'g'inlarini yo'q qilishga asos bo'lib, qolganlarini intizomini bo'shashtirishga olib keldi, ishlarni real

ahvolini, moliyaviy intizomini buzilishini, suiste'molini bartaraf qilolmadi.

Hissadorlik korxonalarida va boshqa nodavlat sektoridagi xo'jalik subyektlarida davlat moliyaviy nazoratini yo'q qilinishi xorijiy davlatlarda bu nazorat yo'qligi bilan izohlanadi. Lekin, ularda bozor tizimi ko'p yillar davomida tuzilgan bo'lib, aldashda va noinsoflik, moliyaviy dallolchilikda tartib qoidani va ma'suliyatni qattiq tutishgan.

Bozor munosabatlari hamma shakldagi mulk egalari bo'lgan xo'jalik subyektlarning, sistematik taftishlarini va moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirish zarurligini, kamchiliklarini oldini olib va ularni bartaraf etish uchun chora tadbirlarni ishlab chiqishni rad etmaydi. Moliyaviy nazorat bozor iqtisodiyotiga ham o'ziga xos obyektiv va hamma xorijiy davlatlarda qay me'yorda siyosiy va iqtisodiy vazifalar talab etilsa shu me'yorda qo'llaniladi.

Bozor munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- moliyaviy resurslarning manbalarida;
- moliyalashtirish tamoyillarida;
- baholarni belgilashda;
- naqd pulsiz shakldagi hisob-kitoblarda;
- moliya-kredit tizimining tarkibida va uning bo'g'inlari orasidagi o'zaro munosabatlarida.

Bu sharoitda, nazorat organlarida rejalashtirilmagan va ularga ma'muriy boshqarish tizimida kerakli ahamiyat berilmagan moliyaviy nazoratning ko'p yangi yo'nalishlari vujudga keldi. Moliyaviy nazorat uchun juda katta sohaning faoliyati tashkil topdi.

Moliya nazorat vazifasining mavjudligi o'z-o'zidan moliyaviy nazoratning mavjudligini keltirib chiqarmaydi, u tegishli davlat organlarining muqim tashkil etuvchi faoliyatini taqozo etadi.

Moliyaviy nazorat oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. Moliyaviy resurslarga bo'lgan talab ehtiyoj va iqtisodiyotdagi pul daromadlari va jamg'armalarining miqdorlari o'rtasidagi balanslanishga ko'maklashish;

2. Davlat byudjeti oldida moliyaviy majburiyatlarni o‘z vaqtida va to‘la bajarilishini ta’minlash, moliyaviy resurslarining o‘sishi, ichki ishlab chiqarish rezervlari, shu jumladan, tannarxni pasaytirish va rentabellikni oshirish bo‘yicha rezervlarni aniqlash;

3. Korxona, tashkilot va byudjet muassasalarida moddiy boyliklar va pul resurslarini oqilona sarflash, shuningdek, buxgalterlik hisobi va hisobotning to‘g‘ri olib borilishiga ko‘maklashish, amaldagi qonunlar va me’yoriy hujjatlarga , shu jumladan, turli xil tashkiliy-huquqiy shakllarga kiradigan korxonalarga soliq solish sohasidagi qonunchilikka rioya qilinishini ta’minlash;

4. Korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatining, shu jumladan, valyuta operatsiyalari bo‘yicha faoliyatning serunum bo‘lishiga ko‘maklashish va boshqalar.

Shunday qilib, yuqoridagilarga asoslangan holda moliyaviy nazoratga quyidagicha ta’rif berish mumkin, moliyaviy nazorat - bu pul mablag‘larini yig‘ish, sarflash va undan foydalanish jarayonida olib boriladigan hamda qonuniylikni ta’minlashga qaratilgan davlat nazoratining bir turidir.

Moliyaviy nazoratni olib borishda albatta qonunga rioya etish talab qilinadi. Buning mazmuni shundan iboratki, respublika hududida faoliyat ko‘rsatuvchi barcha davlat organlari (mansabdor shaxslari), korxona, muassasa, tashkilotlar va fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga og‘ishmay amal qilishlari lozim.

Moliyaviy nazorat moliya huquqi tizimiga kiruvchi barcha moliyaviy-huquqiy institutlarga (bo‘limlarga) xosdir.

Moliyaviy nazorat quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

– **birinchidan,** jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan davlat, mahalliy davlat hokimiyati organlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarining bajarilishini tekshirish;

– **ikkinchidan,** davlat va mahalliy korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan ularning ixtiyorida yoki kundalik boshqaruvida bo‘lgan pul mablag‘laridan to‘g‘ri va maqsadga muvofiq foydalanilayotganligini tekshirish;

– **uchinchidan,** yuridik shaxslar tomonidan moliyaviy operatsiyalar, hisob-kitob, hisobot va pul mablag'larini saqlash va sarflashning qonunchilik bilan o'rnatilgan talablariga rioya etilishini tekshirish;

– **to'rtinchidan,** ishlab chiqarishning ichki zaxiralarini aniqlash;

– **beshinchidan,** moliyaviy intizom buzilishi hollarini bartaraf etish va ogohlantirish.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, shuningdek, davlat va moliya-bank tuzilmalardagi moliyaviy nazorat moliyaviy intizomining bajarilishi uchun mas'uliyat bilan uzviy bog'liqdir. Bu mas'uliyat moliyaviy intizom buzuvchisiga nisbatan ma'muriy hamda iqtisodiy choralar ko'rishda aks etishi mumkin. Moliya intizomi deganda, davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar pul jamg'armalarini tashkil etish, taqsimlash va ulardan foydalanish vaqtida belgilangan ko'rsatmalar va tartibga qat'iy rioya etilishi tushuniladi. Moliya intizomi talablari yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat organlari uchun amal qiladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat davlat manfaatlarini ta'minlaydi va aniq jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquq va manfaatlariga rioya etilishi (masalan, byudjetga to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berish to'g'risidagi qonunlarga rioya etilishi, soliqlar to'g'ri olinishi va h.k.ni nazorat etish)ga yordam beradi.

Iqtisodiy choralar moliya sanksiyalari orqali amalga oshiriladi. Binobarin, moliya sanksiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, uni jadallashtirish, ekologik jihatdan sog'lomlashtirish va h.k. ko'maklashadigan moliya mexanizmi vositalaridir.

Moliyaviy mas'uliyatni, moliyaviy nazorat ta'sirchanligini kuchaytirish muammolari bir tomondan qo'llanilajak sanksiyalar miqdorini qisqartirish, ikkinchi tomondan esa ular samaradorligini oshirishni talab etadi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, o'tkazilayotgan soliq islohoti qo'llaniladigan sanksiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy nazorat nazariyasi, uning mazmuni, o'rni va tashkil etilishini ishlab chiqish bilan ko'plab olimlar shug'ullangan bo'lib, shuning uchun bozor munosabatlarining yangi tizimiga o'tish va yangi

moliyaviy tizimni shakllantirish chog'ida barcha turli-tuman fikrlarni, jumladan MDH davlatlari va bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar olimlarining fikrlarini o'rganib chiqmoq foydalidir.

Moliyaviy nazorat ta'riflarining qiyosiy tahlilini keltiramiz.

Manbalar	**Ta'rif**
Nazorat amal qilinuvchi qoidalarning Lima deklaratsiyasi. Oliy nazorat organlari xalqaro tashkilotining (INTOSAI) IX Kongressida 1977 yil qabul qilingan, 1-modda. "Nazoratning maqsadi" [20, 56-b.]	Nazoratni tashkil etish ijtimoiy moliyaviy mablag'larni boshqarishning zaruriy elementi hisoblanadi, chunki bunday boshqaruv jamiyat oldidagi mas'uliyatni keltirib chiqaradi. Nazorat shunchaki maqsad bo'lib qolmasdan, balki tartibga solish tizimining ajralmas qismidir, uning maqsadi ahvolni to'qrilash choralarini ko'rish, ayrim hollarda aybdorlarni javobgarlikka tortish, yetkazilgan zarar uchun tovon undirib olish yoki kelgusida bunday buzilishlarning oldini olish yoxud kamaytirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun imkoni boricha dastlabki bosqichda qabul qilingan standartlardan chekinishlarni va qonun qoidalarining buzilishlarini, moddiy resurslarning samaradorligi va tejab sarflanishini aniqlashdan iboratdir
N.S.Malein [22, 103-b.]	Moliyaviy nazorat - moliyaviy, kredit va xo'jalik organlari (tashkilotlari)ning rejalarning bajarilish jarayonida moliyaviy, byudjet, soliq, kredit, hisob-kitob va kassa intizomini ta'minlashga qaratilgan va pul harajatlarining qonuniyligi, asosliligi va oqilonaligini tekshirishdan iborat qonun normalari bilan tartibga solinuvchi faoliyatidir
D.A.Allaxverdyan [6, 6-b.]	Moliyaviy nazorat - davlat nazoratining tarkibiy qismi, iqtisodiy boshqarish va rejalashtirish butun tizimining elementidir
E.A.Voznesenskiy [14, 43-b.]	Moliyaviy nazorat - davlat va jamoat organlarining; kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishda rejali mutanosiblikka rioya qilish maqsadlarida markazlashtirilgan va mahalliy pul jamg'armalarini shakllantirish hamda ulardan foydalanish jarayonlarining asosli ekanligini tekshirishdan iborat

	faoliyatdir
I.A.Belobjetskiy [7, 7-b.]	Iqtisodiy nazorat qabul qilingan boshqaruv qarorlarining asosliligi va samaradorligini va ular ijrosining natijalarini baholash maqsadi bilan boshqariluvchi obyektning ish olib borish jarayoni va haqiqiy holatini kuzatish kamda tekshirish tizimini o'z ichiga oladi
I.A.Belobjetskiy [8, 23-b.]	Moliya-xo'jalik nazorati deganda nazorat vazifalari yuklatilgan davlat va jamoat organlarining korxonalar, birlashmalar, muassasalar, tashkilotlar va moddiy ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish sohalarining moliya-xo'jalik faoliyati ustidan bu faoliyatning iqtisodiy samaradorligini holis baholash, xo'jalik va moliyaviy operatsiyalarning qonuniyligi, to'g'riligi va maqsadga muvofiqligini, sotsialistik mulkning saqlanishini, ishlab chiqarish samaradorligini va davlat byudjeti daromadlarini oshirishning ichki xo'jalik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan nazorat tizimidir
Yu.A.Danilevskiy [15, 16-b.]	Iqtisodiyot va ishlab chiqarishni boshqarish umumiy mexanizmining muhim vazifalari va ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, moliyaviy, kredit, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi Nazorat doirasiga pulda ifodalangan tovar-moddiy qimmatliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ularni ishlatish va iste'mol kiradi
S.S.Nosova [25,5-b.]	Iqtisodiy nazorat ishlab chiqarish ustidan insoniyat yaratgan g'oyat samarali nazoratdir. U narx, ish haqi, foyda, ishlab chiqarish harajatlari va foyda, ssuda foizi, renta, soliq, pul va sh.k. orqali amalga oshiriladi
Yu.M.Itkin	Davlat nazorat organlarining vazifasi, eng avvalo, davlat qonunlari va prezident farmonlarining ijrosini; Oliy Kengash tomonidan ajratilgan byudjet mablag'lari yo'naltirilishining qonuniyligi, to'g'riligi va maqsadga muvofiqligini; hukumat va

	uning organlari faoliyatining samaradorligini, moliyaviy va moddiy resurslarning boshqarishning barcha darajalarida davlat mablag'lari samarali va tejab sarflanishini tekshirishga yo'naltirilishi kerak
Yu.M.Itkin [17, 38-b.]	Nazoratning vazifasi yo'l qo'yiladigan chetga chiqish me'yorlarini malakali belgilashdan iborat, qolgan barcha chetga chiqishlarni qayd etish va bartaraf qilish talab qilinadi. Boshqaruvning ichki va tashqi xo'jalik jarayonlarini kuzatish, tekshirishni amalga oshirar ekan, nazorat bozor iqtisodiyotida, bu harakatlarning hammasi faqat samarali boshqarish uchun foydali bo'lgandagina mavjudlik huquqiga egadir
S.O.Shoxin, L.I.Voronina [27, 14-b.]	Moliyaviy nazorat deganda nazorat vazifalari yuklatilgan davlat va jamoat organlarining korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning moliya-xo'jalik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini xolis baholash maqsadi bilan bu faoliyat ustidan nazoratning ko'p tomonlama tarmoqlardagi tizimini, xo'jalik va maqsadga muvofiqligini aniqlashni hamda davlat byudjeti daromadlarining rezervlarini aniqlashni tushunmoq kerak

Hozirgi kunda moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi tekshirilayotgan obyektda mavjud bo'lgan haqiqiy holatni obyektiv o'rganish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ijro etishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash yoki oldini olishdan iborat.

Davlat moliyaviy nazoratning boshqaruv tizimining asosiy elementi bo'lgan umumiy nazorat tizimidagi muhim o'rni va ahamiyati shundaki, birinchidan, moliya o'zi iqtisodiy kategoriya sifatida obyektiv tarzda nazorat funksiyasini bajaradi; ikkinchidan, bozor iqtisodiyotida moliyaviy munosabatlarning roli oshib boradi. Barcha uzluksiz takror ishlab chiqarish jarayonlarini, xo'jalik yuritishning barcha pog'onalari, davlat boshqaruvining barcha darajalarini qamrab olar ekan, moliyaviy nazorat universal qurol sifatida amal qiladi.

Bozor iqtisodiyoti uchun davlat moliyaviy nazorati faoliyatning alohida bir sohasiga aylanib boradi. Davlat moliyaviy nazoratning obyekti bo'lib boshqarishning barcha darajalarida moliyaviy resurslarning shakllanishi va ishlatilishidan taqsimlanish jarayonlari maydonga chiqadi. Bu boradagi davlat moliyaviy nazorati avvalo davlat moliyaviy resurslaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanishi, davlat mulkidan oqilona foydalanishini ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim.



2.1-rasm. **Moliyaviy nazoratning vazifalari**

Davlat moliyaviy nazoratining mohiyatini ochib berishi uchun bir qator holatlarni hisobga olmoq lozim:

1. Moliyaviy nazorat davlat hokimiyati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini faoliyatining bir shakli, ko'rinishi sifatida namayon bo'ladi.

Библиотека 3414/ТФИ 44

2. Moliyaviy nazorat ma'lum darajadagi moliyaviy ishlab chiqarish munosabatlarini boshqarish va tartibga solish shaklida amalga oshiriladi.

3. Moliyaviy nazoratning ta'sirchanligi uni moliyaning boshqa barcha funksiyalari bilan o'zaro bog'liqlikda amalga oshirilgandagina ta'minlanadi.

4. Moliyaviy nazorat xo'jalik subyektlari va aholi tomonidan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

Haqiqatan ham, qat'iy va samarali moliyaviy nazoratsiz moliyaviy intizomni mustahkamlash qiyin. Moliyaviy intizom bo'lmagan joyda esa iqtisodiyotni rivojlantirish va aholining yashash darajasini yaxshilashga qaratilgan muhim vazifalarni hal etib bo'lmaydi. Ayniqsa o'sish xarakteridagi iqtisodiyotda ilgari ma'lum bo'lmaganlar va uchramagan moliyaviy buzilishlarning aniqlanishi ularni amaliyotda moliyaviy nazoratning barcha dastak va vositalarini qo'llab bartaraf etish talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati o'z ichiga davlat byudjeti va davlatning byudjetdan tashqari fondlari mablag'larining shakllanishi va ishlatilishi ustidan quyidagi vakolatga ega:

- Pul muomalasini tashkil etish ustidan nazorat;
- Davlatning ichki va tashqi qarzlari ustidan nazorat;
- Davlat kredit resurslaridan foydalanish ustidan nazorat;
- Davlat mulkidan foydalanish ustidan nazorat;
- Davlat zaxiralari ustidan nazorat;
- Moliyaviy yengilliklar va imtiyozlar berish ustidan nazorat.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Davlat moliyaviy nazorati davlat hokimiyati organlarining hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining huquqiy normalari bilan tartibga solinadigan davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi, maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishi ustidan, shuningdek, davlat

va mahalliy mulkdan qonuniy tarzda foydalanish ustidan nazorat qilish yuzasidan moliyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan maqsadli faoliyatdir".



2.2-rasm. **Moliyaviy nazoratning mazmuni va elementlari**

Bu faoliyatning asosiy maqsadi nazorat qilinadigan obyektlar faoliyatidagi kamchiliklarni topish va mansabdor shaxslarni jazolashdan iborat bo'lib qolmasdan, balki bu kamchiliklarning oldini olish, ularga yo'l qo'ymaslik, ogohlantirishdan iboratdir

Davlat moliyaviy nazoratining vazifalarini chegaradosh mushkildir. Chunki moliyaviy qonunchilikning o'zgarishi bilan moliyaviy nazoratning vazifalari ham o'zgaradi va aniqlashtiriladi.

Gap shundaki, moliya o'zining nazorat funksiyasini obyektiv tarzda barcha moliyaviy munosabatlarning amal qilish jarayonida bajarib keladi. Moliyaviy nazorat esa uning bu fuksiyasining amalda namayon bo'lish shakli.

Davlat moliyaviy nazorati esa bu davlatning iqtisodiyotni boshqarish elementlaridan biri bo'lib, uning yordamida moliyaviy resurslardan foydalanishdagi kamchiliklar aniqlanadi. Bu kamchiliklarning sabablari tahlil qilinadi, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanadi va ularni amalga oshirish darajasi nazorat qilinadi.

Davlat moliyaviy nazoratning funksiyalari mamlakatda ishlab chiqilgan va amal qiladigan qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topadi va tegishli nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

2.2. Takror ishlab chiqarishning turli bosqichlarida davlat moliyaviy nazorati tizimining elementlari

Ijtimoiy mahsulotni taqsimlash bosqichida moliyaviy nazoratning vazifasi - bozor munosabatlariga muvofiq tarzda qayta yaratilgan mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash va qayta taqsimlashga sarflangan mablag'larni qoplashda undan foydalanishni tekshirishdan iborat. Mehnat vositalari va mehnat predmetlari zaxiralari me'yorlarini qayta tiklash qismida ishlab chiqarish munosabatlari, jonli mehnatga uning soni va sifatiga muvofiq tarzda sarflangan to'lovga mablag' xarajat qilish, ijtimoiy jamg'arish va iste'mol fondlarini yangilash va to'ldirish, davlat byudjetiga, ijtimoiy sug'urtalashga mablag' o'tkazish nazorat qilinadi. Ijtimoiy mahsulotni taqsimlash qismida moliyaviy nazorat predmeti iqtisodiyotning barcha bo'g'inlariga taqsimlanadi.

Ijtimoiy mahsulotni ayirboshlash bosqichida , ya'ni bozor munosabatlari sharoitida tovarlar muomalasi, moliyaviy nazorat

predmeti shartnomaviy munosabatlar, iqtisodiyotni moddiy-texnik ta'minot mablag'lariga va aholining xalq iste'moli tovarlariga xaridorlik talabini bozorni tovarlar bilan to'yintirish orqali qondirishdir. Bunda tovar ayirboshlanishida ayirboshlash jarayonida natural va qiymat ko'rsatkichlari tekshiriladi. Binobarin, ayirboshlash bosqichida iqtisodiyotni bozor tartibga solinishiga muvofiq tarzda ijtimoiy mahsulot muomalasining barcha shakllari nazorat qilinadi.

Takror ishlab chiqarish - iste'mol jarayoni bo'lgan yakuniy bosqichda – moliyaviy nazorat ishlab chiqarish fondlarini yangilash va kengaytirish hamda ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq operasiyalarni tekshiradi. Shaxsiy iste'mol qismida moliyaviy nazorat jamiyat a'zolarining moddiy va madaniy ehtiyojlarini qondirishdagi nomutanosibliklarni, shuningdek shaxsiy ehtiyojlarni qondirish jarayonida me'yoriy-huquqiy hujjatlarni buzish orqali yuzaga kelgan qarama-qarshiliklarni aniqlaydi.

Moliyaviy nazorat qondirilmagan ehtiyojlarni aniqlaydi va boshqaruv tizimi vositasi bilan ularni qondirilishiga ta'sir etadi, qondirilgan ehtiyojlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishning navbatdagi davri uchun qaytadan yangilanadi. Bunday nazoratda iste'molchilik talabini moliyaviy nazorat predmeti bilan qondirish ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilishga bozorning ta'siri hisoblanadi.

Takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida moliyaviy nazorat qarama-qarshiliklarni iqtisodiy usullar (soliqqa tortish, kreditlash va h.k.) bilan tartibga solish maqsadida aniqlash vositasi hisoblanadi.

Ta'kidlab o'tilganlardan kelib chiqqan holda moliyaviy nazorat predmetini keng ma'noda, ya'ni takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlari va boshqaruv darajasi qamrovini hisobga olgan holda hamda tor ma'noda, ya'ni davlat byudjetiga tatbiqan ta'riflash mumkin.

Birinchi holatda, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonida yuzaga keluvchi jamiyatdagi ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettiruvchi iqtisodiyot subyektlarining moliyasi moliyaviy nazorat predmeti hisoblanadi.

Ikkinchi holatda, shakllanishi bosqichidagi kabi, taqsimlash va foydalanish bosqichlarida ham konsolidasiyalashgan davlat byudjeti mablag'lari moliyaviy (davlat) nazorat predmeti hisoblanadi.

Davlat nazorati tizimi yaxlit holatda qator elementlardan iborat:

- nazorat subyekti (kim nazorat qilsa);
- nazorat obyekti (kimni nazorat qilsa);
- nazorat predmeti (nimani nazorat qilsa);
- nazorat tamoyillari;
- nazorat usuli;
- nazorat mexanizmi;
- nazorat jarayoni.

Nazorat – taftish tadbirlarini o'tkazish samaradorligiga bog'liq bo'lgan nazoratning yanada muhim elementi nazorat subyektlari hisoblanadi (ya'ni yuqori kasbiy malakaga ega tekshiruvchi shaxslar, taftishchilar, inspektorlar, auditorlar va h.k). Ularning faoliyati me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan reglamentlanishi lozim, bu hujjatlar birlashtirilgan holatda moliyaviy huquqni hosil qiladi.

Moliyaviy huquq iqtisodiy subyektlarni moliyaviy intizomga rioya qilmaganliklari uchun javobgarlik chegarasini belgilaydi, chunki ma'muriy, byudjet-soliq qonunchiligini buzganlarga moddiy, moliyaviy ta'sir etish choralarisiz nazorat oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish bo'yicha yuqori natijalarga erishishining iloji yo'q.

Moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlar davlat moliyaviy nazorati subyektlari hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati obyekti – bu Davlat byudjet, davlat mulki, tabiiy resurslar yoki soliqqa tortish, eksport va import bo'yicha biror-bir imtiyozlardir.

Davlat moliyaviy nazorati iqtisodiyotning turli bo'g'inlarining iqtisodiy faoliyatidagi yangi xodisalarni yoritib beradi, ushbu faoliyatni takomillashtirish maqsadida uning qonunchiligini belgilaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'molini qamrab olgan ijtimoiy takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida moliyaviy nazorat qarama-qarshiliklar va ularni jamiyat tomonidan tartibga solish maqsadida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish

munosabatlarini o'rganadi. Ushbu yirik doirada aynan ular nazorat obyekti hisoblanadi.

Ishlab chiqarish sohasida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini nazorat qilgan holda moliyaviy nazorat, insonning shaxsiy mehnati, mehnat predmeti va vositalarini o'z ichiga oluvchi maqsadga muvofiq faoliyati sifatida ijtimoiy mehnatdan samarali foydalanishi, uning amaldagi qonunchilik, me'yoriy-huquqiy hujjatlarga mos kelishini aniqlaydi. Xususan, respublika va mahalliy darajalardagi byudjet va byudjetlararo munosabatlari tekshiriladi. Korxona va tashkilotlar darajasida jonli va ashyoviy mehnat sarflarining samaradorligi, asosiy fond va mablag'lardan foydalanish tekshiriladi. Shunday qilib, moliyaviy nazorat predmetiga iqtisodiyot amal qilishini ta'minlovchi takror ishlab chiqarish jarayonining barcha tarkibiy qismlari va qonuniy me'yoriy asos kiritiladi.

Nazorat tamoyillari- nazoratning ilmiy jihatdan ishlab chiqilgan va amaliy faoliyatdan o'tgan siyosiy, tashkiliy va huquqiy asoslari bo'lib, ularga amal qilishligi nazoratning samaradorligini ta'minlaydi. Nazorat tamoyillari moliya sohasidagi nazoratning umumiy tartibini maqsadga yo'naltirilganligini belgilab beradi. Ko'p yillik tajriba asosida jahonda davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishning asosiy tamoyillari ishlab chiqarilgan bo'lib, har bir sivilizasiyalashgan davlatlarda amal qilingan. Bu tamoyillar qonuniylik, daxlsizlik, obyektivlik, malakalilik, oshkoralik va tizimlilikdir.

Nazorat jarayoni – nazorat subyektlarining nazoratini oldiga qo'yilgan maqsadlarini eng samarali usullari bilan amalga oshirishga qaratilgan faoliyati jarayonidir. Mamlakat iqtisodiyoti va moliyasining tarmoq va sohalarida amalga oshirilayotgan va samarali hal etilishi ko'p jihatdan moliyaviy nazorat turlarini tashkil qilishga, uni o'tkazish shakl va usullariga bevosita bog'liqdir.

2.3. Davlat moliyaviy nazoratida metodik uslublar

Davlat moliyaviy nazorati jarayonida induksiya va deduksiya kabi uslublardan keng foydalaniladi. Ichki xo'jalik (avvalambor

buxgalteriyada) nazoratida tadqiqotning induktiv uslublaridan foydalaniladi. Idoraviy va tashqi nazoratda, umumlashtirilgan sintetik ko‘rsatkichlardan xususiy va yagona dalillarga o‘tish yo‘li bilan asoslangan xulosalar olishga mo‘ljallangan deduksiya usullari nisbatan samaralidir. Bu yerda nazorat harakatlarining muntazamligi boshqacharoq ko‘rinishga ega: sintetik va tahliliy buxgalteriya hisobi reyestrlari orqali buxgalteriya va statistika hisobotlarining umumlashtirilgan ko‘rsatkichlaridan birlamchi hujjatlarni yaxlit yoki ayrim qismlarini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Taftishda deduksiya usullaridan foydalanish iqtisodiyotni boshqarish samaradorligi va huquqiy me’yorlarga rioya qilishni har tomonlama o‘rganish imkonini beradi.

Ta’kidlab o‘tilganlarni hisobga olgan holda davlat moliyaviy nazoratini nazorat obyektining haqiqiy holatini tadqiq etish bilan uyg‘unlikda hisob, hisobot, me’yoriy va boshqa iqtisodiy ma’lumotlardan foydalanish asosida xo‘jalik va moliyaviy operasiyalar hamda jarayonlarning qonuniyligi, to‘g‘riligi, maqsadga muvofiqligi va iqtisodiy samaradorligini kompleks, bir-biriga bog‘liq tarzda o‘rganish kabi ta’riflash mumkin.

Nazorat uslublarining mohiyati to‘g‘risidagi adabiyotlar tahlili ular orasidan ikki guruhni ajratib olish imkonini beradi:

- umummilliy uslublar;
- o‘ziga xos nazorat uslublari.

Umummilliy uslublar tahlil va sintez, deduksiya va induksiya, o‘xshashlik va modellashtirish, tizimli tahlil, funksional- miqdoriy tahlil kabilardir.[2]

Tahlil (analysus-joylashtirish) – predmetni tarkibiy (uning xususiyatlari, belgilari, munosabatlari bo‘yicha) qismlarga ajratgan holda fikriy yoki amaliy o‘rganishni o‘z ichiga olgan tadqiqot usuli. Ajratilgan qismlarning har qaysisi yagona birlik doirasida alohida-alohida tahlil

---

[2] С.В. Степашин, Н.С. Столяров, С.О.Шохин, В.А.Жуков Государственный финансовый контроль: Учебник. СПб.: Питер, 2004 й.

qilinadi (birlashmaning ishlab chiqarish va moliyaviy- xo'jalik faoliyatini kompleks taftishi).

Sintez (cynthesys – birlashtirish, uyg'unlashtirish, tuzish) – obyektni yaxlit holatda, birlikda va uning qismlari bilan o'zaro aloqasida o'rganish usuli. Moliyaviy nazoratda sintez tahlil bilan bog'liq, chunki u tahlil jarayoniga ajratilgan obyektlarni birlashtirish, ular orasida aloqa o'rnatish va predmetni yagona birlik sifatida anglash imkonini beradi (ishlab chiqarish rejasining bajarilishini nazorat qilish va h.k.).

Induksiya (induktio – xususiydan umumiyga o'tkazish) – obyekt elementlarining ko'plik alomatlari to'g'risida umumiy xulosa barcha alomatlarni emas, balki mazkur ko'plikning alohida muayyan elementlarini o'rganish asosida chiqariladi, ya'ni xususiy omillarda umumiy xulosalargacha aqliy xulosa chiqarish (masalan, debitorlik qarzlari tekshiruvi dastlab tahliliy hisob ma'lumotlari bo'yicha, so'ng – sintetik ma'lumotlar bo'yicha o'tkaziladi).

Deduksiya (deduction umumiydan xususiyga o'tkazish) – obyektning holati yaxlit tadqiq etiladi, mantiqiy fikrlar asosida uning tarkibiy elementlari to'g'risida xulosa chiqariladi, ya'ni umumiydan xususiyga aqliy xulosa (masalan, debitorlik qarzlari tekshiruvi dastlab sintetik hisob ma'lumotlari, so'ng tahlil bo'yicha o'tkaziladi).

O'xshashlik (analogia – o'xshashlik) – bir obyektni boshqasi bilan o'xshatish asosida o'rganishga erishiladigan ilmiy xulosa chiqarish usuli. O'xshatish usuli turli obyektlarning ba'zi tomonlari o'xshashiga asoslangan holda moliyaviy nazoratda qo'llanilgan standartlashtirish va modellashtirish asosini tashkil etadi.

Modellashtirish - ilmiy o'rganilayotgan obyektni o'xshashi bilan, aslining muhim qirralariga ega bo'lgan modellar bilan almashtirishga asoslangan ilmiy o'rganish usuli. Moliyaviy nazoratda nazorat-taftish o'tkazish jarayonlari standartlari (modellari) qo'llaniladi.

Tizimli tahlil - tadqiqot obyektini tizimni hosil qiluvchi elementlar yig'indisi sifatida o'rganishdir. Moliyaviy nazoratda tizimli tahlil obyektning xulq- atvorini ularning amal qilishiga ta'sir etuvchi barcha omillarga ega tizim sifatida baholashni ko'zda tutadi. Ushbu usul moliyaviy nazoratda keng foydalaniladi, chunki iqtisodiyotning barcha bo'g'inlarining

ishlab chiqarish va xo'jalik-moliyaviy faoliyatini baholashga tizimli yondashuvga ko'maklashadi.

Funksional – miqdoriy tahlil tadqiqotning amal qilish jarayonida loyihalashtirish va murakkab tizimlar sintezini o'z ichiga oluvchi ishlab chiqarishni injener tayyorlash bosqichida obyektlarni o'rganishdir (texnologik jarayonlarning iqtisodiy samaradorligini loyihalashtirish va baholash).

Moliyaviy nazoratning shaxsiy uslublari iqtisodiy fan yutuqlari asosida amaliyotda ishlab chiqilgan o'ziga xos nazorat uslublarini o'zida namoyon etadi. Bu uslublar nazoratning maqsadli vazifasiga bog'liq holda shakllanadi.

Moliyaviy nazoratning shaxsiy uslublarini quyidagi guruhga birlashtirish mumkin:

- organoleptik;
- hisob-tahliliy;
- hujjatli umumlashtirish;
- nazorat natijalarini amalga oshirish.[3]

Organoleptik (leptikos – olish, qabul qilishga moyil) – sezgi organlari yordamida aniqlanadi. Moliyaviy nazoratning organoleptik uslublariga quyidagilar kiradi:

-inventarizasiya;
- nazorat o'lchovi;
- tanlangan va yalpi kuzatishlar;
- texnologik va kimyo-texnologik nazorat;
- ekspertizalar;
- xizmat tekshiruvlari.

Inventarizasiya – organoleptik uslublar natijasida nazorat obyektlarini tekshirish. Ushbu jarayonning mohiyati ko'rik, qayta hisoblash, salmoqlash, o'lchash yo'li bilan obyektlarning mavjudligi va holatida o'tkaziladi. Moliyaviy nazoratda tovar-moddiy boyliklar va pul mablag'larining saqlanganligini, shuningdek hisob-kitob munosabatlari va

---

[3] С.В.Степашин, Н.С.Столяров, С.О.Шохин, В.А.Жуков. Государственный финансовый контроль: Учебник. СПб.: Питер, 2004 й.

boshqa hujjatlarning birlashtirilganligining haqiqiy nazoratining asosiy usuli sifatida qo'llaniladi. Inventarizasiya usuli moliyaviy nazoratning barcha turlarida foydalaniladi. Davlat mulkining saqlanishini ta'minlashda inventarizasiya joriy nazorat asosiy usul hisoblangan holda ichki xo'jalik nazoratini amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega.

Ishlarning nazorat o'lchovi – qurilish-montaj ishlari tabiiy bajarilganligi tekshirish jarayonida, shuningdek boshqa nazorat qiluvchi organlar tomonidan ishlar va turli xizmatlar hajmini nazorati o'tkazilishida qo'llaniladigan haqiqiy nazorat uslubi.

Tanlab kuzatish – xo'jalik faoliyatining sifat tavsiflarini statistik tadqiq etish usuli. Yalpi nazorat texnik jihatdan bajarilishining iloji bo'lmagan holatlarda moliyaviy nazoratda foydalaniladi.

Yalpi kuzatish o'rganilayotgan obyektning haqiqiy holatini statistik tadqiq etish usuli (hisobot davrida ish vaqtidan foydalanish, ishlab chiqish me'yorlarini nazorat qilishda xronometraj kuzatishlar o'tkazish va h.k.).

Texnologik nazorat – ishlab chiqarish injener texnik tayyorligi, shuningdek chiqarilgan mahsulot sifati, ishlab chiqarishning dastlabki, joriy va ishlab chiqarishning kelgusi nazorati jarayonida korxonaning boshqa xizmatlari va texnik nazorat (OTK) bo'limi tomonidan amalga oshirilgan, uning texnik sharoitlar va davlat standartiga muvofiqligini nazorat qilish usuli. Texnologik nazorat turlaridan biri ishlab chiqarish texnologiyasining qulayligi, moddiy resurslar sarflanishi va tayyor mahsulot chiqarish me'yorlarining asoslanganligini tekshirish uchun qo'llaniladigan ishlab chiqarishga xomashyo va materiallarni nazoratda kiritilishi hisoblanadi.

Kimyo-texnologik nazorat – mahsulot ishlab chiqarish uchun, shuningdek buyumlarning sifat tavsiflari uchun foydalanilgan xom-ashyo va materiallarning dastlabki sifatini nazorat qilish usulidir. Umumiy ovqatlanishda u qandolatchilik mahsulotlarining kaloriyasini aniqlash, ta'm sifatlari, taom va mahsulotlarning boshqa sifatli va miqdoriy ko'rsatkichlari resepturasiga to'liq rioya qilish uchun qo'llaniladi.

Ekspertizaning turli ko'rinishlari – texnologik, sud-buxgalteriya, kriminalistika va texnologik nazorat bilan o'zaro aloqaga ega bo'lgan maxsus masalalarni tadqiq etishda boshqa ekspertiza bilan qo'llanilgan ekspertiza baholash usuli.

Loyihalar va smeta hujjatlari ekspertizasi – montaj talab va talabga ega bo'lmagan jihozlar sotib olish va qurilish obyektlarini ko'tarishga loyiha-smeta hujjatlarida aks ettirilgan qurilishni tashkil etish, sanoatlashtirishning me'yor va normativlari ilg'orligi, texnologik darajani tekshirishdir. Ekspertizani loyiha-smeta hujjatlarining buyurtmachi- korxona, yirik qurilishlar bo'yicha esa - muassasa, ularni moliyalashtiruvchi maxsus bo'limlar o'tkazadilar.

Xizmat tekshiruvlari – mansabdor shaxslar tomonidan, shuningdek xalq xo'jaligining turli bo'g'inlarida ishlab chiqarish munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga xizmatchilar va ishchilarni rioya qilishlarini yalpi tekshirish usullaridir. Bu usullar asosan amaldagi qonunchilik buzilishi, moddiy zarar yuzaga kelishini tekshirishda qo'llaniladi.

Tajriba - rejalashtirilgan yoki bajarilgan jarayonlar natijalarini tekshirish uchun moliyaviy nazorat maqsadiga muvofiq tarzda ilmiy qo'yilgan tajriba. U rejalashtirilgan jarayonni borishini kuzatish yoki berilgan sharoitlarda uning takrorlanishini kuzatish imkonini beruvchi aniq hisobga olingan sharoitlarda o'tkaziladi.

Davlat moliyaviy nazoratini o'tkazishda foydalaniladigan hisob-tahlil uslublari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy tahlil;
- statistik hisob-kitoblar;
- iqtisodiy- matematik uslublari.

Iqtisodiy tahlil- hodisa va jarayonlarning natijalarini shartlovchi sababli aloqalarni yoritib berish uchun moliyaviy nazoratda foydalanilgan usullar tizimi. Iqtisodiy tahlil tashkilotning ishlab chiqarish va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining dastlabki, joriy va kelgusi nazoratini o'tkazishda qo'llaniladi.

Statistik hisob-kitob – iqtisodiy axborotda bevosita ishtirok etmaydigan qiymat va miqdoriy tavsiflarni olish usuli. Ular miqdoriy aloqa

va munosabatlarning bir qiymatidan boshqa aniqroq tavsiflariga o'tishda yoki tahminiy qiymatlarni tuzatishda real miqdoriy munosabatlar yoki aniqlashtirishlarda takror ishlab chiqarish ehtiyoji yuzaga kelganda qo'llaniladi. Moliyaviy nazoratda statistik hisob-kitoblar vositasi bilan ishlab chiqarish quvvatlari, ishlab chiqarish dinamikasidan foydalanish koeffitsienti aniqlanadi.

Iqtisodiy-matematik uslublar – byudjet loyihasini ishlab chiqishda, rejalashtirish bosqichida ularni optimallashtirish maqsadida, shuningdek xo'jalik jarayonlari takomillashtirilgandan so'ng xo'jalik jarayonlari natijalariga omillarni ta'sirini aniqlashda qo'llaniladi. Xususan, bu mahsulotning tannarxi, ishlab chiqarishdagi qo'shimcha xarajatlari, ishlab chiqarish rejasi bajarilishi korrelyasiya tahlilidir.

Davlat moliyaviy nazoratida qo'llaniladigan hujjatli uslublar quyidagilardan iborat:

- informasion modellashtirish;
- hujjatlarni tadqiq etish;
- kameral tekshiruvlar;
- me'yoriy-huquqiy tartibga solish.

Informatsion modellashtirish – model ko'rinishida nazorat qilinadigan obyektni namoyon etuvchi ma'lumotlar yig'indisi. Informasion modellarni shakllantirishda nazorat obyektlari tavsifining to'liqligi, mavjud o'zgaruvchilarni va ularni qabul qilish, tahlil qilish uchun qulayroqligini ta'minlash zarur. Nazoratda modellashtirishning maqsadi, rejali o'lchamlar doirasida tartibga solish qarorlarini ishlab chiqish, og'ish va shubhalarni aniqlash, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etish, navbatdagi holatni o'rganish uchun obyekt to'g'risidagi zaruriy ma'lumotni olish hisoblanadi. Modellashtirishda obyektlar to'g'risida me'yoriy-huquqiy, shartnomaviy, hisob, hisobot va boshqa ma'lumotlardan foydalaniladi. Bunday tasavvurda moliyaviy oqimlar, asosiy fondlar obyektlari, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari, shartnomaviy, me'yoriy-huquqiy va hisob ma'lumotlari tizimidagi ifodasini informatsion model deb hisoblash mumkin.

Hujjatlarni tadqiq etish – xo'jalik operasiyalarining to'g'riligi, maqsadga muvofiqligi, samaradorligi, kengaytirilgan takror ishlab

chiqarish jarayonini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlarga ularning mosligini hujjatli nazorat qilish uslubidir.

Kameral tekshiruvlar - kapital qo'yilmalar, shuningdek nazorat organi tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan bajarilgan qurilish-montaj ishlarini loyiha hujjatlarining sifatini hujjatli nazoratidir.

Me'yoriy- huquqiy tartibga solish – kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonida me'yoriy-huquqiy hujjatlarning buzilishini aniqlash uchun moliyaviy nazoratda foydalaniladigan uslublar tizimi.

2.4. Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari

Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining qat'iy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosiy nizomlariga asoslanadi. Konstitusiyada qo'yilgan asosiy vazifalar, ayniqsa: inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash va himoya qilish, demokratiya va fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat tamoyillarini amalga oshirish – barcha davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining asosi va mazmuni hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari nazorat-hisob organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy hujjatlarda aniq va keng mustahkamlangan. Hisob organlari to'g'risidagi qonunlarda nazorat faoliyatining quyidagi asosiy tamoyillari ta'kidlab o'tiladi: qonuniylik, tizimlilik, dahlsizlik, obyektivlik, malakaviylik, oshkoralik.

Biroq, tamoyillarning boshqa to'plami ham uchrab turadi. Masalan, RF Hisob palatasi qonuniylik, tizimlilik, obyektivlik, erkinlik, oshkoralik tamoyillari asosida federal byudjetni ijro etish ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Qonuniylik tamoyili davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining asosi sifatida.

Qonuniylik - davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatining tayanch tamoyillaridan biridir. Qonuniylik tamoyili biror-bir shaklda ularning

faoliyatini tartibga soluvchi barcha me'yoriy huquqiy hujjatlarda ishtirok etadi.



2.3-rasm. **Moliyaviy nazoratning tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari**

Hisob palatasi to'g'risidagi qonun hujjatlarida faoliyat tamoyillaridan biri sifatida qonuniylik bevosita belgilab berilgan. Hisob palatasi faoliyatida qonuniylikning asosiy elementlari: faqatgina O'zbekiston Respublikasi qonunlariga rioya etish; hisob palatasi to'g'risidagi qonunga qat'iy rioya qilish; palata va uning mansabdor shaxslarining qonuniylikka rioya qilish mas'uliyati hisoblanadi. Bu kabi

nizomlar barcha nazorat-hisob organlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarda mavjud.

Hisob palatasi faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga tayanishi lozim. Qonun nizomlarini buzuvchi yoki unga muvofiq bo‘lmagan mansabdor shaxslar harakatlari uchun qonunosti hujjatlari asos hisoblangan holatlarda faqat mas’uliyat kontekstida hisobga olinishi lozim. Palataning asosiy vazifalaridan biri esa tizimli va barqaror tabiatga ega bo‘lgan iqtisodiy puxta o‘ylangan, asoslangan harakatlarni qonuniy tan olish va mustahkamlashga ko‘maklashish hisoblanadi. Undan tashqari, nazorat ostiga olingan tashkilotlar va shaxslarning harakatlari qonuniyligini baholash ixtiyoriy, mantiqiy va shu bilan birga hayotiy, yuqori izohlanishini bekor qilishi lozim.

Hisob palatasi va uning yuqori mansabdor shaxslarini siyosiy, populistik, guruhiy yoki g‘arazli maqsadlarga ega tashqi ta’sirlardan himoyalash qonunda ko‘zda tutilgan. Qonunda belgilab berilganidek, Palataning mansabdor shaxslariga ular xizmat majburiyatlarini ijro etishlarida ularga to‘sqinlik qilish yoki kimningdir foydasiga qaror qabul qilishga erishish, zo‘rovonlik harakatlari, haqoratlar hamda ular xizmat majburiyatlarini bajarayotganliklari to‘g‘risida noto‘g‘ri ma’lumot tarqatish yoki tuhmat tarqatish maqsadida ularga salbiy ta’sir etishga uringanlar qonunchiligida belgilangan javobgarlikka tortiladi.

Qonuniylik tamoyilining boshqa muhim qismi Palata xodimlari tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi to‘g‘risida”gi Nizomga qat’iy rioya qilish hisoblanadi. Palata xodimlari, shuningdek biror- bir harakat uchun qonunda belgilangan tadbirlarga rioya qilishlari lozim. Umuman, Hisob palatasi va uning mansabdor shaxslari o‘zlarining amaliy va hukmronlik vakolatlari oshib ketishiga yo‘l qo‘ymasliklari lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ham o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga bo‘ysunadi.

Qonuniylik tamoyili to‘g‘risidagi masala soliq organlari to‘g‘risidagi qonunchilikda o‘zining mufassal aksini topdi.

Soliq to‘lovchilarga (yig‘imlarni to‘lovchilar) ularning huquq va qonuniy manfaatlarini sud, ma’muriy himoya qilish kafolatlanadi. Soliq to‘lovchilarning huquqlari soliq organlarining mansabdor shaxslarining muvofiq majburiyatlari bilan ta’minlanadi. Soliq to‘lovchilarning huquqlarini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlarini bajarish yoki bajarmaganligi uchun qonunda ko‘zda tutilgan javobgarlikka tortiladi.

O‘z navbatida soliq organlari soliq va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya qilish, shuningdek ularga muvofiq tarzda qabul qilingan me’yoriy huquqiy hujjatlar ustidan nazoratni amalga oshirish, soliq sirini saqlashlari lozim. Soliq organlarining mansabdor shaxslari soliq Kodeksi va boshqa qonunlarga qat’iy muvofiqlikda, o‘z mas’uliyatlari doirasida soliq organlarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirishlari zarur.

Qonun bilan soliq organlari, bojxona organlari, davlat nobyudjet fondlari organlari, shuningdek ularning mansabdor shaxslarining soliq organlarining yoki ularning mansabdor shaxslari soliq nazoratini olib borishda nohuquqiy harakatlari orqali yetkazilgan zararni qoplab berishgacha bo‘lgan majburiyatlari belgilangan.

Davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan qonuniylik tamoyiliga rioya qilish nafaqat konstitusion va qonunchilik nizomlari, balki ularning ishlari tarkibi, ayniqsa, natijalarining o‘xshashligi uchun ham qat’iy ahamiyatga ega. Faqatgina amaldagi qonunchilik nizomlariga qat’iy rioya qilgan holda davlat moliyaviy nazorati organlari davlatning moliyaviy faoliyati va uning organlari, byudjet va boshqa davlat mablag‘larini taqsimlovchilar, oluvchilar, moliyaviy oqimlarning qulayligi, mamlakatning byudjet va umuman moliyaviy tizimi amal qilishining samaradorligiga real baho berishlari mumkin.

Davlat moliyaviy nazorati organlari ishida obyektivlikning qonuniy ta'minoti.

Obyektivlik samarali nazorat ishining belgilovchi shart hisoblanadi. Obyektivliksiz boshqaruv funksiyasi sifatida nazorat, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun o‘z ma’nosini yo‘qotadi. Aynan moliyaviy-iqtisodiy faoliyat obyektiv aksini ta’minlash uchun, nazorat organi tomonidan tashqi ta’sirdan qochish uchun tashkiliy va

amaliy mustaqillik, oshkoralik zarur. Nazorat obyektlari va subyektlarining faqat qonuniylik asosida harakatlanishlarini obyektiv baholash mumkin, qonuniylik – obyektivlikning asosiy mezonidir. Olingan ma'lumotni umumlashtirish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, moliyaviy nazorat organlari xulosasining obyektivligi shunchalik ortadi, bu nazorat ishining tizimliligi bilan ta'minlanadi.

Obyektivlik yaqqol ifodalangan ko'rinishda faoliyat tamoyili sifatida nazorat-hisob organlari to'g'risidagi qonunchilikka biriktiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi xulosasining obyektivligi bir necha usullar bilan ta'minlanadi. Ulardan biri – mas'ul lavozimlarga da'vo qiluvchi shaxslarga yuqori malakali talablarni belgilashdir. Hisob palatasi raisi, rais muovini, inspektorlar oliy ma'lumot va davlat boshqaruvi, davlat nazorati, iqtisodiyot, moliya sohasida kasb faoliyati tajribasiga ega bo'lgan O'zbekiston fuqarosi bo'lishi kerak. Hisob palatasi ishining yakuniy natijasiga javob beruvchi mansabdor shaxslarning bu guruhi Hisob palatasining vazifalarini bajarishga qat'iy kasbiy yondashuvni ta'minlashi lozim. Undan tashqari, Hisob palatasi va uning faoliyatiga yuqori mansabdor shaxslarning maksimal darajada shaxsiy va korporativ ta'sirlarga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan talablar qonunda belgilangan.

Obyektivlikni ta'minlash uchun Hisob palatasi hay'ati a'zolarining alohida fikrni aytish huquqlari katta ahamiyatga ega. Tekshiruv va taftish natijalari to'g'risidagi hisobotlari Hisob palatasi hay'atini, ularning xatti-harakatlariga mas'ul bo'lgan inspektorlar tomonidan ko'rib chiqilishga taqdim etiladi. Ularning muhokama xulosalari bo'yicha Hisob palatasi hay'ati majlisda raislik qiluvchi tomonidan imzolanadigan qarorni qabul qiladi. Bunda uning qaroridan norozi bo'lgan hay'at a'zosi yoki Hisob palatasi hay'ati a'zolari guruhi uch kunlik muddatda Hisob palatasi raisiga Hisob palatasi hay'ati qaroriga ilova qilinadigan alohida fikr bildirish huquqiga egadirlar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga tekshiruv va taftish materiallarini taqdim etishda Hisob palatasi hay'ati a'zolarining alohida fikrlari majburiy tartibda e'lon qilinadi. Agar alohida fikr bilan Hisob palatasi raisi yoki

Hisob palatasi rais muovini so‘zga chiqsa, ularga qo‘shma ma’ruza uchun so‘z beriladi.

Hisob palatasi ishining obyektivligini ta’minlashda nazorat tadbirlari natijalarining to‘g‘riligi uchun javobgarlikni, shuningdek hali aniq bo‘lmagan axborotga ega bo‘lgan tekshiruv va taftishning oraliq materiallarini tarqatishga cheklovlar belgilash muhim ahamiyatga ega.

Hisob palatasi obyektivlikni oshirish maqsadida o‘z ishiga boshqa tashkilotlarning mutaxassislari va mustaqil ekspertlarni, shuningdek ichki idoraviy nazorat organlarining malakali xodimlarini jalb etish huquqiga ega.

Nazoratning obyektivligiga erishish uchun Hisob palatasini adekvat ma’lumot bilan ta’minlash katta ahamiyatga ega, chunki to‘liq bo‘lmagan va xato ma’lumot asosida to‘g‘ri xulosa chiqarishning iloji yo‘q. Qonunda barcha nazorat obyektlari Palataga uning faoliyatini ta’minlash uchun hamma ma’lumot va hujjatlarni taqdim etishi qayd etilgan. Olingan ma’lumotni maksimal darajada ijobiy baholash uchun Hisob palatasi moliyaviy nazoratning asosiy tamoyillarini belgilovchi standartlar va tekshiruv hamda kuzatuvlar o‘tkazish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqiladi.

Obyektivlikni ta’minlash maqsadida qonunda tadbirli kafolatlar ko‘zda tutilgan. Ularning mohiyati subyektiv bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir xil qarorlarni qabul qilishga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat.

Hisob palatasining natijalashtirish materiallarini oddiy rasmiylashtirish tadbirlari, muayyan ishlarni (guruh rahbari, inspektorlar) bajarish uchun mas’ul mansabdor shaxslar hujjat, ma’lumotnoma yoki ekspert xulosalarini imzolashlarini ko‘zda tutadi, ularning to‘g‘riligi shaxsiy javobgarlikka ega.

Ijroiya hokimiyatining davlat nazorati organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlarda obyektivlik tamoyil sifatida yaqqol ko‘rinishda uchramaydi. Biroq, bu tekshirilgan tashkilotning moliyaviy faoliyatini ijobiy baholash o‘tkazilgan taftish va tekshiruvlarning asosiy maqsadi hisoblanmasligini anglatmaydi. O‘z faoliyatini huquqiy ta’minlash ma’nosi, ijroiya hokimiyatining kuzatish, nazorat-taftish organlarini tartibga soluvchi nazoratning tarkibi va

vazifalari bo'yicha maksimal obyektivlikka intiladilar, unga erishishning muvofiq me'yoriy-huquqiy mexanizmlari ta'minlangan. Xuddi nazorat-hisob organlari kabi ular tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarining natijalari to'g'riligi uchun javobgardirlar.

Davlat moliyaviy nazoratining ommaviyligi (oshkoraligi)ga nisbatan talablari.

Davlatning moliyaviy faoliyatida va davlat moliyaviy nazorati organlarining ishida oshkoralik tamoyili O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida bevosita namoyon bo'lishi hisoblanadi. Demokratik jamiyatda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari ishlari to'g'risida ma'lumot olishda fuqarolarning huquqlarini asosiy amalga oshirish vositalaridan birini namoyon etgan holda oshkoralik tamoyili davlatning moliyaviy faoliyatiga ham taqsimlanadi.

Oshkoralik tamoyili quyidagilarni anglatadi:

- tasdiqlangan byudjetlar va ularning ijrosi to'g'risida hisobot ochiq matbuotda majburiy nashr etilishi, byudjetlar ijrosining borishi to'g'risidagi ma'lumotni to'liq taqdim etish, shuningdek davlat hokimiyati qonunchilik organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining qarori bo'yicha boshqa ma'lumotlarning qulayligini;

- jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun byudjet loyihalari bo'yicha, shu jumladan davlat hokimiyati qonunchilik organlarining ichida yoki davlat hokimiyatining qonunchilik va ijroiya organlari o'rtasida kelishmovchilikni keltirib chiqaruvchi masalalar bo'yicha qarorlar muhokamasi va qabul qilish tadbirlarini anglatadi.

Bunda hatto sir tutiluvchi byudjet moddalari ham qat'iy ravishda davlat byudjet tarkibida tasdiqlanishi lozim, faqat buning uchun maxsus tadbir ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida davlat moliyaviy nazoratining oshkoralik tamoyili yanada muntazam ravishda nazorat-hisob organlari to'g'risidagi qonunlarda aks ettirilgan. Ta'kidlash zarurki, oshkoralik nazorat-hisob organlariga ularning mavjud bo'lish ma'nosi bo'yicha xosdir, chunki ular soliq to'lovchilar tomonidan bevosita yoki bilvosita hosil bo'ladi va ularning manfaatlarini namoyon etadi, bularning

orasida davlat xizmatchilarining faoliyati to‘g‘risidagi ijobiy, to‘g‘ri ma’lumot ma’lum ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasidan kelib chiqqan holda aholi kim va qay tarzda umumiy moliyaviy va moddiy resurslardan foydalanishni bilishga haqlidir. Ushbu ma’lumotga tayangan holda fuqarolar davlat apparati ishiga ommaviy axborot vositalarida, ijroiya hokimiyati organlariga murojaat qilish yoki qonunchilik va vakolatli hukumat organlari deputatlariga o‘z shikoyatlarini berish, shuningdek turli daraja va hukumat bo‘g‘inlariga mansabdor shaxslar, deputatlar saylovlari davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ixtiyoriy tarzda o‘z munosabatlarini ifodalashlari mumkin.

Oshkoralik O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va boshqa nazorat –hisob organlarining samarali ishlashiga ma’lum ijobiy ta’sir etadi. Chunki oshkoralik sharoitlarida Hisob palatasi tomonidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlarining natijalarini sir tutish qiyin, ular jamoatchilik nazorati ostiga qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi ishida oshkoralik tamoyili birinchi navbatda Hisob palatasining yillik hisoboti jamoatchilik tomonidan tanishib chiqilishi uchun qonunda belgilangan majburiy nashr etish yo‘li orqali amalga oshiriladi, bunda palata tomonidan o‘tgan yili o‘tkazilgan barcha nazorat tadbirlarining natijalari kichraytirilgan shaklda taqdim etiladi, davlat hokimiyati organlarining xatolik va kamchiliklarini aniqlashga ta’sirlari baholanadi, ularni bartaraf etish va butun moliya tizimini takomillashtirish bo‘yicha umumlashtirilgan xulosa va tavsiyalar taklif etiladi. Undan tashqari, Hisob palatasining yillik hisoboti Oliy majlis yig‘ilishlarida ommaviy axborot vositalari vakillar ishtirokida tinglanadi va muhokama etiladi. Hisob palatasining hisoboti majburiy tarzda chop etilishi lozim.

Hisob palatasi ishida oshkoralik tayyorlanayotgan materiallarning sifati, obyektivligi va to‘g‘riligiga alohida yuqori talablar qo‘yadi. Hisob palatasi va tekshirilayotgan tashkilotning ishbilarmonlik nufuziga asoslanmagan tarzda putur yetkazish va ularning mansabdor shaxslariga ma’naviy zarar yetkazish, shu jumladan noto‘g‘ri ma’lumotni

tarqatganligi uchun uning mansabdor shaxslarining harakatlari sud tartibida shikoyat ostiga olinishi mumkin.

Palata xodimlari ishiga jalb etilgan mutaxassislar faqatgina Hisob palatasi tomonidan o'tkazilgan ishlarni bajarishdagina tekshiruv va kuzatishlar davomida olingan ma'lumotlardan foydalanishlari mumkin. Shular bilan bir qatorda tekshiruv va kuzatishlar davomida palata xodimlari o'z xulosalarini oshkor qilmasliklari lozim. Hisob palatasining mansabdor shaxslari, birinchi navbatda inspektorlar davlat organlariga taqdim etilgan va oshkora tarzda berilgan, o'tkazilgan tekshiruv va kuzatishlarning natijalari to'g'riligi, shuningdek qonun bilan himoyalangan davlat, tijorat va boshqa sirlarni oshkor qilmaslik uchun mas'uldirlar.

Ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanishdan himoyalanish talablarini ko'rsatuvchi qator shartlar ham qonunchilikda belgilab qo'yilgan. Qonunga muvofiq tarzda davlat hokimiyati organlari, tekshirilayotgan tashkilot, muassasa, xo'jalik yurituvchi subyektlar va moliya-kredit tashkilotlari nazorat tadbirlari davomida va alohida so'rovnomalar bo'yicha Hisob palatasiga uning faoliyatini ta'minlovchi va uning kompetensiyasiga kiruvchi barcha zaruriy ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etishlari shart.

Hisob palatasi, shuningdek boshqa nazorat organlarining ular tomonidan o'tkazilgan tekshiruv va taftish xulosalari bo'yicha materiallaridan foydalanishi mumkin. Tabiiyki, Hisob palatasining muvofiq mansabdor shaxslari ularga berilayotgan materiallarning saqlanishi uchun shaxsan javobgardirlar. Undan tashqari Hisob palatasi boshqa tashkilotlardan olingan material va hujjatlarni, ularni taqdim etgan tashkilotda ko'zda tutilgan foydalanish tartibini ta'minlashlari lozim.

Hisob palatasining hisobotlari va ekspert xulosalari muhokamasi qonunda belgilangan shartlar bilan chambarchas bog'liq.

Oshkoralik tamoyili davlat, soliq, bank, tijorat va boshqa qonun himoyasidagi sirlarni saqlash zaruratini sharhlaydi. Nazorat – hisob organlarida ma'lumotlarni himoyalash tizimining qonuniy ta'minoti to'g'risida yuqorida eslatib o'tdik. Maxsus sirli dasturlarni qabul qilish

va ularni biror-bir byudjet xarajatlari tarkibiga kiritish faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti orqali amalga oshiriladi. Maxsus sirli dasturlar xarajatlari tartibi Prezident tomonidan belgilanadi. Maxsus sirli dasturlarni amalga oshirishda mablag' sarflanishi nazoratini faqat Prezident tomonidan yuklatilgan organlar amalga oshiradi. Bunday dasturlarga mablag' xarajatlarini tekshirish yakunlari faqat Prezident, Oliy majlis raisi va maxsus komissiyaga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi soliq sohasida konfidensial ma'lumotlar himoyasini ko'zda tutadi, binobarin soliq siriga alohida e'tibor qaratiladi. Soliq organlariga davlat nobyudjet fondlari organlari yoki bojxona organlariga kelib tushgan soliq sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar maxsus saqlanish va foydalanish tartibiga ega, soliq sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarga ega bo'lgan hujjatlarni yo'qotish yoki bu kabi ma'lumotlarni tarqatish soliq organlari va uning mansabdor shaxslarini qonunda ko'zda tutilgan javobgarlikka tortadi.

Davlat moliyaviy nazorati organlarining mustaqiligini huquqiy ta'minlash.

Nazorat organlari, ayniqsa umumdavlat va mintaqaviy darajalardagi yuqori moliyaviy nazorat organlari sifatida mustaqilligi (ma'muriy erkinlik) samarali moliyaviy nazorat o'tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Siyosat va moliyalarda alohida yopiq aloqalar va bog'liqliklar mavjudligini hisobga olgan holda nazorat organlarining yetarlicha erkinligi qonuniy darajada mustahkamlangan bo'lishi lozim. Erkinlik hukumat bo'g'inlarini davlat-amaliy taqsimoti tizimida davlat instituti sifatida nazorat organining o'ziga, shuningdek uning a'zolari va inspektor xodimlari qoidalariga tarqatilishi lozim.

"O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasini tashkil etish to'g'risida"gi farmonida belgilanganidek, amaldagi qonun bilan o'rnatilgan vazifalar doirasida Hisob palatasi tashkiliy va amaliy erkinlikka ega. Hisob palatasi faoliyatining tashqi ehtimoliy bosim yoki davlat hokimiyati - qonunchilik hamda, ayniqsa ijroiya organlari ta'siridan ozodligi – palata amal qilishining asosiy tamoyillaridan birini ma'lum qiladi. Anologik tarzda erkinlik tamoyili ko'pgina subyektlarining nazorat-hisob to'g'risidagi qonunlarda mustahkamlangan.

Nazorat-hisob organlarining tashkiliy (institusional) va amaliy mustaqilligi.

Moliyaviy nazorat organlarining mustaqilligini ta'minlash ularning qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlari bilan munosabatlari haqidagi masalalar bilan uzviy bog'liq.

Umuman ta'kidlash mumkinki, konseptual nazorat-hisob organlari, odatda davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlaridan tashkiliy va amaliy erkinlikka ega bo'lgan holda hukumatning ushbu bo'g'inlariga o'z vazifalarini amalga oshirishda ko'maklashishga qaratilgan.

Albatta, moliyaviy nazorat organlari parlament va hukumatdan butunlay ozod bo'la olmaydi. Ba'zi soha (masala)larda ularning – masalan qonun loyihalari bo'yicha maslahatlarda yoki tekshiruvlar natijalarini ma'lum qilishda, yoxud qonunchilik va siyosiy qarorlarning oqibatlarini baholashda ayniqsa uzviy o'zaro ta'siri talab etiladi. Bunday hamkorlik nafaqat ijroiya yoki qonunchilik hokimiyati uchun foydali, balki u moliyaviy nazoratning qulay shakli hisoblanadi. Biroq, nazorat-hisob organi uchun bunday munosabatdan ular nazorat vazifalarini bajarishlariga xalaqit beruvchi biror-bir salbiy majburiyatlar kelib chiqmasligi lozim.

Nazorat-hisob organlarining ijroiya yoki qonunchilik hokimiyatidan mustaqilligi avvalambor tekshiruv uchun mavzu tanlash va taftish dasturlarini amalga oshirishda mustaqil harakatlanishlarida namoyon bo'ladi. Taftish dasturining tuzilishi qat'iy tarzda nazorat-hisob organi tomonidan o'tkazilishi va boshqa davlat organlari ta'sirida qolmasliklari lozim. Nazorat-hisob organlari kimningdir buyrug'iga bo'ysunmasliklari yoki ma'lum tekshiruvlar o'tkazmasliklari, ularning maqsadi yoki obyektini o'zgartirmasliklari lozim.

Nazorat-hisob organlarining mustaqilligini ta'minlash ijroiya yoki qonunchilik hokimiyati tomonidan ma'lum tekshiruvlar o'tkazish to'g'risida takliflar olishni cheklamaydi, biroq, nazorat-hisob organlari qonunda belgilangan bu kabi takliflarni qabul qilmaslik va taftish dasturlari doirasida nazorat tadbirlari bo'yicha qarorlarni shaxsiy ixtiyoriy ravishda qabul qilish huquqiga ega bo'lishlari lozim.

Hisob palatasining tashkiliy mustaqilligi birinchi navbatda Hisob palatasi apparatining shtat jadvali va tarkibini hech qanday tashqi ta'sirsiz Hisob palatasini ta'minlash uchun mablag'larni Hisob palatasi raisining topshirig'i bo'yicha Hisob palatasi hay'ati tasdiqlashida namoyon bo'ladi. Hisob palatasi inspektorlari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash, Hisob palatasi faoliyatining ichki masalalari Hisob palatasi apparatining tarkibiy bo'linmalarining vazifalari va o'zaro ta'sirlari, ishlarni yuritish tartiblari, nazorat va boshqa faoliyatning barcha shakl va turlarini tayyorlash, o'tkazish tadbirlarini Hisob palatasi tomonidan uning Hay'ati bilan tasdiqlangan reglament bilan belgilanadi.

Funksional ko'rinishda nazorat tadbirlarini o'tkazish muddati, hajmi va usullari Hisob palatasi tomonidan mustaqil ravishda belgilanishi juda muhim.

Hisob palatasining tashkiliy mustaqilligi qator nizomlari bilan ta'minlanadi. Palata yuridik shaxs maqomiga ega, davlat gerbi tasviriga ega muhri mavjud, ya'ni u o'zining tashkiliy-huquqiy shakli nuqtai nazardan boshqa davlat hokimiyati organlaridan ajratilgan. Bu Hisob palatasining tashqi faoliyatiga tashqi ta'sir imkoniyatini pasaytiradi. Boshqa tomondan yuridik shaxs maqomi palataga zarurat yuzasidan qonunchilik va ijroiya hokimiyati organlarining qarorlari va harakatlarini sud tartibida hal etish imkonini beradi.

O'z navbatida, Hisob palatasining amaliy mustaqilligi qonunda belgilangan tartibda nazorat obyektlarini tanlash, nazorat tadbirlarini tayyorlash va o'tkazish, aniqlangan kamchiliklar va xatoliklarni tuzatish ustidan nazoratni ta'minlaydi.

Bir vaqtning o'zida tashqi so'rovlar asosida ekspert ishlarini bajarish imkoniyati ko'zda tutilgan. Hisob palatasi shaxsiy vakolatlar doirasida ekspertiza o'tkazadi va xulosa chiqaradi.

Nazorat-hisob organlarining mansabdor shaxslarining shaxsiy dahlsizligi

Nazorat-hisob organlarining mansabdor shaxslari va uning inspektor-nazoratchi xodimlarining shaxsiy dahlsizligi ham kafolatlanishi lozim. Bu maqsadlarda nazorat-hisob organlarining yuqori

mansabdor shaxslarini mansablaridan ozod qilish va tayinlash mexanizmi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, nazorat vazifalarini samarali bajarish uchun nazoratchilarning va birinchi navbatda nazorat organi shaxslaridan qarorlarni qabul qiluvchi xodimlarning ma'lum darajali personal dahlsizligi zarurligini tan oladi. Shu maqsadda qonunchilik tartibida nazorat-hisob organlari xodimlarining huquqiy maqomlari kafolati belgilanadi.

Moliyaviy dahlsizlik mustaqil ishlash uchun zarur bo'lgan asosiy shartlardan biri hisoblanadi, chunki nazorat-hisob organlarining moliyaviy cheklovlari bir vaqtning o'zida uning faoliyati cheklovlarini keltirib chiqaradi.

Ijroiya hokimiyati organlarining nazorat faoliyatida dahlsizlik tamoyili ikki muhim xususiyatga ega. Bir tomondan ma'muriy tuzilmalarning bir qismi hisoblangan holda ular to'g'ridan-to'g'ri yuqori tashkilotlar yoki mansabdor shaxslarga bo'ysunadilar. Boshqa tomondan, ular muayyan tekshiriladigan obyektlardan tashkiliy tarzda asoslangandir. Shunday qilib, ijroiya hokimiyatining davlat moliyaviy nazorati organlari ikkilamchi mohiyatga ega: umumdavlat tuzilmasida ular ijroiya hokimiyatining ichki nazorat organlari hisoblanadilar, tekshirilayotgan obyektlarga nisbatan esa tashqi nazorat vazifasini bajaradilar. Undan tashqari shuni nazarda tutish kerakki, ularning faoliyati ma'lum maqsadga bo'ysundirilgan – boshqaruv davrining yakuniy bosqichini amalga oshirilishini ta'minlash, ayniqsa teskari aloqa doirasida avval qabul qilingan moliyaviy qarorlarning real oqibatlari to'g'risidagi ma'lumotni rahbariyatga yetkazishdan iborat.

Bu hukumat vazirliklar va boshqa organlar, shu jumladan ijroiya hokimiyatining nazorat organlari ishini to'g'ridan-to'g'ri boshqaradi va ularning faoliyatini nazorat qiladi.

Ta'kidlash joizki, umumdavlat miqyosida davlat moliyaviy nazorati organlari xodimlarining huquqiy maqomiga ma'lum qo'shimcha kafolatlar belgilangan. Qonun nafaqat nazorat organi

xodimlariga, balki ularning yaqin qarindoshlari uchun ham davlat himoyasi choralarini targ'ib etadi.

Davlat nazorat organlari faoliyatini tashkil etishda tizimlilik (rejalilik) tamoyili

Tizimlilik tamoyili ma'lum vaqt davomida, mazkur holatda moliyaviy yil davomida moliyaviy nazorat organlari nazorat tadbirlari yordamida nazorat obyektlarining barcha asosiy guruhlarini qamrab olishlari lozim. Boshqa tomondan barcha xo'jalik majmualarining va ushbu asosiy majmualarga kirmaydigan ijroiya tuzilmalarining moliyaviy ishi ustidan nazoratni ta'minlash zarur.

Nazorat obyektlarining nazorat tadbirlarini qamrovi hajmi moliyaviy nazorat organlari ishi samaradorligining muhim omili va ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tizimlilik tamoyili bir tashkilot va muassasaning o'zida nazorat tadbirlarini davriy ravishda o'tkazish, shu jumladan avval aniqlangan kamchilik va xatolarni bartarf etish bo'yicha qayta tekshiruv o'tkazish zaruratini belgilaydi. Bu bir tomondan nazorat samaradorligini oshiradi, boshqa tomondan esa, uning ijobiyligini ta'minlaydi, chunki moliyaviy ishda ijobiy va salbiy yo'nalishlarni dinamikada kuzatish imkonini beradi.

Tizimlilik va rejalilik O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi ishini tashkil etishning muhim tamoyillaridan biri hisoblanadi. U o'zining ish rejasini tuzish va bajarish uchun mas'uldir, yillik reja loyihasi Hisob palatasi Hay'ati tomonidan muhokama qilinadi va tasdiqlanadi.

Davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan amalga oshirilgan nazorat yo'nalishlari bo'yicha nisbatan to'liq ma'lumot olish uchun ularning o'zaro ta'sirlashish imkoniyati, shu jumladan qo'shma nazorat tadbirlarini o'tkazish va axborot almashuvi muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv tahlil uchun asosni ma'lum darajada kengaytiradi, mamlakat va mintaqada byudjet-moliya ishlarini takomillashtirish bo'yicha nisbatan to'liq va asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishga ko'maklashadi.

2.5. Moliyaviy nazoratni tashkil etishning huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mamlakatimizning Davlat byudjeti shaklan qonuniy asoslab berildi. O‘tgan davr ichidagi barqaror byudjet tizimini to‘liq shakllantirish sohasidagi barcha ishlarimiz va tajribalarimiz bu sohadagi jahon tajribasi bilan uyg‘unlashdi, bu esa O‘zbekiston Respublikasining “Byudjet Kodeksi”da o‘zining huquqiy aksini topdi.

Davlat moliyasini isloh qilish loyihasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati o‘z oldiga tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli vazifalarni qo‘ymoqda. Bu bir tomondan sezilarli miqdorda moliyaviy resurslarni talab qilsa, ikkinchi tomondan ushbu resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanishning samarali tizimining joriy etilishini nazarda tutadi. “Davlat moliya tizimini isloh qilish sohasida O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga BMT Taraqqiyot Dasturi 2007 yildan buyon ko‘maklashib kelmoqda. Jumladan, ushbu loyiha doirasida byudjet qonunchiligini hamda davlat byudjetini rejalashtirish va ijro etish metodologiyasini mukammallashtirish, buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati hamda soliq ma’murchiligini takomillashtirish, sug‘urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish, shuningdek Moliya vazirligi xodimlarining salohiyatini oshirishga qaratilgan tashabbuslar samarali amalga oshirildi”.[4]

Byudjet tashkilotlari moliyasini nazoratini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari haqida so‘z borar ekan, bugungi kunda muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinayotgan Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish loyihasi doirasida byudjet tashkilotlari moliyasi, ular xarajatlarini normativ rejalashtirish, g‘aznachilik orqali xarajatlar to‘lovini amalga oshirish tartiblariga bevosita taalluqli me’yoriy-huquqiy hujjatlar ham takomillashib bormoqda.

Moliyaviy nazoratni tashkil etish, xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish, buxgalteriya hisobini yuritish, davlat xaridlarida

[4] “O‘zbekistonda byudjet tizimi islohoti”. http://www.publicfinance.uz

ishtirok etish, ular xarajatlarini g‘aznachilik orqali ijro etishning qonuniy-huquqiy va me’yoriy asoslarini tashkil qiluvchi hujjatlar qatorida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

–O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi;

–1999 yil 3 sentyabrdagi 414-son “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug‘i “O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi Qoidalari” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2850)

–O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-raqam bilan ro‘yxatga olingan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”;

–O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 26 martdagi 69-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo yo‘li bilan tadbirkorlik subyektlaridan eng zarur tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat xaridini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom va boshqalar.

Yuqoridagi ro‘yxatda keltirilgan 2634-raqamli Nizom bilan oxirgi besh yil ichida byudjet amaliyotida qo‘llanib kelingan bir nechta normativ hujjatlar, xususan, O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2010 yil 29 oktyabrdagi 92-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 2157, 2010 yil 19 noyabr), O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2013 yil 24 iyundagi 63-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga

o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2157-1, 2013 yil 29 iyul) kabilar o‘z kuchini yo‘qotdi.

Oxirgi bir necha yil davomida byudjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010 yil 29 oktyabrdagi 92-son buyrug‘i bilan tasdiqlanib, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 19 noyabrda 2157-son bilan ro‘yxatga olingan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom”[5] bilan tartibga solinib kelingan. Lekin byudjet tizimidagi islohotlar natijasida byudjet qonunchiligining takomillashuvi, 2013 yil 26 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining qabul qilinishi natijasida yuqoridagi nizom orniga yangi me’yoriy hujjat - O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2014 yil 14 noyabrdagi 74-son buyrug‘i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan “Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”[6] kuchga kirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi tomonidan 2013 yil 28 noyabr ko‘pi qabul qilingan va Senati tomonidan 2013 yil 12 dekabr kuni ma’qullangan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2013 yil 26 dekabr kuni imzolangan O‘RQ-360-sonli Qonun bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi” keng qamrovli bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim bosqichi hisoblanadi. Huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi sezilarli darajada byudjet sohasida olib borilayotgan ijobiy o‘zgarishlarga bog‘liq.

Bunda byudjet tizimi barcha tarmoqlarining benuqson ishlashi, Davlat byudjetining samarali prognozlashtirilishi va ijrosi yetakchi o‘rin tutadi.

---

[5] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010 yil, 47-son, 440-modda.
[6] O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 51-son, 612-modda

Bugungi kun talablari byudjet tizimining ishlashi byudjet munosabatlarining barcha aloqalarini tartibga soluvchi va uning ishtirokchilari samarali faoliyat yuritishlarini ta'minlovchi yaxlit va mustahkam qonunchilik-huquqiy bazaga asoslanishini, yagona byudjet tizimi aloqalarining yanada takomillashuvini talab qildi.

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy moliya tizimi shakllantirildi, ushbu sohada ro'y berayotgan chuqur o'zgarishlar doirasida rivojlangan Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy baza yaratildi. Byudjet Kodeksi qabul qilingunga qadar Davlat byudjetini tayyorlash, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ijro etish, shuningdek uning ijrosi ustidan nazorat va hisobot, byudjetlararo munosabatlar jarayonlari bir nechta qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solingan bo'lib, bu ayrim normalarning turlicha talqin qilinishiga va ularni amalga tadbiq etishda qiyinchiliklarga olib kelar edi.

Byudjet Kodeksining asosiy maqsadi byudjet jarayonini tartibga soluvchi, amaliyotdagi mavjud ziddiyatlarni va eskirgan normalarni bartaraf etuvchi yagona qonunchilik hujjatini ishlab chiqish, shuningdek amaliyotda ishlab turgan normalarni, qoidalarni va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirishdan iboratdir.

Byudjet Kodeksi, byudjet sohasidagi asosiy qonunchilik hujjati sifatida O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 14 dekabrda qabul qilingan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi va 2004 yil 26 avgustda qabul qilingan "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi ikkita asosiy qonunlarining tamoyillarini, normalarini va qoidalarini qamrab oldi va ularni muvofiqlashtirdi. Ushbu ikkita qonun Byudjet Kodeksini ishlab chiqish va byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirishga asos bo'lib xizmat qildi, deyish mumkin.

Byudjet Kodeksi qabul qilingunga qadar amalda bo'lgan byudjet qonunchiligining holati tahlil qilinganida, ushbu me'yoriy-hujjatlarning quyidagilar bilan bogliq bir nechta amaliy kamchiliklari ma'lum bo'ladi:

-byudjet jarayonining ayrim normalari va bosqichlarining bir nechta turli qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi bilan;

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyati - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va farmonlari bilan;

– byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamtarmalari - Vazirlar Mahkamasining qarorlari (8tadan ortiq) va boshqa idoraviy hujjatlar bilan tartibga solingan;

– ayrim normalarni amaliyotda tadbiq qilishning qiyinligi bilan;

– tasdiqlangan byudjetga o'zgartirishlar kiritishga ruxsat berilishini asoslovchi puxta va aniq hamda nima uchun Oliy Majlisning, nima uchun Vazirlar Mahkamasining ruxsati zarurligini lo'nda qilib tushuntirib beruvchi normalar mavjud emas edi.

"Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunning ayrim normalari yangi talablarga muvofiq emas edi.

Masalan, ushbu qonunda oxirgi yillarda mamlakatimiz rahbariyati tomonidan byudjet tizimini isloh qilish bo'yicha qabul qilingan choralar aks ettirilmagan, xususan:

• ikki palatali Parlament sharoitida davlat byudjeti ko'rsatkichlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi, davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini qayta ko'rib chiqish (Oliy Majlis-Prezident-Vazirlar Mahkamasi);

• davlat moliyasi tuzilmasida sezilarli ulushni tashkil etuvchi, shu jumladan, yangi tashkil etilgan byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar (Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi, Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi);

• shuningdek 2011 yildan joriy qilingan davlat xaridlari mexanizmi.

Byudjet Kodeksini ishlab chiqish jarayonida jahonning rivojlangan malakatlari, jumladan, Germaniya, Fransiya, Koreya, Yaponiya kabi hamda MDHning ayrim mamlakatlarining byudjet qonunchiligi o'rganib chiqildi.

Byudjet Kodeksida nazarda tutilgan Byudjet tasnifi tuzilmasi Xalqaro valyuta jamg'armasining amaldagi xalqaro standartlariga asoslangan.

Bundan tashqari, o‘rganilgan mamlakatlarda byudjetni shakllantirish va tuzish uch yillik istiqbol uchun amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan Byudjet Kodeksi loyihasida byudjetni uch yillik davrga shakllantirish uchun poydevor qo‘yilgan.

Shuningdek ta’kidlash joizki, Byudjet Kodeksi loyihasining “davlat moliyaviy nazorati” bo‘limi tuzilmasi O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi Qonun, Hisob palatasi va Moliya vazirligi Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi nizomlarini hisobga olgan holda hamda Oliy auditorlar instituti xalqaro tashkilotining (INTOSAI) davlat moliya nazoratini olib borish bo‘yicha tavsiyalariga ko‘ra ishlab chiqildi.

Shunday qilib, Byudjet Kodeksi qabul qilinishining asosiy maqsadlaridan biri - amalda bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning yuqorida qayd etilgan amaliy kamchiliklarini bartaraf etish, amaliyotda o‘zini oqlagan me’yorlarni tadbiq etish, shuningdek xalqaro tajribani hisobga olgan holda byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish maqsadida butun byudjet jarayonini tartibga soluvchi yagona qonun hujjati ishlab chiqildi.

Qabul qilingan Byudjet Kodeksi quyidagi qator yangiliklarni nazarda tutadi:

- tartibga solishning yagona tamoyillarini ham O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, ham davlat maqsadli jamgarmalariga qo‘llash;
- byudjet jarayonining barcha qatnashchilari vakolatlarini hamda ularning o‘zaro munosabat mexanizmlarini belgilash;
- byudjet jarayonining barcha bosqichlarini (byudjet tizimi barcha byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, nazorat qilish, hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, byudjetlararo munosabatlar) yagona va yaxlit qonun hujjatida tizimlashtirish;
- mahalliy byudjetlar daromadlar manbalarini mustahkamlash orqali byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, byudjetlarning barcha darajalari o‘rtasida vakolatlarni taqsimlash va o‘zaro hamkorlik.

Byudjet Kodeksining tuzilmasini o‘rganishda byudjet munosabatlarini tizimlashtirish imkonini beruvchi hamda byudjet tizimining ochiqligi va barqarorligini ta’minlovchi 2ta qism, 9ta bo‘lim, 28ta bob va 192ta moddani tahlil qilish kerak. Byudjet Kodeksida byudjet tuzilmasi, byudjet sohasidagi vakolatlar, byudjetni tuzish va qabul qilish, uning ijrosi me’yorlari va qoidalari, davlat tomonidan mablag‘larni jalb qilish, byudjet hisobi va hisoboti, byudjet ijrosi yuzasidan nazorat va byudjet qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik asoslari aks ettirilgan.

Qabul qilingan Byudjet Kodeksida byudjet sohasidagi vakolatlarga aniqlik kiritildi. Bunda qonunchilik bazasi bilan amaliyot o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida Davlat moliyasini boshqarish jarayonidagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlari to‘liq qayta ko‘rib chiqildi.

Amalda bo‘lgan qonunchilikda faqat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Mahalliy davlat hokimiyati organlari va Moliya vazirligining vakolatlari belgilangan bo‘lsa, Byudjet Kodeksida barcha byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlari aks ettirildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Mahalliy Hokimiyat vakillik organlari va Mahalliy davlat hokimiyati organlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, hududiy moliya organlari, byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar, davlat maqsadli jamg‘armalarini taqsimlovchi organlarning vakolatlari alohida moddalarda aks ettirildi.

Ta’kidlash joizki, hozirga qadar amalda bo‘lgan byudjet qonunchiligida bazaviy xarajatlar smetasi ro‘yxatdan o‘tkazilguniga qadar byudjetni ijro etish tartib-tamoyillari yetarlicha yoritib berilmaganligi bois, amaliyotda vaqtinchalik xarajatlar smetasi o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazilmay qolishi oqibatida yil boshida ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni amalga oshirishda kechikish holatlari tez-tez uchrab turardi.

Bu kabi muammolar Byudjet Kodeksida o‘z yechimini topgan.

Avvalgi byudjet qonunchiligida byudjet tashkilotlari hodimlarining ish haqlari naqd pul to'lovini kechiktirganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan edi. Bu esa joylarda shu kabi muammolar uchrab turishiga sabab bo'lardi.

Byudjet Kodeksining 187-moddasi bilan: "Byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlarni to'lash uchun pul mablag'lari berilishini, shuningdek pensiyalarni yetkazib berishni amalga oshiruvchi muassasalarga pul mablag'lari berilishini banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslari tomonidan asossiz kechiktirish" - byudjet intizomini buzish, deb belgilandi.

Byudjet hisobining asoslari, byudjet hisobotlarining shakllari, shuningdek byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tashqi audit qilish masalalari nazarda tutildi. Byudjet hisobini yuritish va byudjet hisobotini tuzishning yagona tartibi joriy qilindi.

Bundan tashqari, Byudjet Kodeksida byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotning ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishi (chop etilishi) majburiyligi normasi nazarda tutilgan, bu esa yangi kiritilgan byudjet tizimi ochiqligi tamoyiliga va byudjet ma'lumotlari e'lon qilinishining xalqaro standartlariga muvofiq keladi.

Byudjet Kodeksida byudjet ijrosi yuzasidan nazoratga alohida etibor qaratilgan. Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi yuzasidan nazorat byudjet jarayonining asosiy bosqichlaridan biri bo'lgani holda, amaldagi bo'lgan qonunchilikda byudjet ijrosi yuzasidan nazorat "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunning bitta moddasi (38-modda) va boshqa qonunosti hujjatlarining bir nechta qoidalari bilan tartibga solingan.

Shu munosabat bilan Byudjet Kodeksida:

- davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar tizimi aniq belgilab qo'yildi;
- davlat moliyaviy nazoratining tamoyillari, shakllari va usullari aks ettirildi;
- davlat moliyaviy nazoratining shakllari va turlari tasniflandi;
- nazorat organlarining vakolatlari, shuningdek davlat moliyaviy nazorat organlari hamda moliyaviy nazorat obyektlari mansabdor shaxslarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi belgilandi.

Qayd etish lozimki, Byudjet Kodeksiga byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarni yakuniy nazorat qilish tartiblarini belgilovchi normalar kiritildi.

Shuningdek nazorat davriyligi yiliga ko'pi bilan bir marta qilib belgilandi.

Bunda nazoratni amalga oshirish muddati o'ttiz kalendar kunidan oshmasligi belgilab qo'yildi.

Alohida ta'kidlash joizki, ushbu Kodeks nafaqat moliya, g'aznachilik yoki nazorat - taftish organlari hodimlari uchun, balki byudjet qonunchiligining to'g'ridan-to'g'ri foydalanuvchilari, aynan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotima o'rnida e'tirof etish mumkinki, Byudjet Kodeksining joriy qilinishi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng miqyosdagi islohotlarga yana bir turtki bo'ldi. Bunda keyingi islohotlarga: o'rta muddatli byudjetlashtirish, natijaga yo'naltirilgan byudjetlashtirish, byudjet hisobini jahon andozalariga moslashtirilgan standartlar asosida yuritish, byudjet jarayonining yanada oydinligini ta'minlash masalalarining nazariy, metodik va me'yoriy tizimlarini ishlab chiqishga keng asos yaratilmoqda.

Ma'lumki, davlat byudjeti hisobiga mablag' bilan ta'minlanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish, byudjet mablag'laridan samarali va aniq foydalanish maqsadida 1999 yil 3 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-son Qarori qabul qilingan va bu qaror byudjet tashkilotlari moliyasini tashkil qilishda keskin o'zgarishlarga olib kelgan edi. Mazkur Qaror 2000 yil 1 yanvardan boshlab byudjet tashkilotlari xarajatlarini mablag' bilan ta'minlashning yangi tartibini belgilab berdi. U quyidagilarni nazarda tutadi:

–byudjet mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda byudjet intizomini mustahkamlash uchun byudjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish;

–byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash mexanizmini soddalashtirish va byudjet mablag‘laridan foydalanishda yuqori natijalarga erishish maqsadida mavjud mablag‘larni oqilona taqsimlash uchun imkoniyatlar yaratish;

-ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni, ish haqiga qo‘shimchalar, kapital qo‘yilmalar va boshqa xarajatlarni guruhlagan holda bir satrda mablag‘ bilan ta’minlash usulida byudjet tashkilotlarini normativlar bo‘yicha (faoliyat turiga ko‘ra) mablag‘ bilan ta’minlashning yangi tartibini joriy etish;

-byudjetdan mablag‘ bilan ta’minlashni byudjet tashkilotlarining faoliyat turi bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish faoliyatini kengaytirish bilan birga qo‘shib olib borish;

-byudjet tashkilotlari xodimlari mehnatini rag‘batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarning o‘rnashib qolishi uchun shart-sharoitlar yaratish.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug‘iga asosan “O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi Qoidalari” tasdiqlandi. (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 22-dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2850).

Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-son “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq Yagona g‘azna hisobvarag‘ini qo‘llash orqali O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlari, shuningdek boshqa maqsadli jamg‘armalar byudjetlarining maxfiy xususiyatga ega bo‘lmagan daromad va xarajatlarining g‘azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Mazkur Qoidalarning amal qilishi byudjet tizimi byudjetlari va BMJ byudjetlarining g‘azna ijrosi jarayonida ishtirok etuvchi Moliya

vazirligi va hududiy moliya organlari, g'aznachilik bo'linmalari va buyurtmachilarga tatbiq etiladi.

Mamlakatimizda jahon tajribasidan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3093 son farmoniga asosan Davlat byujetining ijrosi, davlat aktivlari va passivlarining holati hamda harakati, qimmatbaho metallar va toshlar bilan operatsiyalar amalga oshirilishi, oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish, xorijiy kapitalni respublika iqtisodiyotiga jalb etish va undan samarali foydalanish, davlatning tashqi qarzi o'z vaqtida qaytarilishi doimiy monitoringi va nazoratini ta'minlash maqsadida Hisob palatasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 553-son Qaroriga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi haqida" Nizomi (23.11.1992) tasdiqlandi. Qaroriga muvofiq Moliya vazirligi O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Moliya vazirligi o'z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to'g'ridan-to'g'ri yoki o'zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi. Bu faoliyatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-son (18.03.2017) Qarorining qabul qilinishi muhim qadam bo'lib xizmat qiladi. Shu qatori bir qancha qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, ular bilan kelgusi mavzularda batafsil to'xtalamiz.

3-BOB. MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL QILISHNING TURLARI, SHAKL VA USULLARI

3.1. Moliyaviy nazoratni amal qilish sohalari va turlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ham, iqtisodityotni erkinlashtirish va modernizasiyalash sharoitida ham moliyaviy nazoratga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida moliyaning o'zi kabi moliyaviy nazoratning maqsad va vazifalari, turlari va shakllari tubdan o'zgardi. Endi u faqatgina jazolash maqsadida emas, balki davlatning o'z vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larning to'liq to'planishi va byudjet mablag'laridan maqsadga muvofiq samarali xarajat qilinishini nazorat qilish maqsadida maslahat va ko'rsatmalar berish kabi vazifalarni bajarmoqda. Bugungi kunda moliyaviy nazorat tizimi o'z tarkibida nazorat qiluvchilar va nazorat qilinuvchilar bilan birga nazoratning turlari, shakllari va usullarini ham jamlaydi.

Moliyaviy nazorat amal qilish sohasiga ko'ra davlat va nodavlat moliyaviy nazoratidan iborat[7].

Davlat moliyaviy nazorati bu davlatning asosiy qonunlariga tayanadigan va hokimiyat hamda boshqaruv konkret organlari iqtisodiy-huquqiy harakatining kompleksli va maqsadga yo'naltirilgan tizimidir. Moliyaviy nazoratni tashkil etishda mamlakatning Konstitusiyasi hal qiluvchi rolni o'ynaydi. Uning huquqiy reglamenti davlatning tipiga, uning ijtimoiy-siyosiy yo'naltirilganligiga, iqtisodiy tarqqiyot darajasiga, mulkchilik shakllarining nisbatiga bog'liq.

Davlat moliyaviy nazorati YaIM taqsimlanishining qiymat proporsiyalarini kuzatishga qaratilgan.

(Bu nazorat davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, ularning to'liq va o'z vaqtida tushib turishi va ulardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq

---

[7]Vahobov. A.V, Malikov. T.S. Moliya: Darslik. T: Noshir, 2011. 711 b.

bo‘lgan pul resurslari harakatining barcha kanallariga (tarqatiladi) tegishli hisoblanadi.

Moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalari (ko‘rinishlari, turlari) nazoratni amalga oshirish metodlarining o‘xshashligiga qaramasdan, o‘zlarining pirovard maqsadlari bo‘yicha bir-biridan tubdan farq ham qiladi. Davlat moliyaviy nazoratining bosh maqsadi davlat xazinasiga resurslarni tushirishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish bo‘lsa, bunga qarama-qarshi ravishda nodavlat moliyaviy nazoratning (ayniqsa, firma ichidagi moliyaviy nazoratning) bosh maqsadi joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasidagi ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirishdan iborat. Bir vaqtning o‘zida moliyaviy nazoratning har ikki sohasi amaldagi qonunlarning huquqiy ramkasi bilan cheklab qo‘yilgan.



3.1-rasm. **Moliyaviy nazoratning sohalari**

Davlat moliyaviy nazorati davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirishga va moliyaviy barqarorlik uchun sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Bu narsa, eng avvalo, barcha darajalardagi byudjetlar va nobyudjet fondlarni ishlab chiqish, muhokama qilish, tasdiqlash va ijro etish, korxona va tashkilotlar, banklar va moliyaviy korporasiyalarning moliyaviy faoliyati ustidan nazoratni anglatadi. Agar umummilliy iqtisodiy manfaatlar bilan belgilangan (aniqlangan) bo'lsa, davlat moliyaviy nazoratchilari ham davlat sektorida va ham xususiy hamda korporativ biznes sektorida taftish va tekshirishlarni amalga oshirish huquqiga egadir. Biroq iqtisodiyotning nodavlat sektorida davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat faqat soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ham qo'shib olgan holda davlat oldidagi pul majburiyatlarining bajarilishi sohalarini, ularga ajratilgan byudjet subsidiyalari va kreditlarini sarflashda maqsadga muvofiqlilik va qonuniylikning rioya qilinishi va shuningdek, hukumat tomonidan o'rnatilgan (belgilangan) pul hisob-kitoblarini tashkil qilish, buxgalteriya hisobi va hisobotni yuritish qoidalariga rioya etilishini qamrab oladi.

Umumdavlat hamda idoraviy moliyaviy nazoratlar birgalikda davlat moliyaviy nazoratini tashkil etib, davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan olib boriladi. Bunda davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi, maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishi ustidan, shuningdek davlat va mahalliy mulkdan qonuniy foydalanish ustidan moliyaviy qonunchilik asosida tartibga solinadigan faoliyat tushuniladi. Bu faoliyatning asosiy maqsadi nazorat obyektlari faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlash va mansabdor shaxslarni jazolashgina emas, balki ogohlantirish va yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklarni oldini olishdan iborat.

Davlat moliyaviy nazorati byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Byudjetning tegishli darajasiga bog‘liq holda, davlat moliyaviy nazorati respublika darajasida va mahalliy darajada amalga oshiriladi.[8]

Respublika darajasida – O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining va O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan;

Mahalliy darajada – Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari jamg‘armalarining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyaviy nazorat organlari davlat moliyaviy nazoratini davlat moliyaviy nazorat organlari yoki vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadigan nazorat qilish yillik rejalariga muvofiq amalga oshiradi.

Ayrim hollarda rejadan tashqari davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining;
- davlat moliyaviy nazorat organiga byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to‘g‘risida ma’lumotlar kelib tushgan hollarda davlat moliyaviy nazorat organlari rahbarlarining qarorlari asosida yo‘l qo‘yiladi.

➢ O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;

➢ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar;

➢ Davlat soliq xizmati va bojxona organlari;

➢ Qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatli davlat nazorat organlari.

---

[8]O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-yil., 52-I-son.

O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyihalari parametrlarini shakllantirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor jihatlariga mosligini tizimli tahlil qiladi, qabul qilinayotgan davlat va hududiy dasturlarni moliyalashtirish manbalari auditini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning tasarrufidagi vakolatli organlar esa byudjet tizimidagi byudjet mablag‘laridan maqsadli hamda oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazoratini, pensiyalar hamda boshqa tegishli to‘lovlarni tayinlash va o‘z vaqtida to‘lash bo‘yicha o‘rnatilgan qoidalarning qo‘llanilishini nazoratini qilish; sug‘urta munosabatlarini nazoratini, auditorlik faoliyatini tartibga solish va boshqa nazorat faoliyatlarini amalga oshiradi.

Davlat soliq xizmati va bojxona organlari o‘z navbatida Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining daromadlari qismi bo‘yicha berilgan vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshiridilar.

Davlat moliyaviy nazorati nafaqat byudjet nazorati, balki davlat organlari tomonidan o‘tkaziladigan barcha nazoratlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni davlat tomonidan nazorat qilinishini ham. Bunday nazorat O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 24 dekabrdagi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to‘g‘risida”gi N 717-I Qonuniga asosan olib boriladi. Ushbu Qonun xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

Mazkur qonunning 4-moddasida keltirilishicha xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

- tekshirish, shu jumladan taftish, nazorat tartibida tekshirish;
- statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish;
- idora qaramog‘idagi organlarni tekshirishdan o‘tkazish.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish orqali davlat tomonidan nazorat qilish,

shuningdek idora qaramog'idagi organlarni tekshirishdan o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish quyidagi tamoyillarga asoslanadi[9]:

- nazorat qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik, xolislik va oshkoralik;
- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga aralashmaslik.

Nazorat tartibida tekshirish nazorat qiluvchi organlar tomonidan maxsus vakolatli organ yoki uning hududiy bo'linmalari bilan kelishilgan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

O'z navbatida nodavlat moliyaviy nazorati xo'jalik ichidagi, jamoatchilik va mustaqil nazoratga bo'linadi[10].

Xo'jalik ichidagi moliyaviy nazorat korxona va tashkilotlarning iqtisodiy va moliyaviy xizmatlari tomonidan o'tkaziladi. Bu erda moliyaviy nazoratning obyekti sifatida korxona, tashkilot va muassasalarning xo'jalik va moliyaviy faoliyati maydonga chiqadi.

Xo'jalik ichki moliyaviy nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-iqtisodiy xizmatlari tomonidan subyektning moliyaviy faolitini: pul mablag'larining harakatini buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishi faoliyatini korxonaning davlat, moliya-bank muassalari xamkorari va o'z hodimlari oldidagi moliyaviy majburiyatlarni bajarish holatlari korxonalarning likvididlik darajasini, moliyaviy barqarorligini nazorat qilishdir. Xo'jalik ichki moliyaviy nazoratini amalga oshirishda ichki auditning ahamiyati katta.

Ichki audit – bu firma ichidagi auditorlik xizmati bo'lib, bosh firma markazida faoliyat ko'rsatish bilan bir qatorda filiallar va bo'linmalar tarkibida ham faoliyat qilishi ichki auditni faoliyat qilishi mumkin. Ichki auditni faoliyati korxonalarda moliya-xo'jalik faoliyatini

---

[9]"Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi N 717-I Qonuni 5-moddasi

[10] Vahobov A. V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. T. 2008. 322 bet.

takomillashtirish, to‘g‘ri va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ko‘maklashish hamon minimal mavjud resurslardan foydalangan holda maksimal foydalilik va rentabegillikni ta’minlashga qaratilgan.

Ichki xo‘jalik nazorati xo‘jalik yurituvchi subyektlarning turli resurslari va potensialini saqlab qolish va ulardan samarali foydalanishda, ularning moliyaviy faoliyatida qonunchilik va intizomga rioya etilishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq davlat manfaatlarini himoyalash nuqtai nazaridan byudjet tashkilotlarida ichki moliyaviy nazoratni tegishli tarzda tashkil etish bundan kam bo‘lmagan, muayyan ma’noda esa, bundan ham ko‘proq ahamiyatga egadir, chunki bu davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘larni xarajat qilishda qonunchilik va intizomga rioya etilishini ta’minlash bilan bog‘liqdir. Shu sababli moliyaviy nazorat umumiy tizimida faqat xo‘jalik ichki nazoratini uning bir qismi sifatida ajratish o‘zini to‘liq oqlamaydi. Ichki moliyaviy nazorat tizimi to‘g‘risida gapirish to‘g‘riroq bo‘lur edi, chunki bu nazorat xo‘jalik yurituvchi subyektlar, umuman byudjet tashkilotlari va muassasalari va ularning ayrim tuzilmaviy bo‘linmalari moliyaviy faoliyati ustidan xo‘jalik yurituvchi subyektlar, byudjet tashkilotlari va muassasalarining o‘z maxsus xizmatlari (buxgalteriya, moliya bo‘limlari) tomonidan moliyaviy munosabatlarda qonunchilik va intizomga rioya etilishi masalalari bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshiruvdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlaridir. Nazoratning obyekti uning oldiga qo‘yilgan vazifalarga muvofiq ravishda aniqlanadi. Jamoatchilik moliyaviy nazoratining obyekti bo‘lib, davlat moliyaviy organlari va ularning mansabdor shaxslarining o‘zlariga qonunchilik bilan yuklatilgan majburiyatlarni ijro etishi bilan bog‘liq faoliyatidir. Davlat organi mansabdor shaxsining shaxsiy hayoti, ishchi yozuvlari, shuningdek davlat siri yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirdan iborat axborot, shuningdek, surishtiruv, dastlabki tergov organlari va sud ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallar jamoatchilik nazoratining

obyekti hisoblanmaydi. Jamoatchilik moliyaviy nazoratining predmeti esa fuqarolarning moliya sohasidagi huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi, fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishiga to'siqlar yaratilishi, insonga qonunga xilof ravishda biron-bir majburiyat yuklatilishi yoki u qonunga xilof ravishda javobgarlikka tortilishiga olib kelgan davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonun hujjatlarining buzilishi, shuningdek ularning o'z xizmat vazifalarini bajarishda byurokratik va sovuqqon munosabatda bo'lishi holatlaridir. Jamoatchilik moliyaviy nazoratining subyektlari sifatida fuqarolik jamiyati institutlari (nodavlat notijorat tashkilotlari, xalqaro hamda chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalari va filiallari bundan mustasno, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari), O'zbekiston Respublikasida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritayotgan ommaviy axborot vositalari e'tirof etilmoqda. Jamoatchilik nazorati subyektlari o'z vakolatlarini amalga oshirishda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etishlari shart.

3.2. Moliyaviy nazoratning shakllari

Moliyaviy nazoratning shakllari quyidagi mezonlar bo'yicha tavsiflanadi[11]:

- amalga oshirilish reglamenti bo'yicha;
- o'tkazilish vaqti bo'yicha;
- nazoratning subyektlari bo'yicha;
- nazoratning obyektlari bo'yicha.

Yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy faoliyati ustidan majburiy (tashqi) nazorat qonun asosida amalga oshiriladi. Bular, asosan tashqi, mustaqil nazoratchilar tomonidan amalga oshiriladigan soliq tekshiruvlariga, byudjet resurslaridan maqsadli foydalanish ustidan nazoratga, korxona va tashkilotlarning moliya-buxgalteriya hisobotlari

[11]VahobovA. V., MalikovT.S., Moliya: umumnazariy masalalar, o'quvqo'llanma. T. 2008. 322 b.

ma'lumotlarini majburiy auditorlik tasdiqlanishiga tegishli bo'lishi mumkin.



3.2-rasm. **Amalga oshirilish reglamenti bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari**

Tashabbuskorli (ichki) moliyaviy nazorat moliyaviy qonunchilikdan kelib chiqmasada, taktik va strategik maqsadlarga erishishda moliyaviy boshqaruvning ajralmas qismi hisoblanadi.

Dastlabki moliyaviy nazorat moliyaviy operasiyalarning sodir bo'lishidan oldin amalga oshiriladi va moliyaviy xatoliklarning oldini olish yoki ularni ogohlantirishda muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag'larning tejamsiz va samarasiz sarflanishining oldini olish uchun xarajatlarning moliyaviy jihatdan asoslangan bo'lishini ko'zda tutadi. Dastlabki moliyaviy nazorat moddiy va moliyaviy resurslarni samarasiz ishlatilishining oldini olishga hizmat qilib, bu nazoratni amalga oshirish jarayonida qo'shimcha mablag'larni jalb qilish imkoniyatlari, ko'zda tutilgan xarajatlarning asoslanmaganligi aniqlash mumkin. Nazoratning bu shaklida xo'jalik operasiyalarining moliyaviy yoki byudjet yilining boshanishidan oldinroq qonunlar va me'yoriy hujjatlar talablarni buzilishini ololinadidi olinadi.



3.3-rasm. **O‘tkazilish vaqti bo‘yicha moliyaviy nazoratning shakllari**

Makrodarajada bunday nazoratga misol sifatida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari bashoratlari asosida barcha darajadagi byudjetlarni va nobyudjet fondlarining moliyaviy rejalarini tuzish va tasdiqlash jarayonini ko‘rsatish mumkin. Mikrodarajada esa ular moliyaviy rejalar va smetalar, kredit va kassa arizalari, biznes-rejalarning moliyaviy bo‘limlari, bashorat balanslarini tuzish, hamkorlikdagi faoliyat to‘g‘risida shartnoma va h.k.lardan iborat bo‘lishi mumkin.

Joriy (operativ) moliyaviy nazorat pul bitimlari, moliyaviy operasiyalar, ssuda va subsidiyalarni berish va h.k.larning sodir bo‘lish vaqtida amalga oshiriladi. Moliyaviy nazoratning bu shakli mablag‘larni olish va ularni sarflash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan qonunbuzarliklardan ogohlantiradi, moliyaviy intizomning mustah-kamlanishiga va pul hisob-kitoblarining o‘z vaqtida amalga oshirilishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Bu yerda buxgalteriya xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Navbatdagi moliyaviy nazorat moliyaviy hisobot va buxgalteriya hujjatlarini tahlil va taftish qilish yo'li bilan amalga oshirilib, uning bu shakli iqtisodiy subyektlar moliyaviy faoliyatining natijalarini, taklif etilgan moliyaviy strategiya amalga oshirilganligining samaradorligini, moliyaviy xarajatlarni ularning bashoratlari bilan qiyoslanishini va h.k.larni baholashga mo'ljallangan.

Nazorat subyektlari bo'yicha moliyaviy nazoratning quyidagi shakllari bo'lishi mumkin[12]:

- Prezident moliyaviy nazorati;
- hokimiyat qonunchilik organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining moliyaviy nazorati;
- ijroiya hokimiyat organlari moliyaviy nazorati;
- moliya-kredit organlarining moliyaviy nazorati;
- firmaviy-ichki moliyaviy nazorat;
- auditorlik moliyaviy nazorati va boshqalar.

Shu o'rinda nazorat obyektlari bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllariga to'xtalamiz.

Byudjet va nobyudjet fondlar ustidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat barcha darajadagi byudetlarning, nobyudjet fondlarning shakllanishi, davlat moliyaviy resurslarining qonuniy va maqsadga muvofiq ishlatilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

Soliq nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlar va aholi tomonidan davlat oldidagi soliq majburiyatlarining bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlaydi.

Bojxona nazorati birinchidan, mamlakatning iqtisodiy jihatdan xavfsizligini ta'minlash, ikkinchidan, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalaridan tushumlar, to'lovlarning to'liq va o'z vaqtida, qonuniy asosda tushishini nazorat qiladi.

---

[12]VahobovA. V., MalikovT.S., Moliya: umumnazariy masalalar: O'quv qo'llanma. T. 2008. 322 bet



3.4-rasm. **Nazorat subyektlari bo'yicha moliyaviy nazoratning shakllari**

Pul-kredit nazorati mamlakatdagi pul-kredit munosabatlarini qonuniyligini, ya'ni bu sohada qonunchilikning buzilish holatlarini, jumladan valyuta aktivlarini noqonuniy asosda xorijga chiqib ketish va inflyasiyani kuchayib ketish holatlari oldini oladi va nazoratini ta'minlaydi.

Sug'urta nazorati orqali sug'urta bozori va uning ishtirokchilarini hatti xarakatlarini qonunchilik talablariga mos bo'lishini ta'minlanadi va sug'urtalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilinadi.

Investisiya nazorati orqali mamlakatda investision muhit yaratiladi va iqtisodiyotimizga tashqi va ichki investisiyalarni jalb qilishda qonunchilikka rioya etilayotganligi nazorat qilinadi.

3.3. Moliyaviy nazoratning usullari

Moliyaviy nazoratni amalga oshirishda bir nechta usullardan foydalaniladi.



3.5-rasm. **Moliyaviy nazoratning usullari**

Tekshirish o'tkazish joyiga ko'ra, soliq hamda bojxona organlari o'tkazadigan tekshirishlar, davlat va ijtimoiy byudjetdan tashqari fondlar va boshqa organlar amalga oshiradigan moliyaivy nazorat kameral va joyida o'tkaziladigan tekshirishlarga bo'linadi.

Kameral tekshirish taqdim qilingan hisobotlar va hujjatlar asosida moliyaviy nazorat (tekshiradigan organ) subyekti joylashgan joyda tekshiriladigan obyektga chiqmasdan amalga oshiriladigan hujjatli tekshirish turi hisoblanadi.

Joyida o'tkaziladigan tekshirish tekshiriladigan obyekt joylashgan joyning o'zida amalga oshiriladi va moliyaviy-iqtisodiy nazoratni amalga oshirishda hujjatli hamda haqiqiy nazorat metodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Hujjatlar va moliya-xo'jalik operasiyalarni to'liq qamrab olinishiga ko'ra yalpi hamda qisman (tanlanma) tekshirish turlariga bo'linadi.

Yalpi tekshirishda tashkilot, korxona, muassasaning hamma moliya-xo'jalik operasiyalari va hujjatlari to'liq tekshiriladi, qisman

tekshirishda faqat uning bir qismi (tanlanma tartibda) hujjatlar, operasiyalar, material qiymatliklar tekshiriladi.

Qisman (tanlanma) tekshirishda faqat uning bir qismi tanlanma tartibda hujjatlar, operasiyalar, material qiymatliklar tekshiriladi.

Tekshirilayotgan maslalar qamrab olinishiga ko'ra kompleks, tanlanma va tematik (maqsadli) turlarga bo'linadi.

Kompleks tekshirish bu xo'jalik subyekti moliya-xo'jalik faoliyatini ma'lum davrga har tomonlama tekshirishdir. Bunday tekshirish jarayonida tashkilot faoliyatining o'zaro bog'langan iqtisodiy va yuridik tomonlarini o'rganish uchun o'tkaziladi, bunda hujjatli hamda haqiqiy tekshirishning turli metodik usullaridan maksimal foydalangan holda amalga oshiriladi.

Xo'jalik operasiyalarining qonuniyligi, ishonchliligi va iqtisodiy maqsadga muvofiqligi malakali mutaxassislar tomonidan kompleks tekshirish amalga oshirilayotganda aniqlanadi.

Tanlanma tekshirish xo'jalik subyekti buxgalteriya hisobi bo'limlari yoki moliya-xo'jalik faoliyatining ayrim masalalarini tekshirishdir. U mustaqil tekshirish orqali yoki kompleks tekshirishning bir qismi sifatida amalga oshiriladi. Tanlanma tekshirish natijalari alohida umumlashtiruvchi hujjatda yoki kompleks tekshirish natijalari bo'yicha umumiy yig'ma jamlanma hujjatda aks ettirilishi mumkin.

Tematik (maqsadli tekshirish) nazorat obyekti bo'lgan moliya-xo'jalik faoliyati turining yoki aniq yo'nalish (mavzu)ni tekshirishdir, moliya-xo'jalik faoliyatining tomonlari va oldindan aniqlangan savollar doirasini izlanish yo'li bilan tekshirishni o'tkazish hisoblanadi. Tanlanma tekshirish, tematik tekshirish natijalari alohida yoki umumiy hujjatda aks ettiriladi.

Tadqiq etish korxona va tashkilotlar faoliyatining ayrim tomonlarini qamrab oladi. Tadqiq etish jarayonida bajarilgan ishlar, materiallar, yoqilg'i va energiyaning sarflanish hajmlari nazorat tarzida o'lchanadi. Shuningdek, tadqiq etish, so'rash, kuzatish va inspeksiya qilish hollari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Boshqaruv nazorati (nadzor) moliyaviy faoliyatning ma'lum bir turiga (masalan, sug'urta, investitsion, bank va boshqa faoliyatlar) lisenziya olgan iqtisodiy subyektlar ustidan nazorat organlari tomonidan

amalga oshiriladigan nazoratni anglatadi. U buzilishi lisenziyaning chaqirib olinishiga olib keladigan o'rnatilgan (belgilangan) qoidalar va normativlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni ko'zda tutadi.

Moliyaviy holat tahlili usulida xo'jalik faoliyatining natijalariga, moliyaviy holatning ahvoliga umumiy baho berish maqsadida davriy yoki yillik moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarini detallashtirilgan tarzda o'rganish, tahlil qilish amalga oshiriladi.

Taftish moliyaviy nazoratning ancha keng tarqalgan metodi sanalib, nazoratning haqiqiy va hujjatli usullarini qo'llash yordamida amalga oshiriladigan korxona, tashkilot va muassasalar moliya-xo'jalik faoliyatini o'zaro bog'langan kompleks tekshiruvidan iboratdir. Taftish taftish qilinayotgan obyekt faoliyatidagi kamchiliklar va buzilmalarni topish uchun, ya'ni sodir etilgan xo'jalik operasiyalarining maqsadga muvofiqligi, asoslanganligi, iqtisodiy samaradorligini, moliyaviy intizomga rioya etilganligini, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining ishonchliligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

I BO'LIM BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. "Moliyaviy nazorat" fanining shakllanishi va rivojlanishi shart-sharoitlarini qanday holatlar bilan izohlaysiz?
2. Nazoratni iqtisodiy tizimning zarur elementi sifatidagi holatiga qanday baho berasiz?
3. "Moliyaviy nazorat" fanining maqsad va vazifalari nimadan iborat? iqtisodiy fanlar tizimida tutgan o'rni
4. "Moliyaviy nazorat" fanining iqtisodiy fanlar tizimidagi o'rni qanday?
5. Moliyaviy nazoratning mohiyati nimada?
6. Moliyaviy nazorat vazifalari qanday?
7. Moliyaviy nazoratning nazariy asoslari nimadan iborat?
8. Moliyaviy nazoratning qanday elementlari mavjud?
9. Moliyaviy nazoratining metodik uslublar qaysilar?
10. Moliyaviy nazorat qanday maxsus tamoyillar orqali amalga oshiriladi?

11. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy nazoratning qanday ahamiyatga ega?

12. Moliyaviy nazorat amal qilish sohasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

13. Moliyaviy nazoratning davlat va nodavlat sohalarini qanday farqli jihatlari bor?

14. Davlat moliyaviy nazorati qanday darajalarda amalga oshiriladi?

15. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish qanday tamoyillarga asoslanadi?

16. Nodavlat moliyaviy nazorati qanday turlarga bo'linadi?

17. Amalga oshirish reglamenti bo'yicha moliyaviy nazoratning qanday shakillarini bilasiz?

18. O'tkazilish vaqti bo'yicha moliyaviy nazoratning qanday shakllari mavjud?

19. Nazorat subyektlari bo'yicha moliyaviy nazoratning qanday shakllarini bilasiz?

20. Moliyaviy nazoratni amalga oshirishda qanday usullardan foydalaniladi?

I BO'LIM YUZASIDAN TESTLAR

1. "Moliyaviy nazorat" fanining predmeti ....

a) Jamiyatda xo'jalik yuritishning turli soha va tarmoqlarida, davlat boshqaruvining barcha pog'onalarida pul oqimlari, moliyaviy resurslar harakatini nazorat qilish va bu boradagi moliyaviy nazorat organlarining maqsadli faoliyatini tahlil qilishdir;

b) Xo'jalik yuritishning turli soha va tarmoqlarida, davlat boshqaruvining barcha pog'onalarida pul oqimlari, moliyaviy resurslar harakatini nazorat qilish va bu boradagi moliyaviy nazorat organlarining maqsadli faoliyatini tadqiq etishdir;

d) Jamiyatda xo'jalik yuritishning turli soha va tarmoqlarida, davlat boshqaruvining barcha pog'onalarida pul oqimlari, moliyaviy

resurslar harakatini nazorat qilish va bu boradagi moliyaviy nazorat organlarining maqsadli faoliyatini o'rganishdir;

e) Alohida olingan byudjet tashkilotlarining pul oqimlari, moliyaviy resurslar harakatini nazorat qilish va bu boradagi moliyaviy nazorat organlarining maqsadli faoliyatini, moliya-xo'jalik faoliyatini o'rganishdir.

2. "Moliyaviy nazorat" fani qaysi fanlar bilan bevosita bog'liq emas?

a) "Moliya"

b) "Psixologiya"

d) "Soliq va soliqqa tortish"

e) "Audit"

3. "Moliyaviy nazorat" fanining maqsadi ....

a) Turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlarini tahlil qilish, moliyaviy resurslarni boshqarishning qonuniyligi va samaradorligi bo'yicha qabul qilingan andozalardan chetga chiqish hollarini aniqlashdan iborat

b) Moliyaviy resurslarni boshqarishning qonuniyligi va samaradorligi bo'yicha qabul qilingan andozalardan chetga chiqish hollarini aniqlash, bunday chetga chiqishlar mavjud bo'lganida esa, ularni tuzatish va oldini olish bo'yicha tegishli choralarni o'z vaqtida qabul qilishni o'rgatishdan iborat

d) Korxonalar daromadlari va muomala xarajatlarini taqqoslash, moliyaviy resurslarni boshqarishning qonuniyligi va samaradorligi bo'yicha qabul qilingan andozalardan chetga chiqish hollarini aniqlashdan iborat

e) Foyda, tannarx va to'lovlarni tahlil qilish, chetga chiqish hollarini aniqlash, bunday chetga chiqishlar mavjud bo'lganida esa, ularni tuzatish va oldini olish bo'yicha tegishli choralarni o'z vaqtida qabul qilishni o'rgatishdan iborat

4. Moliyaviy nazorat qanday darajada amal qiladi?

a) Makro va mega darajada

b) Mikro va mega darajada

d) Mega va mezzo darajada

e) Makro va mikro darajada

5. Moliyaviy nazoratning yo'nalishlaridan birini ko'rsating.

a) Barcha iqtisodiy subyektlarning moliyaviy qonunchilik va moliyaviy intizomga rioya qilishi ustidan nazorat qilish

b) Subyektlar faoliyatini iqtisodiy tartibga solish

d) Pul fondlarining o'lchami va moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi mutanosiblikka aks ta'sir ko'rsatish

e) Moliyaviy resurslarni ko'paytirishning ichki xo'jalik rezervlarini hisobga olish

6. Quyidagilardan qaysi biri moliyaviy nazoratning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanmaydi?

a) Pul fondlarining o'lchami va moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi mutanosiblikka ta'sir ko'rsatish

b) Mamlakat iqtisodiyotini boshqa davlatlar bilan solishtirish

d) Davlat byudjeti oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash

e) Moliyaviy resurslarni ko'paytirishning ichki xo'jalik rezervlarini qidirib topish

7. Obyektivlik tamoyili-

a) Nazorat tadbirlarini o'tkazishda nazorat obyektining barcha tomonlarini va uning o'zaro aloqalarini vertikal va gorizontal boshqaruv tizimlari bo'yicha ko'rib chiqilishini nazarda tutadi

b) Nazorat natijalari, tekshirilgan dalillarning mazmuni qonunlar, yo'riqnomalar va mansabdor shaxslarning faoliyatini nazorat qilishni tartibga soluvchi boshqaruv organlarining farmoyishlari bilan solishtirish asosida to'g'ri, to'liq va obyektiv tushuntirishni nazarda tutadi

d) Nazoratchi-taftishchilar kasbiy mahoratining yuqoriligini va ularni amaldagi qonun hujjatlariga to'liq rioya qilishlarini taqozo etadi

e) Jamiyat e'tiboriga ommaviy axborot vositasi orqali turli moliyaviy rejalar loyihalarini, ularning ijrosi bo'yicha hisobotlarni, moliyaviy faoliyatni tekshirish va taftish qilish natijalari mazmunini yetkazishni nazarda tutadi

8. Davlat moliyaviy nazorati tizimining elementlarini ko'rsating.

a) Nazorat tamoyillari

b) Nazoratning afzalligi

d) Nazorat vazifasi

e) Nazoratning mavjudligi

9. Davlat moliyaviy nazoratining to'g'ri ta'rifini toping.

a) Davlat moliyaviy nazorati avvalo davlat moliyaviy resurslaridan maqsadga muvofiq va samarali foydalanishi, davlat mulkidan oqilona foydalanishini ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir

b) Davlat moliyaviy nazorati davlat hokimiyati organlarining hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining huquqiy normalari bilan tartibga solinadigan davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi, maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishi ustidan nazorat qilish hamda davlatning manfaatini ko'zlab olib borilgan nazoratdir

d) Davlat moliyaviy nazorati davlat hokimiyati organlarining hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining huquqiy normalari bilan tartibga solinadigan davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi, maqsadga muvofiq va samarali ishlatilishi ustidan nazorat qilish yuzasidan moliyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan maqsadli faoliyatdir

e) Davlat moliyaviy nazorati boshqarish tizimining ajralmas qismi bo'lib, mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimining samarali amal qilishining zaruriy shartidir

10. Jamiyat e'tiboriga ommaviy axborot vositasi orqali turli moliyaviy rejalar loyihalarini, ularning ijrosi bo'yicha hisobotlarni, moliyaviy faoliyatni tekshirish va taftish qilish natijalarini yetkazishda namoyon bo'ladigan tamoyilni aniqlang.

a) Oshkoralik

b) Obyektivlik

d) Qonuniylik

e) Malakaviylik

11. Moliyaviy nazoratning umummilliy usullaridan noto‘g‘risini aniqlang.

a) Funktsional-miqdoriy tahlil

b) Tahlil va sintez

d) Moliyaviy tahlil

e) Deduktsiya va induktsiya

12. Qaysi javobda moliyaviy nazoratning obyekti noto‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a) Foyda, tannarx

b) Turli darajadagi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari

d) Savdo balansi

e) Korxonalar daromadlari va muomala xarajatlari

13. Quyidagilardan qaysi biri moliyaviy nazoratning vazifasiga kirmaydi?

a) Davlat moliyaviy resurslarining maqsadga muvofiq ishlatilishini, davlat va mahalliy mulkdan qonuniy ravishda va oqilona foydalanishni nazorat qilish

b) Iqtisodiyotni davlat qo‘lida markazlashtirish, byudjetni davlat hokimiyati manfaatlarini ko‘zlagan holda sarflash

d) Davlat byudjeti va davlatning byudjetdan tashqari fondlarining shakllanishi va ishlatilishini nazorat qilish

e) Xo‘jalik subyektlari tomonidan buxgalteriya hisobi va hisobotini to‘g‘ri yuritilishini nazorat qilish, xo‘jalik operatsiyalarining buxgalteriya hujjatlarida to‘g‘ri aks etirilishini tekshirish

14.... tamoyili nazorat vazifalarini samarali bajarish uchun nazoratchilarning va birinchi navbatda nazorat organi shaxslaridan qarorlarni qabul qiluvchi xodimlarning ma’lum darajada dahlsizligini nazarda tutadi.

a) Dahlsizlik

b) Obyektivlik

d) Malakaviylik

e) Oshkoralik

15. Quyidagilar moliyaviy nazoratning qaysi jihatini aks ettiradi: nazorat subyekti, nazorat obyekti, nazorat predmeti, nazorat jarayoni

a) Moliyaviy nazorat tamoyillari

b) Moliyaviy nazorat asoslari

d) Moliyaviy nazorat elementlari

e) Moliyaviy nazorat funksiyalari

16. Moliyaviy nazorat subyektlarini ko'rsating.

a) Moliya organlari

b) Ta'lim muassasalari

d) Tibbiyot muassasalari

e) Korxonalar

17. .... tamoyili nazoratchi-taftishchilar kasbiy mahoratining yuqoriligini va ular amaldagi qonun hujjatlariga to'liq rioya qilishlarini taqozo etadi.

a) Obyektivlik

b) Malakaviylik

d) Qonuniylik

e) Oshkoralik

18. ... tamoyili davlat va uning barcha organlarini, shuningdek nazorat organlarini qonunga muvofiq faoliyat yuritishini, jamiyat va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilinishni ta'minlanishini nazarda tutadi.

a) Obyektivlik

b) Malakaviylik

d) Oshkoralik

e) Qonuniylik

19. Moliyaviy nazorat amal qilish sohasiga ko'ra qanday nazoratlardan iborat?

a) Davlat va nodavlat moliyaviy nazorati

b) Yalpi va tanlanma nazorat

d) Majburiy va mustaqil nazorat

e) Ichki va tashqi nazorat

20. Moliyaviy nazorat amalga oshiruvchi subyektlariga ko'ra qanday nazoratlarga bo'linadi?

a) Oliy va mahalliy darajadagi, jamoatchilik va mustaqil moliyaviy nazoratlarga

b) Umumdavlat, idoraviy, xo'jalik ichidagi, jamoatchilik va mustaqil moliyaviy nazoratlarga

d) Ijroiya hokimiyat nazorati, o'z-o'zini boshqarish organlari moliyaviy nazoratlariga

e) Ichki va tashqi, umumdavlat va idoraviy moliyaviy nazoratlarga

21. .....ning bosh maqsadi joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlatga ajratmalarni minimallashtirishdan iborat.

a) Byudjet nazorati

b) Bojxona nazorati

d) Nodavlat moliyaviy nazorati

e) Davlat moliyaviy nazorati

22. Vazirlik miqyosida o'tkaziladigan moliyaviy nazorat bu - ...

a) Hokimiyat nazorati

b) Idoraviy nazorat

d) Jamoatchilik nazorati

e) Ichki nazorat

23. Jamoatchilik nazorati bu ...dir.

a) Nodavlat tashkilotlar tomonidan olib boriladigan nazorat

b) Oliy darajadagi nazorat organlari nazorati

d) Ichki moliya bo'limi tomonidan olib boriladigan nazorat

e) Hokimiyat tomonidan o'tkaziladigan nazorat

24. Amalga oshirish reglamentiga ko'ra moliyaviy nazoratning shakllarini ko'rsating.

a) Dastlabki, yakuniy

b) Doimiy va ixtiyoriy

d) Tashabbuskorlik, ichki

e) Tashabbuskorlik (ichki), majburiy (tashqi)

25. Amalga oshirish vaqtiga ko‘ra moliyaviy nazoratning shakllarini ko‘rsating.

a) Ichki va tashqi

b) Dastlabki, joriy, so‘nggi

d) Yalpi, tanlanma

e) Majburiy va ixtiyoriy

26. Moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so‘ng davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat bu - ...

a) Dastlabki nazorat

b) Joriy nazorat

d) Idoraviy nazorat

e) Yakuniy nazorat

27. Moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar g‘aznachilik bo‘linmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat bu - ....

a) Dastlabki nazorat

b) Joriy nazorat

d) Yakuniy nazorat

e) Tashqi nazorat

28. Moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g‘aznachilik bo‘linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat bu - ...

a) Yakuniy nazorat

b) Joriy nazorat

d) Dastlabki nazorat

e) Ichki nazorat

29. Soliq, bojxona va byudjet nazorati qanday nazorat?

a) Auditorlik moliyaviy nazorati

b) Nodavlat moliyaviy nazorati

d) Davlat moliyaviy nazorati

e) Jamoatchilik moliyaviy nazorati

30. Aniq davr bo'yicha, ayrim masalalar bo'yicha nazorat obyektlarini tekshirish va faoliyatini baholash bu ... dir.

a) Tematik nazorat

b) Kompleks nazorat

d) Qo'shma nazorat

e) Muqobil nazorat

31. Hujjatlar asosida tekshiruv qanday ataladi?

a) Tanlanma tekshiruvi

b) Buxgalteriya tekshiruvi

d) Axborot tekshiruvi

e) Kameral tekshiruv

32. Mazmuni bo'yicha qanday taftishlar mavjud?

a) Kompleks va yakka taftish

b) Rejali va rejadan tashqari taftish

d) Hujjatli va faktik taftish

e) Dastlabki va qayta taftish

II BO'LIM. MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT ORGANLARINING AHAMIYATI

4-BOB. UMUMDAVLAT NAZORAT ORGANLARINING MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHDAGI ROLI

4.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan hokimiyatni taqsimlanish tamoyili Prezident va vakolatli hukumat organlari tomonidan ijro hokimiyati organlarining moliyaviy faoliyatini nazorat qilishni nazarda tutadi. Bunday nazorat, avvalambor, respublika va mahalliy byudjetlarni, davlat maqsadli nobyudjet fondlarining loyihalarini ko'rib chiqish va qabul qilishda hamda ularning ijrosi haqida hisobotlarni tasdiqlashda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 78-moddasining 8-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Vazirlar Mahkamasining taqdimoti bo'yicha mamlakat byudjetini qabul qiladi va uning ijrosi ustidan nazorat o'rnatadi. Xalq deputatlari Kengashlari ayrim mintaqalarga ajratiladigan byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish hamda mahalliy byudjetlarning ijro etilishini nazorat qiladi. Bundan tashqari, vakolatli organlar zimmasiga ayrim tarmoqlar va sohalarda byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish yuklatilishi mumkin.[13]

Parlament nazorati ham Oliy Majlis faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ladi .

Parlament tarixi asrlar bilan o'lchanadi. Zamonlar o'zgarishi bilan parlamentlarning roli ham izchil o'zgarib, uning mohiyati yangi g'oyalar, tamoyillar bilan, shakllanish va faoliyat ko'rsatish tajribasi

[13]VahobovA. V., MalikovT.S., Moliya: umumnazariy masalalar: O'quv qo'llanma. Toshkent Moliya instituti. T.: 2008. 322 bet

30. Aniq davr bo'yicha, ayrim masalalar bo'yicha nazorat obyektlarini tekshirish va faoliyatini baholash bu ... dir.

a) Tematik nazorat

b) Kompleks nazorat

d) Qo'shma nazorat

e) Muqobil nazorat

31. Hujjatlar asosida tekshiruv qanday ataladi?

a) Tanlanma tekshiruvi

b) Buxgalteriya tekshiruvi

d) Axborot tekshiruvi

e) Kameral tekshiruv

32. Mazmuni bo'yicha qanday taftishlar mavjud?

a) Kompleks va yakka taftish

b) Rejali va rejadan tashqari taftish

d) Hujjatli va faktik taftish

e) Dastlabki va qayta taftish

II BO'LIM. MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT ORGANLARINING AHAMIYATI

4-BOB. UMUMDAVLAT NAZORAT ORGANLARINING MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHDAGI ROLI

4.1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan hokimiyatni taqsimlanish tamoyili Prezident va vakolatli hukumat organlari tomonidan ijro hokimiyati organlarining moliyaviy faoliyatini nazorat qilishni nazarda tutadi. Bunday nazorat, avvalambor, respublika va mahalliy byudjetlarni, davlat maqsadli nobyudjet fondlarining loyihalarini ko'rib chiqish va qabul qilishda hamda ularning ijrosi haqida hisobotlarni tasdiqlashda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 78-moddasining 8-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Vazirlar Mahkamasining taqdimoti bo'yicha mamlakat byudjetini qabul qiladi va uning ijrosi ustidan nazorat o'rnatadi. Xalq deputatlari Kengashlari ayrim mintaqalarga ajratiladigan byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanish hamda mahalliy byudjetlarning ijro etilishini nazorat qiladi. Bundan tashqari, vakolatli organlar zimmasiga ayrim tarmoqlar va sohalarda byudjet mablag'laridan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish yuklatilishi mumkin.[13]

Parlament nazorati ham Oliy Majlis faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'ladi .

Parlament tarixi asrlar bilan o'lchanadi. Zamonlar o'zgarishi bilan parlamentlarning roli ham izchil o'zgarib, uning mohiyati yangi g'oyalar, tamoyillar bilan, shakllanish va faoliyat ko'rsatish tajribasi

[13]VahobovA. V., MalikovT.S., Moliya: umumnazariy masalalar: O'quv qo'llanma. Toshkent Moliya instituti. T.: 2008. 322 bet

bilan boyib bormoqda. Tabiiyki, har bir davlat parlamentning tuzilishi va faoliyat ko'rsatish masalalarini o'zicha hal etadi.

O'zbekiston 1991 yil 1 sentyabrda davlat mustaqilligiga erishgach, davlat hokimiyatining eng muhim institutlaridan biri sifatida milliy parlamentni rivojlantirishning sifat jihatidan yangi bosqichi boshlandi. Milliy parlamentarizmning eng yangi tarixi umum e'tirof etilgan uchta asosiy davrga bo'linadi.



4.1-rasm. **Milliy parlamentariyning uchta asosiy davri**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilishning davlatimiz boshlig'i tomonidan olg'a surilgan ustuvor yo'nalishlari hamda aniq maqsadli vazifalari asosida ishlab chiqilgan qonunchilik faoliyati dasturini qabul qildi va ushbu dasturning nazorati amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palatasi) hududiy vakillik palatasi bo‘lib, 100ta Senat a’zosidan iborat. Senat ishi yalpi majlislarga va uning qo‘mitalari majlislariga to‘planadigan senatorlar faoliyatiga asoslanadi. Senat a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda 6 kishidan saylanadi. Senatning 16 nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Senat faoliyatini samarali tashkil etish, palata qo‘mitalari ishini muvofiqlashtirib borish, qonunlarni dastlabki tarzda ko‘rib chiqishni tashkil etish maqsadida Senat Kengashi tuziladi. Senat faoliyati majlislarni birgalikda va erkin muhokama qilishga, oshkoralikka, jamotachilik fikrini hisobga olishga asoslanadi.

Senat tomonidan nazorat qilish sohasidagi vakolatlarning amalga oshirilishi quyidagilar bilan izohlanadi:

- Senat, shuningdek senatorlar davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslariga ularning vakolatlariga kirgan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan parlament so‘rovi yuborishga haqli;
- Paralament so‘roviga javobni davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari Senat majlislarida beradilar;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining raisi, Oliy xo‘jalik sudining raisi, Bosh prokurori, surishtiruv va tergov organlarining rahbarlari nomiga yo‘llangan parlament so‘rovi ularning ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallarga taalluqli bo‘lishi mumkin emas;
- Parlament so‘rovlari bo‘yicha axborot Senat majlisida muhokama qilinishi mumkin. Senat muhokama yakunlari bo‘yicha qaror qabul qiladi.

Senat tomonidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish sohasidagi boshqa vakolatlari quyidagilardan iborat:

• Senat har yili o‘z majlisida O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasining hisobotini mazkur masala yuzasidan Qonunchilik palatasining qarori Senatga kelib tushgandan keyin eshitadi va muhokama qiladi;

• Senatning O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining hisobotlari yuzasidan qarorlari mazkur qarorlar qabul qilingandan e’tiboran 10 kun ichida Qonunchilik palatasiga yuboriladi;

• O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Senatga taqdim etgan har yilgi hisobotlari Senatning navbatdagi majlisida ko‘rib chiqiladi;

• Senatning qo‘mitalari, shuningdek senatorlar davlat organlari va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlar, ekspert xulosalari, statistika ma’lumotlari va boshqa ma’lumotlarni talab qilib olishlari mumkin;

• Senatning qo‘mitalari yoki senatorlar talab qilib oladigan axborotni tegishli davlat organi, boshqa tashkilot, mansabdor shaxs murojaat olingan kundan e’tiboran 10 kundan kechiktirmay taqdim etishi kerak;

• Senat qo‘mitalarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlarining ular tomonidan qonunlarga qanday rioya etayotgani, palata qo‘mitalarining qarorlari qanday bajarilayotgani to‘g‘risidagi axborotlarni eshitishi qo‘mitalarning ish rejalariga muvofiq o‘tkaziladi.

Ikki palatadan (Senat va Qonunchilik) iborat bo‘lgan Oliy majlis soliqlar, yig‘imlar, nosoliqli to‘lovlarni belgilaydi (o‘rnatadi), Davlat byudjetini ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi, shuningdek, Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni ham tasdiqlaydi, moliyaviy qonunlarni (masalan, Soliq Kodeksi va boshqalar) qabul qiladi. Bir vaqtning o‘zida davlat ichki va tashqi qarzining tegishli (chegaraviy) darajasini belgilash (o‘rnatish) ham Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida Oliy Majlis palatalari tomonidan amalga oshirilayotgan parlament nazoratining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

• birinchidan, O‘zbekiston qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari ijrosi ustidan nazoratni;

• ikkinchidan, O‘zbekiston Prezidentining muhim siyosiy masalalar bo‘yicha farmonlarini tasdiqlash orqali nazoratni amalga oshirishni;

• uchinchidan, davlat byudjetini tasdiqlash va uning ijrosini nazorat qilishni;

• to‘rtinchidan, inson huquqlariga rioya qilinishi sohasidagi nazoratni;

• beshinchidan, davlat organlarini shakllantirish va mansabdor shaxslarni saylash, tayinlash yoki tasdiqlash yo‘li bilan nazorat shaklini amalga oshirishni;

• oltinchidan, parlament oldida hisobdor organlar va mansabdor shaxslarning hisobotlarini tinglash va ular faoliyati yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilish orqali nazoratni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi.

Bularning barchasi davlat hokimiyatini amalga oshirishda, qonun ustuvorligini ta’minlashda, xalq hokimiyatchiligini amalga oshirishda parlamentning ustuvor ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqadi

Oliy qonun chiqaruvchi organ faoliyatini demokratlashtirish, huquqiy asoslarini takomillashtirish jarayonida davlat hokimiyati organlari tizimida parlamentning roli va ahamiyati sezilarli darajada yuksaldi. Jumladan, 2014 yili O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga parlament nazorati institutini konstitutsiyaviy mustahkamlashga, qonun chiqaruvchi hokimiyatning nazorat qilish vazifalarini yanada kengaytirishga, qonun hujjatlari ijrosini ta’minlashda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan tuzatishlar kiritildi.

2016 yil 11 aprelda parlament nazoratini olib borish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirishga hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining parlament oldidagi mas’uliyatini kuchaytirish, munosabatlarni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Parlament nazorati” to‘g‘risida O‘RQ-403-sonli Qonuni qabul qilindi. Qonunni tayyorlashda parlament nazorati sohasidagi milliy tajriba, ushbu masalada huquqshunos-olim va ekpertlarning nazariy qarashlari

hamda xorij tajribasi, xususan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Polsha, Finlyandiya, Shvetsiya, Shveysariya, Chexiya, AQSh va Yaponiya kabi 30dan ortiq davlatlar qonunchiligi va amaliyoti, atroflicha o'rganib chiqildi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining va ular organlarining qarorlarini, davlat dasturlarini ijro etish, shuningdek o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha faoliyati parlament nazorati obyekti hisoblanadi[14]. Shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv va tergov organlarining, sudlarning ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallarni, shuningdek ijro ishi yuritish hamda notarial ish yuritishning muayyan materiallarini ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyat parlament nazoratining obyekti bo'lishi mumkin emas.

Parlament nazorati subyektlari bo'lib quyidagilar belgilandi[15]:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati;
- Qonunchilik palatasining, Senatning qo'mitalari, komissiyalari;
- Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari, deputatlar guruhlari;
- Qonunchilik palatasi deputatlari;
- Senat a'zolari;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman).

Mamlakatimizda Parlament nazorati shakllari quyidagilardan iborat[16]:

- navbatdagi yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini, davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlarini hamda soliq

---

[14]O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati" to'g'risida O'RQ-403-sonli Qonuni, 4-modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 15-son, 141-modda

[15] Shu yerda 3-modda

[16]O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati" to'g'risida O'RQ-403-sonli Qonuni, 4 modda. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 15-son, 141 modda

va byudjet siyosatining asosiy yo‘nalishlarini (bundan buyon matnda Davlat byudjeti deb yuritiladi) qabul qilish, shuningdek Davlat byudjeti ijrosining borishini ko‘rib chiqish;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan har yilgi ma’ruzasini ko‘rib chiqish;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ayrim dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini eshitish;
- Qonunchilik palatasi, Senat majlislarida hukumat a’zolarining o‘z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan axborotini eshitish;
- O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining (bundan buyon matnda Hisob palatasi deb yuritiladi) hisobotini eshitish;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobotini eshitish;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining hisobotini eshitish;
- parlament so‘rovi;
- Qonunchilik palatasi deputatining, Senat a’zosining so‘rovi;
- Qonunchilik palatasi, Senat qo‘mitalari tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining axborotini eshitish;
- qonun hujjatlarining ijrosi holatini, huquqni qo‘llash amaliyotini Qonunchilik palatasining, Senatning qo‘mitalari tomonidan o‘rganish va qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan ular tomonidan monitoringni amalga oshirish;
- parlament tekshiruvi.

Parlament nazorati qonunga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Shu o‘rinda bevosita moliyaviy nazorat bilan bog‘liq Parlament nazorati shakllariga alohida to‘htalib o‘tamiz.

Davlat byudjeti loyihasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirmay Hisob palatasining xulosasi bilan birga Oliy Majlis palatalariga kiritiladi. Davlat byudjeti loyihasi

fraksiyalarda, deputatlar guruhlarida, Qonunchilik palatasining qo'mitalarida dastlabki tarzda muhokama qilinadi, ular Davlat byudjeti loyihasi bo'yicha fikrlar va takliflarni ishlab chiqadi. Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi fraksiyalardan, deputatlar guruhlaridan, Qonunchilik palatasi qo'mitalaridan kelib tushgan fikrlar va takliflarni umumlashtiradi hamda Davlat byudjeti loyihasini Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqish masalasi bo'yicha xulosa tayyorlaydi. Qonunchilik palatasi Davlat byudjeti loyihasini, qoida tariqasida, uch o'qishda ko'rib chiqadi. Davlat byudjeti loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan ko'rib chiqilayotganda u fraksiyalarning, deputatlar guruhlarining, Qonunchilik palatasi qo'mitalarining kelib tushgan mulohazalari va takliflarini inobatga olgan holda maromiga yetkazish uchun Vazirlar Mahkamasiga yuborilishi mumkin. Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjeti loyihasini maromiga yetkazadi va uni Qonunchilik palatasi qayta ko'rib chiqishi uchun kiritadi. Davlat byudjetining loyihasi bo'yicha qaror Qonunchilik palatasi tomonidan joriy yilning 15 noyabridan kechiktirmay qabul qilinishi kerak. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan Davlat byudjeti ko'rib chiqish uchun Senatga yuboriladi. Senatga kelib tushgan Davlat byudjeti Senatning Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi tomonidan dastlabki tarzda ko'rib chiqiladi. Davlat byudjeti yuzasidan qaror Senat tomonidan joriy yilning 15 dekabridan kechiktirmay qabul qilinishi kerak.

Davlat byudjetining ijrosi ustidan Qonunchilik palatasi nazoratni amalga oshiradi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan Davlat byudjeti ijrosining borishi to'g'risidagi axborotni va zarur materiallar asosida moliya yilining har choragidagi byudjet ijrosining borishini ko'rib chiqadi. Qonunchilik palatasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay Hisob palatasining xulosasi bilan birga taqdim etilgan Davlat byudjetining ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni fraksiyalar, deputatlar guruhlari va Qonunchilik palatasining qo'mitalarida dastlabki tarzda muhokama qilish asosida ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Vazirlar Mahkamasining o‘tgan yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va navbatdagi yil uchun nazarda tutilgan asosiy ustuvorliklar to‘g‘risidagi har yilgi ma’ruzasi Bosh vazir tomonidan Oliy Majlis palatalariga taqdim etiladi. Fraksiyalar, deputatlar guruhlari, Oliy Majlis palatalarining qo‘mitalari Vazirlar Mahkamasining har yilgi ma’ruzasini dastlabki tarzda ko‘rib chiqadi hamda fikrlar va takliflarni ishlab chiqadi, fikrlar va takliflar Qonunchilik palatasining, Senatning majlisida majburiy ravishda hamda har tomonlama muhokama qilinadi. Qonunchilik palatasi va Senatning Vazirlar Mahkamasining har yilgi ma’ruzasini ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha qabul qilingan qarori Vazirlar Mahkamasiga yuboriladi.

Qonunchilik palatasi, Senat zarur bo‘lgan hollarda o‘z majlislarida Bosh vazirning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ayrim dolzarb masalalari yuzasidan hisobotini parlament so‘rovi tartibida eshitishi mumkin. Ushbu hisobotni eshitish yakunlari bo‘yicha Qonunchilik palatasi, Senat qaror qabul qiladi (unda hukumatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ayrim dolzarb masalalariga doir faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar bo‘lishi mumkin) va Vazirlar Mahkamasiga yuboriladi.

Qonunchilik palatasi (fraksiyalar, deputatlar guruhlarining tashabbusiga ko‘ra) va Senat (qo‘mitalarning tashabbusiga ko‘ra) zarur bo‘lgan hollarda o‘z majlislarida hukumat a’zolarining o‘z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan axborotini eshitishi mumkin. Hukumat a’zolarining o‘z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan axborotini eshitish to‘g‘risida Qonunchilik palatasi, Senat qaror qabul qiladi, qaror Vazirlar Mahkamasiga oldindan yuboriladi. Jumadan, Qonunchilik palatasi O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotini Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasida dastlabki tarzda ko‘rib chiqqan holda yiliga ikki marta eshitadi. Oliy Majlis Senati O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to‘g‘risidagi axborotini Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasida dastlabki tarzda ko‘rib chiqqan holda, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining o‘z faoliyati haqidagi axborotini

Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasida dastlabki tarzda ko'rib chiqqan holda yiliga ikki marta eshitadi. Hukumat a'zolarining axborotini eshitish yakunlari bo'yicha Qonunchilik palatasi, Senat qaror qabul qiladi (unda hukumat a'zolarining faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar bo'lishi, shuningdek ularning ishiga baho berilishi mumkin) va Vazirlar Mahkamasiga yuboriladi.

Qonunchilik palatasi har yili, hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay o'z majlisida Hisob palatasining hisobotini eshitadi. Ushbu hisobot dastlabki tarzda fraksiyalar, deputatlar guruhlari, shuningdek Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Hisob palatasining hisobotini eshitish yakunlari bo'yicha Qonunchilik palatasi qaror qabul qiladi, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida Hisob palatasiga va Senatga yuboriladi. Shundan Hisob palatasining hisoboti dastlabki tarzda Senatning Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Hisob palatasining hisobotini eshitish yakunlari bo'yicha Senat qaror qabul qiladi, qaror qabul qilingan kundan e'tiboran o'n kun ichida Hisob palatasiga va Qonunchilik palatasiga yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining Senatga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etilgan har yilgi hisoboti Senatning navbatdagi majlisida dastlab Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi tomonidan ko'rib chiqiladi. Ushbu hisobotini eshitish yakunlari bo'yicha Senat qaror qabul qiladi, qaror O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga yuboriladi.

Parlament so'rovini Qonunchilik palatasi, Senat davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga qonunlarning, turli sohalardagi davlat dasturlarining ijrosi masalalari hamda ularning vakolatlariga kiradigan boshqa muhim masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon etish talabi bilan yuborishga haqli. Parlament so'rovini yuborish to'g'risidagi taklif Qonunchilik palatasi deputatlari yoki Senat a'zolari umumiy sonining kamida beshdan bir qismi tomonidan kiritiladi. Davlat hokimiyati va

boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari parlament so‘roviga og‘zaki javobni Qonunchilik palatasining yoki Senatning majlisida palatalar belgilagan muddatda, yozma javobni esa (agar boshqa muddat belgilangan bo‘lmasa) so‘rov olingan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay yuborishi lozim. Yozma javobning nusxalari tegishli palataning majlisida o‘qib eshittirilguniga qadar oldindan Qonunchilik palatasi deputatlariga, Senat a’zolariga yuboriladi. Parlament so‘rovi muhokamasi yakunlari bo‘ytcha Qonunchilik palatasi va Senat qaror qabul qiladi.

Qonunchilik palatasi deputati davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslariga, qoida tariqasida, tegishli saylov okrugi saylovchilarining yoki O‘zbekiston ekologik harakatining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan, Senat a’zosi esa, tegishli hududlarning manfaatlari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon etish talabi bilan so‘rov yuborishga haqli. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari so‘rov olingan kundan e’tiboran o‘n kundan kechiktirmay yozma javob yuboradi.

Qonunchilik palatasining, Senatning qo‘mitalari ish rejalariga, Qonunchilik palatasining, Senatning hamda ular kengashlarining qarorlariga muvofiq o‘z majlislarida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining ular tomonidan qonunlarga rioya etilishi, Qonunchilik palatasi, Senat, ularning kengashlari va qo‘mitalari qarorlarining bajarilishi to‘g‘risidagi axborotini eshitishi mumkin. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining axborotini eshitish yakunlari bo‘yicha Qonunchilik palatasining, Senatning qo‘mitalari qarorlar qabul qiladi, qarorlar tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organiga yuboriladi.

Qonunchilik palatasining, Senatning qo‘mitalari o‘z ish rejalariga muvofiq vaqti-vaqti bilan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan qonunlarning, Qonunchilik palatasi va Senat qarorlarining ijrosi holatini, huquqni qo‘llash amaliyotini joylarga chiqib o‘rganadi. Qonunchilik palatasining, Senatning qo‘mitalari, shuningdek

Qonunchilik palatasi deputatlari, Senat a'zolari o'rganish davomida davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan, mansabdor shaxslardan hujjatlarni, ekspert xulosalarini, statistika ma'lumotlarini va boshqa ma'lumotlarni so'rab olishi va axborotini eshitishi, shuningdek o'rganish natijalarini Qonunchilik palatasi, Senat ko'rib chiqishi uchun kiritish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Qonunchilik palatasining, Senatning qo'mitalari yangi qabul qilingan qonunlar ijrosini ta'minlash uchun qonun osti hujjatlarining o'z vaqtida qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi. Monitoringni amalga oshirish yakunlari Qonunchilik palatasining, Senatning qo'mitalari majlislarida ko'rib chiqilishi mumkin.

Oliy Majlis palatalarining qo'shma qarori bilan jamiyat va davlatning eng muhim manfaatlariga daxl qiluvchi, mamlakat xavfsizligi asoslariga, uning barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muayyan faktlarni yoki voqealarni o'rganish maqsadida parlament tekshiruvlari o'tkazilishi mumkin. Qonunchilik palatasi va Senat parlament tekshiruvini o'tkazish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan komissiya tuzadi.

Komissiya parlament tekshiruvini o'tkazishda quyidagilarga haqli:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakillarini, mutaxassislar, ekspertlar va olimlarni komissiya ishiga jalb etish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, boshqa tashkilotlardan, shuningdek fuqarolardan zarur ma'lumotlarni so'rab olish;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslarini, shuningdek fuqarolarni tushuntirishlar berish uchun taklif qilish.

Komissiya bajarilgan ish to'g'risida Oliy Majlis palatalari tomonidan belgilangan muddatda ularni xabardor qiladi.

Parlament nazorati natijalarini ko'rib chiqish bo'yicha Qonunchilik palatasining, Senat va organlarining majlislari ochiq va oshkora o'tkaziladi. Zarurat bo'lganda, Qonunchilik palatasi, Senat va ularning organlari yopiq majlis o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Majlislarga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning vakillari, mutaxassislar va olimlar, ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif etilishi mumkin. Parlament nazorati natijalari ommaviy axborot vositalarida va Qonunchilik palatasining, Senatning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinishi mumkin.

Xulosa qililb aytadigan bo'lsak, yuqorida ko'rib chiqqan qonunimiz Oliy Majlisning parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirishga, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining parlament oldidagi javobgarligini kuchaytirish imkonini beradigan qo'shimcha mexanizmlarni joriy etishga xizmat qiladi. Shuningdek, Konstitutsiya hamda qonunlar talablarining ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirishning yagona bir tizimga solingan qonunchilik bazasini yaratib, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mas'uliyatini yanada kuchaytirdi. Ushbu huquqiy hujjatda parlament nazorati subyektlari hamda obyektlari aniq belgilab berildi, uning shakllari mustahkamlab qo'yildi, parlament nazorati natijalari yuzasidan ko'riladigan chora-tadbirlar, uning natijalari bo'yicha ish yuritish mexanizmlari tartibga solindi.

4.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi – O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi organlari tizimiga boshchilik qiladi va o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida javobgar bo‘lib, qonunchilik tashabbusi huquqiga ega.

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni dastlab 1993 yil 6 mayda qabul qilingan bo‘lib, 2003 yil 29 avgustda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgarishlar va qo‘shimchalar kiritish haqidagi № 525-II son qonuni bilan yangi tahrirda[17] e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida bir qator tamoyillarlarga asoslanadi.



4.2-rasm. **Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyatida asoslanadigan tamoyillar**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tarkibiga O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, uning o‘rinbosarlari, vazirlar, davlat qo‘mitalarining raislari kiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining boshlig‘i Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o‘z lavozimi bo‘yicha kiradi.

Vazirlar Mahkamasi o‘z vakolatlari doirasida:

- iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi, mulkchilikning barcha shakllarini uyg‘unlashtirish va ularning tengligi, iqtisodiyotni monopoliyalashtirishdan chiqarish, bozor iqtisodiyotining

[17] O‘zbekistonRespublikasining 2016 yil 23 sentyabrdagiO‘RQ-411-sonli Qonuni tahririda

huquqiy mexanizmini ishga solish asosida erkin tadbirkorlik uchun shart-sharoitlar yaratadi;

• xo'jalik yuritishning yangi shakllari – konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalar va boshqa shunga o'xshash tashkilotlarni barpo etishga va mustahkamlashga yordamlashadi, iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi talab-ehtiyojlarini qondirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ular faoliyatini yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;

• O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx siyosatini o'tkazish, mehnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini hamda ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

• O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini, shuningdek O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbol ko'rsatkichlarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni hamda ularning ijrosini tashkil etadi;

• boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar hamda O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish to'g'risida takliflar ishlab chiqadi;

• fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

• fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ularning mehnat qilishga, ijtimoiy va huquqiy himoyalanishga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radi, ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtiradi;

• sog'liqni saqlash, xalq ta'limini rivojlantirish va takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga ko'maklashadi;

• O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini, davlat chegaralari qo'riqlanishini ta'minlash, davlat

manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga yordamlashadi;

• davlat boshqaruvi organlarining tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda o'tkazish hamda respublika va xalqaro, ahamiyatga molik yirik ekologik dasturlarni amalga oshirish borasidagi ishlarini muvofiqlashtiradi, yirik avariyalar va falokatlarning, shuningdek, tabiiy ofatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini ko'radi;

• O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardagi vakilligini ta'minlaydi, hukumatlararo shartnoma va bitimlar tuzadi, ularni bajarish chora-tadbirlarini ko'radi;

• Tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik sohasida rahbarlikni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va davlat boshqaruvi boshqa organlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi va ularning hujjatlari amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lgan hollarda ularni bekor qilish huquqiga ega. Shuningdek davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organlar vakolati va funksiyalari tartibini belgilaydi.

Faqat Vazirlar Mahkamasining majlislarida hal etiladigan masalalar quyidagilardir:

• O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini ishlab chiqish va ijro etish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasarrufidagi aniq maqsadli davlat fondlarini shakllantirish va ulardan foydalanish masalalari;

• boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, O'zbekiston Respublikasini va uning ayrim mintaqalarini iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish dasturlari loyihalari;

• davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish hajmi hamda O'zbekiston Respublikasining davlat ichki va tashqi qarzi ko'lamini oshirish to'g'risidagi takliflar;

• soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini belgilash hamda o'zgartirish to'g'risidagi takliflar;

• davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish dasturlarining loyihalari hamda xususiylashtirishdan olingan mablag'lardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi takliflar;

• belgilab qo'yilgan davlat narxlari qo'llaniladigan mahsulotlar, tovarlar va xizmatlar ro'yhati;

• qonunchilik tashabbusi tartibida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritiladigan qonunlar loyihalari;

• davlatlararo shartnomalar va bitimlarni imzolash to'g'risidagi takliflar.

Moliyaviy boshqaruvning umumiy boshqaruv organi sifatida Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetini ko'rib chiqadi, moliyaviy boshqaruvning yagona umumiy markazi sifatida maydonda gavdalanadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga[18]ga asosan :

• Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi;

• Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ko'rib chiqish hamda tegishli xulosa taqdim etish uchun O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

• byudjetnoma loyihasini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

• byudjetnomani O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga taqdim etadi;

• davlat boshqaruvi organlarining Davlat byudjetini va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarini ijro etish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi hamda nazorat qiladi;

• Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda ko'rib chiqadi;

• o'tgan moliya yili uchun Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tashqi

[18] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 26.12.13 yil №158-II, 25- modda

audit o‘tkazish hamda baholash uchun O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga yuboradi;

- Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tasdiqlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi;
- O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga asosan, xususan nazarda tutilgan hollarda moliya yili mobaynida Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari parametrlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflarni ko‘rib chiqadi;
- O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda Vazirlar Mahkamasi joriy moliya yili uchun mo‘ljallangan Davlat byudjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori ortgan taqdirda Moliya vazirligining taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga Davlat byudjeti xarajatlarini qisqartirish to‘g‘risida takliflar kiritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yilning har choragida Davlat byudjeti ijrosining O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etadigan yakunlarini ko‘rib chiqadi. Shuningdek, Moliya vazirligi tomonidan hisobot yilidan keyingi yilning birinchi apreligacha taqdim etilgan Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga u tashqi audit va baholash o‘tkazishi uchun hisobot yilidan keyingi yilning beshinchi apreligacha yuboradi. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotga doir xulosasini hisobot yilidan keyingi yilning o‘ninchi mayidan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotni O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining yozma xulosasi bilan birga hisobot yilidan keyingi yilning o‘n beshinchi mayidan kechiktirmay O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga taqdim etadi.[19]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Muddati o‘tkazib yuborilgan debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartirish va byudjetga to‘lovlar intizomini mustahkamlash bo‘yicha respublika komissiyasi hamda Respublika pul-kredit siyosati komissiyasilari bo‘lib, ularga moliyaviy nazorati sohasida katta vakolatlar berilgan edi. Mamlakatimizda iqtisodiyot sohasida, jumladan moliya, soliq, pul va kredit siyosati sohasida amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlar natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018 yil 9 yanvardagi PF-5296-son [20] farmoni bilan ushbu komissiyalar faoliyati tugatildi.

[19]O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 26.12.13 yil №158-II, 39-modda

[20]O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

5-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HISOB PALATASI VA UNING MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHDAGI O‘RNI

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasini tashkil etishning maqsadi, vazifa va funksiyalari

Mamlakatimizda jahon tajribasidan foydalangan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-3093 son farmoniga asosan Davlat byujetining ijrosi, davlat aktivlari va passivlarining holati hamda harakati, qimmatbaho metallar va toshlar bilan operatsiyalar amalga oshirilishi, oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish, xorijiy kapitalni respublika iqtisodiyotiga jalb etish va undan samarali foydalanish, davlatning tashqi qarzi o‘z vaqtida qaytarilishi doimiy monitoringi va nazoratini ta’minlash maqsadida Hisob palatasi tashkil etildi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish, shuningdek mamlakatni isloh qilish va rivojlantirishning hozirgi bosqichida O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining eng muhim vazifalarini belgilash, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushumlarning to‘liqligini nazorat qilishni ta’minlash maqsadida 2017-yil 10-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 5147-son Farmon imzolandi.

Farmonga muvofiq bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tashqi audit va moliyaviy nazoratning eng yuqori organi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan tashkil etilgan boshqa

jamg'armalarga tushumlarni to'liqligi, maqsadli va samarali shakllanishi va ijro etilishini, davlat aktivlari va passivlari holati va harakatini, oltin-valyuta zaxiralari hamda tashqaridan jalb qilingan mablag'larni qayta to'ldirilishi, boshqarilishi va tasarruf etilishi ustidan monitoring va davlat nazoratini amalga oshiradi.

Palata o'z vakolatlarini mustaqil ravishda bajaradi va barcha davlat idoralari hamda tashkilotlari, ularning mansabdor shaxslaridan erkin bo'ladi va o'z faoliyatida bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi, unga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga hisobot beradi. Hisob palatasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tizimli asosda o'z faoliyati, jumladan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushumlar to'liqligini ta'minlash bo'yicha faoliyati haqida ma'lumot taqdim etadi.

Hisob palatasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini davlat organlari va mulkchilik shakli va bo'ysunuvidan qat'iy nazar tashkilotlar hamda ularning mansabdor shaxslari tomonidan ijro etilishi majburiy hisoblanadi.

Hisob palatasi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyihalari parametrlarini shakllantirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor jihatlariga mosligini tizimli tahlil qiladi, qabul qilinayotgan davlat va hududiy dasturlarni moliyalashtirish manbalari auditini ta'minlaydi. Shuningdek, palata byudjet tizimi byudjetlariga mablag'lar va byudjetdan tashqari boshqa mablag'lar to'liq tushishini o'rganib boradi hamda nazorat qiladi, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llashni kengaytirish orqali byudjet daromadlarini oshirishni aniqlaydi va zaxiralarini safarbar qiladi. O'z navbatida byudjet tizimi byudjetlari va byudjetdan tashqari boshqa mablag'lar hisobidan xarajatlarning samaradorligi va qonuniyliligini auditdan o'tkazadi, ularni barcha darajalarda qisqartirish bo'yicha zaxiralarni aniqlaydi.

Hisob palatasiga O'zbekiston Respublikasi pul-kredit va valyuta siyosati, davlat aktivlari va majburiyatlari holati, oltin-valyuta zaxiralarini boshqarishni, shuningdek, qimmatbaho metallar va

qimmatbaho toshlar bilan amalga oshiriluvchi amaliyotlarni tashqi auditdan o'tkazish vazifasi ham topshirildi.

Hisob palatasi o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida quyidagi huquqlarga ega[21]:

- davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa organlar hamda tashkilotlardan o'zining vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha materiallar va ma'lumotlarni so'rab olish;
- o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun davlat organlari va tashkilotlarning ma'lumotlar bazasiga kirish;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bankdan davlat mablag'larini bank hisob raqamlaridagi va yagona g'azna hisobvarag'idagi harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni so'rab olish;
- tekshirish o'tkazish va uning natijalari bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;
- tekshirishlar o'tkazish uchun o'z vakolati doirasida davlat organlari va ularning vakillari, nodavlat auditor xizmatlari va alohida mutaxassislarni jalb qilish;
- Davlat byudjeti daromadlari prognozining to'g'riligini baholash, soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig'iluvchanligi to'liqligini va soliqqa tortish obyektlarining to'liq hisobga olinishini ta'minlash bo'yicha o'tkaziladigan nazorat tadbirlariga moliya, soliq va boshqa organlarning xodimlarini jalb etish;
- Hisob palatasi vakolatlari doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha tekshirilayotgan tashkilotning mansabdor shaxslaridan yozma tushuntirishlar olish;
- nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha qonun hujjatlari va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish, davlat organlari va tashkilotlarning faoliyati samaradorligini oshirish, samarasiz soliq hamda bojxona imtiyozlarini bekor qilish, soliq ma'muriyatchiligi va

[21]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF – 5147-son Farmoni, 2017-yil 10-avgust.

soliq solinadigan bazaning to‘liq qamrab olinganligini yaxshilashga qaratilgan soliq stavkalarini o‘zgartirish yuzasidan takliflar kiritish;

• o‘z vakolatlari doirasida davlat organlari va tashkilotlarga ularning ma’lumotlar bazasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish to‘g‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish;

• O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasiga, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlariga hududiy davlat soliq va moliya organlari rahbarlariga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo‘llash to‘g‘risida taqdimnomalar kiritish;

• Hisob palatasi bilan oldindan kelishilib olinishi belgilangan barcha masalalar bo‘yicha tegishli xulosalar berish.

Hisob palatasi o‘zi faoliyatini qonuniylik, xolislik, mustaqillik va oshkoralik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

Hisob palatasi o‘z faoliyatini, Hisob palatasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan amaliy tizimli nazoratni ta’minlash zaruriyatidan kelib chiqqan holda shakllantiriladigan yillik nazorat ishlari dasturi asosida tashkil etadi. Nazorat ishlari dasturi Hisob palatasi raisi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining Ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish xizmati va Tashkiliy-kadrlar xizmati bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyot sohasida, jumladan moliya sohasida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi va ushbu organ asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

• birinchi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyihasi parametrlari shakllantirilishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligini tizimli tahlil qilish, qabul qilinayotgan davlat va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta’minlanganligining auditini amalga oshirish;

• ikkinchi, byudjet tizimi byudjetlariga mablag‘lar va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar tushumining to‘liqligini o‘rganish va nazorat qilish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo‘llash orqali

byudjet daromadlarini ko‘paytirish zaxiralarini aniqlash va safarbar qilish;

• uchinchi, byudjet tizimi byudjeti va boshqa byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlarning samaradorligi va qonuniyligini auditdan o‘tkazish va barcha darajada ularni qisqartirish bo‘yicha zaxiralarni aniqlash, byudjet tizimi byudjetlari va davlat tomonidan jalb qilingan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining maqsadga muvofiqligi va asosliligini baholash;

• to‘rtinchi, soliq va byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish, tizimli qonunbuzarliklarning sabablari hamda o‘zini oqlagan jahon tajribasini o‘rganish va umumlashtirish orqali byudjetni rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy qilish;

• beshinchi, respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o‘rtasidagi nisbatning maqbulligini, mahalliy davlat hokimiyati organlarining daromad bo‘yicha vakolatlari va xarajatlar bo‘yicha majburiyatlari belgilanishining to‘g‘riligini baholash, ularning o‘zini-o‘zi moliyaviy ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

• oltinchi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig‘i bo‘yicha davlat va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy mamlakatlarga davlat tashrifi davomida imzolangan kelishuv va hujjatlarni amalga oshirishning to‘liqligi va samaradorligi bo‘yicha nazoratni tashkil etish;

• yettinchi, O‘zbekiston Respublikasining pul-kredit va valyuta siyosati, davlat aktivlari va majburiyatlarining holati, oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish, shuningdek, qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bajarilayotgan operatsiyalarni tashqi auditdan o‘tkazish.

Hisob palatasi o‘ziga yuklatilgan bir qator muhim vazifalaridan kelib chiqib quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi[22]:

[22]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi PF – 5147-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi to‘g‘risida Nizom”.

a) Davlat byudjeti loyihasi parametrlari shakllantirilishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini tizimli tahlil qilish, qabul qilinayotgan davlat va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganligining auditini amalga oshirish sohasida:

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va Davlat byudjeti parametrlari loyihasini olib borilayotgan siyosat hamda qabul qilingan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish kompleks dasturlarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini tanqidiy baholash;
- Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning shakllantirilishi va ijro etilishini tarmoq va hududlar kesimida moddalar, omillar bo'yicha tahlil qilish;
- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti loyihasi hamda kelgusi yil soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha xulosa berish;
- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning byudjetlari shakllantirilishi va ijro etilishi bo'yicha nazorat va monitoringni amalga oshirish;
- davlat va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarning to'liq va samarali bajarilishini hamda ularni moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganligini tekshirish;
- Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari ijrosi to'g'risidagi yillik hisobotni tashqi auditdan o'tkazish va baholash, ular bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga xulosalar taqdim etish.

b) byudjet tizimi byudjetlariga mablag'lar va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar tushumining to'liqligini o'rganish va nazorat qilish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash orqali byudjet

daromadlarini ko‘paytirish zaxiralarini aniqlash va safarbar qilish sohasida:

➢ soliqlar turlari va hududlar kesimida soliq va bojxona to‘lovlarining yig‘iluvchanlik darajasini tizimli tahlil qilish, uning tarmoq va hududlar kesimida pasayishiga ta’sir etuvchi omillar va ularning oqibatlarini aniqlash;

➢ yoqilg‘i-energetika va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish majmualari, iste’mol bozori, savdo, qurilish sohalari va boshqa daromad keltiruvchi tarmoqlarning korxonalari faoliyatining byudjet tizimi byudjetlariga qo‘shimcha tushumlar zaxiralarini aniqlashga yo‘naltirilgan tahlilini amalga oshirish;

➢ soliq solish tizimi, soliq va bojxona ma’muriyatchiligini tahlil qilish va baholash asosida byudjet daromadlarini ko‘paytirish zaxiralarini aniqlash va ularning safarbar etilishini ta’minlash;

➢ davlat organlari va tashkilotlarining soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash uchun foydalaniladigan ma’lumotlar bazalarining ishonchliligini baholash;

➢ hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari va soliq to‘lash salohiyatini hisobga olgan holda Davlat byudjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlarining xolisligi va asosliligini baholash;

➢ soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazani to‘liq qamrab olish ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish, manzilli yo‘nalishlar va nazorat dasturlarini, shu jumladan soliq va boshqa moliya organlarining axborot tizimlari ma’lumotlarini tahlil va monitoring qilish asosida shakllantirish;

➢ daromadlar prognozini sifatli shakllantirish va bajarish, soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig‘iluvchanligi va soliq to‘lovchilar hisobining to‘liqligini ta’minlashda moliya va soliq organlarining mas’uliyatini oshirish hamda ularga har tomonlama ko‘maklashish choralarini ko‘rish;

➢ davlat mulkini sotish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni tahlil qilish va nazoratini ta’minlash.

d) byudjet tizimi byudjetlari va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlarning samaradorligi va qonuniyligini auditdan o'tkazish va barcha darajada ularni qisqartirish bo'yicha zaxiralarni aniqlash, byudjet tizimi byudjetlari va davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining maqsadga muvofiqligi va asosliligini baholash sohasida:

➢ Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning xarajat qismini shakllantirish va ijro etilishi bo'yicha monitoringni amalga oshirish;

➢ Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq tashkil etilgan boshqa jamg'armalarning mablag'laridan maqsadli, oqilona va samarali foydalanilishini nazorat qilish;

➢ Davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

➢ byudjet tizimi byudjetlari va davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini maqsadga muvofiqligi va asosliligini baholash;

➢ Davlat byudjetini ijro etilishi, davlat mablag'larini byudjet tizimi byudjetlarining barcha darajalarida sarflanishi ustidan nazoratni tashkil etish va ta'minlash hamda davlat xarajatlarini qisqartirish zaxiralarini aniqlash;

➢ moliya organlari, shu jumladan g'aznachilik bo'linmalari tomonidan byudjet tizimi byudjetlari mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishni nazorat qilish funksiyalarini bajarilishining samaradorligini tahlil qilish;

➢ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Moliya vazirligining bank hisob raqamlaridagi mablag'larni shakllantirish,

maqsadli va samarali foydalanishning qonuniyligini tekshirish va nazorat qilish;

e) soliq va byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, tizimli qonunbuzarliklarning sabablari hamda o'zini oqlagan jahon tajribasini o'rganish va umumlashtirish orqali byudjetni rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy qilish sohasida;

➢ o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish jarayonida aniqlangan byudjet qonunchiligi buzilish holatlarini hisobga olish va klassifikatsiyalash;

➢ nazorat tadbirlari natijalarini, shu jumladan byudjet qonunchiligi buzilish holatlarini, bunday holatlarga olib kelayotgan sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish;

➢ soliq va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilish holatlarini va bunday holatlarga olib kelayotgan sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish, ularni takomillashtirish, soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish hamda ularning stavkalarini o'zgartirish bo'yicha taklif tayyorlash;

➢ byudjet qonunchiligi me'yorlarini amalga oshirilishini monitoring qilish va byudjet jarayonidagi farqlarni aniqlash;

➢ byudjet jarayoni va byudjet qonunchiligini xalqaro me'yor va standartlarga muvofiqligini o'rganish;

f) respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar o'rtasidagi nisbatning maqbulligini, mahalliy davlat hokimiyati organlarining daromad bo'yicha vakolatlari va xarajatlar bo'yicha majburiyatlari belgilanishining to'g'riligini baholash, ularning o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlanishi bo'yicha takliflar ishlab chiqish sohasida:

➢ Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari shakllanishi va ijro etilishini, ularning balansliligini muntazam tahlil qilish va tekshirish;

➢ yuqori va quyi byudjetlar o‘rtasida o‘rnatilgan umumdavlat soliqlari tushumlaridan ajratmalar normativlari, byudjetlararo transfertlar ajratilishining asosliligini o‘rganish;

➢ yuqori va quyi byudjetlar o‘rtasida xarajatlar bo‘yicha majburiyatlar belgilanishining to‘g‘riligini baholash;

➢ mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni bajarish uchun ularni real moliyaviy mablag‘lar bilan ta’minlash vazifasini hal etish zarurligidan kelib chiqqan holda, barcha darajalardagi byudjetlar o‘rtasidagi nisbatni maqbullashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

g) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig‘i bo‘yicha davlat va hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy mamlakatlarga davlat tashrifi davomida imzolangan kelishuv va hujjatlarni amalga oshirishning to‘liqligi va samaradorligi bo‘yicha nazoratni tashkil etish sohasida:

➢ bajarilishi ustidan nazorat Hisob palatasiga yuklatilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy mamlakatlarga davlat tashrifi davomida imzolangan kelishuv va hujjatlarning ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

➢ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlarini, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy mamlakatlarga davlat tashrifi davomida imzolangan kelishuv va hujjatlarni amalga oshirilishi ustidan joriy monitoring va nazoratni o‘rnatish;

➢ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy mamlakatlarga davlat tashrifi davomida imzolangan kelishuv va hujjatlarni belgilangan muddatlarda va sifatli bajarilishiga to‘sqinlik qilayotgan muammoli masalalarni ko‘rib chiqish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha berilgan vakolatlar doirasida choralar ko‘rish;

➢ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy mamlakatlarga davlat tashrifi davomida imzolangan kelishuv va hujjatlarni bajarilishi bo‘yicha vazirlik va idoralarning ma’lumotlarining asosliligini birlamchi hujjatlar asosida tekshirish;

➢ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xorijiy mamlakatlarga davlat tashrifi davomida imzolangan kelishuv va hujjatlarni bajarilishi yuzasidan o‘tkaziladigan monitoring natijalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga axborot kiritish.

h) O‘zbekiston Respublikasining pul-kredit va valyuta siyosati, davlat aktivlari va majburiyatlarining holati, oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish, shuningdek qimmatbaho metall va qimmatbaho toshlar bilan bajarilayotgan operatsiyalarni tashqi auditdan o‘tkazish sohasida:

➢ milliy valyutani mustahkamlash, uni xarid qobiliyatini oshirish, pul massasi va pul agregatlarini maqbullashtirish, bankdan tashqari pul aylanishini qisqartirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish va baholash;

➢ respublikani tashqi savdo aylanmasi ahvolini tahlil qilish, respublika to‘lov balansini shakllantirish va undan foydalanishini baholash;

➢ tovar (ish, xizmat)lar eksporti prognozini bajarilishi, mahsulotlar importini maqbullashtirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

➢ ichki valyuta bozorida valyutaga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganish, milliy valyutaning erkin almashtirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

➢ tashqaridan olinadigan qarzlarning hajmlari va maqsadga muvofiqligini baholash, olinadigan xorijiy kredit va grant mablag‘laridan samarali va oqilona foydalanilishini, shuningdek Hukumat tomonidan yoki O‘zbekiston Respublikasining Davlat kafolati ostida olingan tashqi kreditlarga o‘z vaqtida xizmat ko‘rsatilishini qattiq nazorat qilish;

➢ oltin-valyuta zaxiralarining tiklanishi va harakati ustidan nazoratni amalga oshirish, tashqi aktivlarni boshqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilish va ularni xorijiy banklarda samarali joylashtirish va qayta joylashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, oltin-valyuta zaxiralari, shu jumladan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar ustidan nazoratni ta'minlash;

➢ valyuta, eksport va import operatsiyalari o'tkazilishining qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirish;

➢ davlat qarzini samarali boshqarish bo'yicha monitoring o'tkazish, ularga o'z vaqtida xizmat ko'rsatilishini nazorat qilish.

Hisob palatasi qonunchilikka muvofiq boshqa vazifa va funksiyalarni amalga oshirishi mumkin.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tarkibiy tuzilishi

O'zbekiston Repsublikasi Hisob Palatasining tarkibiy tuzilishi mamlakat Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi to'g'risidagi Nizom"ga asosan belgilanib, 2017 yilda yangidan tasdiqlangan nizomda ushbu organning shtat birligi belgilab berildi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi xodimlarining cheklangan soni 70 nafarni tashkil etmoqda.[23]

Hisob palatasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va ozod etiladigan hamda keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadigan rais boshchilik qiladi.

Hisob palatasining raisi:

- Hisob palatasi faoliyatiga rahbarlik qiladi va uning ishini tashkil etadi;
- Hisob palatasi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tekshirishlar tashkil etish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

[23] Izoh: dastlab tashkil etilganda 9 nafar, keyinchalik 20ta shtat birligi mavjud bo'lgan.

- Hisob palatasi tomonidan qabul qilingan qarorlarni ijrosi yuzasidan nazoratni tashkil etadi;
- Hisob palatasi faoliyatiga tegishli masalalarni ko'rib chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va uning qo'mitalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlislarida qatnashadi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy majlisi palatalariga Hisob palatasining faoliyati bo'yicha yillik hisobotlarni taqdim etadi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Hisob palatasining, shu jumladan Davlat byudjetiga tushumlarni to'liqligini ta'minlash bo'yicha faoliyati to'g'risida tizimli ravishda ma'lumot berib boradi;
- berilgan vakolatlari doirasida boshqa vazifalarni amalga oshiradi.
- O'z navbatida Hisob Palatasi raisiga 2ta o'rinbosari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarini bajarishda ijro intizomiga rioya etilishini nazorat qilish sho'basi (12ta shtat birligi) bo'ysunadi.

Hisob palatasi raisining birinchi o'rinbosari, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushumlarning to'liqligini nazorat qilish Inspeksiyasi boshlig'i hisoblanadi. Inspeksiya o'z tarkibiga Qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash axborot-tahlil sho'basi (10ta shtat birligi) hamda Soliq, moliya organlari va soliq to'lovchilar bilan ishlash sho'basini (30ta shtat birligi) oladi.

Inspeksiyaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi. Inspeksiya boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisining birinchi o'rinbosari hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisining birinchi o'rinbosariga tenglashtiriladi.



5.1-rasm. **O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tarkibiy tuzilishi**

Davlat byudjetiga tushumlarning to'liqligini nazorat qilish inspeksiyasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklatildi[24]:

- soliq solish tizimi, soliq va bojxona ma'muriyatchiligini tahlil qilish va baholash asosida byudjet daromadlarini ko'paytirish zaxiralarini aniqlash va ularning safarbar etilishini ta'minlash;
- soliqlar turlari va hududlar kesimida soliq va bojxona to'lovlarining yig'iluvchanlik darajasini tizimli tahlil qilish, uning tarmoq va hududlar kesimida pasayishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning oqibatlarini aniqlash;
- hududlarning o'ziga xos xususiyatlari va soliq to'lash salohiyatini hisobga olgan holda Davlat byudjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlarining xolisligi va asosliligini baholash;

[24]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5116-sonli Farmoni, 18.07.2017 y.

• soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazani to‘liq qamrab olish ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish, manzilli yo‘nalishlar va nazorat dasturlarini, shu jumladan soliq va boshqa moliya organlarining axborot tizimlari ma’lumotlarini tahlil va monitoring qilish asosida shakllantirish;

• davlat organlari va tashkilotlarining soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash uchun foydalaniladigan ma’lumotlar bazalarining ishonchliligini baholash;

• daromadlar prognozini sifatli shakllantirish va bajarish, soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig‘iluvchanligi va soliq to‘lovchilarhisobining to‘liqligini ta’minlashda moliya va soliq organlarining mas’uliyatini oshirish hamda ularga har tomonlama ko‘maklashish choralarini ko‘rish.

Hisob palatasi raisi yana bir o‘rinbosariga Byudjet tizimi byudjetlarining shakllantirilishi va xarajat qismining ijro etilishini nazorat qilish sho‘basi (10 shtat birligi) va Pul-kredit va valyuta siyosati sho‘basi (5 shtat birligi) bo‘ysunadi.

Hisob palatasi raisiga zarur hollarda Hisob palatasining tasdiqlangan tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilgan.

5.3. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan tekshirishlarni tashkil etish, o‘tkazish, tekshiruv materiallari topshirish va davlat organlari tomonidan ro‘rib chiqish tartibi

Hisob palatasining tekshirishlari Hisob palatasining raisi, u bo‘lmagan taqdirda Hisob palatasi raisining o‘rinbosari imzosi qo‘yilgan Hisob palatasining farmoyishiga muvofiq amalga oshiriladi.

Hisob palatasining nazorat faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy-iqtisodiy siyosat masalalari va tashkiliy-nazorat masalalari bo‘yicha davlat maslahatchilari bilan kelishilgan yarim yillik va yillik nazorat ishlari dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Nazorat tadbirlarining yarim yillik va yillik dasturlari asosida tekshirishlarni amalga oshirayotganda Hisob palatasi vazirlik va idoralarning mas'ul xodimlarini, shuningdek malakali mustaqil ekspertlarni jalb etgan holda huquqbuzarliklarning turi va xususiyatini, huquqbuzarliklarning sabablarini aniqlaydi hamda ularni bir tizimga soladi.

Yig'ma dalolatnoma bo'yicha tekshirish obyektidan olingan mulohazalarga javoban tekshiruvchi shaxslar tomonidan besh kun ichida tekshirish obyektining e'tiroz bildirgan vajlari asosliligi xususida xulosa tuziladi.

Tekshirish obyekti tomonidan bildirilgan mulohazalarni qo'shimcha ko'rib chiqish uchun Hisob palatasi vakolatli organlarning malakali mutaxassislarini jalb etishi va ulardan tegishli xulosani talab qilishi mumkin.

Hisob palatasining tekshirishlari Hisob palatasining raisi, u bo'lmagan taqdirda Hisob palatasi raisining o'rinbosari imzosi qo'yilgan Hisob palatasining farmoyishiga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining topshiriqlari bo'yicha tekshirishlarni amalga oshirish chog'ida Hisob palatasi tomonidan tekshirish natijalari bo'yicha tahliliy yozuvlar tayyorlanib, ularda aniqlangan dalillar va davlatning iqtisodiy manfaatlariga yetkazilgan zarar summalari ko'rsatiladi, mazkur yozuvlar tekshirishni tayinlagan organga taqdim etiladi. Hisob palatasi yig'ma dalolatnoma imzolangan kundan boshlab yigirma kun mobaynida tekshirish obyekti yoki uning tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvidagi yuqori organiga ko'rsatma yuboradi, u nazorat tadbiri davomida aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq harakatlar va tadbirlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.



5.2-rasm. **Hisob palatasi tomonidan aniqlangan davlatning iqtisodiy manfaatlariga yetkazilgan zarar summalari**[25]

Hisob palatasi tekshirishlarining jinoyat tarkibi alomatlarini o'z ichiga olgan materiallari tekshirish obyektlari mansabdor shaxslarining harakatlariga huquqiy baho berilishi uchun huquqni muhofaza qilish organlariga topshiriladi.

[25] O'zR MV, DSQ va Hisob palatasining 2006 yil 11 dekabrdagi 101, 2006-52, 11-133-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan tayyorlandi



5.3-rasm. **Davlatning iqtisodiy manfaatlariga yetkazilgan zarar summasini undirish tartibi va yo'llari**[26]

Hisob palatasi materiallari bo'yicha aniqlangan yetkazilgan zararning ixtiyoriy tartibda qoplangan, belgilangan tartibda yoki sudning hal qiluv qarori bo'yicha undirilgan summalari tegishli byudjet hisobvaraqlariga yoki byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning hisobvaraqlariga qayd etiladi hamda Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning daromad va xarajatlarini tasniflashning alohida paragrafi sifatida hisobga olinadi.

[26] O'zR MV, DSQ va Hisob palatasining 2006 yil 11 dekabrdagi 101, 2006-52, 11-133-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan tayyorlandi

Hisob palatasining o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha aniqlangan mablag‘larni qayd etish uchun Moliya vazirligi Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarning daromad va xarajatlari tasnifida qo‘shimcha paragraflar ochadi.

Davlat organlari har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha Hisob palatasini qabul qilingan choralarning natijalaridan xabardor qilib, zarar summasini undirish to‘g‘risida tasdiqlovchi hujjatlarni ilova qiladi.

Davlat organlari yo‘llagan ko‘rsatmalar, Hisob palatasi tekshirishlarining materiallari bilan aniqlangan iqtisodiy zarar summasini undirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 5-kunigacha 1 ilovada keltirilgan shakl bo‘yicha ko‘rish natijalarini o‘zaro solishtirish amalga oshiriladi.

Ularning aybiga ko‘ra Hisob palatasi ko‘rsatmalarining o‘z vaqtida va to‘liq bajarilishi ta’minlanmayotgan tekshirish obyektlari hamda Moliya vazirligi, Davlat Soliq qo‘mitasi hamda Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarning ijrochi direksiyalarining mansabdor shaxslariga nisbatan ma’muriy jazo choralari qo‘llanadi, jinoyat tarkibi alomatlari mavjud bo‘lganida esa - tegishli materiallar ko‘rsatilgan mansabdor shaxslarni tegishli javobgarlikka tortish masalasini ko‘rish uchun O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasiga topshiriladi.

6-BOB. MOLIYAVIY NAZORAT OLIB BORUVCHI ORGANLAR VA ULARNING MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL QILISHDAGI O‘RNI

6.1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning moliyaviy nazoratni tashkil etishi

Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida amalga kiritilgan Byudjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustivorliklarini belgilab olish, byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan.

Ushbu Kodeks O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish va byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Byudjet Kodeksining IX bo‘limi “Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosini nazorat qilish” deb nomlanib, davlat moliyaviy nazorat organlarining moliyaviy nazoratini olib borishdagi vakolatlari keltirilgan.

Davlat moliyaviy nazorati tizimida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank, Davlat soliq qo‘mitasi va ularning quyi bo‘g‘inlari alohida o‘rin tutadi. Moliya-kredit tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratlarning mazmuni va maqsadi belgilangan vakolat doirasidagi amaliy ehtiyojlar bilan belgilanadi.

Moliya organlarining ko‘p qirrali nazorat faoliyati byudjetni rejalashtirish, moliyaviy rejalar va smetalar loyihalarini ko‘rib chiqish, byudjetning barcha daromadlarini to‘plash, davlat byudjeti bilan tegishli moliya yili uchun nazarda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish

jarayonida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 553-son Qaroriga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi haqida” Nizomi (23.11.1992) tasdiqlandi. Qarorga muvofiq Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqisodiy organi sifatida O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasining vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy negiz yaratishni, respublika byudjetini ishlab chiqish va ijro etishni, uning daromad qismi barqarorligini ta’minlashni, valyuta rejasini tuzish va ijro etishni, pul resurslaridan oqilona va tejab sarflashni ta’minlaydi.

Moliya vazirligi respublika byudjeti ham daromadlar, ham xarajatlar bo‘yicha ijro etilishi uchun, moliyaviy resurslarni umumrespublika ehtiyojlariga safarbar etish ishlarini tashkil etish uchun javob beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalari va tuman(shahar)lar hokimliklari moliya bo‘limlari, davlat sug‘urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi.

Moliya vazirligi o‘z tizimiga kiruvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki o‘zi tashkil etadigan organlar orqali muvofiqlashtiradi va yo‘naltiradi.

Bu faoliyatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2847-son (18.03.2017) Qarorining qabul qilinishi muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi markaziy apparati
TARKIBIY TUZILMASI



Respublika moliya organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining soliq-byudjet siyosatiga qat’iy rioya etilishini ta’minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda ijtimoiy sohani barqaror, mutanosib va jadal rivojlantirish, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishga yo‘naltirilgan vazifalari, funksiyalari, ish shakllari va uslublarini qayta ko‘rib chiqish maqsadida quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda uning bo‘linmalari faoliyatining ustuvor vazifalari hamda yo‘nalishlari etib belgilandi:

❖ iqtisodiy o‘sishning barqaror yuqori sur’atlarini, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning moliyaviy mutanosibligini ta’minlashda, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini to‘liq va o‘z vaqtida bajarishda, yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashda moliya organlarining rolini oshirishga yo‘naltirilgan yagona davlat soliq-byudjet siyosatini amalga oshirish;

❖ iqtisodiyot va aholiga soliq yukini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash, mineral-xomashyo, yer-suv hamda boshqa resurslar va uskunalardan oqilona foydalanishda soliq hamda boshqa majburiy to‘lovlarning rag‘batlantiruvchi rolini kuchaytirish yo‘li bilan soliq tizimini izchil takomillashtirib borish, soliq ma’muriyatchiligi samaradorligini oshirish, soliqlar hamda boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash va to‘lash tartibini soddalashtirish, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq yig‘ilishini ta’minlash maqsadida ularning stavkalarini optimallashtirish;

❖ byudjetlararo munosabatlarni tubdan takomillashtirish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining daromad bazasini barcha choralar bilan kengaytirish, viloyatlar va tumanlarni subvensiyadan chiqarib, ularning mutanosibligi va o‘zini o‘zi qoplay olishini ta’minlash, hududlar hokimliklari bilan birgalikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahrini kompleks va intensiv rivojlantirish asosida Davlat byudjetiga qo‘shimcha manbalar jalb etish yuzasidan tizimli ishlarni amalga oshirish, tabiiy va iqtisodiy salohiyatdan yanada to‘liq

va samarali foydalanish, hududlar iqtisodiyotini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash;

❖ moliyaviy resurslarni iqtisodiy taraqqiyotning eng ustuvor yo'nalishlariga, ijtimoiy sohani, ayniqsa qishloq joylarida, jadal rivojlantirishga, maqsadli investitsiya dasturlarini moliyalashtirishga, belgilangan me'yorlarga muvofiq ularni real moliyalashtirish manbalari bilan mustahkamlashga, ushbu asosda kreditorlik va debitorlik qarzlarini kamaytirishga jamlash;

❖ iqtisodiyot bazaviy tarmoqlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish, qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning samarali usul va mexanizmlarini joriy etish, tovarlar va xizmatlarning ayrim turlariga narx va tariflar belgilash tartibini takomillashtirish hamda to'lov intizomini mustahkamlash;

❖ byudjet tizimidagi byudjet mablag'laridan maqsadli hamda oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish, qat'iy iqtisod qilish, ishlab chiqarish va muomala xarajatlarini kamaytirish, nobudgarchilik va talon-torojlikni, maqsadga nomuvofiq chiqimlarni tugatish yuzasidan vazirliklar, idoralar, xo'jalik subyektlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda keng qamrovli profilaktika ishlarini olib borish;

❖ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa valyuta nazorati organlari bilan birgalikda valyuta-moliya siyosatining asosiy tamoyillari va usullarini shakllantirish, davlatning valyuta resurslarini ko'paytirish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

❖ fuqarolarning pensiya ta'minoti sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining mutanosibligini ta'minlash, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan uning zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalar, xususan pensiyalar hamda boshqa tegishli to'lovlarni tayinlash va o'z vaqtida to'lash bo'yicha o'rnatilgan qoidalarning qo'llanilishini muvofiqlashtirish hamda ularni nazorat qilish;

❖ sug‘urta tashkilotlarining sug‘urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlashga qaratilgan faoliyatini nazorat qilish, buxgalterlik hisobi va hisobotining yagona metodologiyasini shakllantirish va amalga oshirish, auditorlik faoliyatini tartibga solish, mamlakatning moliya bozorlarini rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

❖ davlat moliya siyosati sohasida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tashkil etish, Moliya vazirligi, uning markaziy apparati hamda tarkibiy bo‘linmalarining ish shakllarini va usullarini tubdan takomillashtirish, moliya organlari faoliyatida byurokratizm va sansalorlik hollariga yo‘l qo‘ymaslik, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga rioya etilishini ta’minlash, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga o‘z vaqtida e’tibor qaratish, zimmaga yuklatilgan vazifalarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun moliya organlari xodimlarining mas’uliyatini oshirish.

Mazkur qaror asosida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda vazirlik markaziy apparatining boshqaruv xodimlari cheklangan soni 336 nafardan iborat yangi tashkiliy tuzilmasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligining tuzilmasi hamda viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalarining, viloyat markazlari - shahar hokimliklari moliya bo‘limlarining, tuman va shaharlar hokimliklari moliya bo‘limlarining namunaviy tuzilmalari tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziriga, zarur hollarda, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi markaziy apparatining hamda moliya organlari tarkibiy bo‘linmalarining, shuningdek, idoraviy tashkilotlarning tasdiqlangan tuzilmalariga boshqaruv xodimlarining belgilab qo‘yilgan cheklangan soni doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

• Respublika yig‘ma moliya balansining moliyaviy resurslarini shakllantirishning uzoq muddatli va qisqa muddatli istiqbolni belgilashlarini tuzish ishida, shuningdek, umumrespublika maqsadli

byudjetdan tashqari pul jamg‘armalarini shakllantirishda qatnashadi, ularni tashkil etish, foydalanish va miqdorlari tartibi, O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari tomonidan mazkur pul jamg‘armalariga mablag‘ ajratish kvotalari to‘g‘risidagi takliflarni tayyorlaydi;

• respublika va mahalliy byudjetlarni shakllantirishning yangi usullari asosida hududiy moliya-byudjetni, soliqni rejalashtirishni takomillashtiradi;

• moliya-byudjetni va soliqni rejalashtirish, narx belgilash, xalq xo‘jaligi va ijtimoiy-madaniy sohani mablag‘ bilan ta’minlash sohasida uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi, respublika va mahalliy byudjetlardan sarflanayotgan xarajatlar smetasini tuzish, ko‘rib chiqish, tasdiqlash va ijro etishning umumiy qoidalarini belgilaydi;

• amaldagi qonunchilikka muvofiq byudjetni tuzish va ijro etish ishlarini tashkil etadi;

• respublika vazirliklari, idoralari va korxonalari tomonidan respublika byudjetining ijro etilishini, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va respublikaning boshqa banklari tomonidan byudjetning kassa ijrosi qoidalariga rioya qilinishini, shuningdek, banklar tomonidan kapital sarmoyalarni mablag‘ bilan ta’minlashni va byudjet mablag‘lari hisobidan ro‘yobga chiqariladigan boshqa tadbirlarni nazorat qilishni amalga oshiradi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishgan holda respublika byudjeti ijrosiga tegishli masalalarni hal qiladi;

• moliya-valyuta siyosatining asosiy qoidalarini shakllantirish, respublikaning valyuta rejasini (to‘lov balansini) tuzish va ijro qilish, valyuta resurslarini ko‘paytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, ularni oqilona taqsimlash va ulardan samarali foydalanish ustidan nazorat o‘rnatish;

• joriy yilda respublika byudjeti va valyuta rejasining bajarilishi yuzasidan hisobot tayyorlaydi va uni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi;

• mahsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlarning Moliya vazirligiga biriktirilgan nomenklaturasi bo‘yicha chegaraviy narxlari va tariflarini

tasdiqlaydi; xalq xo‘jaligi tarmoqlarida narxlar va tariflarning to‘g‘ri belgilanishi va qo‘llanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi hamda narxlar ustidan davlat, idoraviy va jamoatchilik nazorati darajasini oshirish choralarini ko‘radi;

- qimmatbaho qog‘ozlar bozorini shakllantirish hamda qimmatbaho qog‘ozlar emissiyasi va harakati ustidan nazoratni amalga oshiradi, moliyaviy bozorni shakllantirish ishlarini muvofiqlashtiradi;
- auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarni, shuningdek, auditorlik faoliyatining milliy standartlarini o‘z vakolatlari doirasida ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- auditorlik tashkilotlari tomonidan lisenziya bitimlarida nazarda tutilgan lisenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini nazorat qiladi;
- da’vogarlarga auditor malaka sertifikatini olishlari uchun malaka talablarini belgilaydi;
- soliq maslahatchisi va aktuariy malaka sertifikatlarini olish uchun malaka imtihonini tashkil etish va o‘tkazish tartibini, shuningdek respublika auditorlar birlashmasi bilan kelishgan holda - auditor malaka sertifikatini olish uchun o‘qitish dasturini va malaka imtihonlarini topshirish tartibini tasdiqlaydi;
- soliq maslahatchisi va aktuariy malaka sertifikatlarini olish huquqi uchun malaka imtihonlarini, shuningdek respublika auditorlar birlashmasi ishtirokida auditor malaka sertifikatini olish huquqi uchun malaka imtihonini o‘tkazadi;
- auditorlik faoliyatini lisenziyalashni belgilangan tartibda amalga oshiradi;
- auditor, aktuariy va soliq maslahatchisi malaka sertifikatlarini beradi, ularning amal qilishini to‘xtatib qo‘yadi va ularni bekor qiladi;
- tegishli malaka sertifikatlariga ega bo‘lgan auditorlar, aktuariylar va soliq maslahatchilari reestrlari va auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan lisenziyaga ega bo‘lgan auditorlik tashkilotlari hisobini yuritadi;

• aksionerlik jamiyatlari va cheklangan mas'uliyatli jamiyatlarning yagona reestrini yuritadi, korxonalarning qimmatbaho qog'ozlarini ro'yxatga oladi;

• respublika moliya-valyuta siyosatining asosiy tamoyillarini, shakllantirishda qatnashadi, respublikaning valyuta rejasini (to'lov balansini) tuzadi va ijro etadi, valyuta resurslarini ko'paytirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi, ularni oqilona taqsimlashni hamda ajratilgan valyuta mablag'laridan samarali va maqsadga muvofiq foydalanishni nazorat qilishni ta'minlaydi;

• O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy investorlarning investisiya faoliyatini moliyaviy va soliqlar bilan tartibga solishini amalga oshiradi, respublika iqtisodiyotiga xorijiy sarmoya kelishi uchun qulay moliyaviy shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi;

• respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini mablag' bilan ta'minlash uchun respublika Hukumati tomonidan xorijiy kreditlar jalb qilish zarurati bo'yicha ekspertiza o'tkazadi, hujjatlarni rasmiylashtirishda ishtirok etadi, respublika Hukumati tomonidan olingan xorijiy kreditlarning kelib tushishini hisobga olish va nazorat qilishni amalga oshiradi; O'zbekiston Respublikasining tashqi qarzi o'z vaqtida to'lanishi va tashqi qarz bilan bog'liq ishlar amalga oshirilishini nazorat qiladi;

• turli darajadagi byudjetlarning ijrosi, byudjetdagi muassasalar xarajatlar smetasining ijrosi bo'yicha buxgalterlik hisobini yuritish tartibini belgilaydi;

• O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda byudjetlarning kassa ijrosi bo'yicha hisob-kitob va hisobotlar shakllarini belgilaydi;

• balansning hisob-kitob moddalari, qimmatbaho narsalarni qayta ro'yxatdan o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish tartibini belgilaydi, schyotlarning namunaviy rejalarini, buxgalteriya hisobi va hisobotining namunaviy shakllarini, ularni qo'llash va to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomalarni tasdiqlaydi;

• respublika va mahalliy byudjetlardan mablag‘ bilan ta’minlanadigan korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va muassasalarning moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish qiladi va tekshiradi, respublika byudjetini tuzish va ijro etish bo‘yicha moliya idoralari ishini yaxlit taftish qiladi, zarurat bo‘lganda vazirliklar idoralar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini taftish qiladi va tekshiradi;

• tugallangan taftish va tekshirish natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan zarur ko‘rsatmalar beradi;

• fuqarolarning Vazirlik vakolatiga tegishli xat, taklif, mulohaza va shikoyatlarining o‘z vaqtida va diqqat bilan ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi, shuningdek, fuqarolar tomonidan ma’lum qilingan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘radi;

• O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda qimmatbaho metallar bozorining ahvolini tahlil qiladi;

• qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, ichki iste’mol qilish va eksport qilish prognozlari hamda balanslarini ishlab chiqishda qatnashadi;

• O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki huzuridagi Qimmatbaho metallar agentligi tomonidan mamlakatimiz ishlab chiqaruvchilaridan xarid qilinadigan mahsulotlar narxlarini belgilash hamda davlat tomonidan xarid qilinadigan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar uchun hisob-kitob qilish tartibi bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi.

Moliya vazirligi quyidagi huquqlarga egadir:

• Respublika vazirliklari va idoralaridan, boshqa boshqaruv organlaridan, korxonalar, birlashmalar, muassasalar, tashkilotlardan respublika byudjeti istiqbolini belgilash, valyuta rejasini tuzish va ularning ijrosini nazorat qilishni amalga oshirish uchun materiallarni, buxgalteriya hisob-kitoblari va balanslarni, moliya-byudjet, valyuta va soliq rejalashtirishi, byudjetdan va valyuta jamg‘armasidan sarflanadigan xarajatlarni mablag‘ bilan ta’minlash uchun boshqa materiallar va hisobotlarni, narx belgilashga oid materiallarni olish;

• mablag'larni qonunsiz ravishda sarf qilganliklari yoki ilgari berilgan mablag'larni sarflaganlik to'g'risidagi hisobotlarni va boshqa hisobotlarni taqdim etmaganligi uchun tegishli vazirliklar va idoralar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalarning rahbarlarini xabardor qilgan holda korxonalar, birlashmalar, muassasalar, tashkilotlarni byudjetdan va valyuta jamg'armasidan mablag' bilan ta'minlashni cheklab qo'yish, zarur hollarda umuman to'xtatish hamda Vazirlik huquqi doirasida amaldagi qonunchilikda belgilangan boshqa jazolarni qo'llash;

• iqtisodiyot tarmoqlarini va ijtimoiy sohani rivojlantirishning byudjetni ijro etish davomida paydo bo'luvchi ayrim masalalarini hal qilish uchun respublika byudjetida zaxira tashkil etish;

• byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil qilish;

• amaldagi qonunchilikka muvofiq korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlar uchun qimmatbaho metallar va qimmatli toshlarni olish va ulardan foydalanish tartibini belgilash;

• qimmatbaho metallar va qimmatli toshlarni ularning barcha turlari bo'yicha va har qanday maqsadda (eksport ham shu jumlaga kiradi) qazib oluvchi, izlab topuvchi, qayta ishlovchi va ulardan foydalanuvchi istisnosiz barcha korxonalar, birlashmalar, muassasalar va tashkilotlarda taftish va tekshirishlar o'tkazish, shuningdek, amaldagi qonunchilikka muvofiq metall va toshlar bilan shug'ullanuvchi shaxslar ana shu metall va toshlardan qanday foydalanayotganliklarini nazorat qilishni amalga oshirish;

• taftish va tekshirishlar davomida naqd pullarni, qimmatbaho qog'ozlarni, buxgalteriya hisobi reestrlarini, hisobotlar, smetalar va rejalarni ko'rsatishni talab qilish; soxtaliklar va boshqa suiiste'molliklar aniqlangan hollarda hujjatlar yig'ma jildida hujjatni olganlik to'g'risidagi qaydnoma yoki ana shu hujjatning nusxasini, olib qo'yilgan hujjatlarning reestrini qoldirgan holda zarur hujjatlarni olib qo'yish; boshqa muassasalar, korxonalar va tashkilotlardan tekshirilayotgan obyektlarning a'zollari bilan bog'liq ma'lumotlarni va hujjatlarning nusxalarini olish, moliyaviy faoliyatning aniqlangan buzilishlarini

bartaraf etish to‘g‘risida ularning rahbarlariga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish;

• vazirliklar va idoralar, korxonalar, birlashmalar, muassasalar, tashkilotlarning hisobotlari va balanslariga zarur tuzatishlar kiritish yuzasidan takliflar berish, shuningdek, ana shu takliflarni bajarish uchun ko‘rilgan chora-tadbirlarni tekshirish;

• mahsulotlarni sotish hajmlari va soliq stavkalarining o‘zgarishi bilan bog‘liq daromadlar va daromad manbalari bo‘yicha viloyatlar bo‘yicha o‘zgarishlar kiritish;

• auditorlik tashkilotlarida lisenziya bitimlarida nazarda tutilgan lisenziya talablari va shartlariga rioya qilinishini tekshirish;

• hududlar bo‘yicha undirilishi lozim bo‘lgan barcha soliqlar va to‘lovlarning to‘liq tushumidan, shuningdek Davlat byudjetining birinchi navbatdagi xarajatlarini (hisoblangan qo‘shimchalar bilan birga ish haqi, stipendiyalar, nafaqalar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarni) so‘zsiz moliyalashtirish zarurligidan kelib chiqqan holda, daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi vaqtinchalik kassa uzilishlarini qoplash uchun tegishli byudjetlarga ajratiladigan dotatsiyalar, maqsadli subvensiyalar va byudjet ssudalari miqdorlarini aniqlash.

Moliya vazirligi hay’ati muntazam o‘tkaziladigan o‘z majlislarida moliyaviy mexanizmni takomillashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil etishning, respublika byudjeti loyihasi va ijrosini tuzishning asosiy masalalarini hamda Vazirlik faoliyatining boshqa masalalarini, Vazirlik tizimidagi muassasalar, korxonalar va tashkilotlarga amaliy rahbarlik qilish masalalarini, muhim buyruqlar, qoidalar, yo‘riqnomalar va boshqa me’yoriy aktlarni ko‘rib chiqadi.

Hay’at qarori, odatda, Vazirning buyrug‘i bilan hayotga tatbiq etiladi. Vazir bilan hay’at o‘rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan holda Vazir o‘z qarorini hayotga tatbiq etadi, paydo bo‘lgan kelishmovchiliklar haqida Vazirlar Mahkamasiga axborot beradi, o‘z navbatida hay’at a’zolari ham o‘z fikr-mulohazalarini Vazirlar Mahkamasiga bildirishlari mumkin.

Moliya-byudjetni rejalashtirish va respublika iqtisodiyotini mablag‘ bilan ta’minlash metodikasini, buxgalteriya hisobi va hisoboti, nazorat-taftish ishlari, soliq maslahati, narx belgilash masalalari metodologiyasini takomillashtirish borasidagi takliflarni ko‘rib chiqish uchun tegishli masalalar bo‘yicha yuqori malakali mutaxassislar, ilmiy muassasalarning xodimlari, boshqa tashkilotlarning vakillaridan iborat metodologik va boshqa kengashlar tuzilishi mumkin. Bu kengashlarning tarkibi va ular haqidagi nizom Vazir tomonidan tasdiqlanadi.

Moliya vazirligi moliya, narx, kredit, pul muomalasi, tovar-pul munosabatlarining butun jami sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning nazariy darajasini, sifatini va amaliy ahamiyatini oshirish chora-tadbirlarini ko‘radi, xalq xo‘jaligini boshqarish amaliyotida iqtisodiy vositalar va rag‘batlarning butun majmuidan samaraliroq foydalanishga qaratilgan aniq takliflarni ishlab chiqish uchun iqtisodiy ixtisosdagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o‘zaro hamkorlikni mustahkamlaydi.

Moliya vazirligining markaziy apparati tuzilmasi, xodimlari soni, mehnatga haq to‘lash fondi miqdori Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Moliya vazirligi markaziy apparatining shtat jadvali, shuningdek, uning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari haqidagi nizom Moliya vaziri tomonidan tasdiqlanadi.

Moliya vazirligi yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan va o‘z nomi yozilgan muhrga ega.

❖ Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tayyorlaydi hamda ularni tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

❖ soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ularning manbalari kesimida to‘liq va o‘z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

❖ tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

❖ byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag'lari oluvchilarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini yetkazadi;

❖ byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini hamda byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

❖ Byudlet Kodeksida nazarda tutilgan tartibda tegishli byudjetlar parametrlariga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritadi;

❖ tegishli byudjetlarning mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

❖ yuqori turuvchi moliya organlariga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga tegishli byudjetning ijrosi to'g'risida har choraklik hisobotlarni taqdim etadi;

❖ byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

❖ tegishli byudjetlar ijrosining byudjet hisobini yuritadi;

❖ mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari balansliligiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarini moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya boshqarmalari ko'rsatilgan vakolatlar bilan bir qatorda:

-Davlat byudjeti daromadlari prognozini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga har chorakda tegishli ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha yetkazadi;

-byudjet ssudalarini beradi.

Hududiy moliya organlari qonun hujjatlariga muvofiq byudjet sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar

hokimliklarining moliya boshqarmalari, tumanlar va shaharlar hokimliklarining moliya bo'limlari o'z vakolatlari doirasida[27]:

- ❖ quyi turuvchi moliya organlari tomonidan byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosining ta'minlanishi ustidan;
- ❖ ijtimoiy nafaqalar va kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam tayinlanishi hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan;
- ❖ byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar tomonidan smeta-shtat intizomiga rioya etilishining ta'minlanishi ustidan;
- ❖ aksiz solig'i to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi ustidan;
- ❖ aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarning aksiz markalari bilan to'liq tamg'alanishi va olingan aksiz markalari sonining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga muvofiqligi ustidan;
- ❖ byudjet tashkilotlari tomonidan byudjet hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning, shuningdek quyi turuvchi hududiy moliya organlari tomonidan byudjet hisobotini tuzishning to'g'riligi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

6.2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tarkibiy tuzilishi, vazifalari, huquq va majburiyatlari

Davlat moliyaviy nazorati byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati Bosh boshqarmasi mavjud bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy

[27] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2013-yil 26-dekabr kuni imzolangan O'RQ- 360-son bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi"

nazorati bosh boshqarmasi to‘g‘risida Nizom” 870-son qaroriga asosan faoliyat yuritadi.

Bosh boshqarma moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini, byudjet tizimi byudjetlari mablag‘lari maqsadli sarflanishini, moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan byudjet qonunchiligiga, shuningdek byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat moliyaviy nazorat organi hisoblanadi.

Bosh boshqarma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Byudjet Kodeksi va boshqa qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, o‘z nizomiga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladilar.

Bosh boshqarmaning o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

Bosh boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi va o‘z faoliyatida bevosita O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziriga bo‘ysunadi va hisobot beradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat moliyaviy nazorati boshqarmalari o‘z faoliyatida bevosita Bosh boshqarmaga bo‘ysunadilar va hisobot beradilar.

Bosh boshqarmaning hududiy boshqarmalari yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va davlat tilida o‘z nomi yozilgan muhrga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligida g‘azna hisobvaraqlariga ega bo‘ladi.

Quyidagilar Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalarining vazifalari hisoblanadi:

❖ byudjet tashkilotlarida byudjet mablag‘larini boshqarish va byudjet hisobini yuritish bo‘yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy

mahsulotlar vositasida byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilish;

❖ byudjet qonunchiligiga rioya etish bo'yicha byudjet tashkilotlari bilan tizimli asosda profilaktika ishlarini olib borish;

❖ byudjet tashkilotlarida aniqlanayotgan pul mablag'lari va moddiy boyliklarni talon-toroj qilish, kamomadlarga yo'l qo'yish, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish tartibini buzish va byudjet qonunchiligini boshqacha tarzda buzish holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

❖ masofaviy nazoratni keng ko'lamda qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma'lumotlar bazasi vositasida tekshirish obyektlari va maqsadlarini aniqlash yo'li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda byudjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish;

❖ O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'laridan foydalanishda byudjet qonunchiligiga hamda byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

❖ O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan), shuningdek insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

❖ davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi boshqa jamg'armalar mablag'laridan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

❖ o'z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash;

❖ moliya inspektori lavozimi joriy etilgan tashkilotlarda aksiz solig'ini to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan nazorat o'rnatish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 15 maydagi 363-son qaroriga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi. Unga ko‘ra boshqarmaga quyidagi qo‘shimcha vazifalar yuklatildi:

• paxta tozalash korxonalarida hisobga olish va hisobotning haqqoniyligi ustidan davlat nazoratini amalga oshirilishini ta’minlash sohasida;

• paxta xomashyosini qabul qilish, qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilish jarayonlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali monitoring qilish va profilaktika tadbirlarini tashkillashtirish;

• paxta xomashyosini qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulotlar haqiqiy miqdorini hamda ishlab chiqarish kuyindilarining tasdiqlangan normativlarga muvofiqligini tekshirish;

• qabul qilingan paxta xomashyosi va uni qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulotlar harakati hisobi va hisobotlari haqqoniyligini nazorat qilish;

• qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilaridan qabul qilingan paxta xomashyosi uchun amalga oshirilgan yakuniy hisob-kitoblarning to‘g‘riligi yuzasidan nazorat olib borish;

• tayyorlangan urug‘lik chigitlarning texnik talablar hamda navlarni joylashtirishning belgilangan topshiriqlarga muvofiqligi yuzasidan nazoratni amalga oshirish;

• ma’lumotlar bazasini shakllantirish, umumlashtirish va hisobini yuritish orqali qonun buzilishi holatlari oldini olish bo‘yicha profilaktika ishlarini olib borish.

Shuningdek, davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish jarayonida aniqlangan xato kamchiliklarni bartaraf etish, maqsadsiz va noqonuniy xarajatlarni, pul mablag‘lari va tovar-moddiy boyliklar kamomadini undirish, paxta xom-ashyosi va uning mahsulotlari miqdorini aniqlangan kamomadga asosan hisobotlardan chiqarib tashlash hamda nazorat obyekti aybdor shaxslarini javobgarlikka tortish yuzasidan majburiy tusga ega taqdimnomalar kiritish.

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari o‘zlariga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) byudjet tashkilotlarida byudjet mablag‘larini boshqarish va byudjet hisobini yuritish bo‘yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilish sohasida:

-xarajatlar smetasiga kiritilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni haqqoniyligi va ularni amaldagi normativlarga muvofiqligi yuzasidan dastlabki nazoratni o‘tkazish;

-mehnatga haq to‘lash bo‘yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo‘shimchalar va boshqa to‘lovlar miqdorlariga rioya etilishi ustidan dastlabki nazoratni amalga oshirish;

-xodimlarning belgilab qo‘yilgan cheklangan umumiy soniga, xodimlarning toifalari o‘rtasidagi o‘zaro nisbat normativlariga, namunaviy shtat normativlariga rioya etilishi yuzasidan dastlabki nazoratni amalga oshirish;

-tarifikatsiya ro‘yxatlarini tuzishning qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibi va normativlariga rioya etilishi yuzasidan dastlabki nazoratni o‘tkazish;

b) byudjet qonunchiligiga rioya etish bo‘yicha byudjet tashkilotlari bilan tizimli asosda profilaktika ishlarini olib borish sohasida:

-byudjet tizimi byudjetlari xarajatlarini rejalashtirish davrida profilaktika ishlarini kuchaytirish va uning samaradorligini oshirish;

-elektron tarzda byudjet tizimi byudjetlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi jamg‘armalar va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat xaridi uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va qishloq xo‘jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg‘armasi mablag‘larining harakati to‘g‘risida tegishli manbalardan olinadigan ma’lumotlarni tahlil qilish asosida moliyaviy huquqbuzarliklarni sodir etilishi xavfi mavjud bo‘lgan moliyaviy nazorat obyektida profilaktika ishlarini olib borish;

-hududiy moliya organlari va g‘aznachilik bo‘linmalarida byudjet qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlash yuzasidan profilaktika ishlarini olib borish;

d) byudjet tashkilotlarida aniqlanayotgan pul mablag‘lari va moddiy boyliklarni talon-toroj qilish, kamomadlarga yo‘l qo‘yish, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish tartibini buzish va byudjet qonunchiligini boshqacha tarzda buzish holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish sohasida:

-moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini olib borish uchun ma’lumotlar bazasini shakllantirish, umumlashtirish va hisobini yuritish;

-byudjet tizimi byudjetlari va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi jamg‘armalar mablag‘laridan foydalanishda masofadan kuzatish tizimini va kameral nazoratni joriy etish orqali tekshirishlar samaradorligini oshirish;

-moliyaviy nazorat va huquqbuzarliklar profilaktikasi shakllari hamda usullarini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

-aniqlanayotgan tizimli va xarakterli moliyaviy huquqbuzarliklarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish yuzasidan Davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish bo‘yicha idoralararo kengashga tegishli takliflar kiritish;

e) masofaviy nazoratni keng ko‘lamda qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma’lumotlar bazasi vositasida tekshirish obyektlari va maqsadlarini aniqlash yo‘li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda byudjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish sohasida:

-bir hudud yoki sohada aniqlangan xarakterli moliyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan respublika hududidagi nazorat obyektlarida tizimli tekshirishlarni o‘tkazish;

-moliyaviy huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon yaratuvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo‘yicha moliyaviy nazorat obyektlariga taqdimnomalar kiritish;

-byudjet tizimi byudjetlari mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va maqbullashtirish bo‘yicha tahliliy ishlarni amalga oshirish hamda tegishli takliflar ishlab chiqish;

f) O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘laridan foydalanishda byudjet qonunchiligiga hamda byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish sohasida:

-O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘laridan maqsadli foydalanilishida byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-davlat investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun markazlashgan manbalardan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-ijtimoiy nafaqalar va moddiy yordam to‘lovlari uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

- O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik muassasalari tomonidan chet el valyutasidagi mablag‘lardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-byudjet ssudalaridan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalarini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibiga rioya etilishi yuzasidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish;

-davlat xaridlari sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-qonun hujjatlarining avvalgi taftishda yoki tekshirishda aniqlangan buzilishi hollarini bartaraf etish yuzasidan nazorat tartibidagi tekshirishlarni tashkil etish;

-davlat nazorati hujjatlarini umumlashtirish, ular yuzasidan tegishli axborotlar va takliflar tayyorlash;

-davlat moliyaviy nazorati natijalarida aniqlangan xato-kamchiliklarni bartaraf etish, maqsadsiz va noqonuniy xarajatlarni, pul mablag‘lari va tovar-moddiy boyliklar kamomadini undirish, nazorat

obyekti aybdor shaxslarini javobgarlikka tortish yuzasidan taqdimnomalar tayyorlash;

-nazorat tadbirlarini muvofiqlashtirish va uslubiy jihatdan ta'minlash;

-ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni yuritish, qonunda ko'zda tutilgan ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etilishini tashkillashtirish;

-davlat moliyaviy nazorati natijalari bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirilgan materiallar harakatini monitoring qilish;

g) O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan), shuningdek insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'laridan maqsadli foydalanilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish sohasida:

-O'zbekiston Respublikasi tomonidan yoki uning kafolati ostida jalb qilingan kreditlardan (qarzlardan) va kredit liniyalaridan maqsadli foydalanilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-insonparvarlik yordami va texnik ko'maklashish mablag'laridan maqsadli foydalanilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-investitsiya loyihalari uchun byudjet tizimi byudjetlari hamda grant mablag'lari hisobidan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi, loyiha-smeta hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish;

h) davlat maqsadli va boshqa jamg'armalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi jamg'armalar mablag'laridan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish sohasida:

-davlat maqsadli jamg'armalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi jamg'armalar mablag'laridan foydalanilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va uning tarkibidagi tashkilotlarni saqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasidan ajratilgan mablag'laridan maqsadli foydalanishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan buyurtmachi-tashkilotlarga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo‘l jamg‘armasining mablag‘lari hisobidan yo‘l va boshqa obyektlarda bajarilgan qurilish, rekonstruksiya, kapital ta’mirlash va ekspluatatsiya (joriy ta’mirlash, saqlash, qish mavsumida saqlash va ko‘kalamzorlashtirish) ishlari hajmlari hisobotlarda va haqiqiy xarajatlar buxgalteriya hujjatlarida to‘g‘ri aks ettirilganligi, shuningdek xomashyo va boshqa materiallarni amaldagi normativlarga asosan hisobdan chiqarilishini tekshirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasidan buyurtmachi-tashkilotni saqlash uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-meliorativ dastur doirasida sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash tadbirlari uchun ajratilgan mablag‘larni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash-tiklash ishlariga maqsadli sarflanishi hamda bajarilgan ishlar hajmlarini hisobotlarda va haqiqiy xarajatlarini buxgalteriya hujjatlarida to‘g‘ri aks ettirilganligi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasining meliorativ texnikasini sotib olish uchun ajratilgan (uzoq muddatli imtiyozli lizing, qarz) mablag‘laridan maqsadli foydalanishni tekshirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini maqsadli sarflanishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlarni to‘g‘ri tayinlanishi, hisoblanishi, o‘z vaqtida moliyalashtirilishi va to‘lanishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar tashkilotlardagi fuqarolarning pensiya yig'majildlarida mavjud bo'lgan ish stajini tasdiqlovchi va ish haqi to'g'risidagi hujjatlar to'g'riligi va haqqoniyligini tekshirish;

-tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari xizmati faoliyatini nazorat qilish;

-shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarilishi, o'z vaqtida to'lanishi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat-tijorat Xalq banki va uning filiallarida fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'laridan maqsadli foydalanilishi hamda foizlar to'g'ri hisoblab chiqarilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini maqsadli sarflanishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat xaridi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasi mablag'larining hisob-kitoblarga asoslangan holda to'liq va o'z vaqtida o'tishi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish;

-O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Xususiylashtirilgan korxonalarga ko'maklashish jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi, Respublika maqsadli kitob jamg'armasi, "Sof ichimlik suvi" jamg'armasi va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa jamg'armalar mablag'larini maqsadli sarflanishi yuzasidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish;

i) o'z vakolatlari doirasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlash sohasida:

-jismoniy va yuridik shaxslarning, shuningdek moliyaviy nazorat obyektlarining (davlat moliyaviy nazorati natijalari bo'yicha e'tirozlar) murojaatlarini ko'rib chiqish (o'rganish va tekshirish);

-kelib tushgan va ko'rib chiqilgan (o'rganilgan, tekshirilgan) murojaatlarini umumlashtirish, tahlil qilish va ularning natijalari bo'yicha tegishli choralar ko'rish;

j) moliya inspektori lavozimi joriy etilgan korxonalarda aksiz solig'ini to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan nazorat o'rnatish sohasida:

-moliya inspektorlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ro'yhati tasdiqlanadigan korxonalarda alohida mahsulot turlari bo'yicha aksiz solig'ini to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish;

-aksiz solig'i to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarning aksiz markalari bilan to'liq markalanishi va olingan aksiz markalari sonining ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga muvofiqligini taqqoslab borish;

-aksiz solig'i solinadigan ayrim turdagi mahsulotlarni sotilishi bo'yicha belgilangan tartiblarga amal qilinishi yuzasidan nazorat o'rnatish;

-har oyda aksiz markalarining haqiqatda mavjudligini xatlash, shikastlangan aksiz markalarini yo'qotishga topshirishdan oldin ularni sonini buxgalteriya hisobotlariga muvofiqligini o'rganish;

-haqi oldindan to'lanmagan mahsulotni iste'molchiga yuklab jo'natilishi, aksiz solig'i bo'yicha hisobot buzib ko'rsatilishi, aksiz solig'i hisoblanishi va to'lanishi hamda aksiz markalari bilan markalash tartibini buzilishi, o'simlik yog'i korxonalarida tayyor mahsulot chiqishining belgilangan normativlari bajarilmasligi hollari to'g'risida tegishli chora-tadbirlar ko'rish uchun vakolatli organlarni tezkor xabardor qilish.

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham bajarishi mumkin.

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari o‘zlariga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

-davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, banklardan, g‘aznachilik bo‘linmalaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish yuzasidan zarur bo‘lgan ma’lumotlarni so‘rash va olish;

-nazorat obyektlarining elektron ma’lumotlar bazasi va axborot resurslaridan foydalanish;

-boshqa davlat moliyaviy nazorat organlari, vazirlik va idoralarning ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari bilan axborot almashish;

-G‘aznachilik bo‘linmalaridan, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklaridan byudjet tizimi byudjetlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat xaridi uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qishloq xo‘jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg‘armasi, Moliya vazirligi huzuridagi jamg‘armalar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa jamg‘armalar mablag‘larining harakati to‘g‘risida ma’lumotlar so‘rash va olish;

-yozma so‘rov asosida davlat moliyaviy nazorati sohasida Bosh boshqarmaga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bank va tijorat sirini tashkil etuvchi byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag‘lari oluvchilar haqidagi ma’lumotlarni olish;

-O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki filiallaridan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga kelib tushgan pensiya badallari to‘g‘risida ma’lumotlarni so‘rash va olish;

-davlat xaridlari bo‘yicha savdolarni o‘tkazuvchi tashkilot va muassasalarning maxsus axborot portalidan (yopiq qismidan) foydalanish;

-davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishda maxsus kasbiy bilimlarni talab etadigan masalalarni ko‘rib chiqish uchun davlat va

xo'jalik boshqaruvi organlari hamda boshqa tashkilotlarning mutaxassislarini ekspert sifatida jalb etish;

-nazorat obyektining mansabdor va boshqa mas'ul shaxslardan moliyaviy nazorat tadbiri jarayonida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha tushuntirishlar berishni talab qilish;

-nazorat obyekti mansabdor va boshqa mas'ul shaxslarining tushuntirishlar berish va nazorat tadbiri natijalari bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlarni imzolashdan bosh tortganliklari to'g'risidagi dalolatnomani tuzish;

-zarur hollarda, kassa va kassa binolari, omborlar, arxivlar va boshqa binolarni muhrlash, qalbakilashtirish, soxtalashtirish va boshqa suiste'molliklar alomatlari aniqlangan taqdirda esa nazorat obyekti tegishli hujjatlarini olib qo'yish, shuningdek nazorat obyekti mansabdor shaxslaridan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni xatlovdan o'tkazilishini talab qilish;

-davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, maqsadsiz va noqonuniy xarajatlarni, pul mablag'lari va tovar-moddiy boyliklar kamomadini undirish, nazorat obyekti aybdor shaxslarini javobgarlikka tortish yuzasidan majburiy tusga ega taqdimnomalar kiritish.

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari quyidagilarga majbur:

-o'ziga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni sifatli bajarish;

-davlat moliyaviy nazorati natijalariga doir hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarning ishonchliligi, xolisligi va to'liqligini ta'minlash;

-davlat sirlarining hamda nazorat obyektlarining qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash;

-hududiy boshqarmalar tomonidan aniqlangan xarakterli huquqbuzarliklar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Bosh boshqarmani xabardor qilish.

Bosh boshqarmaga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi.

Bosh boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Bosh boshqarma xodimlari va hududiy boshqarmalar boshliqlari Bosh boshqarma boshlig‘ining tavsiyanomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Hududiy boshqarmalar boshlig‘i o‘rinbosarlari – bo‘lim boshliqlari, bosh moliya inspektorlari va moliya inspektorlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan Bosh boshqarmaning hududiy boshqarmalari boshlig‘i tavsiyanomasi bilan Bosh boshqarma boshlig‘i bilan kelishilgan holda tayinlanadi.

Hududiy boshqarmalar bo‘lim boshliqlari hududiy boshqarma boshlig‘i tomonidan Bosh boshqarma boshlig‘i bilan kelishilgan holda tayinlanadi lavozimidan ozod etiladi.

Bosh boshqarma boshlig‘iga quyidagi vakolatlar berilgan:

-Bosh boshqarma faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;

-Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari xodimlariga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar beradi;

-O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rahbariyatiga Bosh boshqarmaga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga muvofiq xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan bo‘shatish va boshqa ishga o‘tkazish, xodimlarni rag‘batlantirish va intizomiy jazolar qo‘llash bo‘yicha takliflar kiritadi;

-O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rahbariyatiga Bosh boshqarmaning hududiy boshqarmalari boshliqlarini rag‘batlantirish va intizomiy jazolar qo‘llash bo‘yicha takliflar kiritadi;

-Bosh boshqarmaning hududiy boshqarmalari faoliyati ustidan tashkiliy va uslubiy rahbarlikni hamda nazoratni amalga oshiradi;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Bosh boshqarma boshlig'i unga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar bo'ladi.

Bosh boshqarma boshlig'i birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlarining funksional vazifalari qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri tomonidan belgilanadi.

Hududiy boshqarmalar boshliqlari:

-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rahbariyatiga Bosh boshqarmaning hududiy boshqarmalari boshlig'i o'rinbosarlari-bo'lim boshliqlari, bosh moliya inspektorlari va moliya inspektorlarini ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish va ishdan ishga o'tkazish bo'yicha takliflar kiritadi;

-O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga muvofiq Bosh boshqarmaning hududiy boshqarmalari xodimlarini rag'batlantirish va ularga intizomiy jazolar qo'llash hamda xizmat safarlariga yuborish to'g'risida buyruqlar chiqaradi;

-xatlar va xizmat guvohnomalari, shuningdek moliyaviy nazoratni o'tkazish huquqini beruvchi bir martalik guvohnomalar va buyruqlarni imzolaydi;

-boshqarma ishlarini tashkil etish va boshqarish, o'zining vakolati doirasida boshqarma xodimlariga bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi, ularni ishga tayinlaydi, ishdan ishga ko'chiradi va egallab turgan lavozimidan ozod etadi (boshliq o'rinbosarlari – bo'lim boshliqlari, bo'lim boshliqlari, bosh moliya inspektorlari va moliya inspektorlari bundan mustasno);

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Hududiy boshqarmalar boshliqlari ularga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarilishi yuzasidan shaxsan javobgar bo'ladilar.

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari o'z ishlarini tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri va Bosh

boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan yillik nazorat rejasi asosida amalga oshiradi.

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda rejadan tashqari moliyaviy nazoratni amalga oshirishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ro'yhati tasdiqlangan korxonalarda (etil spirti va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar bundan mustasno) moliya inspektorlari lavozimi joriy etiladi.

Etil spirti va alkogolli mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalarga moliya inspektori lavozimi etil spirti va alkogolli mahsulotlar chiqarishga litsenziya berilishiga qarab O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Bosh boshqarmaning hududiy boshqarmalari tavsiyanomasiga muvofiq joriy etiladi, litsenziyaning amal qilishi to'xtatilganda yoxud bekor qilinganda ushbu lavozim tugatiladi.

Bosh moliya inspektorlari va moliya inspektorlari Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari tarkibida faoliyat yuritadi, ular bilan mehnat shartnomasi bir yil muddatga tuziladi. Shartnoma muddati tugashi bilan mehnat shartnomasi qonun hujjatlariga muvofiq yangi muddatga qayta tuzilishi mumkin.

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari xodimlari (moliyaviy nazorat funksiyasi yuklatilmagan xodimlar hamda moliya inspektorlari bundan mustasno) attestatsiyasi har 3 yilda o'tkaziladi. Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari moddiy-texnika ta'minoti O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy rivojlantirish jamg'armasi va qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari xodimlariga tasdiqlangan xarajatlar smetasida iqtisod bo'lgan ish haqi fondi doirasida sog'liq uchun xavflilik belgilangan nazorat obyektlarida o'tkazilgan

nazorat tadbirlari davriga Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari xodimlariga ularning lavozim maoshiga nazorat obyektining moliya-iqtisod xodimlariga belgilangan miqdorda qo'shimcha to'lovlar to'lanadi.

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari xodimlariga ularning o'z faoliyatida xizmat vazifalarini vijdonan va tashabbuskorlik bilan bajarganligi hamda ishdagi yuksak yutuqlari uchun bir yo'la to'lanadigan mukofot to'lovlari O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Moliyaviy nazorat obyektlarining mansabdor shaxslari Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalari xodimlari tomonidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga majburdirlar. Moliya inspektorlari lavozimlari joriy etiladigan korxonalar tomonidan moliya inspektorlari faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar bilan ta'minlanadi. Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalarining qonun hujjatlariga muvofiq ko'rsatma va taqdimnomalarini bajarmaslik, ma'lumot taqdim etmaslik yoxud bila turib noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish, hamda ularga har qanday shaklda ta'sir ko'rsatish taqiqlanadi va qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

O‘bekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasining tashkiliy TUZILMASI



Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi quyidagi tashkiliy tuzilmaga egadir[28]:

Davlat moliyaviy nazorati boshboshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tayinlanadigan boshliq boshchilik qiladi.

Byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish boshqarmasiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tayinlanadigan boshliq boshchilik qiladi. Byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish boshqarmasi boshlig'i ayni vaqtda Bosh boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy boshqarmalariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tayinlanadigan boshliqlar boshchilik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy boshqarmalarining byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish bo'limlariga O'zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tayinlanadigan boshliqlar boshchilik qiladi. Byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilish bo'limlari boshliqlari ayni vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar nazorat-taftish boshqarmalari boshliqlarining birinchi o'rinbosarlari hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasining asosiy vazifalaridan biri moliya organlari, byudjet muassasalari tomonidan byudjet va moliya qonunchiligi hamda byudjet majburiyatlarining ijrosi bilan bog'liq bo'lgan boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash ustidan nazoratni amalga oshirish hisoblanadi.

Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Davlat moliyaviy nazorati boshqarmalari o'z ish-faoliyatini Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yillik ish rejalariga asosan amalga oshiradi.

[28] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 oktyabrdagi 870-sonli qarori



Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Davlat moliyaviy nazorati boshqarmalari, zarur bo'lgan hollarda, moliya organlari va byudjet muasasalari faoliyatini rejadan tashqari taftish va tekshiruvdan o'tkazishadi, maxsus vakolatli organ ruxsati bilan esa, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish va nazorat qilishadi.

6.3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligining byudjet ijrosini nazorat qilishdagi faoliyatining xususiyatlari

Moliya organlari ichida g‘aznachilik tizimi moliyaviy nazoratni amalga oshirishda muhim o‘rin egallaydi.

Bizga ma’lumki, 2004 yil 26 avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi 664-II-son Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunda ko‘rsatilishicha, “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi davlat byudjetining barcha daromadlarini yagona g‘azna hisobraqamiga kiritishdan, shuningdek, davlat byudjetining xarajatlarini shu hisobraqamdan to‘lashdan iborat”.[29]

Davlat byudjeti g‘azna ijrosining asosiy tamoyillari - kassaning yagonaligi hamda buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etishning yagonaligidan iborat. Davlat byudjetining g‘azna ijrosi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladigan maxsus vakolatli moliya organi hamda uning Qorag‘alpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlardagi hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat moliyasini boshqarish - davlat o‘z vazifalarini samarali bajarishini ta’minlash, moliyaviy resurslarni safarbar qilishda ma’lum samaraga erishish, yagona tizim asosida moliyaviy resurslarni taqsimlash va ishlatish va nihoyat iqtisodiy barqarorlashtirish va jamiyat rivoji uchun sharoit yaratish borasida davlat tomonidan ko‘riladigan tadbirlar yig‘indisidir.

Davlat moliyasini boshqarishning institutsional tarkibida, boshqa vakolatli organlar bilan bir qatorda, G‘aznachilik ham alohida muhim o‘rin egallaydi. G‘aznachilik – byudjetdan mablag‘ oluvchilarning majburiyatlarini ijroga qabul qiladi va byudjet tashkilotlariga yetkazib berilgan tovar mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun G‘aznachilik ularning nomidan va ularning topshirig‘iga binoan vakolatni o‘z zimmasiga oladi va byudjet mablag‘larining maqsadli

[29] O‘zbekiston Respublikasining “Davlat budjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi Qonuni. 4-modda.

ishlatilishini ta'minlash va nazorat qilish asosida to'lovlarni amalga oshiradi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosi deganda davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalarning mablag'lari to'planadigan va ushbu mablag'lar doirasida aniq belgilangan yo'nalishlar bo'yicha xarajatlar amalga oshiriladigan yagona g'azna hisobraqami orqali davlat byudjetining ijro etilishi hamda shu orqali davlat moliyasini maqsadli va samarali boshqarishni tashkil etish tushuniladi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosiga o'tishgacha bo'lgan davrda byudjet ijrosi jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirilar edi:

- byudjet tushumlarini taqsimlash;
- tegishli byudjetlarda jamlangan mablag'larni byudjetdan mablag' oluvchilarning ularga xizmat ko'rsatuvchi banklarda ochilgan hisobraqamlariga o'tkazish.

Davlat byudjeti ijrosining bunday tartibida byudjet mablag'larining keyingi taqdiri butunlay foydalanuvchilarning ixtiyoriga bog'liq bo'lib qoldi. Davlat byudjeti mablag'laridan qay darajada samarali va oqilona foydalanilganligini esa faqatgina buxgalteriya hisobotlari orqali so'nggi nazorat usullaridan foydalangan holda tekshirish mumkin edi.

Mazkur muammolarni e'tiborga olgan holda, Davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilish tadbirlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tizimida byudjetni g'aznachilik orqali ijro etish uchun mas'ul bo'lgan institutsional tuzilma shakllantirildi.

2007 yilda Davlat byudjetining g'azna ijrosini tadbiq etish hisobiga byudjet tizimini yanada isloh etish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, barcha darajalardagi byudjet daromadlari va xarajatlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida Moliya vazirligi Davlat byudjetining g'azna ijrosini tadbiq etish va uslubiyoti boshqarmasi hamda mahalliy moliya organlarining

g‘aznachilik bo‘linmalari negizida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etildi.

Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014 yilda “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi hamda “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi amalga kiritildi. Yangi Byudjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2016 yil 22 noyabrdagi 88-son buyrug‘iga asosan “O‘zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g‘azna ijrosi Qoidalari” tasdiqlandi. (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 22 dekabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2850).

Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-son “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq Yagona g‘azna hisobvarag‘ini qo‘llash orqali O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlari, shuningdek boshqa maqsadli jamg‘armalar byudjetlarining maxfiy xususiyatga ega bo‘lmagan daromad va xarajatlarining g‘azna ijrosini amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Mazkur Qoidalarning amal qilishi byudjet tizimi byudjetlari va BMJ byudjetlarining g‘azna ijrosi jarayonida ishtirok etuvchi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari, g‘aznachilik bo‘linmalari va buyurtmachilarga tatbiq etiladi.

G‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan yuridik majburiyatlar, shuningdek ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar ular g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng kuchga kiradi. Bunda yuridik majburiyatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjatlar g‘aznachilik bo‘linmalarida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun joriy moliya yilining 25 dekabridan kechiktirmay taqdim qilinadi.

Bunda “UzASBO” DMga ulangan buyurtmachilar to‘lov topshiriqnomalari va g‘azna memorial orderlarini “UzASBO” DMda shakllantiradi va elektron hujjat shaklida elektron raqamli imzo bilan tasdiqlagan holda g‘aznachilik bo‘linmalariga yuboradi. “UzASBO” DM orqali elektron hujjat shaklida elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda g‘aznachilik bo‘linmalariga yuborilgan elektron to‘lov topshiriqnomalari va g‘azna memorial orderlari qog‘oz shaklida rasmiylashtirilmaydi. To‘lov topshiriqnomalari va g‘azna memorial orderlarining elektron shaklda rasmiylashtirilishi va ulardagi ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun buyurtmachilar javobgar hisoblanadi.

Xarajatlarni to‘lashga to‘lov topshiriqnomalari va g‘azna memorial orderlari g‘aznachilik bo‘linmalariga to‘lov amalga oshiriladigan sanadan kechi bilan bir ish kuni oldin taqdim etiladi. Buyurtmachilar elektron to‘lov topshiriqnomalari va g‘azna memorial orderlarini g‘aznachilik bo‘linmalariga “UzASBO” DM orqali to‘lovni amalga oshirish kunida yuborishi mumkin.

Bunda g‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim qilingan to‘lov topshiriqnomalari va g‘azna memorial orderlari o‘n kun muddatgacha amal qiladi.

Buyurtmachilar g‘aznachilik bo‘linmalaridan tegishli shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridan ko‘chirmalar va ularga ilovalarni oladi.

Bunda “UzASBO” DMga ulangan buyurtmachilar ko‘chirmalarni elektron hujjat ko‘rinishida “UzASBO” DMdan oladi va elektron tarzda taqdim qilingan ko‘chirmalar buyurtmachilarga qog‘oz ko‘rinishida taqdim etilmaydi.

YAG‘H bilan qamrab olinmagan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilarni O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan moliyalashtirish g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan ularning bank hisobvaraqlariga mazkur Qoidalarning 3-ilovasiga muvofiq shaklda Moliya vazirligining sohalarni moliyalashtiruvchi tegishli boshqarmasi tomonidan taqdim qilinadigan Byudjet mablag‘larini o‘tkazish (so‘zsiz undirish) uchun so‘rovnomaga asosan YAG‘Hdan amalga oshiriladi.

YAG‘H orqali xizmat ko‘rsatiladigan buyurtmachilar moliyaviy hisobotlarni yuqori turuvchi tashkilotlarga, byudjet mablag‘lari taqsimlovchilariga va hududiy moliya organlariga taqdim qilishdan oldin moliyaviy hisobotlar ko‘rsatkichlarini tegishli hisobot davrida g‘aznachilik bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilgan kassa xarajatlariga muvofiqligini ularga xizmat ko‘rsatuvchi g‘aznachilik bo‘linmalari bilan solishtiradi. Buyurtmachilarning hisobotlari to‘g‘ri bo‘lganda ular belgilangan shakldagi shtamp qo‘yilgan holda g‘aznachilik bo‘linmalarining byudjet hisobi bo‘yicha vakolatli xodimlari tomonidan imzolanadi.

Bunda “UzASBO” DM orqali elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda g‘aznachilik bo‘linmalariga yuborilgan elektron moliyaviy hisobotlarining qog‘oz ko‘rinishdagi asli g‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim etilmaydi va g‘aznachilik bo‘linmalarining shtampi va imzosi bilan tasdiqlanmaydi. Elektron moliyaviy hisobotlarining rasmiylashtirilishi va ulardagi ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun buyurtmachilar javobgar hisoblanadi.

Buyurtmachi rahbarining buyrug‘i bilan g‘aznachilik bo‘linmasi bilan ishlash uchun buyurtmachining mazkur Qoidalar talablari bilan tanishtirilgan mas’ul xodimlari belgilanadi. Buyurtmachining ushbu buyrug‘ining nusxasi tegishli g‘aznachilik bo‘linmasiga buyurtmachining kuzatuv xati bilan taqdim qilinadi.

Byudjet tashkilotlari tomonidan tashqi qarzlarning jalb qilinishi, ssuda va kreditlar olinishi, shuningdek byudjet tashkilotlari va byudjet

mablag‘lari oluvchilar tomonidan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hisobiga lizing shartnomalarini tuzish taqiqlanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

G‘aznachilik bo‘linmalari orqali to‘lovlar G‘aznachilik amaliyot kuni mobaynida amalga oshiriladi.

Bunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishlariga asosan G‘aznachilik amaliyot kuni Moliya vazirligi tomonidan faqat daromadlarning g‘azna ijrosi yoki faqat xarajatlarning g‘azna ijrosi uchun belgilanishi mumkin.

Moliya vazirligi G‘aznachiligi davlat moliyasini samarali boshqarish uchun ham, undan oqilona foydalanilishi ustidan qat’iy nazoratni ta’minlash uchun ham mustahkam zamin yaratdi. Buni esa quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchidan, g‘aznachilik davlat byudjetining ijrosi jarayonida yuzaga keladigan daromad va barcha xarajatlarni yagona g‘azna hisobraqamidan amalga oshiradi. Mablag‘larning Yagona g‘azna hisobraqamiga soliq va soliq bo‘lmagan daromadlar ko‘rinishida kelib tushishi moliyaviy resurslarni operativ boshqarish va davlat byudjeti xarajatlarini o‘z vaqtida to‘lash uchun barqaror asos yaratadi.

Ikkinchidan, dastlabki nazoratni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keladi, ya’ni majburiyatlarni qabul qilish jarayoni boshlanadi, bunda byudjet tashkiloti tomonidan smetada ko‘zda tutilgan mablag‘lar doirasida kelajakda moliyaviy xarajatlarni amalga oshirish bo‘yicha majburiyatlar g‘aznachilik organlarida ro‘yxatdan o‘tkaziladi va shu asosda mablag‘larning maqsadli harakatini ta’minlash uchun zamin yaratiladi.

G‘aznachilikning yagona hisobraqami O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Bankida ochiladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining hududiy boshqarmalarida g‘aznachilikning yagona hisobraqami subschyotlari ochiladi

6.1-jadval

Dastlabki va joriy nazorat olib boruvchi organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat tadbirlari[30]

Moliya-viy nazorat bosqich-lari	Nazoratni amalga oshiruvchi organ	Nazorat tadbirlari
Dastlabki nazorat	Moliya boshqar-malari	Muassasa byudjetdan va byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha daromad va xarajatlar smetasining tasdiqlangan byudjet tasnifi moddalariga muvofiqligi, smeta ko'rsatkichlarining asoslanganligi, to'g'ri va o'z muddatida tuzilganligini o'rganib, uni tasdiqdaydi
	G'aznachilik bo'linmalari	Muassasa ma'lumotlari asosida unga bankda yagona gaznachilik schyotini ochadi, muassasa daromad va xarajatlar smetasi bilan tanishib chiqadi
Joriy nazorat	Moliya boshqar-malari	Qonunchilikda belgilangan muddatlarda muassasa moliyaviy hisobotlarining to'g'ri va asosli ma'lumotlarga muvofiq o'z muddatida tuzilganligini tekshirib, ularni qabul qiladi
	G'aznachilik bo'linmalari	-xarajatlarni byudjetdan va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirilayotganda ularni tasdiqlangan smeta va normativ hujjatlarga muvofiqligini o'rganib, tegishli hujjatlar taqdim etilgandan keyingina g'aznachilik ruxsatnomalarini berish orqali boshqaradi -byudjetdan va byudjetdan tashqari mablag'lar tushumini bankdagi yagona g'aznachilik schyotida saqlash orqali boshqaradi va ular chiqimini tegishli tasdiqlovchi hujjat (schyot-faktura, qaydnoma, chek, talabnoma-ariza)lar mavjudligi tekshirilgandan keyin amalga oshiradi -to'lovlarni amalga oshirishdan oldin tegishli shartnoma va smeta hujjatlarining qonuniyligi va mavjudligini o'rganadi -byudjetdan tashqari mablag'lar hisob-kitobini yuritadi -muassasa byudjetdan tashqari mablag'larini g'aznachilik organining moliyaviy hisobotlarida umumlashtiradi va yuqori organlarga taqdim etadi

[30] Ibragimov A., Sugirbayev B. Budjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma. T.: 2009. 56.

Respublika mintaqalarida davlat xarajatlarini o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlash maqsadida G‘aznachilikning topshirig‘i bilan Markaziy Bank tomonidan butun ish kuni mobaynida subschyotlarga va subschyotlardan pul mablag‘larini o‘tkazish tashkil etiladi. Mablag‘ o‘tkazish va davlatning pul mablag‘larini xarajat qilish uchun faqat Moliya Vazirligi ruxsati bilan bank schyotlarini ochish mumkin. Bu huquq Davlat G‘aznachisiga Moliya Vazirligining buyrug‘i bilan yuklatilgan.

Davlat byudjetining kassaviy ijrosini amalga oshirish jarayonida G‘aznachilik tijorat banklari bilan ham shartnoma tuzadi.

Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobot G‘aznachilik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi. G‘aznachilik yuridik va jismoniy shaxslarga ular tomonidan ortiqcha to‘langan soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar summalari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yagona g‘azna hisobraqamidan yoki G‘aznachilikning boshqa bank hisobraqamlaridan qaytarilishini amalga oshiradi.

G‘aznachilik tushumlarni turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlash uchun javobgar hisoblanadi. G‘aznachilik belgilangan byudjet tasnifiga muvofiq, barcha davlat tushumlarini ularning aniq ro‘yhati bo‘yicha yagona g‘azna hisobraqamida yuritilishini ta’minlaydi, qonun asosida g‘aznachilikning yagona hisobraqamidan barcha to‘lovlarni amalga oshirishga G‘aznachilik javobgar hisoblanadi.

II BO‘LIM BO‘YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Oliy Majlis Senati moliyaviy nazoratni amalga oshirish sohasida qanday vakolatlarga ega?
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi moliyaviy nazoratni amalga oshirishda qanday ahamiyatga ega?
3. O‘zbekiston Respublikasida Oliy Majlis palatalari tomonidan amalga oshirilayotgan parlament nazoratining asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
4. Kimlar Parlament nazoratining subyektlari bo‘la oladi?
5. Parlament nazorati qanday shakllarda amalga oshiriladi?
6. Qonunchilik palatasi va Senat parlament tekshiruvini o‘tkazish uchun Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a’zolari orasidan komissiya tuzadi. Ushbu komissiya parlament tekshiruvini o‘tkazishda qanday vakolatlarga ega?
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qanday organ?
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o‘z faoliyati doirasida qanday tamoyillarga asoslanadi?
9. Qanday masalalar faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlislarida hal etiladi?
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining byudjet sohasidagi vakolatlari nimalardan iborat?
11. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi qachon qanday maqsadlarda tashkil etilgan?
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 10-avgustdagi PF – 5147-son farmonining asosiy mazmuni nimalardan iborat?
13. Hisob palatasi o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida qanday huquqlarga ega?
14. Hisob palatasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
15. Hisob palatasining asosiy vazifalaridan kelib chiqib qanday funksiyalarni bajaradi?
16. Hisob palatasining tarkibiy tuzilishi qanday?

17. Hisob palatasi raisining vazifalari nimalardan iborat?

18. O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushumlarning to‘liqligini nazorat qilish Inspeksiyasi zimmasiga qanday vazifalar yuklatilgan?

19. Hisob palatasining tekshirishlari davomida aniqlangan davlatning iqtisodiy manfaatlariga yetkazilgan zarar summalariga nimalar kiradi?

20. Davlatning iqtisodiy manfaatlariga yetkazilgan zarar summasi qanday yo‘llar bilan undiriladi?

21. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining funksiya va vazifalari nimalardan iborat?

22. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qanday huquq va majburiyatlarga ega?

23. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi markaziy apparati qanday tarkibiy tuzilishga ega?

24. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining moliya tizimida nazoratni tashkil qilishdagi roli va ahamiyati qanday?

25. Mahalliy moliya organlari hududiy moliyani boshqarishda qanday o‘rn tutadi?

26. Mahalliy moliya organlari tomonidan moliyaviy nazoratni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?

II BO‘LIM YUZASIDAN TESTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasi 8-bandiga muvofiq qaysi organga nazorat vakolati berilgan?

a) O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligiga

b) O‘zbekiston Respublikasi iqtisodoyot vazirligiga

d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga

e) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ..

a) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2 palatadan, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va O‘zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidan iborat bo'lib, maxsus nazoratni olib boradi.

b) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2 palatadan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidan iborat bo'lib, Pralament nazoratini olib boradi.

d) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2 palatadan, ya'ni quyi va yuqori palatalardan iborat bo'lib, moliyaviy nazoratni olib boradi.

e) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2 palatadan, ya'ni quyi va yuqori palatalardan iborat bo'lib, tashqi nazoratni olib boradi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati nazorat qilish sohasida qanday vakolatlarga ega?

a) Mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari hamda aniq maqsadli vazifalari asosida ishlab chiqilgan qonunchilik faoliyati dasturining nazoratini amalga oshirish

b) Boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, O'zbekiston Respublikasini va uning ayrim mintaqalarini iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlantirish dasturlari loyihalarini ishlab chiqish

d) Investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan buyurtmachilar va bosh pudratchilarning shaxsiy va qarzga olingan mablag'larini ayirboshlab berish mexanizmini yaxshilash yuzasidan tavsiyanomalar ishlab chiqish

e) Yagona davlat pul-kredit va moliya siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirilishini muvofiqlashtirish

4. O'zbekiston Respublikasida Oliy Majlisi palatalari tomonidan amalga oshirilayotgan parlament nazoratining asosiy yo'nalishlariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

a) O'zbekiston qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari ijrosi ustidan nazoratni

b) O'zbekiston Prezidentining muhim siyosiy masalalar bo'yicha farmonlarini tasdiqlash orqali nazoratni amalga oshirishni

d) inson huquqlariga rioya qilinmaslik sohasidagi nazoratni

e) davlat byudjetini tasdiqlash va uning ijrosini nazorat qilishni

5. O‘zbekiston Respublikasining “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi 403-sonli Qonuni qachon qabul qilindi?

a) 2016 yil 11 aprelda

b) 2017 yil 11 aprelda

d) 2016 yil 10 dekabrda

e) 2015 yil 10 dekabrda

6. O‘zbekiston Respublikasining “Parlament nazorati to‘g‘risida”gi qonunni tayyorlashda parlament nazorati sohasidagi milliy tajriba, ushbu masalada huquqshunos-olim va ekpertlarning nazariy qarashlari hamda ...xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti, atroflicha o‘rganib chiqildi.

a) 30 ga yaqin

b) 20 dan ortiq

d) 20 ga yaqin

e) 30 dan ortiq

7. Parlament nazorati subyektlariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

a) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati

b) Senat a’zolari

d) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

e) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi

8. Quyidagilardan qaysi biri Parlament nazoratining obyekti bo‘lishi mumkin emas?

a) Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi_va qonunlarini amalga oshirish bo‘yicha faoliyati

b) Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv va tergov organlarining, sudlarning ish yurituvidagi muayyan ishlar va materiallarni shuningdek ijro ishi yuritish hamda notarial ish yuritishning muayyan materiallarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq faoliyati

d) Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining va ular organlarining qarorlarini amalga oshirish bo‘yicha faoliyati

e) Davlat hokimiyati organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining davlat dasturlarini ijro etish, shuningdek o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha faoliyati

9. O'zbekiston Respublikasining "Parlament nazorati to'g'risida"gi qonuni nima maqsadda qabul qilindi?

a) Davlat byudjetini tasdiqlash va uning ijrosini nazorat qilish, O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish maqsadida

b) O'zbekiston qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari ijrosi ustidan nazoratni ta'minlash maqsadida

d) Parlament oldida hisobdor organlar va mansabdor shaxslarning hisobotlarini tinglash, Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni har chorakda ko'rib chiqadi maqsadida

e) Parlament nazoratini olib borish bo'yicha faoliyatini takomillashtirishga hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining parlament oldidagi mas'uliyatini kuchaytirish, munosabatlarni tartibga solish maqsadida

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida qanday tamoyillarga asoslanadi?

a) Kollegiallik, demokratiya, qonuniylik

b) Xolislik, qonuniylik

d) Tizimlilik, demokratiya, qonuniylik

e) Xolislik, oshkoralik, qonuniylik

11. O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi qachon tashkil etilgan?

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 27-iyundagi 3093-son farmoniga muvofiq

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 11-fevraldagi 59-son qaroriga muvofiq

d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 2-apreldagi PF-3592-son farmoniga muvofiq

e) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 23-maydagi 143-son qaroriga muvofiq

12. O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi .....

a) Moliya nazoratining yuqori organi hisoblanadi

b) Davlat nazoratini amalga oshiradigan moliyaviy nazoratining yuqori organi hisoblanadi

d) Oliy tashqi audit va moliyaviy nazorat organi hisoblanadi

e) Byudjet nazorati organi hisoblanadi

13. O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi quyidagilardan qaysi birini bajaradi?

a) O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi

b) Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlari daromad qismining ijrosi yuzasidan monitoring o‘tkazadi

d) Davlat byudjetining va davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni har chorakda ko‘rib chiqadi

e) Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini belgilaydi

14. Quyidagilardan qaysi biri O‘zbeksiton Respublikasi Hisob palatasini tashkil etishning maqsadi hisoblanmaydi?

a) Xorijiy kapitalni respublika iqtisodiyotiga jalb etish va undan samrali foydalanish, davlatning tashqi qarzi o‘z vaqtida qaytarilishini doimiy monitoringi va nazoratini ta’minlash

b) Qimmatbaho metallar va toshlar bilan operatsiyalarni amalga oshirilishi, oltin-valyuta zaxiralarini boshqarish

d) O‘zbekiston Respublikasida Davlat byudjetining ijrosi, davlat aktivlari va passivlarining holatini hamda harakatini nazorat qilish

e) Xo‘jalik yurituvchi subyektlarining daromadlari va xarajatlarini, uy xo‘jaliklari daromadlari va xarajatlarini me’yoriy qonunlar asosida nazorat qilish

15. Hisob Palatasining yangi nizomi qachon qabul qilingan?

a) 2017 yil 10 avgust

b) 2016 yil 5 dekabr

d) 2017 yil 5 dekabr

e) 2015 yil 10avgust

16. 2017 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi xodimlarining soni ..... tani tashkil etgan.

a) 10

b) 15

d) 20

e) 33

17. Hisob Palatasiga .... rais boshchilik qiladi.

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan, tasdiqlanadigan va ozod etiladigan

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va ozod etiladigan hamda keyinchalik Oliy Majlis Senati tomonidan tasdiqlanadigan

d) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlanadigan va ozod etiladigan

e) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan hamda keyinchalik Oliy Majlis Senati tomonidan tayinlanadigan va ozod etiladigan

18. O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasining Davlat byudjetiga tushumlarning to'liqligini nazorat qilish Inspeksiyasi boshlig'i qanday lavozimga tenglashtiriladi?

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisining birinchi o'rinbosariga

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisining ikkinchi o'rinbosariga

d) Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisiga

e) Hisob palatasi raisi o'rinbosariga

19. O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi tarkibida bevosita raisga bo'ysunuvchi qanday sho'ba faoliyat yuritadi?

a) Pul-kredit va valyuta siyosati sho'basi

b) Soliq, moliya organlari va soliq to'lovchilar bilan ishlash sho'basi

d) Byudjet tizimi byudjetlarining shakllantirilishi va xarajat qismining ijro etilishini nazorat qilish sho'basi

e) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarini bajarishda ijro intizomiga rioya etilishini nazorat qilish sho'basi

20. Hududlarning o'ziga xos xususiyatlari va soliq to'lash salohiyatini hisobga olgan holda Davlat byudjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlarining xolisligi va asosliligini baholash vazifasi qaysi organga yuklatilgan?

a) Davlat bojxona qo'mitasi va bojxona qo'mitasining hududiy boshqarmalariga

b) Davlat byudjetiga tushumlarning to'liqligini nazorat qilish inspeksiyasiga

d) Mahalliy hokimiyat va o'z-o'zini boshqaruv organlariga

e) Moliya vazirligiga, uning hududiy bo'linmalari va davlat moliyaviy nazorat boshqarmasiga

21. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, byudjet-soliq va pul-kredit parametrlarining shakllanish jarayonlarini tizimli o'rganib borish hamda ularning qonunchilik talablariga muvofiqligini kuzatib borish qaysi organning vazifasi?

a) Davlat soliq qo'mitasining vazifasi

b) Moliya vazirligi huzuridagi Davlat nazorati bosh boshqarmasining vazifasi

d) O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining vazifasi

e) Moliya vazirligining vazifasi

22. Hisob Palatasi o'z zimmasiga yuklatilngan vazifalarni qanday tamoyillar asosida amalga oshiradi?

a) Qonuniylik, xolislik, mustaqillik va oshkoralik

b) Qat`iylik, beg'arazlik, kuzatuvchanlik

d) Obyektivlik, oshkoralik, bo'ysunmaslik va kuzatuvchanlik

e) Obyektivlik, bo'ysunmaslik, beg'arazlik, kuzatuvchanlik

23. Hisob Palatasi huquqlari noto'g'ri berilgan javobni ko'rsating

a)O'z vakolati doirasida tekshiruvlar o'tkazish vaqtida davlat organlari va ularning vakillari, nodavlat auditorlik xizmati va ayrim mutaxassislarni ularda ishtirok etish uchun jalb etish

b)Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, mahkamalar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar, banklardan o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha axborot, ma'lumotlar va hujjatlarni belgilangan tartibda so'rash va olish

d) Qonunchilikni takomillashtirish, davlat organlari, korxonalar va tashkilotlar faoliyatini yaxshilash maqsadida nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha takliflar kiritish

e) Nazorat organlarining rejadan tashqari tekshiruvlar o'tkazish to'g'risidagi qarorlarini, agar ularni o'tkazish uchun yetarlicha asoslar bo'lmasa, bekor qilish

24. 2017 yildan O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi xodimldrining cheklangan soni ….. tani tashkil etadi.

a)15

b)20

d) 70

e) 66

25. Quyidagilradan qaysi biri Hisob Palatasining tekshirishlari davomida davlatning iqtisodiy manfaatlariga yetkazilgan zarar summalariga kirmaydi?

a)Narxlar va tariflarning davlat tomonidan tartibga solinishi bo'yicha qonun hujjatlarini buzish natijasida olingan noqonuniy daromadlar

b)Davlatdan olingan va qaytarilmagan qarzlar

d) Kiritilishi kerak bo'lgan, lekin Davlat byudjetiga kiritilmagan bojxona to'lovlari

e) Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalariga to'lanmagan soliqlar va majburiy to'lovlar

26. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining dastlabki nizomi qachon qabul qilingan?

a) 1993-yil 23-noyabrda

b) 1994-yil 26-dekabr

d) 1995-yil 24-oktyabr

e) 1996-yil 26-dekabr

27. Qaysi organ mahalliy byudjetlar ijrosi bo‘yicha hududiy moliyaviy organlar faoliyatini taftish qilish va tekshirish huquqiga ega?

a) DSQ va uning hududiy bo‘linmalari

b) DMNBB va uning hududiy bo‘linmalari

d) Moliya vazirligi G‘aznachilik organlari

e) Moliya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari

28. Moliya vazirligining yangi nizomi qachon qabul qilingan?

a) 2014-yil 18-martda

b) 2016-yil 26-dekabrda

d) 2015-yil 26-dekabrda

e) 2017-yil 18-martda

29. Yagona soliq-byudjet siyosatini tashkil etish qaysi organga yuklatilgan?

a) Hisob Palatasiga

b) Moliya vazirligiga

d) Davlat soliq qo‘mitasiga

e) Moliya vazirligi g‘aznachiligiga

30. Moliya vazirligi G‘aznachiligi qanday nazoratni amalga oshiradi?

a) Dastlabki moliyaviy nazoratni

b) So‘nggi moliyaviy nazoratni

d) Barcha moliyaviy nazoratlarni

e) Navbatdagi moliyaviy nazoratni

31. Moliya vazirligi Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasining nizomi tasdiqlangan sanani ko‘rsating.

a) 1993-yil 24-sentyabr

b)2002-yil 2-iyul

d) 2005-yil 15-iyul

e) 2017-yil 24-oktyabr

32. O'zbekiston Respublikasi davlat ichki va tashqi qarzlariga xizmat ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi kafolatlarini bajarish qaysi organning vazifasi?

a)Moliya vazirligining

b)Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasining

d) Moliya vazirligi G'aznachiligining

e) Davlat soliq qo'mitasining

33. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining auditorlik faoliyatini litsenziyalovchi maxsus vakolatli davlat organi sifatida bajaradigan funksiyasini ko'rsating.

a)Nazorat tartibini takomillashtirish va umumiy standartlarni ishlab chiqish

b)Auditorlik faoliyatining milliy standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash

d) Litsenziyalash tartibini soddalashtirish yoki takomillashtirish tartibini ishlab chiqish

e) Nodavlat nazoratini samarali tashkil etish va kerakli choralarni qo'llash

34. Davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish bo'yicha Moliya vazirligining zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifani ko'rsating.

a)Fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruv organlari orqali kam ta'minlangan oilalarga beriladigan ijtimoiy nafaqalar bilan ta'minlanishi va ularning o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish

b)Davlat byudjetida mablag'lar nazarda tutilgan yuridik yoki jismoniy shaxslar nomidan va ularning topshirig'iga binoan to'lovlarni amalga oshirish

d) Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning va aholini ijtimoiy himioya qilishning barqaror moliyaviy negizini barpo etish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish

e) Soliq qonunchiligi, soliqlar hamda O‘zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida hisoblab yozilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat etish

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2847 qarori bilan Moliya vazirligi huzurida qanday jamg‘arma tashkil etildi?

a) Byudjetdan tashqari umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish jamg‘armasi

b) Byudjetdan tashqari Orolbo‘yi hududlarini rivojlantirish jamg‘armasi

d) Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi

e) Qishloqlarni qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan jihozlashni davlat tomonidan rag‘batlantirish jamg‘armasi

III BO‘LIM. DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI

7-BOB. SOLIQ NAZORATI

7.1. Soliq nazoratining huquqiy asoslari

Soliq nazoratini amalga oshirishning huquqiy asosi hisoblangan O‘zbekiston Repsublikasi Soliq Kodeksi dastlab 1997 yilda qabul qilingan bo‘lib, 10 yil davomida unga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar natijasida davr talabi bilan 2007 yilda yangi tahrirda qabul qilindi. Oxirgi ikki yil mobaynida soliq tizimida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar natijasida joriy yilda yana yangi tahrirda qabul qilinishi kutilmoqda.

Soliq nazoratining yana bir huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida” 474-i-son qonunini e’tirof etish mumkin. Ushbu qonunda keltirilishicha soliq nazorati soliq to‘lovchilarni, soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olishning, shuningdek soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilishning yagona tizimidan iboratdir.[31]

Mamlakatimiz Prezidentining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 1 avgustdagi PQ-3168-son qarorini bajarish yuzasidan va davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida[32] qarori qabul qilindi. Ushbu qaror bilan soliq nazoratining 2ta huquqiy asosi yangilandi, jumladan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi

[31]O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida” 474-i-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi O‘RQ-459-sonli qonuni tahririda.

[32] 2017 yil 28 avgustdagi 677-son qaror.

to‘g‘risidagi nizom” va “O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlarida xizmatni o‘tash to‘g‘risidagi nizom”lar yangidan tasdiqlandi.

Soliq ma’muriyatchiligini amalga oshirishda bir qator muammolarni bartaraf etish maqsadida 2017 yil 18 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi va unda davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning quyidagi muhim yo‘nalishlari belgilandi:

✓soliq ma’muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to‘lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish;

✓soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o‘z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta’minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog‘liq bo‘lgan ishonchli axborotini o‘z muddatida taqdim etish bo‘yicha mas’uliyatini oshirish;

✓soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to‘lovchilarga har tomonlama ko‘maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

✓makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to‘liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirishni ta’minlash bo‘yicha samarali tadbirlarni amalga oshirish;

✓faoliyat ko‘rsatmayotgan korxonalarning faoliyatini tiklashga har tomonlama ko‘maklashish, past rentabelli va zarar ko‘rib ishlayotgan korxonalarning moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirish, o‘zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

✓soliq solish masalalari, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

✓kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tuzilmasida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushumlarning to'liqligini nazorat qilish inspeksiyasining faoliyati byudjet daromadlarini ko'paytirish zaxiralarini aniqlash va ularning safarbar etilishini ta'minlash, soliq va bojxona to'lovlarining yig'iluvchanlik darajasini tizimli tahlil qilish, Davlat byudjeti daromadlarining prognoz ko'rsatkichlarining xolisligi va asosliligini baholash, soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazani to'liq qamrab olish ustidan nazoratni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

7.2. Soliq nazoratini amalga oshirish shakllari

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini boshqarishda soliq nazorati eng muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. Soliq nazoratisiz soliq ma'murchiligini umuman tasavvur ham qilish mumkin emas.

Soliq nazoratining asosiy maqsadi soliqqa tortishning takomillashgan tizimini tashkil etish, soliq to'lovchilar, banklar va boshqa soliqqa oid munosabatlar qatnashuvchilari o'rtasida soliq qonunchiligini buzulishiga yo'l qo'ymaydigan soliq intizomini yaratish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga asosan soliq nazorati bir nechta shakllarda amalga oshiriladi.



7.1-rasm. **Soliq nazorati shakllari**[33]

Soliq to'lovchilar soliq to'lovchilarining yagona reestrini yuritish orqali O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan *hisobga olinadi.* Davlat soliq xizmati organi tomonidan soliq to'lovchiga berilgan identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risidagi guvohnoma yoki soliq to'lovchi bir vaqtning o'zida davlat soliq xizmati organlarida va davlat statistikasi organlarida hisobga qo'yilgan holda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan taqdirda, davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik

[33] O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, 2008 yil,12-bob, 67-modda

to‘g‘risidagi guvohnoma soliq to‘lovchining hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjatdir.

Soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog‘liq obyektlarni hisobga olish davlat soliq xizmati organi tomonidan har bir soliq to‘lovchi bo‘yicha hamda u to‘layotgan barcha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish, shu jumladan elektron shaklda shakllantirish va yuritish orqali amalga oshiriladi.[34]

Soliq solish obyektlari va soliq solish bilan bog‘liq obyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bazasi soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotlarining ma’lumotlari, tegishli organlar, tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan ma’lumotlar, shuningdek davlat soliq xizmati organlari boshqa manbalardan to‘plagan, shu jumladan soliq tekshiruvlari vaqtida to‘plagan axborotlar asosida shakllantiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari, bojxona organlari hamda zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish vazifasi yuklatilgan boshqa davlat organlari hamda tashkilotlari *byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini* yuritishi kerak.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar tushumini hisobga olish byudjet klassifikatsiyasiga muvofiq yuritiladi.

Davlat soliq xizmati organlari byudjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar hisobini soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning, shuningdek penya va jarimalarning hisoblangan hamda to‘langan summalarini aks ettirish orqali yuritadi.

Soliq to‘lovchining shaxsiy kartochkasi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning har bir turi bo‘yicha ochiladi.

Kameral nazorat soliq to‘lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida davlat soliq xizmati organidagi

[34] O‘zbeksiton Respublikasi Soliq kodeksi, 2007 yil 25 dekabr, 68-modda

mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazoratdir.[35]

Kameral nazorat soliq to'lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan yerda amalga oshiriladi. Agar davlat soliq xizmati organi tomonidan kameral nazorat jarayonida soliq hisobotini to'ldirishda xatoliklarga yo'l qo'yilganligi yoki taqdim etilgan soliq hisobotidagi va davlat soliq xizmati organlaridagi ma'lumotlar o'rtasida ziddiyatlar borligi aniqlansa, bu haqda soliq to'lovchiga tegishli tuzatishlar kiritish talab qilingan holda yozma shaklda xabar qilinadi.

Soliq to'lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzatilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafovutlarning asosini talabnoma olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda taqdim etishi shart.

Soliq to'lovchining *naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji* xronometraj o'tkazilgan davrda haqiqatda kelib tushgan naqd pul tushumini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji naqd hisob-kitob asosida tovarlar realizatsiya qiladigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan soliq to'lovchi huzurida bevosita tovarlar realizatsiya qilinadigan, xizmatlar ko'rsatiladigan joyda davlat soliq xizmati organi tomonidan o'tkaziladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish to'g'risidagi buyruq soliq solish obyektlarini va soliq solish bilan bog'liq obyektlarni hisobga olish jarayonida soliq to'lovchi tomonidan tushum miqdori kamaytirilganligini taxmin qilish imkonini beradigan tafovutlar aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish to'g'risidagi buyruqda xronometraj o'tkaziladigan soliq to'lovchi, xronometrajni o'tkazish joyi va muddati, xronometraj o'tkaziladigan davr, xronometraj o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinishiga sabab

[35]O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2007 yil 25 dekabr, 70-modda

bo'lgan tafovut, shuningdek davlat soliq xizmati organining xronometraj o'tkazadigan mansabdor shaxslari albatta ko'rsatiladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji kelib tushayotgan pul tushumini davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari tomonidan kuzatish va qayd etish orqali o'tkaziladi. Xronometrajni o'tkazishga boshqa shaxslarni, shu jumladan ekspertlarni jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini amalga oshirish jarayonida tekshiruv o'tkazishga, soliq to'lovchidan biror bir axborot yoki tushuntirishlar talab qilishga, soliq to'lovchiga nisbatan talablar taqdim etishga yoki uning faoliyatiga boshqacha tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi, bundan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasida saqlanayotgan xronometraj o'tkazilayotgan vaqtga doir ma'lumotlarni olish mustasno.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy sonining muvofiqligi yuzasidan monitoring xo'jalik yurituvchi subyektlarning soliq solinadigan bazani aniqlashtirish maqsadida xodimlarning hisobotdagi va haqiqiy sonining muvofiqligini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

XYuSlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy sonining muvofiqligi yuzasidan monitoring davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari tomonidan joylarga chiqqan holda, soliq to'lovchi foydalanadigan obyektlarda va hududlarda soliq to'lovchining mansabdor shaxslari yoki ularning vakillari ishtirokida, mavjud xodimlarning sonini birma-bir sanab chiqish hamda ma'lumotnoma bilan rasmiylashtirish orqali amalga oshiriladi.

XYuSlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy sonining muvofiqligi yuzasidan monitoringni amalga oshirish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

✓davlat soliq xizmati organlari tomonidan o'tkazilgan kameral nazorat natijalariga ko'ra, davlat soliq xizmati organlariga soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan hisobotlarda ish haqi fondi, shuningdek xodimlar soni kamaytirilganligini taxmin qilish imkonini beradigan tafovutlar yoki nomutanosibliklar mavjudligi;

✓jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari;

✓vazirliklar va idoralarning davlat soliq xizmati organlariga taqdim

✓etiladigan soliq ma'lumotlarida va hisobotlarida ko'rsatilgan xodimlar soni o'rtasida farqlarning mavjudligi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy sonining muvofiqligi yuzasidan amalga oshiriladigan monitoring to'g'risidagi ma'lumotlar tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobiga kiritilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulda hisob-kitob qilish bilan tovarlarni realizatsiya qilish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish Nazorat-kassa mashinalarining davlat reestriga kiritilgan *fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari* majburiy qo'llanilgan holda amalga oshiriladi, bundan naqd pul bilan hisob-kitob qilishni, faoliyatining o'ziga xos xususiyati sababli nazorat-kassa mashinalarini qo'llamasdan amalga oshirishi mumkin bo'lgan ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslar mustasno.

Faoliyatining o'ziga xos xususiyati sababli naqd pul bilan hisob-kitob qilishni nazorat-kassa mashinalarini qo'llamasdan amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llashda quyidagilar majburiy hisoblanadi:

1) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasini faoliyat amalga oshirilayotgan joydagi davlat soliq xizmati organlarida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi berilgan holda ro'yxatdan o'tkazish;

2) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalariga texnik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

3) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining chekini iste'molchiga berish;

4) davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasini tekshirishiga ruxsat etish.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilish tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organlari fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarida saqlanayotgan ma'lumotlardan foydalanishga haqli.

Tamaki va alkogolli mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda hamda shartlarda aksiz markasi bilan tamg'alanishi kerak, pivo bundan mustasno.

Aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni *tamg'alash qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni* davlat soliq xizmati organlari va davlat bojxona xizmati organlari amalga oshiradi.

Aksiz solig'ini to'lovchi korxonalarda va boshqa ayrim korxonalarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining moliya inspektori lavozimi joriy etilishi mumkin. Moliya inspektori lavozimi joriy etiladigan korxonalar ro'yxati va uning faoliyatini amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat soliq xizmati organlari *davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'larining davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishi ustidan nazoratni* amalga oshiradi.

Davlat soliq xizmati organlari boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlari ustidan boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq undirib olinishi hamda byudjetga va *davlat maqsadli jamg'armalariga o'z vaqtida o'tkazilishi bo'yicha nazoratni* amalga oshiradi.

Mamlakatimizda 2018 yil 1 yanvardan vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to'qnash kelgan halol soliq to'lovchilar – xo'jalik yurituvchi subyektlarga soliq ta'tillari berish tarzidagi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi shakli joriy qilindi. Shuningdek, soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy

to‘lovlarni qaytarish yoki hisobga olish muddati ikki baravarga qisqartirildi.

Soliq nazoratining to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotsiz shakllari samaradorligini oshirish maqsadida kameral nazorat natijalari bo‘yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to‘lovchilar tomonidan asoslar taqdim etilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summalarini sud tartibida undirish joriy etildi.

Shuningdek, o‘tkazilgan kameral nazorat natijalari bo‘yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to‘lovchilar tomonidan asoslar taqdim etilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summalarini sud tartibida undirish joriy etildi.

Ortiqcha to‘langan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni qaytarish yoki hisobga olish soliq to‘lovchi vakolatli organlarga murojaat etgan sanadan boshlab 15 ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida “sog‘lom raqobat”ni ta’minlash va “xufiyona biznes” yuritishga barham berish maqsadida:

- davlat soliq xizmati organlariga kirim hujjatlarini rasmiylashtirmasdan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qiladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalarni 5 bank kunigacha bo‘lgan muddatga vaqtinchalik to‘xtatib turish vakolati berildi;
- soliq organlariga hisob-kitoblar haqidagi ma’lumotlarning onlayn rejimida berilishini ta’minlaydigan nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etildi. Bu tizim avvalo Toshkent, Nukus shaharlarida va viloyat markazlarida joriy etilib, Respublikaning qolgan hududlarida bosqichma-bosqich kiritiladi.

Bundan tashqari, soliq tekshiruvi obyektlarini samarali tanlab olish uchun soliqqa oid huquqbuzarliklarni sodir etish xavflarini tahlil qilish, shuningdek soliq organlari tomonidan yuqori likvidli mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish hajmining doimiy hisobi va nazoratini amalga oshirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan avtomatlashtirilgan tizim joriy

etilib, Davlat soliq xizmati organlari xo'jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi ustidan tizimli monitoringni amalga oshiradi, natijasi bo'yicha soliq solinadigan bazani aniqlashtiradi.

7.3. Soliq tekshiruvlarining mohiyati va turlari

Soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir.



7.2-rasm. **Soliq tekshiruvi shakllari**

Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslashdir.

Qisqa muddatli tekshiruv soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvidir.

Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari va soliq to'lovchi soliq tekshiruvlarining ishtirokchilari hisoblanadi.[36] Soliq

[36]O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, 87- modda, O'RQ-418-sonli qonuniga binoan kiritilgan o'zgartirish bilan

tekshiruvlarida soliq to'lovchining vakili ham ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, qonunchilikda ko'zda tutilgan holatlarda soliq tekshiruviga soliq tekshiruvi natijasidan manfaatdor bo'lmagan ekspert, tarjimon va xolislar jalb etilishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyati subyektlari birlashmalarining a'zosi bo'lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatining soliq tekshiruvlari tadbirkorlik faoliyati subyektlari so'roviga ko'ra mazkur birlashmalar vakillarining ishtirokida amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 29 dekabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-418-sonli qonuniga binoan Soliq Kodeksiga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan soliq tekshiruvining muqobil tekshiruv turi bekor qilindi.

Bugungi kunda amaliyotda soliq tekshiruvlarining rejali va rejadan tashqari turlari mavjud.

Rejali soliq tekshiruvini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasidan olingan, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo'linmasi tomonidan berilgan ko'chirma. Bunda ko'chirma uning asliga to'g'ri ekanligi ko'rsatilgan holda tegishli imzo va muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim;
- tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasi asosida davlat soliq xizmati organining tekshiruvni maqsadlari, tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi, tekshiriladigan davr va tekshiruv o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan buyrug'i.



7.3-rasm. **Soliq tekshiruvining turlari**[37]

Rejadan tashqari soliq tekshiruvini o‘tkazish uchun esa quyidagilar asos bo‘ladi:

- nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning tekshiriladigan obyektining nomi, soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, tekshiruvning maqsadlari, tekshiruv o‘tkazish muddatlari va uni asoslovchi sabablar ko‘rsatilgan tekshiruv o‘tkazish to‘g‘risidagi qarori;
- davlat soliq xizmati organining nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ qarori asosida chiqargan tekshiruvni o‘tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi ko‘rsatilgan holdagi buyrug‘i.

Bozorlarning, savdo komplekslarining hududlarida va ularga tutash bo‘lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida bir martalik yig‘imlar, ijara haqi to‘liq tushishiga va topshirilishi hisobga olinishiga, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalaridan, to‘lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo‘yicha hisob-kitob terminallaridan foydalanilishiga, shuningdek savdo va xizmat ko‘rsatish

[37] O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, 86- modda, O‘RQ-418-sonli qonuniga binoan kiritilgan o‘zgartirish bilan

qoidalariga rioya etilishiga taalluqli qisqa muddatli tekshiruvlar o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi tekshiriladigan obyektning nomi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, tekshiruvning maqsadlari, tekshiruv o'tkazish muddatlari va uni asoslovchi sabablar ko'rsatilgan qarori;
- davlat soliq xizmati organining qonun hujjatlarida vakolat berilgan bo'linmasi boshlig'ining nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning qarori asosida chiqarilgan, tekshiruv o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslarning tarkibi ko'rsatilgan holdagi buyrug'i.

Tugatilayotgan yuridik shaxsni rejadan tashqari soliq tekshiruvidan o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- tugatuvchining yoki yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning yuridik shaxs tugatilishi to'g'risidagi yozma bildirishi;
- davlat soliq xizmati organining tekshiruv maqsadlari, tekshiruv o'tkaziladigan muddatlar va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi ko'rsatilgan buyrug'i.

Davlat soliq xizmati organi rejali soliq tekshiruvi o'tkazishning boshlanishi haqida tekshiruvni o'tkazish boshlanishidan kamida o'ttiz kalendar kun oldin tadbirkorlik subyektini tekshiruvdan o'tkazish muddatlari va predmetini ko'rsatgan holda, yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Tadbirkorlik subyekti tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliya va soliq hisobotini, shuningdek tadbirkorlik subyektining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida o'tkaziladigan kameral nazorat natijalari bo'yicha qoidabuzarliklar aniqlangan hollardagina davlat soliq xizmati organlari tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish tashabbusi bilan chiqishi mumkin.

Soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organi rahbari yoki rahbar o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan soliq tekshiruvi o'tkazish dasturiga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvini o'tkazish dasturida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- soliq tekshiruvi o'tkazilayotganda o'rganiladigan masala yoki masalalar doirasi;
- soliq tekshiruvi soliq to'g'risidagi qaysi qonun hujjatlariga rioya etilishini o'rganish uchun o'tkaziladigan bo'lsa, shu qonun hujjatlarining ro'yxati;
- tekshiruv turidan kelib chiqqan holda boshqa ma'lumotlar.

Soliq tekshiruvini o'tkazish dasturini tuzish qoidalari nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Soliq tekshiruvi soliq to'lovchining tekshiruv o'tkazilayotgan yildan bevosita oldingi ko'pi bilan besh kalendar yildagi faoliyatini qamrab olishi mumkin. Bunda tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini rejali tekshirishlar faqat oxirgi rejali tekshirishdan keyingi, lekin yangi tekshirish o'tkazilayotgan yildan bevosita oldingi besh kalendar yildan ko'p bo'lmagan davrni qamrab oladi.

Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organlari belgilangan tartibda soliq to'lovchining hududi va joylarini tekshirishga, mol-mulkni inventarizatsiya qilishga, hujjatlarni talab qilib olishga, hujjatlar va predmetlarni olib qo'yishga, soliq to'lovchidan, shuningdek soliq to'lovchining rahbarlik vazifalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruvini amalga oshirayotgan shaxslardan, boshqa moddiy javobgar xodimlaridan tushuntirishlar olishga, bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish choralarini ko'rishga, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlashga, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlari bartaraf etilishini talab qilishga, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqlidir.

Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan davrda tekshirilayotgan davrning soliq hisobotiga soliq to'lovchi tomonidan o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq tekshiruvini o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kunidan oshmasligi kerak. Alohida hollarda bu muddat nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning qarori bilan uzaytirilishi mumkin, bunda ushbu qoida mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari - kichik tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tatbiq etilishi mumkin emas.

Soliq tekshiruvi muddatlarini uzaytirish davlat soliq xizmati organining qo'shimcha buyrug'i bilan rasmiylashtirilib, unda oldingi buyruqning ro'yxatdan o'tkazish raqami hamda sanasi, tekshiruv o'tkazishga ilgari jalb qilingan mansabdor shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.

Qisqa muddatli tekshiruv o'tkazish muddati bir ish kunidan oshmasligi kerak. Qisqa muddatli tekshiruv o'tkazish muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan boshqa tumanlarda (shaharlarda) davlat ro'yxatidan o'tgan tadbirkorlik subyektlarida soliq tekshiruvlari o'tkazish, ularning ishlab chiqarish binolari, savdo nuqtalari va xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) joyi qayerda joylashganligidan qat'iy nazar, takrorlashga yo'l qo'yilmagan holda, tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydagi tegishli davlat soliq xizmati organlari bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

7.4. Soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi

Soliq organlari tomonidan soliq tekshiruvlarini o'tkazish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga amal qilinadi, ya'ni ushbu Kodeksning 15-bobida soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi keltirilgan.

Soliq tekshiruvini o'tkazishning boshlanishi. Davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi soliq tekshiruvini o'tkazishni boshlashdan oldin, naqd pul tushumlariga taalluqli masalalar yuzasidan qisqa

muddatli tekshiruv o'tkazilayotganda esa soliq tekshiruvi tugallanguniga qadar:

- soliq to'lovchini soliq tekshiruvining maqsadi bilan tanishtirishi;
- o'z xizmat guvohnomasini, shuningdek tekshirishlarni o'tkazishga ruxsat berilganligi to'g'risidagi maxsus guvohnomasini ko'rsatishi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirishlarni qayd etish daftarini to'ldirishi;
- soliq to'lovchiga xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasidan ko'chirma nusxasini yoki nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning rejadan tashqari soliq tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi qarori ko'chirma nusxasini, shuningdek davlat soliq xizmati organining tegishli soliq tekshiruvi tayinlanganligi to'g'risidagi buyrug'ining hamda soliq tekshiruvini o'tkazish dasturining ko'chirma nusxalarini topshirib, tilxat olishi shart.

Soliq tekshiruvini o'tkazishga asos bo'ladigan hujjatlarni soliq to'lovchiga topshirilgan payt soliq tekshiruvini o'tkazish boshlangan payt deb hisoblanadi. Soliq to'lovchining mazkur hujjatlarni olishdan bosh tortganligi soliq tekshiruvini bekor qilish uchun asos bo'lmaydi. Soliq to'lovchi mazkur hujjatlarni olishdan bosh tortgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxsi tomonidan uning o'zi va soliq to'lovchi imzolaydigan dalolatnoma tuziladi. Soliq to'lovchi ushbu dalolatnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bu haqda dalolatnomaga tegishli yozuv kiritiladi. Bunday holda dalolatnoma imzolangan payt soliq tekshiruvini o'tkazishning boshlanishi hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining soliq tekshiruvi o'tkaziladigan hududga va joyga kirishi. Soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslarini quyidagi hollarda soliq tekshiruvini o'tkazish uchun hududga va joylarga qo'ymaslikka haqli, agar:

- soliq tekshiruvini o‘tkazishga asos bo‘ladigan hujjatlar topshirilmagan yoki belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan bo‘lsa;
- tekshiruvchi mansabdor shaxs tekshiruvni tayinlash to‘g‘risidagi buyruqda ko‘rsatilmagan, o‘z xizmat guvohnomasini va tekshirishlarni o‘tkazishga ruxsat berilganligi to‘g‘risidagi maxsus guvohnomasini ko‘rsatmagan bo‘lsa;
- soliq tekshiruvini o‘tkazishning buyruqda ko‘rsatilgan muddatlari boshlanmagan yoki o‘tib ketgan bo‘lsa;
- tekshiruvchi mansabdor shaxs tekshiruvlarni qayd etish daftarini to‘ldirishdan bosh tortsa.

Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan mansabdor shaxslariga soliq to‘lovchining hududiga va joyiga kirishiga to‘sqinlik qilganlik, xuddi shuningdek davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining o‘z xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilganlik qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining o‘z xizmat vazifalarini bajarishiga to‘sqinlik qilganlik uchun javobgarlikka tortilganlik soliq tekshiruvini bekor qilish uchun asos bo‘lmaydi.

Soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining qonunda belgilangan hollardan yoki sud qarori asosida amalga oshiriladigan hollardan boshqa hollarda turar joylarga ularda yashovchi jismoniy shaxslarning xohish-irodasidan tashqari yoki unga qarshi tarzda kirishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Hududlar va joylarni ko‘zdan kechirish. Mol-mulkni inventarizatsiyadan o‘tkazish. Soliq tekshiruvini o‘tkazayotgan davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari, zarurat bo‘lganda, soliq to‘lovchi tomonidan daromadlar olish uchun foydalanilayotgan yoki soliq solish obyektlari bilan bog‘liq hududlarni, ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolarini hamda boshqa binolar, shu jumladan joylarni ko‘zdan kechirishi, shuningdek soliq to‘lovchining mol-mulkini inventarizatsiyadan o‘tkazishi mumkin. Ko‘zdan kechirish o‘tkazilayotganda soliq tekshiruvi qaysi shaxsga nisbatan amalga oshirilayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxs yoki uning vakili qatnashishga haqli. Ko‘zdan kechirish o‘tkazilayotganda zarur hollarda foto va kinosuratga

olinishi, videoyozuvga tushirilishi, hujjatlardan ko'chirma nusxalar olinishi mumkin, bu haqda bayonnomada ko'rsatiladi. Soliq tekshiruvlarini o'tkazish vaqtida mol-mulkni inventarizatsiyadan o'tkazish buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Hujjatlarni talab qilib olish. Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvini o'tkazayotgan mansabdor shaxslari tekshirilayotgan soliq to'lovchidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq, tekshiruv maqsadlariga tegishli va tekshirilayotgan davrga taalluqli hujjatlarni talab qilib olishga haqli.

*Hujjatlarni va predmetlarni olib qo'yish. S*oliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligidan dalolat beruvchi hujjatlar va huquqbuzarlik predmetlari soliq tekshiruvini o'tkazayotgan davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxsining asoslantirilgan qarori asosida olib qo'yilishi mumkin. Shuningdek, soliq to'lovchining faoliyatini to'xtatib qo'yishga olib keladigan hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi.

Hujjatlar va predmetlarni tungi vaqtda - soat 23-00 dan 6-00 gacha - olib qo'yish hamda soliq tekshiruviga taalluqli bo'lmagan hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish man etiladi.

Davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi hujjatlarni va predmetlarni olib qo'yish to'g'risidagi qarorni taqdim etadi hamda ishtirok etayotgan shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi hamda ularni ixtiyoriy ravishda topshirishni taklif etadi, u bosh tortgan taqdirda esa majburan olib qo'yish choralarini ko'radi.

Hujjatlar asl nusxa yoki soliq to'lovchining imzosi va muhri bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlangan ko'chirma nusxalar ko'rinishida olib qo'yiladi.

Hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish to'g'risidagi bayonnoma ikki nusxada tuziladi, ulardan biri hujjatlar va predmetlar kimdan olib qo'yilgan bo'lsa, o'sha shaxsga topshirilib, tilxat olinadi. Bayonnomani qabul qilishdan bosh tortilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi bu haqda bayonnomaga tegishli yozuv kiritadi. Bunday holda bayonnomaning bir nusxasi hujjatlari va predmetlari olib

qo'yilgan shaxsga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi hamda u jo'natilgan kundan e'tiboran uch kun o'tganidan so'ng topshirilgan hisoblanadi.

Soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish. Soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish aniqlangan hollar bundan mustasno.

Davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi ariza bilan sudga quyidagi hollarda murojaat qilishga haqli:

- soliq tekshiruvini o'tkazishga soliq to'lovchi tomonidan to'sqinlik qilinganda yoki daromadlar olish uchun foydalanilayotgan yoxud soliq solish obyektini saqlash bilan bog'liq hududlarni, binolarni, shu jumladan joylarni ko'zdan kechirish uchun davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslarini kiritish soliq to'lovchi tomonidan rad etilganda;
- soliq to'lovchi qayd etilgan manzilda bo'lmaganda;
- soliq to'lovchi tomonidan soliq hisoboti va (yoki) moliyaviy hisobot, kameral nazorat natijalari bo'yicha tafovutlarning asoslari yoxud aniqlashtirilgan soliq hisoboti belgilangan muddatda taqdim etilmaganda.

Ekspertiza. Zarur hollarda, soliq tekshiruvlarini o'tkazishda ishtirok etish uchun ekspert jalb etilishi va ekspertiza tayinlanishi mumkin. Yuzaga kelgan masalalarni tushuntirish uchun fan, san'at, texnika va boshqa sohalar bo'yicha maxsus bilim talab etilgan taqdirda ekspertiza tayinlanadi.

Ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror tekshiruv o'tkazayotgan mansabdor shaxsning iltimosnomasi asosida davlat soliq xizmati organining rahbari tomonidan qabul qilinadi. Qarorda ekspertizani tayinlash uchun asoslar, ekspertiza o'tkazishi kerak bo'lgan tashkilotning nomi yoki ekspertning familiyasi, ismi, otasining ismi,

ekspert oldiga qo'yilgan masalalar va ekspert ixtiyoriga beriladigan materiallar ko'rsatiladi.

Shaxsni ekspert sifatida jalb etish davlat soliq xizmati organi va ekspert o'rtasida ekspertiza o'tkazish to'g'risida shartnoma tuzish asosida amalga oshiriladi. Ekspert, agar unga berilgan materiallar yetarli bo'lmasa, xulosa berishni rad etishi mumkin.

Ekspert xulosani o'z nomidan yozma shaklda beradi va unda uning o'zi o'tkazgan tekshirishlar, shu tekshirishlar natijasida qilingan xulosalar hamda o'rtaga qo'yilgan masalalarga asoslantirilgan javoblar bayon etiladi.

Tarjimonning ishtiroki. Zarur hollarda soliq tekshiruvida ishtirok etish uchun ishning natijasidan manfaatdor bo'lmagan, tarjima qilish uchun zarur darajada til biladigan yoxud kar yoki soqov jismoniy shaxsning imo-ishoralarini tushunadigan tarjimon jalb etilishi mumkin. Tarjimonni jalb etish davlat soliq xizmati organi va tarjimon o'rtasida shartnoma tuzish asosida amalga oshiriladi.

Xolislar ishtiroki. Soliq tekshiruvi doirasidagi harakatlar amalga oshirilayotganda soliq tekshiruvining natijasidan manfaatdor bo'lmagan har qanday voyaga yetgan jismoniy shaxslar xolislar sifatida jalb etilishi mumkin. Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining xolislar sifatida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi. Xolislar o'z ishtirokida amalga oshirilgan harakatlarning holati, mazmuni va natijalarini bayonnomada tasdiqlashlari shart. Ular sodir etilgan harakatlar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon etishga haqli, bu fikr-mulohaza bayonnomaga kiritib qo'yilishi kerak.

Soliq tekshiruvini o'tkazish doirasida harakatlar amalga oshirilganda tuziladigan bayonnomaga qo'yiladigan talablar. Soliq tekshiruvi doirasida harakatlar amalga oshirilganda qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda bayonnoma tuziladi.

Harakatlarning amalga oshirilishida ishtirok etgan barcha shaxslar bayonnomani o'qib chiqadilar. Mazkur shaxslar o'z fikr-mulohazalarini bayon etishga haqli va bu fikr-mulohazalar bayonnomaga kiritilishi yoki soliq tekshiruvi materiallariga qo'shib qo'yilishi lozim. Bayonnoma davlat soliq xizmati organining bayonnomani tuzgan mansabdor shaxsi,

shuningdek harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etgan va (yoki) hozir bo'lgan shaxslar tomonidan imzolanadi. Bayonnomaga fotosuratlar va negativlar, kinolentalar, videoyozuvlar hamda harakatlar amalga oshirilganda bajarilgan boshqa materiallar ilova qilinishi mumkin.

Soliq tekshiruvi natijalarini rasmiylashtirish. Davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari tomonidan soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha soliq tekshiruvi dalolatnomasi tuziladi.

Agar soliq tekshiruvi tugallanganida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi aniqlangan bo'lmasa, bu haqda soliq tekshiruvi dalolatnomasida qayd etiladi.

Soliq tekshiruvi dalolatnomasi kamida uch nusxada tuziladi va barcha nusxalari davlat soliq xizmati organlarining soliq tekshiruvini o'tkazayotgan mansabdor shaxslari tomonidan imzolanadi. Soliq tekshiruvi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to'lovchiga topshiriladi. Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi dalolatnomasini olganda dalolatnomaning barcha nusxalariga uni olgan sanani ko'rsatgan holda imzo qo'yishi shart. Soliq tekshiruvi dalolatnomasining davlat soliq xizmati organida qolgan nusxalari soliq tekshiruvi materiallariga qo'shib qo'yiladi.

Soliq to'lovchining soliq tekshiruvi dalolatnomasidagi imzosi uning soliq tekshiruvi natijalaridan rozi ekanligini anglatmaydi.

Soliq to'lovchi soliq tekshiruvi dalolatnomasini olishdan bosh tortgan taqdirda davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi bu haqda soliq tekshiruvi dalolatnomasiga tegishli yozuv kiritadi. Mazkur holda soliq tekshiruvi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to'lovchiga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi va shu paytdan e'tiboran soliq tekshiruvi tugallangan hisoblanadi.

Soliq tekshiruvini o'tkazish uchun asos bo'lgan hujjatlarning nusxalari, soliq tekshiruvi doirasida sodir etilgan harakatlar to'g'risidagi bayonnomalar, inventarizatsiya dalolatnomalari, ekspertlarning xulosasi, soliq tekshiruvi o'tkazish paytida olingan materiallar, shuningdek soliq tekshiruvi doirasida harakatlar sodir etilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar soliq tekshiruvi dalolatnomasiga qo'shib qo'yilishi lozim.

Soliq tekshiruvi materiallari O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi belgilagan tartibga binoan soliq to‘lovchi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organida soliq tekshiruvi tugallangan kundan e’tiboran keyingi ish kunidan kechiktirmasdan ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Soliq tekshiruvi materiallarining davlat soliq xizmati organi tomonidan ko‘rib chiqilishi. Soliq tekshiruvi materiallari davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o‘rinbosari tomonidan soliq tekshiruvi tugagan kundan e’tiboran o‘n ish kuni o‘tgach, biroq o‘n besh ish kunidan kechiktirmasdan ko‘rib chiqiladi.

Soliq tekshiruvi materiallari ko‘rib chiqilayotganda hisoblangan yoki ortiqcha to‘langan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar miqdori, soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi alomatlari mavjudligi, qo‘llanilayotgan moliyaviy sanksiyalarning miqdori va xususiyati, sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi yoki og‘irlashtiruvchi holatlar, ma’muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat alomatlarining mavjudligi, shuningdek soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlar aniqlanadi.

Soliq to‘lovchi soliq tekshiruvi dalolatnomasi bo‘yicha o‘zining yozma tushuntirishlarini yoki e’tirozlarini soliq tekshiruvi tugagan kundan e’tiboran o‘n ish kuni ichida taqdim etishga haqli. Mazkur holda soliq tekshiruvi materiallari soliq to‘lovchining mansabdor shaxslari ishtirokida ko‘rib chiqiladi. Davlat soliq xizmati organi tekshiruv materiallarini ko‘rib chiqish sanasi, vaqti va joyi to‘g‘risida soliq to‘lovchini ko‘rib chiqishdan kamida ikki ish kuni oldin xabardor qiladi. Agar soliq to‘lovchi soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqishga uzrli sabablarga ko‘ra kela olmasligi to‘g‘risida davlat soliq xizmati organini xabardor qilgan bo‘lsa, davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o‘rinbosari soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqishni uch ish kunidan ko‘p bo‘lmagan muddatga kechiktirish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, bu haqda soliq to‘lovchi xabardor qilinadi. Agar soliq to‘lovchi takroriy xabarnomaga qaramasdan soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqishga kelmasa, mazkur materiallar, shu jumladan soliq to‘lovchi

tomonidan taqdim etilgan tushuntirishlar va e'tirozlar uning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

Soliq tekshiruvi materiallari soliq to'lovchining ishtirokida ko'rib chiqilganda bayonnoma soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqqan mansabdor shaxs, soliq to'lovchi, shuningdek ularni ko'rib chiqishda ishtirok etgan boshqa shaxslar tomonidan imzolanadi. Soliq to'lovchi bayonnomani imzolashdan bosh tortganda yoxud soliq tekshiruvi materiallari uning ishtirokisiz ko'rib chiqilganda bu haqda bayonnomaga tegishli yozuv kiritiladi.

Soliq tekshiruvi materiallari soliq to'lovchining ishtirokida ko'rib chiqilganda bayonnoma uch nusxada tuziladi, ulardan bir nusxasi soliq to'lovchiga beriladi. Soliq to'lovchi bayonnomani olganda bayonnomaning barcha nusxalariga uni olgan sanani ko'rsatgan holda imzo qo'yishi shart. Soliq to'lovchi bayonnomani olishdan bosh tortgan taqdirda davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi bu haqda bayonnomaga tegishli yozuv kiritadi. Soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish bayonnomasining davlat soliq xizmati organida qolgan barcha nusxalari soliq tekshiruvi materiallariga qo'shib qo'yiladi.

Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qarori. Davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o'rinbosari soliq tekshiruvi materiallari ko'rib chiqilganidan keyin besh ish kunidan kechiktirmasdan quyidagilarni nazarda tutuvchi qaror qabul qiladi:

- soliqlar, boshqa majburiy to'lovlarni va penyani hisoblashni yoki buni rad etishni;
- soliq to'lovchini soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganligi uchun javobgarlikka tortishni yoki buni rad etishni.

Soliq Kodeksining 62-moddasiga muvofiq, soliq qarzini majburiy undirish choralariga soliq qarzini soliq to'lovchining bankdagi hisob varaqlaridan so'zsiz undirish, undiruvni soliq to'lovchiga uning debitorlari hisobdan undirish va undiruvni soliq to'lovchining mol-mulkiga qaratish kiradi.

7.1-jadval

Soliq to'lovchilarning mol-mulkidan undirishga qaratish uchun soliq qarzining eng kam miqdorlari

Soliq to'lovchilar	EKIHga karrali miqdorlarda
Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash yuklatilgan yuridik shaxslar va ularning alohida tuzilmalari	20
Jismoniy shaxslar	5

2013-yildagi soliq byudjet siyostiga asosan soliq qarzdorligini undirishni soliq to'lovchilarning mulkiga qaratish uchun soliq qarzining eng kam miqdorlari belgilangan edi (7.1-jadval).

7.5. Davlat organlarining soliq nazoratini olib borishdagi vazifa va funksiyalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 1 avgustdagi PQ-3168-son qarorini bajarish yuzasidan va davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagi 677-sonli "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risida Nizom"[38] yangitdan tasdiqlandi. Ushbu nizomga muvofiq Davlat soliq qo'mitasi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoya qilinishini ta'minlash sohasidagi nazorat bo'yicha respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi va o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi.

[38]Izoh: dastlab ushbu nizom Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 maydagi 180-son Qaroriga muvofiq qabul qilingan edi.



7.4-rasm. **Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining cheklangan soni**

Davlat soliq qo'mitasi soliq nazorati bo'yicha bir qator vazifalarni hamda ushbu vazifalarga muvofiq funksiyalarni bajaradi:

a) davlat soliq siyosatini amalga oshirish sohasida:

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga tushishi prognozini ishlab chiqishda qatnashadi;
- belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklari va idoralari bilan birgalikda soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solish masalalari bo'yicha idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;
- soliq hisobotlari hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish, to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlar shakllarini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

b) soliq sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblab chiqilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash sohasida:

- soliq to'lovchilar faoliyatini belgilangan tartibda soliq bo'yicha tekshiradi, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya majburiy badallarining to'g'ri hisoblab chiqilishini, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ularning fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga to'liq va o'z vaqtida to'lanishini tekshiradi;
- davlat soliq xizmati organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya qilinishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishini belgilangan tartibda nazorat qiladi;
- soliq to'lovchilardan yoki ularning mansabdor shaxslaridan tushuntirish xatlari oladi, soliq to'lovchining mol-mulki mavjudligini tekshiradi, shuningdek hududlarni, ishlab chiqarish, omborxona, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan, soliq to'lovchilar tomonidan daromadlar olish uchun foydalaniladigan yoxud soliq solish obyektini saqlash bilan bog'liq joylarni ko'zdan kechiradi (tekshiradi);
- xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan pul mablag'lari va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini, korxonalar hududiga moddiy boyliklarni olib kirish va u yerdan olib chiqishda korxonalarda ruxsat berish tizimi ishlarining tashkil etilishi holatini tekshiradi;
- soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) davomida hisobotdagi ma'lumotlarning ishonchliligi va to'g'riligini aniqlash, davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan moliyaviy hisobotlar va soliq hisob-kitoblarida faktlarning buzib ko'rsatilishini aniqlash va ularni bartaraf qilish uchun buxgalteriya hisoblari va moliyaviy hisobotlarni tekshiradi;

- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;
- soliq sohasidagi qonun hujjatlarining buzilishlari to‘g‘risidagi arizalar, xabarlar va boshqa axborotlarni tekshiradi;
- soliq qonunchiligining buzilishi holatlarini tahlil qiladi hamda soliqqa doir huquq buzilishlariga ko‘maklashadigan sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan tegishli organlarga takliflar kiritadi;
- huquqni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda soliqqa oid huquq buzilishlariga qarshi kurashishning uzoq muddatli hamda joriy dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish masalalari bo‘yicha respublika nazorat organlari faoliyatining muvofiqlashtirilishini, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlashga va suiste’molchiliklarga yo‘l qo‘yilmasligini ta’minlaydi;

d) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg‘armalariga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga to‘liq miqdorda tushishini ta’minlash sohasida:

- soliq to‘lovchilarning majburiyatlari paydo bo‘lishi (to‘xtatilishi) to‘g‘risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi;
- belgilangan tartibda soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etilgan moliya va soliq hisobotlarini, shuningdek soliq to‘lovchilarning faoliyati to‘g‘risida soliq organlari axborot resurs ma’lumotlarining yagona integratsiyalashgan bazasida yig‘ilgan boshqa hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish asosida kameral nazoratni amalga oshiradi;
- davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni sotishdan olingan pul mablag‘larining davlat daromadiga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini,

shuningdek davlat organlariga berilgan mol-mulk hisobini nazorat qiladi;

- yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan elektr energiyasi uchun to‘lov muddati o‘tgan qarzlarni yig‘adi va mablag‘larning to‘liq tushishini nazorat qiladi;

e) soliq to‘lovchilar, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarning to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlash, ularni to‘liq qamrash va hisobga olish mexanizmlarini takomillashtirish, Soliq to‘lovchilar identifikatsiyalash tartib raqamlarining yagona reestrini yuritish sohasida:

- soliq to‘lovchilar, soliq solish obyektlari hamda soliq solish bilan bog‘liq bo‘lgan obyektlarning to‘liq va o‘z vaqtida hisobga olinishini ta’minlaydi;
- yuridik shaxs bo‘lmasdan yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida tijorat faoliyati uchun mo‘ljallangan tovarlarni chetdan keltiruvchi jismoniy shaxslarni davlat soliq xizmati organlari tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni ta’minlaydi;
- yuridik va jismoniy shaxslarga ularni, identifikatsiyalash tartib raqamlari bergan holda, soliq to‘lovchilar sifatida hisobga qo‘yish to‘g‘risida hujjatlar berishni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil qiladi;
- soliq to‘lovchilar identifikatsiyalash tartib raqamlarining yagona reestrini shakllantiradi va yuritadi;
- soliq organlari axborot resurs ma’lumotlarining yagona integratsiyalashtirilgan bazasida soliq to‘lovchilar bo‘yicha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning hisoblab chiqilishi va amaldagi tushumlari hisobini yuritadi;
- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar hisobini yuritadi;
- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishdan bosh tortishi mexanizmlarini o‘rganadi, aniqlaydi va bartaraf etadi;

- soliq axborotlarini qabul qilib olish, ishlash, uzatish va saqlash jarayonlarini avtomatlashtirish chora-tadbirlarini ko‘radi;

f) soliq solish bazasini kengaytirish hamda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlarini ro‘yobga chiqarish, soliq sohasidagi huquq buzilishlarining oldini olish, aniqlash va ularga barham berish bo‘yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish sohasida:

- soliqqa oid huquq buzilishlarini sodir qilgan shaxslarni qidirib topish uchun materiallarni huquqni muhofaza qilish organlariga belgilangan tartibda beradi, davlatga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda undirishni ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘radi;
- soliqlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlat maqsadli jamg‘armalariga va byudjetdan tashqari jamg‘armalarga boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha to‘lov muddati o‘tgan qarzlarning O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksiga hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq undirishga yo‘naltirilgan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan chora-tadbirlar tashkil etilishi va qo‘llanishini ta’minlaydi;
- aksizga tortiladigan tovarlarni ishlab chiqarish va ularning muomalada bo‘lishidagi huquq buzilishlarini aniqlash, oldini olish va ularga barham berishni belgilangan tartibda tashkil qiladi va amalga oshiradi;
- ishlab chiqarish va daromadlar miqdorlarini yashirish, sotilgan mahsulotlar, ishlar va xizmatlar hajmlarini kamaytirib ko‘rsatish mexanizmlarini o‘rganish va aniqlashni tashkil qiladi hamda amalga oshiradi, ko‘rsatib o‘tilgan mexanizmlarning qo‘llanishini bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- ma’muriy huquq buzilishlari bo‘yicha ishlarni yuritadi;
- soliqqa oid jinoyatlarning sodir etilishi holatlarini aniqlash uchun, surishtirish, tergov va suddan yashirinib yurgan shaxslarni qidirib topish uchun ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanadi;

g) pul mablag'larining noqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, naqd pul tushumining aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan banklar kassalariga o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash sohasida:

- savdo va xizmatlar ko'rsatishni tashkil etishning qonunchilikka muvofiqligi, shu jumladan, nazorat-kassa mashinalarini, plastik kartochkalardan to'lovlarni qabul qilib olish bo'yicha hisob-kitob terminallarini qo'llash, alkogolli va tamaki mahsulotlarini sotish hamda markirovka qilish qoidalariga rioya etilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;
- tovarlarni ulgurji sotishda qonun hujjatlarida belgilangan talablarning bajarilishini o'z vakolatlari doirasida nazorat qiladi;
- naqd pul mablag'lari muomalada bo'lishining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul aylanmasiga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan huquq buzilishlarini aniqlash, oldini olish va ularga barham berish tadbirlarini tashkil qiladi va amalga oshiradi;
- savdo, umumiy ovqatlanish va pulli xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan savdo va naqd tushumni banklar kassalariga topshirish qoidalariga rioya etilishini belgilangan tartibda rejadan tashqari tekshirishlarni amalga oshiradi;

h) soliq qonunchiligiga rioya etish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash, soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda yordam ko'rsatish, ularga ko'rsatiladigan axborot-maslahat xizmatlari turlarini kengaytirish sohasida:

- soliq solish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni soliq to'lovchilarga o'z vaqtida yetkazish ishlarini tashkil etadi;
- soliq to'lovchilarga real vaqt rejimida keng ko'lamli interaktiv xizmatlar ko'rsatilishini tashkil etadi, yuridik va jismoniy shaxslarning soliq sohasidagi huquqlari va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlari himoyalanishini ta'minlaydi;

• yuridik va jismoniy shaxslarning soliq solish va soliq qonunchiligi buzilishi masalalari bo'yicha murojaatlarini belgilangan tartibda ko'rib chiqadi;

i) bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati yuzasidan qat'iy nazoratni amalga oshirish sohasida:

• bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtomobillarni vaqtinchalik saqlash joylarida moliyaviy-iqtisodiy hamda soliq sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquq buzilishlarini aniqlaydi, ularning oldini oladi va ularga barham beradi;

• bozorlar va savdo komplekslari hududlarida sifatsiz, qalbakilashtirilgan (yasama) yoki kontrabanda tovarlarini tayyorlash va sotishga qarshi kurashadi;

• bozorlar, savdo komplekslari hududlarida, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylaridan, shuningdek ular hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan olingan pul oqimlari va mablag'lar tushumi hisobining to'liqligini ta'minlaydi;

• bozorlar, savdo komplekslari hududlarida, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylaridan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquqni buzish sodir etilishi holatlari bo'yicha tergovdan oldingi tekshirishlarni tashkil etadi va olib boradi, jinoiy ishlar qo'zg'aydi, ular bo'yicha surishtiruv ishlarini amalga oshiradi, jinoyat ishlarini tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qilish organlariga beradi;

• yetkazilgan zararning belgilangan tartibda undirilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;

j) davlat soliq xizmati organlarini halol, yuqori malakali, o'z ishiga sadoqatli xodimlar bilan ta'minlash, kadrlar tarkibining sifat darajasini yaxshilash bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish sohasida:

• tegishli tanlovdan o'tmagan yoki lavozim vazifalarini jiddiy buzganligi uchun ilgari davlat soliq xizmati organlaridan bo'shatilgan shaxslarning ishga qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan nazoratni ta'minlaydi;

- davlat soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan soliq to‘lovchilarga nisbatan g‘arazli maqsadlarda noqonuniy ta’sir ko‘rsatish holatlarini aniqlaydi va ularga barham beradi;
- soliq organlarida korrupsiya holatlarini aniqlashga, ularning oldini olishga va ularga barham berishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi, tashkil etadi va ularni amalga oshirishda qatnashadi;
- har ikki yilda ko‘pi bilan bir marta davlat soliq xizmati hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlarining byudjet va xo‘jalik faoliyati bo‘yicha xarajatlar smetalari ijrosi yuzasidan taftishni amalga oshiradi. Juda zarur bo‘lganda va moliya-xo‘jalik faoliyatida qonun buzilishlariga yo‘l qo‘yilgan holatlar to‘g‘risida ishonchli axborot mavjud bo‘lgan taqdirda navbatdan tashqari taftishlar o‘tkazilishi mumkin;
- davlat soliq xizmati hududiy organlari va idoraviy mansub tashkilotlari tomonidan moddiy va pul resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari bajarilishini ta’minlaydi, xo‘jasizlik, isrofgarchilik, davlat mablag‘larini va byudjetdan tashqari mablag‘larni asossiz ravishda sarflash, smeta intizomini buzish hollariga barham beradi.

Soliq intizomini mustahkamlash, soliq to‘lovlarinining byudjetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishini ta’minlash, soliq huquqlarini buzilishlarini aniqlanishi, ularni oldini olish va ularni bartaraf etish ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to‘g‘risida” 2000 yil 13 martdagi 87-son qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tarkibida Bosh nazorat-taftish boshqarmasi tashkil etilgan.

Bugungi kunda mazkur boshqarma o‘z faoliyatini Davlat soliq qo‘mitasining 2017 yil 9 oktyabrdagi 646-sonli buyrug‘iga asosan tasdiqlangan “Davlat soliq qo‘mitasining Bosh nazorat-taftish boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizom”i[39]ga muvofiq olib boradi.

[39] Izoh: dastlabki nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 maydagi 180-son Qaroriga muvofiq tasdiqlangan edi.

Quyidagilar bosh boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish;
- soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish, ularga barham berish;
- fuqarolarning soliq qonunchiligi buzilishlari faktlari to‘g‘risidagi xatlari, shikoyatlari va arizalarini ko‘rib chiqish; soliq to‘lovchilar bilan soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha ish olib borish.

Bosh boshqarma O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosariga bo‘ysunadi.



7.5-rasm. **Davlat soliq qo‘mitasining tarkibiy tuzilishi**[40]

[40] www.soliq.uz

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 dekabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5283-son Farmoni bilan 2018 yilning 1 yanvaridan boshlab moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari rahbarlariga javobgarlik va rag‘batlantirish choralari ko‘rilishi belgilandi.

7.2-jadval

Moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari rahbarlariga javobgarlik va rag‘batlantirish choralari

№	Chora qollaniladigan shaxslar	Ragbatlantirish va jarima miqdori
1	*soliq va moliya organlari rahbarlari*	*ularning lavozim maoshlaridan 50 foizgacha bo‘lgan miqdorda mukofotlanadi*
	Shu jumladan	
1.1	soliq va moliya organlari rahbarlari	mahalliy byudjet daromadlarining tasdiqlangan prognozining ijro etilgani uchun 10 foiz miqdorda
1.2	soliq va moliya organlari rahbarlari	byudjetga to‘lovlar bo‘yicha soliq qarzdorligi qisqartirilgani uchun 20 foiz miqdorda
1.3	soliq va moliya organlari rahbarlari	mahalliy byudjet daromadlarini oshirish rezervlarini aniqlash bo‘yicha hisob-kitob ko‘rsatkichlari bajarilgani uchun 20 foiz miqdorda
2	soliq va moliya organlari rahbarlari	lavozim maoshlaridan 30 foiz miqdorida jarima sanksiyalarini qo‘llanadi
	Shu jumladan	
2.1	soliq va moliya organlari rahbarlari	mahalliy byudjet prognozi bajarilmaganligi uchun 10 foiz miqdorda
2.2	soliq va moliya organlari rahbarlari	mahalliy byudjetga to‘lovlar bo‘yicha soliq qarzdorligi oshirilgani uchun 10 foiz miqdorda
2.2	soliq va moliya organlari rahbarlari	mahalliy byudjet daromadlarini oshirish rezervlarini aniqlash bo‘yicha hisob-kitob ko‘rsatkichlari bajarilmaganligi uchun 10 foiz miqdorda

Moliya va soliq organlari rahbarlarini mukofotlash hamda javobgarlik choralarini qo‘llash moliya vaziri va O‘zbekiston

Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari, tumanlar (shaharlar) hokimlarining tavsiyalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari xodimlarining funksional vazifalarini bajarishi, bilim darajasi, soliq to'lovchilar bilan ish olib borish bo'yicha kasbiy qobiliyatlarini test sinovidan o'tkazish natijalari bo'yicha beriladigan toifalarga qarab lavozim maoshlariga 10 foizdan 30 foizgacha miqdorda maxsus rag'batlantiruvchi ustamalarni qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Soliq nqzoratini amalga oshirishda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti muhim o'rin egallamoqda.

2001 yilda DSQ huzuridagi Soliq sohasidagi qonun buzilishlariga qarshi tezkor kurashish bosh boshqarmasi bazasida Bosh prokuratura huzuridagi Soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tashkil etilgan edi. 5 yil o'tgach 2006 yilda u Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentiga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018 yil 23 maydagi PF-5446-son "Byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti etib qayta tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentida tarkibida quyidagilar tashkil etildi:

• Iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi - Soliqqa oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'limi, Valyutaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish bo'limi, Iste'mol

bozorini himoya qilish bo‘limi, Tadbirkorlik subyektlari huquqlarini himoya qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi negizida;

• Axborot-tahlil bo‘limi va Tashkiliy-nazorat bo‘limi - Yig‘ma axborot-tahlil boshqarmasi negizida.

Departament iqtisodiy va korrupsiyaviy jinoyatlar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish holatlari bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni amalga oshiradi.

8-BOB. BOJXONA XIZMATI NAZORATINI TASHKIL ETISH

8.1. Bojxona nazoratining mazmun-mohiyati va huquqiy asoslari

Bojxona xizmati bojxona organlarida amalga oshiriladigan davlat xizmatining tarkibiy qismi. Bojxona xizmati organlari O‘zbekiston Respublikasining yagona bojxona siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi, Qo‘mitaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo‘yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari bojxona organlaridir. Bojxona organlari qonun hujjatlariga muvofiq o‘z faoliyatini davlat hokimiyati mahalliy organlaridan mustaqil tarzda amalga oshiradilar.

Qonuniylik, oshkoralik, shaffoflik, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya qilishni bojxona faoliyatining asosiy tamoyillari etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risidagi” 472-I-sonli qonuni 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan bo‘lib, 2018 yil 3 yanvardagi O‘RQ-456-sonli qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu qonun davlat bojxona xizmati organlari faoliyatining huquqiy asoslarini belgilab beradi. Bojxona organlari O‘zbekiston Respublikasining yagona bojxona siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi.

Kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, bojxona organlari ro‘yhati to‘ldirildi, unga qonunchilik darajasida Oliy harbiy bojxona instituti va Milliy kinologiya markazi kiritildi.

Shunungdek, qonunda avvalgi “bojxona organlarining mansabdor shaxslari” atamasidan emas, balki “bojxona organlari xodimlari” atamasidan foydalanildi. Xodimlarning o‘z boshliqlariga bo‘ysunishi o‘rnatildi. Bojxona organlari xodimlari yuqori turuvchi mansabdor shaxslar tomonidan ularga nisbatan qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan prokuratura organlari va sudga shikoyat berish

huquqlari belgilab qo‘yildi. Shuningdek, bojxona organlari xodimlari o‘z xizmatiga kirishayotganda mazmuni qonun bilan belgilangan qasamyodni qabul qilishadi.

2018-yil 18 oktyabrda “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi va unda quyidagilar o‘z aksini topgan:

✓bojxona xodimlari tomonidan jismoniy kuch, maxsus vositalar (binolarni ochish uchun uskunalar, naruchniklar, rezina tayoqchalar, ko‘zdan yosh oqizadigan moddalar va boshqalar) va o‘qotar qurollar qo‘llanilishi tartibi;

✓bojxona organlarida xizmatni o‘tash tartibi va shartlari;

✓bojxona xizmati xodimlarini huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilish masalalari.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan O‘zbekiston Repsublikasi Davlat Bojxona Qo‘mitasi 1997-yil 8-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasini tashkil qilish to‘g‘risida” PF-1815-son farmoniga asosan tashkil etilgan.

Bojxona nazoratini asosini tashkil qiluvchi Bojxona Kodeksi mamlakatimizda 1997-yil 26-dekabrda qabul qilingan va 18 yil mobaynida unga 16 marta qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan. Shularni inobatga olgan holda 2016 yiln 20 yanvarda “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘RQ-400-sonli qonun bilan yangi tahrirda qabul qilindi va 21 apreldan amaliyotga kiritildi. Amaldagi Bojxona Kodeksining[41] IV bo‘limi “Bojxona nazorati” deb nomlanadi va unda bojxona nazoratini amalga oshirish masalalalari yoritilgan.

Bojxona nazorati bojxona organlari tomonidan yuklar, transport vositalari, valyutalar va valyuta boyliklarining olib kirilishi, olib chiqilishi yoki olib o‘tilishi tartibini boshqaruvchi qonunlar va qoidalarga yuridik va jismoniy shaxslarning rioya etishiga qaratilgan nazoratdir. Bojxona nazorati qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta’minlash uchun bojxona organlari

[41]O‘zbekiston Repsublikasi Bojxona Kodeksi Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 3(I)-son, 31-modda.

tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan xavfni boshqarish tizimi qo'llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir. Bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash uchun bojxona organlari xodimlari tomonidan o'tkaziladigan bojxona operatsiyalari majmui bojxona rasmiylashtiruvi hisoblanadi.



8.1-rasm. **Bojxona nazoratining boshlanishi va tugallanishi**

Bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilayotganda bojxona organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan taqiqlar va cheklovlarni belgilashga haqli emas.

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan hamda shartli chiqarib yuborilgan tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim.

Bojxona nazorati zonalari bojxona chegarasi bo‘ylab, shuningdek bojxona organlari tomonidan belgilanadigan boshqa joylarda tashkil qilinadi.

Bojxona nazorati zonalarida ishlab chiqarish, tijorat faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshirishga, shuningdek ularning chegaralari orqali transport vositalari, tovarlar va shaxslarni olib o‘tishga bojxona organlarining ruxsati bilan va nazorati ostida yo‘l qo‘yiladi.



8.2-rasm. **Bojxona nazorati tashkil qilinadigan joylar**

Bojxona organlari erkin bojxona zonalari va erkin omborlarda turgan tovarlar ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bojxona nazoratini amalga oshirishga haqlidir.

Keyingi yillarda barcha sohalarda bo‘lgani kabi bojxona tizimida ham bir qator yangiliklar kuzatilmoqda. Jumladan Koreya Xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) O‘zbekistonda birxillashtirilgan bojxona axborot tizimi — “yagona oyna”ni kiritishda texnik yordam berdi. “Yagona oyna” axborot tizimi www.sw.customs.uz adresi bo‘yicha sinov tartibida ishga tushirildi. Ushbu tizim real vaqtda onlayn tartibda ruli ruxsatnomalar olish uchun arizalar topshirish imkonini beradi.

2017-yil 6-dekabrda “Jismoniy shaxslar tomonidan naqd xorijiy valyutani olib kirish va olib chiqib ketish tartibini yanada soddalashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida PF-5276-sonili farmon imzolandi. 2018-yil 1-yanvardan 2000 AQSh dollari miqdoridagi valyutani olib kirish va olib chiqib ketish uchun deklaratsiya taqdim etilishi bekor qilindi.

2018-yil 6-fevralda O‘zbekiston Prezidentining “Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orkali tovarlarni olib o‘tishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari tugrisida”gi PQ-3512 sonli qarori imzolandi.

Unga ko‘ra jismoniy shaxslar tomonidan mamlakatimiz hududiga bojxona to‘lovlarisiz olib kiriladigan mahsulotlarning chegaraviy summasi belgilandi:

➢ O‘zbekiston Respublikasining xalqaro aeroportlari orqali bojxona chegarasini kesib o‘tganda — 2000 (ikki ming) AQSH dollari;

➢ O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidagi temir yo‘l va daryo o‘tkazish punktlari orqali bojxona chegarasini kesib o‘tganda – 1000 (bir ming) AQSh dollari ;

➢ O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidagi avtomobil yo‘li (piyodalar yo‘li) o‘tkazish punktlari orqali bojxona chegarasini kesib o‘tganda – 300 (uch yuz) AQSh dollari;

➢ xalqaro pochta va kuryerlik jo‘natmalari orqali jismoniy shaxslar manziliga kelayotgan tovarlar uchun bir kalendar kvartali mobaynida — 1000 (bir ming) AQSh dollari miqdorida chegara belgilandi.

Aeroportlarda bojxona nazorat punktlarida 2018 yildan boshlab “yashil” va “qizil” yo‘laklar paydo bo‘ldi.

Tizim xalqaro aeroportlarda 2018 yil 1 yanvardan, avtomobil va temiryo‘l o‘tkazish punktlarida 2021 yil 1 yanvardan kuchga kirish kerak.

“Yashil” yo‘lak – kirib kelish va chiqib ketish joylarida maxsus belgilangan, jismoniy shaxslarning notijorat maqsadlardagi qo‘l yuki va kuzatib borilayotgan bagajdagi tovarlarni bojxona chegarasidan olib o‘tishi uchun mo‘ljallangan joy.

“Qizil” yo‘lak – kirib kelish va chiqib ketish joylarida maxsus belgilangan, jismoniy shasxlarning yozma shaklda deklaratsiyalanishi lozim bo‘lgan qo‘l yuki va kuzatib borilayotgan bagajdagi tovarlarni, shuningdek deklaratsiyalanishi jismoniy shaxsning ixtiyoriga ko‘ra amalga oshiriladigan tovarlarni bojxona chegarasidan olib o‘tish uchun mo‘ljallangan joy.

"Yashil" yo'lakda olib kirish yoki olib chiqish qonun hujjatlariga muvofiq taqiqlangan yoki cheklangan tovarlar, qiymati va miqdori bojsiz olib kirish normasidan va qonun hujjatlarida belgilangan aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normasidan oshadigan tovarlar hamda yozma deklaratsiyalanadigan naqd milliy va xorijiy valyutadagi olib kirish va olib chiqishga ruxsat etilgan mablag'larning cheklagan normalaridan tashqari barcha tovarlar og'zaki deklaratsiyalanadi.

16 yoshga to'lmagan shaxslarning qo'l yuki va bagajdagi tovarlari unga hamrohlik qiluvchi shaxs tomonidan deklaratsiyalanadi.

Jismoniy shasxning "yashil" yo'lakdan o'tishi bojxona maqsadlari uchun bojxona organiga mazkur shaxsning yozma deklaratsiyalashtiriladigan tovarlari yo'qligini ma'lum qilish sifatida qaraladi. Bu jismoniy shaxsni bojxona qonunchiligi talablariga rioya etish majburiyatidan ozod etmaydi.

Agar "yashil yo'lak"dan o'tayotgan jismoniy shaxs taqiqlangan yoki cheklagan tovarlarni, qiymati va miqdori bojsiz olib kirish normasidan va qonun hujjatlarida belgilangan aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normasidan oshadigan tovarlarni yoki naqd valyutalarning ruxsat etilgan midqoridan ortiqchasini olib o'tayotgani gumon qilinganda yoki bu haqida axborot mavjud bo'lsa, ushbu shaxsga nisbatan bojxona nazoratining tegishli shakllari qo'llaniladi.

Ushbu jarayonda tegishli bojxona qoidabuzarligi fosh etilsa, u holda ushbu shaxs bojxona qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

"Qizil" yo'lak orqali o'tadigan jismoniy shaxslar belgilangan tartibda yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini to'ldirishadi. Bojxona organlari "qizil" yo'lakda bojxona nazorati shakllarini qo'llashda tanlash tamoyiliga asoslanadi.

8.2. Bojxona nazoratining shakllari

Yuridik va jismoniy shaxslarning bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazorati bojxona organlari xodimlari tomonidan quyidagi shakllarda o'tkaziladi[42]:

- hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish;
- og'zaki so'rov;
- axborot olish;
- bojxona ko'zdan kechiruvi;
- tovarlarning tamg'alanganligini tekshirish;
- bojxona ko'rigi;
- shaxsiy ko'rik;
- bojxona identifikatsiyalashi;
- bojxona kuzatuvi;
- binolar va hududlarni tekshirish;
- tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish, ularni hisobga olish tizimini tekshirish hamda ushbu tovarlarni va transport vositalarini inventarizatsiya qilish;
- tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati.

Bojxona nazoratini amalga oshirishda bojxona organlari taqdim etilgan, bojxona maqsadlari uchun ahamiyatga molik hujjatlarni tekshiradi.

Taqdim etilgan hujjatlarni va ma'lumotlarni tekshirish:

- hujjatlarning asosiy rekvizitlari to'liq va to'g'ri to'ldirilganligini;
- zarur imzolar va muhrlarning (elektron raqamli imzoning) mavjudligini;
- tuzatishlarning tasdiqlanganganligini aniqlashni o'z ichiga oladi.

[42]O'zbekiston Repsublikasi Bojxona Kodeksi, 188-modda

Bojxona organlariga taqdim etilgan hujjatlarda ko‘rsatilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish ularni quyidagilardan olingan ma’lumotlar bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi:

- taqdim etilgan boshqa hujjatlar va ma’lumotlardan olingan axborotlar;
- uchinchi shaxslardan va boshqa manbalardan olingan axborotlar;
- bojxona nazoratining boshqa shakllarini o‘tkazish, bojxona statistikasi ma’lumotlarini tahlil etish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda ma’lumotlarni qayta ishlash natijalari asosida olingan axborotlar.

Bojxona organi qo‘shimcha ma’lumotlarni faqat taqdim etilgan hujjatlardagi ma’lumotlarni tekshirish maqsadida, sababini ko‘rsatgan holda talab qilib olishga haqli.

Og‘zaki so‘rov bojxona organi xodimi tomonidan vakolatli shaxslardan va bojxona nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga molik holatlar to‘g‘risida ma’lumotlarga ega boshqa shaxslardan zarur axborotni og‘zaki shaklda, bunday so‘rov natijalarini yozma shaklda rasmiylashtirmagan holda olishni nazarda tutadi.

Axborot olish bojxona organi xodimi tomonidan vakolatli shaxslardan va bojxona nazoratini amalga oshirish uchun ahamiyatga molik holatlar to‘g‘risida ma’lumotlarga ega boshqa shaxslardan zarur axborot olishni nazarda tutadi. Axborot olish uchun vakolatli shaxsni va boshqa shaxsni chaqirish zarur bo‘lgan taqdirda bojxona organi yozma shaklda xabar yuboradi.

Bojxona ko‘zdan kechiruvi bojxona organlari xodimlari tomonidan transport vositalarining bo‘limlarini, tovarlarning o‘rov-idishini ochmagan, ko‘zdan kechirilayotgan obyektlarni va ularning qismlarini bo‘laklarga ajratmagan va boshqa yo‘llar bilan ularning butligini buzmagan holda tovarlarning va transport vositalarining, xalqaro pochta va kuryerlik jo‘natmalarining hamda jismoniy shaxslar bagajining, shuningdek yuk ortilgan idishlarni, kontcyncrlarni, bojxona identifikatsiyalash vositalarining tashqi ko‘rinishini ko‘zdan kechirish orqali amalga oshiriladi.

Bojxona ko‘zdan kechiruvi bojxona nazorati ostidagi tovarlar va transport vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, tovarlarda, yuk ortilgan idishlarda, transport vositalarida va transport vositalarining bo‘limlarida plombalar, muhrlar va boshqa bojxona identifikatsiyalash vositalari mavjudligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladi.

Bojxona ko‘zdan kechiruvi natijalariga ko‘ra:

• to‘g‘ri deklaratsiyalangan taqdirda – tegishli tovarning kuzatuv hujjatlari rasmiylashtiriladi;

• tovarning noto‘g‘ri deklaratsiyalanganligi fakti aniqlangan taqdirda – bojxona ko‘rigi amalga oshiriladi.

Tovarlarning tamg‘alanishini tekshirish tovarlarda yoki ularning qadoqlarida maxsus tamg‘alar, identifikatsiyalash belgilari yoki tovarni belgilashning boshqa vositalari mavjudligini tekshirishni nazarda tutadi.

Bojxona hududiga olib kiriladigan alohida tovarlar bo‘yicha bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida ularni maxsus tamg‘alar, identifikatsiyalash belgilari yoki tovarlarni belgilashning boshqa vositalari bilan tamg‘alash talabi qo‘yilishi mumkin.

Tovarlarda maxsus tamg‘alar, identifikatsiyalash belgilari yoki tovarlarni belgilashning boshqa vositalari mavjud emasligiga, shunday tovarlari mavjudligi aniqlangan yuridik yoki jismoniy shaxs buning aksini isbotlamasa, tovarlarni bojxona hududiga bojxona rasmiylashtiruvisiz olib kirganlik yoki chiqarib yuborganlik faktining tasdiqlanishi deb qaraladi.

Bojxona ko‘rigi qo‘yilgan plombalarni, muhrlarni yoki bojxona identifikatsiyalashining boshqa vositalarini buzgan holda, tekshirilayotgan obyektlarni va ularning qismlarini bo‘laklarga ajratib, demontaj qilib yoki boshqa yo‘llar bilan ularning butligini buzib, tovarlarning o‘ramini yoki transport vositasining yuk joylanadigan bo‘limini yoxud idishlarini, konteynerlarni va tovarlar bo‘lgan yoki bo‘lishi ehtimoli bo‘lgan boshqa joylarni ochishni nazarda tutadi.

Bojxona ko‘rigi, qoida tariqasida, tovarga bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganidan keyin deklarant hozirligida o‘tkaziladi. Bunda tovarga bojxona deklaratsiyasi qabul qilinguniga qadar bojxona ko‘rigi:

- bojxona maqsadlarida tovarni identifikatsiyalash;

- bayon etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini aniqlash;
- bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi mavjud axborotni tekshirish;
- tanlab tekshirish tamoyiliga rioya etgan holda xavfni boshqarish tizimi asosida bojxona nazoratini o'tkazish;
- deklarantning huquqlarini amalga oshirish zarur bo'lgan taqdirda o'tkazilishi mumkin.

Bojxona organi xodimlarining talabiga ko'ra vakolatli shaxslar tovarlarning va transport vositalarining bojxona ko'rigi o'tkazilayotganda hozir bo'lishi va ularga zarur ko'mak ko'rsatishi shart. Vakolatli shaxslar bo'lmaganda ko'rikdan o'tkazilayotgan transport vositasini boshqarayotgan jismoniy shaxs vakolatli shaxs hisoblanadi.

Bojxona organi xodimi bojxona ko'rigini quyidagi hollarda vakolatli shaxslar ishtirokisiz, ikki nafar xolis hozirligida o'tkazishga haqli:

- tovarlar va transport vositalari taqdim etilgan kundan keyin besh ish kuni o'tgach vakolatli shaxslar kelmaganda;
- davlat xavfsizligiga, jamoat tartibiga, odamlarning hayoti va sog'lig'iga, hayvonlar va o'simliklarga, atrof-muhitga, madaniy boyliklarni saqlashga haqiqiy xavf mavjud bo'lganda va kechiktirib bo'lmaydigan choralar ko'rilishi lozim bo'lgan boshqa holatlarda (shu jumladan, agar tovarlar tez yonuvchan moddalar, portlash xavfi bo'lgan predmetlar, portlovchi, zaharlovchi, xavfli kimyoviy va biologik faol moddalar, giyohvandlik vositalari, prekursorlar, psixotrop, zaharli, toksik, radioaktiv moddalar, yadroviy materiallar, qurol, uning o'q-dorilari ekanligini ko'rsatuvchi va boshqa shunga o'xshash tovarlar ekanligining belgilari mavjud bo'lsa, shuningdek, agar tovarlar o'zidan noxush hid taratsa);
- tovarlar xalqaro pochta va kuryerlik jo'natmalarida yuborilganda;
- tovarlar va (yoki) transport vositalari bojxona hududidan tovarlarni va (yoki) transport vositalarini olib chiqishni nazarda tutuvchi bojxona rejimi shartlarini buzgan holda ushbu hududda qoldirilganda.

Agar bojxona deklaratsiyasida bir nomdagi tovar sifatida ko'rsatilgan tovar turkumining bir qismi bojxona ko'rigidan o'tkazilgan bo'lsa, bunday ko'rikdan o'tkazish natijalari shu tovarning butun turkumiga tatbiq etilishi mumkin. Agar vakolatli shaxs ko'rikdan o'tkazish natijalari tovarning butun turkumiga tatbiq etilishi mumkin emas deb hisoblasa, tovar turkumining qolgan qismi uchun qo'shimcha bojxona ko'rigi o'tkazilishini talab qilishga haqli.

Bojxona ko'rigi o'tkazilayotganda tovarning amaldagi miqdori uni deklaratsiyalashda ko'rsatilgan tovar miqdoriga mos kelmasligi aniqlangan taqdirda, bojxona organi bojxona maqsadlari uchun tovarning amaldagi miqdorini mustaqil ravishda aniqlaydi.

Bojxona ko'rigidan o'tkazish natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadigan shaklda dalolatnoma tuziladi. Bojxona ko'rigi dalolatnomasining ko'chirma nusxasi vakolatli shaxsga topshiriladi (yuboriladi).

Shaxsiy ko'rik bojxona chegarasi orqali o'tayotgan va bojxona nazorati zonasida yoki aeroportning xalqaro yo'nalishlar uchun ochiq bo'lgan tranzit zonasida bo'lgan jismoniy shaxsga nisbatan o'tkaziladi.

Shaxsiy ko'rik bojxona hududiga olib kirish yoki ushbu hududdan olib chiqish taqiqlangan tovarlarni yoki belgilangan tartibni buzgan holda olib o'tilayotgan tovarlarni jismoniy shaxs yonida yashirmoqda va ularni o'z ixtiyori bilan taqdim etmoqchi emas, deb taxmin qilishga asoslar bo'lgan taqdirda bojxona organi xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazish haqidagi qaror bojxona organining boshlig'i yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs tomonidan yozma shaklda qabul qilinadi.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazishni boshlashdan avval bojxona organining mansabdor shaxsi:

- shaxsiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi qarorni jismoniy shaxsga e'lon qilishi;
- shaxsiy ko'rik o'tkazilayotganda jismoniy shaxsni uning huquqlari bilan tanishtirishi;

- jismoniy shaxsga yonida berkitilgan tovarlarni o‘z ixtiyori bilan berishni taklif qilishi shart.

Jismoniy shaxs shaxsiy ko‘rikni rad etgan taqdirda, shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorga shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish haqidagi qarorni e’lon qilgan bojxona organi xodimining imzosi bilan tasdiqlangan belgi qo‘yiladi.

Agar ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs bojxona xodimining qonuniy talablarini bajarmasa yoki bajarishga qarshilik ko‘rsatsa, ushbu harakatlar ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq jismoniy shaxsni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish uchun asos bo‘ladi.

Shaxsiy ko‘rik sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan alohida xonada bojxona organining ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi mansabdor shaxsi tomonidan xuddi shu jinsdagi ikki xolis hozirligida o‘tkaziladi. Boshqa jismoniy shaxslarning bu xonaga kirish va shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazishni kuzatish imkoniyatiga yo‘l qo‘yilmaydi. Ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxsning tanasini tekshirish faqat tibbiyot xodimlari tomonidan, zarur bo‘lganda, maxsus tibbiyot texnikasidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Zarur bo‘lganda shaxsiy ko‘rik o‘tkazilayotganda tarjimon jalb qilinadi.

Voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz shaxs shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazilayotganida uning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka olganlar, homiylar, vasiylar) yoki uni kuzatib boruvchi shaxslar uning yonida bo‘lishga haqli. Ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili (uni kuzatib boruvchi shaxs) shaxsiy ko‘rik davomida bojxona organi xodimining qonuniy talablarini bajarishi shart.

Shaxsiy ko‘rik ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs tomonidan o‘zida yashirib qo‘yilgan tovarlarni topish jarayonida inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, uning sog‘lig‘i va mol-mulkiga ziyon yetkazilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ko‘rikdan o‘tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili (uni kuzatib boruvchi shaxs) shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazish jarayonida quyidagi huquqlarga ega:

• bojxona organi boshlig'ining yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa shaxsning shaxsiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi qarori e'lon qilinishini talab qilish;

• ona tilidan foydalanish, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish;

• o'z huquqlari va majburiyatlari bilan tanishish;

• tushuntirishlar, iltimosnomalar berish;

• shaxsiy ko'rik bayonnomasini tuzish tugallanganidan so'ng u bilan tanishib chiqish va mazkur bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni bayon etish;

• bojxona organining qarori, uning xodimlarining harakatlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

• qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga.

Shaxsiy ko'rik natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadigan shaklda bayonnoma tuziladi. Bayonnoma quyidagilar tomonidan imzolanadi:

• bojxona organining shaxsiy ko'rikni o'tkazgan mansabdor shaxsi;

• xolislar;

• shaxsiy ko'rikdan o'tkazilgan jismoniy shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs;

• tibbiyot xodimi — ko'rikdan o'tkazilgan shaxsning tana a'zolari u tomonidan tekshirilganda;

• shaxsiy ko'rikda ishtirok etgan boshqa shaxslar.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazilgan jismoniy shaxsga shaxsiy ko'rik o'tkazilganligi to'g'risidagi bayonnomaning ko'chirma nusxasi imzo qo'ydirib taqdim etiladi.

Bojxona identifikatsiyalashi tovarlar, transport vositalari va hujjatlar, shuningdek bojxona nazorati ostida bo'lishi lozim bo'lgan tovarlar turgan yoki turishi mumkin bo'lgan xonalar va boshqa joylarning bojxona identifikatsiyalash vositalarini qo'llash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bojxona identifikatsiyalash vositalari quyidagilardan iborat:

• qo'yilgan plombalar, muhrlar;

- yozilgan raqamli, harfli tamg‘alar va boshqa xildagi tamg‘alar, identifikatsiyalash belgilari;
- bosilgan shtamplar;
- olingan namunalar va nusxalar;
- tuzilgan tavsiflar, chizmalar;
- tayyorlangan katta tasvirlar, rasmlar, fotosuratlar va videotasvirlar;
- tovarning kuzatuv hujjatlari va boshqa hujjatlar;
- yopishtirilgan maxsus nakleykalar va himoya moslamalari;
- tovarning jo‘natuvchi bojxona organi tomonidan plombalar va muhrlar qo‘yilgan, transport vositalarining yuk bo‘limlariga joylashtirilgan, bojxona maqsadlari uchun zarur tovarning kuzatuv hujjatlari;
- seyf-paketlarga joylashtirilgan, bojxona maqsadlari uchun zarur bo‘lgan hujjatlar;
- qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa bojxona identifikatsiyalash vositalari.

Bojxona identifikatsiyalash vositalari bojxona organlari tomonidan o‘zgartirilishi, olib tashlanishi yoki yo‘q qilinishi mumkin, bundan tovarlarning va transport vositalarining yo‘q qilinishi, qayta tiklab bo‘lmaydigan tarzda yo‘qotilishi yoki jiddiy tarzda buzilishi haqiqiy xavfi bo‘lgan hollar mustasno. Bojxona organlariga bojxona identifikatsiyalash vositalari o‘zgartirilganligi, olib tashlanganligi yoki yo‘q qilinganligi to‘g‘risida darhol xabar beriladi va haqiqiy xavf mavjudligining dalillari taqdim etiladi.

Chet davlatlarning bojxona organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq qo‘yilgan plombalar, muhrlar yoki boshqa bojxona identifikatsiyalash vositalari bojxona identifikatsiyalash vositalari sifatida e’tirof etilishi mumkin.

Bojxona identifikatsiyalash vositalarining qo‘llanilish va tayyorlanish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan belgilanadi.

Bojxona organlari xodimlari tomonidan bojxona nazorati ostidagi tovarlar va transport vositalarini vizual kuzatish, shu jumladan texnik vositalar qo'llanilgan holda kuzatish bojxona kuzatuvi hisoblanadi.

Binolar va hududlarni tekshirish bojxona nazorati ostida bo'lgan, shu jumladan shartli ravishda chiqarib yuborilgan tovarlarning va transport vositalarining bojxona omborlarida, boj olinmaydigan savdo do'konlari binolarida, shuningdek bojxona tartib-taomillari va rejimlari shartlariga muvofiq tovarlar va transport vositalari turishi lozim bo'lgan shaxslarda tovarlar va transport vositalari borligini tasdiqlash maqsadida bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladigan harakatdir.

Bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan va bojxona nazorati ostida bo'lgan barcha tovarlar va transport vositalari bojxona organlari tomonidan hisobga olinishi kerak.

Tegishli bojxona rejimlari shartlariga rioya etilishi uchun mas'ul bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar tovarlar va transport vositalarining hisobini yuritishi hamda bojxona organlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilanadigan shaklda hisobot taqdim etishi shart.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish tizimini tekshirish bojxona organlari tomonidan quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

- shaxs bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartib-taomillarini qo'llash to'g'risida ariza berganda;
- hisobga olinishi lozim bo'lgan tovarlar shartli ravishda chiqarib yuborilganda;
- bojxona brokerlarining, bojxona tashuvchilarining, shuningdek ayrim bojxona rejimlari doirasida faoliyat yuritayotgan va tovarlarni bojxona nazorati ostida saqlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan shaxslarning faoliyati nazorat qilinayotganda;
- bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatli shaxs tekshirilayotganda.

Bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni va transport vositalarini inventarizatsiya qilish bojxona organi boshlig'ining yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning qaroriga ko'ra bojxona organi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona organlari tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin, agarda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilgan deb taxmin qilish uchun yetarli va tasdiqlangan asoslar mavjud bo'lsa, bojxona nazoratini amalga oshirishga haqli.

Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati amalga oshirilayotganda bojxona organlari tovarlarning borligini tekshirishga, ularni qayta bojxona ko'rigidan o'tkazishga, bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni qayta tekshirishga, hujjatlarni hamda ushbu tovarlar bilan amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy operatsiyalarga va undan keyingi tijorat operatsiyalariga taalluqli axborotni tekshirishga haqli. Tekshiruv mazkur operatsiyalarga bevosita yoki bilvosita aloqador yoki zarur hujjatlarga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar joylashgan yerlarda o'tkazilishi mumkin.

Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazoratini o'tkazish uchun bojxona organi boshlig'ining yoki uning o'rnini bosuvchi shaxsning tekshiruv maqsadi, uni o'tkazish muddatlari, tekshiruvchi bojxona organi mansabdor shaxslarining tarkibi va tekshirilayotgan davr ko'rsatilgan qarori asos bo'ladi.

Tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati ayni bir kontrakt (shartnoma, kelishuv) bo'yicha ko'pi bilan bir marta, shuningdek bojxona nazorati ostida bo'lishi tugagan paytdan e'tiboran bir yil ichida amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona organlari bojxona nazorati shakllarini qo'llashda tanlab olish tamoyiliga asoslanadi va bojxona nazoratining bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlaydigan shakllari bilan cheklanadi. Bojxona nazorati shaklini tanlash bojxona organi xodimi tomonidan belgilanadi.

Bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod etish O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bojxona nazoratining ayrim shakllarini qo‘llamaslik yoki ulardan ozod qilish yuridik va jismoniy shaxslar bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etish majburiyatidan ozod qilinganligini anglatmaydi.

Quyidagilar bojxona ko‘rigidan o‘tkazilmaydi[43]:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi sobiq Prezidentining shaxsiy bagaji;
- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a’zolarining va Qonunchilik palatasi deputatlarining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a’zolarining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) va O‘zbekiston Respublikasi diplomatik pasportlari egalarining shaxsiy bagaji, agar mazkur shaxslar xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda bojxona chegarasini kesib o‘tsalar;
- qonunga muvofiq boshqa mansabdor shaxslarning shaxsiy bagaji.

Chet el harbiy kemalari, jangovar va harbiy-transport havo kemalari, shuningdek o‘zi yurib kelayotgan harbiy texnikasi bojxona ko‘rigidan ozod qilinadi.

Bojxona nazoratini o‘tkazishda insonning hayoti va sog‘lig‘i, hayvonlar, o‘simliklar uchun xavfsiz bo‘lgan hamda tovarlarga va transport vositalariga zarar yetkazmaydigan texnik va boshqa vositalar qo‘llanilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi bojxona nazoratini amalga oshirish maqsadida chet davlatlarning bojxona organlari bilan hamkorlik qiladi, ular bilan o‘zaro yordam va axborot almashinuvi to‘g‘risida bitimlar tuzadi.

[43] O‘zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi, 189 modda

8.3. Bojxona organlarini bojxona nazoratini olib borishdagi vazifalari

Mamlakatimizda bojxona nazoratini tashkil etishda bojxona organlariga katta ma'suliyat yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslari va bojxona postlari bojxona organlari hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi markaziy apparatining tuzilmasi mazkur apparat xodimlarining cheklangan soni bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatining asosini O'zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 374-son qarori[44] bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi Nizom"[45] tashkil etadi.

Davlat bojxona qo'mitasi organlarining tizimini DBQ markaziy apparati, DBQning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari (DBQB), ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslari (IBK) hamda bojxona komplekslari va bojxona postlari tashkil qiladi.

Mamlakatimizda Davlat bojxona organlarining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish;
- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va o'z vakolati doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
- bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

---

[44] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 9 fevraldagi 101-sonliqarori bilan o'zgartirish kiritilgan.

[45] 1997 yil 30 iyulda tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 1 dekabrdagi 960-sonli qarori bilan tahrir qilingan.

• bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

• bojxona to'lovlarini undirish;

• bojxona nazoratidan o'tkazilishi kerak bo'lgan tovarlar va transport vositalari shunday nazoratdan o'tkazilishini ta'minlash;

• bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, uni aniqlash va ularga chek qo'yish;

• tashqi iqtisodiy faoliyatga doir bojxona statistikasini hamda tovar nomenklaturasini yuritish;

• O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga oid qismidan kelib chiqadigan majburiyatlar bajarilishini ta'minlash.

Davlat bojxona organlari o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

• yagona bojxona siyosati amalga oshirilishining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmalarini ishlab chiqadi, ularning amalda qo'llanilishini ta'minlaydi, bojxona ishi sohasida qonun hujjatlari va normativ hujjatlar loyihalari tayyorlanishida qatnashadi;

• O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ishlab chiqilishida qatnashish, belgilangan tartibda va o'z vakolatlari doirasida bojxona masalalari bo'yicha xalqaro bitimlar va shartnomalar tuzadi;

• respublikaning bojxona hududida davlat xavfsizligini, jamoat tartibi, inson hayoti va salomatligi himoya qilinishi, hayvonlar va o'simliklar muhofaza qilinishi, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

• belgilangan tartibda bojxona nazorati amalga oshirilishini ta'minlaydi va uning shakllarini takomillashtiradi;

• bojxona qonunchiligiga va o'z vakolatlari doirasida-soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

• bojxona tartibga solish vositalari qo'llanilishini ta'minlaydi, bojxona - tarif mexanizmi ham shu jumlaga kiradi, tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli tartibga solish usullari, kvotalash normalari,

litsenziyalash va deklaratsiya taqdim etish ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida belgilangan tartibda qatnashadi;

• boj poshlinalari, soliqlar va boshqa to'lovlar davlat byudjetiga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlaydi;

• o'z vakolatlari doirasida valyuta nazoratini amalga oshiradi;

• bojxona statistikasi metodologiyasini takomillashtiradi, bojxona ishi sohasida statistika ma'lumotlari to'planishi, ularga ishlov berilishi va tahlil qilinishini tashkil etadi, respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, tashqi savdo va to'lov balansini mustahkamlash bo'yicha prognoz hisob-kitoblarni amalga oshiradi va takliflarni ishlab chiqadi;

• bojxona ishi sohasidagi faoliyat to'g'risida axborot to'planishi va ishlab chiqilishi hamda avtomatlashtirilgan tizim joriy etilishini yuritadi, shuningdek bojxona statistika ma'lumotlarini tegishli idoralar va manfaatdor organlarga taqdim etadi;

• kontrabandaning, bojxona qonunchiligining, o'z vakolatlari doirasida soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish va ularga barham berish chora-tadbirlarini mustaqil ravishda yoki huquqni muhofaza qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlab chiqadi va qo'llaydi, shuningdek xalqaro terrorizmga va O'zbekiston aeroportlarida xalqaro fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashishga qarshi kurashishga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va qo'llaydi;

• bojxona organlari vakolatiga tegishli bo'lgan ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va qonunchilikka muvofiq bojxona qoidalari buzilishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi;

• yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan bojxona qoidalari buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralarini belgilangan tartibda qo'llaydi;

• giyohvandlik vositalari, psixotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog' respublikaning bojxona chegarasi orqali g'ayriqonuniy olib o'tilishining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va qo'llaydi;

• respublikaning va xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan birgalikda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar nazorat ostida yetkazib berilishini amalga oshiradi;

• Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari bilan o'zaro hamkorlikda qonunchilikda belgilangan tartibda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiradi;

• aybdorlarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi masalan, bojxona organlari vakolatlari doirasidan tashqariga chiqqanda qonun buzilishlari faktlari bo'yicha materiallarni tergov, sud organlari va boshqa organlarga topshiradi;

• bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, bojxona organlari mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari va qarorlari ustidan tushgan viloyatlar va e'tirozlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqadi;

• bojxona organlariga yuklangan vazifalar va funksiyalar amalga oshirilishini ta'minlovchi ilmiy-texnik xizmatlar, laboratoriyalar, o'quv markazlari, boshqa korxonalar va tashkilotlarni tashkil etadi;

• bojxona organlari xodimlarini, shuningdek davlat organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun bojxona rasmiylashtirilishi bo'yicha mutaxassislarini tayyorlaydi, qayta tayyorlaydi va ularning malakasini oshiradi;

• bojxona va erkin omborlar, bojsiz savdo do'konlari, bojxona brokerlari va bojxona tashuvchilari, tovarlarga bojxona hududidan tashqarida, bojxona hududida yoki bojxona nazorati ostida ishlov berish ustidan nazoratni amalga oshiradi, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda faoliyatning sanab o'tilgan turlarini amalga oshirish huquqiga ruxsatnomalar beradi;

• xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashadi, xorijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi, qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlarning bojxona xizmatlari bilan axborotni o'zaro ayirboshlaydi;

• bojxona organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi, tashqi savdo yuklarini

bojxona rasmiylashtirishi uchun punktlar tarmog'ini va bojxona infrastrukturasining boshqa obyektlarini kengaytirish ham shu jumlaga kiradi;

• DBQning moddiy yordam, ijtimoiy himoya qilish, bojxona organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasiga tushadigan mablag'lar hisobiga respublikada bojxona ishini rivojlantirish chora-tadbirlarini mablag' bilan ta'minlaydi;

• xavfli yuklar, qurol-yarog'lar, harbiy texnika, harbiy mol-mulklar, portlovchi moddalar va buyumlar, shuningdek harbiy tarkiblar tranziti chog'ida qonunchilikka muvofiq xulosalar beradi va nazoratni amalga oshiradi.

Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

• tovarlar va transport vositalarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, jismoniy shaxslarning o'zini ko'zdan kechirish;

• yuridik va jismoniy shaxslardan ko'zdan kechirish uchun tovarlar va transport vositalarini, shuningdek zarur hujjatlarni taqdim etishni talab qilish;

• valyuta nazoratini amalga oshirish;

• moliya, bank va boshqa tashkilotlardan, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslardan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan axborot va hujjatlarni hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa axborotni olish;

• bojxona nazoratidan o'tkazish maqsadida tovarlar hamda boshqa buyumlardan namuna va nusxalar olish;

• bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar saqlanayotgan hududlarga va binolarga belgilangan tartibda kirish;

• bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishiga doir materiallarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish hamda jismoniy va yuridik shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish;

• bojxonaga oid huquqbuzarliklarning bevosita predmeti bo'lgan tovarlar va transport vositalarini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda ushlab turish hamda olib qo'yish;

• surishtiruv o‘tkazish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

• bojxonaga oid huquqbuzarliklarni aniqlashga xizmat qiladigan texnikaviy va maxsus vositalarni qo‘llash;

• tashqi savdo operatsiyalari monitoringini amalga oshirish;

• huquqbuzarlarni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish;

• bojxona to‘g‘risidagi normativ hujjatlarga rioya qilinishini ta’minlash uchun ekspertlar yoki mutaxassislarni jalb qilish.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida tabel o‘qotor qurolini va yakka tartibda himoyalanish vositalarini olib yurish, saqlash, qo‘llash va foydalanish huquqiga ega bo‘ladilar.

Bojxona organlarining huquqlari bilan bir qatorda majburiyatlari ham belgilangan bo‘lib, ular quyidagilardan ibort:

• yagona davlat bojxona siyosatini ro‘yobga chiqarishda ishtirok etish;

• bojxona haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, bojlar to‘g‘ri hisoblanishi, to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini nazorat qilish;

• davlat xavfsizligini, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini himoya qilish, atrof muhitni muhofaza etish chora-tadbirlari amalga oshirilishiga ko‘maklashish;

• bojxona haqidagi qonun hujjatlarini qo‘llanish bo‘yicha belgilangan tartibda uslubiy ko‘rsatmalar va normativ hujjatlar ishlab chiqish hamda ularni nashr etish;

• yuridik va jismoniy shaxslarni tovarlar va transport vositalarini olib o‘tish hamda bojxona chegarasidan o‘tish vaqtidagi huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida o‘z vaqtida xabardor qilish;

• faoliyat turlari bilan shug‘ullanish huquqini beradigan maxsus ruxsatnomalarni (litsenziyalarni) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berish;

• o‘z xizmat vazifalarini bajarishlari natijasida o‘zlariga ma’lum bo‘lib qolgan davlat siri va tijorat siri hisoblangan axborotni oshkor etmaslik.

Bojxona organlari mansabdor shaxslari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslardan noto‘g‘ri undirib olingan boj to‘lovlari qaytarilishi yoki bo‘lajak to‘lovlar hisobiga o‘tkazilishi kerak, bojxona organlari mansabdor shaxslarining huquqqa xilof harakatlari bilan yetkazilgan zarar esa ichki ishlar organlari xodimlari uchun qonunchilik tomonidan belgilangan tartibda undirilishi kerak.

9-BOB. SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH

9.1. Sug‘urta faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlashda va aholini ko‘ngilsiz hodisalardan moliyaviy himoya qilishda sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos muhim o‘rni mavjud. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach moliya tizimining ajralmas bo‘g‘ini sifatida milliy sug‘urta bozorini rivojlantirishga ahamiyat qarata boshladi. Shu munosabat bilan o‘tgan yillar mobaynida mamlakatimizda sug‘urta faoliyatini tartibga soluvchi bir qator me’yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Sug‘urta munosabatlari, avvalo, fuqarolik-huquqiy munosabatga oid bo‘lganligi tufayli 1996-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 52-bobi sug‘urtaga bag‘ishlangan. Hozirgi kunga qadar amaliyotda sug‘urta tashkilotlari o‘z faoliyatlarini amalga oshirishlarida mazkur Kodeksning talab-qoidalariga qat`iy rioya etadilar.

O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 5 apreldagi “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni[46] sug‘urta munosabatlari ishtirokchilarining aniq huquq chegaralarini, sug‘urta faoliyati ishtirokchilari tarkibini belgilab berdi.

Sug‘urta quyidagi sohalarga bo‘linadi:

- hayotni sug‘urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va pul ta’minoti bilan bog‘liq manfaatlarini sug‘urta qilish, bunda shartnoma bo‘yicha sug‘urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug‘urta pullarining sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan oshirilgan foizni o‘z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to‘lovlarini qamrab oladi);

---

[46]Izoh: oxirgi o‘zgartirish O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 16 oktyabrdagi O‘RQ-448-sonli Qonuni bilan kiritilgan

■ umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari).

Qonunchilikka muvofiq sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi. Sug'urta faoliyati deganda esa sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat tushuniladi.[47]

Sug'urta bozori bu sug'urta holatlari ro'y berganda jismoniy va huquqiy shaxslarni mulkiy mafaatlarini sug'urtalanuvchilarning pul mablag'lari hisobidan himoya qilishda aks etuvchi sug'urta xizmatlari oldi-sotdisi bo'yicha iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir. Sug'urta bozorini amal qilishining asosiy sharti sug'urta xizmatlariga ehtiyoj (talab) va bu ehtiyojlarni qondirishga layoqatli sug'urtalovchilarning mavjudligidir.

Sug'urta bozori sug'urta xizmati oldi-sottisi amalga oshiriladigan va unga talab va taklif shakllanadigan iqtisodiy pullik munosabatlarni ayrim sohasidir. Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining subyektlari hisoblanadi. Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari, adjasterlar, aktuariylar, sug'urta syurverlari, shuningdek assistans sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridir. Sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti sug'urta vositachilari hisoblanadilar"[48] deb qayd etilgan.

Iqtisodiyot hamda zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan sug'urta bozorini sug'urtalanuvchilarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan talablari va sug'urta tashkilotlarimng sug'urta xizmati bo'yicha takliflari bilan boshqariladigan iqtisodiy makon yoki tizim sifatida tushunish murnkin.

---

[47]O'zbekiston Respublikasi 358-II-sonli "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 2002-yil 5-aprel, 3-modda.

[48]O'zbekiston Respublikasi 358-II-sonli "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 2002-yil 5-aprel, 5-modda.

Sug'urta bozorida taklif etilayotgan tovar – sug'urta xizmatlari hisoblanadi. Uning xarid qiymati bo'lib sug'urta qoplamasi, ya'ni sug'urta himoyasini ta'minlash hiosblanadi. Sug'urta xizmatlarining narxi sug'urta ta'rifida aks ettiriladi. U talab va taklifga taqqoslangan raqobat asosida shakllanadi.

Sug'urta bozori tarkibiy jihatdan tashkiliy-huquqiy va hududiy aspektlari bo'yicha bo'linishi mumkin. Tashkiliy-huquqiy jihatdan aksioner, birgalikdagi, xususiy va davlat sug'urta tashkilotlaridan iborat bo'ladi. Hududiy aspektlari jihatidan esa milliy, mintaqaviy va xalqaro sug'urta bozorlariga bo'linadi.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari *sug'urta faoliyatining subyektlari* hisoblanadi. Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilari hamda boshqa yuridik va jismoniy shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozorining professional ishtirokchilari hisoblanadilar.

Sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri va sug'urta agenti *sug'urta vositachilari* hisoblanadilar.

Sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs *sug'urta brokeri hisoblanadi.*

Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs *sug'urta agenti* hisoblanadi.

Sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovoni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi yuridik shaxs *sug'urtalovchi* deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunda sug'urtalovchiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun lisenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovoni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs sug'urtalovchi deb e'tirof etiladi".[49]

---

[49] O'zbekiston Respublikasi 358-II-sonli "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 2002-yil 5-aprel, 6-modda

Ushbu qonunda keltirilishiga ko‘ra, sug‘urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomalari tuzish;
- o‘z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug‘urta qilish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida qayta sug‘urta qilish;
- maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda investisiya faoliyatini amalga oshirish;
- sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish bilan bog‘liq faoliyatni, shuningdek sug‘urta agenti sifatida sug‘urta vositachiligini amalga oshirish;
- sug‘urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda moliyalashtirish;
- sug‘urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan sug‘urta turlariga doir qoidalarni (shartlarni) qonun hujjatlariga muvofiq belgilash;
- sug‘urta tovoni miqdorini belgilash uchun zarur bo‘lgan tegishli axborot va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so‘rash va olish;
- sug‘urta agentlari, sug‘urta va qayta sug‘urta brokerlari, sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari bilan tegishli shartnomalar tuzish;
- sug‘urta tovoni to‘lashni qonun hujjatlarida va (yoki) sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasida belgilangan hollarda hamda tartibda rad etish, sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish;
- sug‘urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni tekshirishni, sug‘urta qildiruvchining sug‘urta shartnomasi talablari va shartlarini bajarishi ustidan nazoratni sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirish;

- chet el sug'urtalovchilariga syurveyer va adjaster xizmatlari ko'rsatish;
- ilgari sug'urtalovchi tomonidan o'z ehtiyojlari uchun olingan yoki sug'urta shartnomasini amalga oshirish natijasida uning ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni realizasiya qilish yoki ijaraga berish;
- O'zbekiston Respublikasining reyting tashkilotlari va chet el reyting tashkilotlari reytinglarini olish;
- o'zining alohida bo'linmalarini tashkil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 10-apreldagi PQ-618-son qarori bilan tasdiqlangan "Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida" Nizomga muvofiq sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan beriladigan maxsus ruxsatnomalar (litsenziyalar) asosida amalga oshiriladi. Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlari faoliyatini amalga oshirish huquqi uchun litsenziyalar berish, ularning amal qilishini to'xtatish va bekor qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi[50].

9.2. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning maqsad va vazifalari

Sug'urta tashkilotlarining faoliyati boshqa turdagi xo'jalik subyektlari faoliyatidan keskin farq qiladi. Chunki, ular ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlashda va sug'urta hodisalari ro'y berganda yetkazilgan zararni qoplash uchun xizmat qiladilar. Bu holat, sug'urtachilar zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi va shuning uchun, ular davlat tomonidan nazorat ostiga olinmog'i zarurdir.

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning barchasida sug'urta bozori davlatning vakolatli idoralari tomonidan tartibga solib boriladi.

Davlat bunday nazoratni amalga oshirishda mamlakatning sug'urta sohasiga taalluqli qonunlariga hamda boshqa me'yoriy

[50]O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi PF-5055-sonli Farmoni o'zartirish kiritilgan

hujjatlariga asoslanadi va ular doimiy ravishda takomillashtirilib boriladi. Har bir mamlakatda sug'urta va qayta sug'urtalash kompaniyalari, sug'urtaga ixtisoslashgan vositachilar davlat sug'urta nazoratining obyektlari hisoblanadi.



9.1-rasm. **Davlat sug'urta nazoratining maqsadi**

Davlat sug'urta nazoratining asosiy vazifalari esa quyidagilardan iborat:

- Sug'urtachilarni moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
- Sug'urta bozorida tenglik va raqobatbardoshlikni ta'minlash;
- Sug'urta xizmatlaridan foydalanuvchilarni xaq-huquqlarini himoya qilish;
- Sug'urta bozorini rivojlanishida ko'maklashish.

Sug'urta faoliyati nazorati quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- O'zbekiston Respublikasi sug'urta faoliyatini yuritishda to'lay olish qobiliyati ko'rsatkichlar va boshqa moliyaviy barqarorliklarni mavjudligi, faoliyat davomida qonun hujjatlariga rioya qilishni tekshirish;
- Sug'urta faoliyati va sug'urta brokerlarini lisenziyalash;
- O'zining komponenti doirasida, sug'urta ishchilarii ish bilan ta'minlash;
- Respublika sug'urta faoliyati rivojlanishi tendensiyasini analiz qilish;

• Matbuot orqali sug‘urta faoliyati haqida tushuntirish ma’lumotlari olib borish;

• O‘zbekiston vakolatlari doirasida fuqarolarning murojaatlari va taliflarini ko‘rib chiqish.

Sug‘urta tashkiloti faoliyati ustidan amalga oshiriladigan davlat nazoratining samaradorligi quyidagilarga bog‘liq:

• aniq va to‘g‘ri moliyaviy, buxgalterlik va boshqa ma’lumotlardan foydalanish;

• nazoratni o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirish;

• davlat tomonidan qo‘llaniladigan sanksiyalarni o‘z vaqtida va tez bajarilishi.



9.2-rasm. **Sug‘urta nazoratining qamrab olish doirasi**

Sug‘urta bozorini davlat tomonidan tartibga solish turli shakllarda, xususan, maxsus qonunlar qabul qilish, soliq solish, alohida hukumat qarorlari bilan majburiy sug‘urtalashni joriy qilish va vakolatli sug‘urta nazorati xizmatini tashkil etish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

9.3. Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan sug‘urta faoliyatini nazorat qilish tartibi

Sug‘urta tizimini rivojlantirishni rag‘batlantirish, sug‘urtalovchilarning moddiy-texnika bazasini va moliyaviy barqarorligini

mustahkamlash maqsadida, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2002 yil 31 yanvardagi PF-3022-son Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi maxsus vakolatli davlat organi etib belgilangan.[51]

Sug'urta bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga lisenziyalar (ruxsatnomalar) berish sug'urta nazorati xizmatining eng asosiy vazifalaridan biridir. Sug'urta faoliyatiga lisenziya (ruxsatnoma) berishning zaruriyati sug'urtaning o'z mohiyatidan kelib chiqishini unutmaslik kerak. Chunki, sug'urta tashkiloti sug'urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug'urtalanuvchiga shartnomada ko'rsatilgan mablag'ni o'z vaqtida to'lashi lozim. Sug'urta faoliyatini nazorat qiluvchi organning bu boradagi ishlari nafaqat sug'urtalanuvchilar manfaatiga mos tushadi, balki butun davlatning manfaatlari yo'lida ham xizmat qiladi.

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug'urtalovchiga hayotni sug'urta qilish sohasida yoxud umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug'urta sohasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasnodir. Umumiy sug'urta sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug'urtalovchi hayotni sug'urta qilish sohasida sug'urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas.

---

[51]O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2002 yil 27 noyabrdagi 413-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 20 dekabrdagi 1001-sonli qarori bilan o'zgartirish kiritilgan.

Lisenziyada sug‘urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug‘urta turlari (klasslari) ko‘rsatiladi.

9.1-jadval

Sug‘urta faoliyatining klassifikatori

Sohalar	**Klasslar**	
Hayot sug‘urtasi	I klass	**III klass**
	II klass	**IV klass**
Umumiy sug‘urta	1 klass	**8-klass**
	2 klacc	**9-klass**
	3 klass	**10-klass**
	4 klass–	**11-klass**
	5-klass	**12-klass**
	6-klass	**13-klass**
	7-klass	**14-klass**

Sug‘urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog‘liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug‘urta sohalari sug‘urta turlariga (klasslariga) bo‘linadi. Sug‘urta turlari (klasslari) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-sonli “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorga muvofiq sug‘urta faoliyatining klassifikatori berilgan bo‘lib, unga muvofiq hayotni sug‘urta qilish sohasi 4ta klassga va umumiy sug‘urta sohasi 17ta klassga ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq majburiy sug‘urta amalga oshiriladi. Majburiy sug‘urtani amalga oshirish huquqiga davlat sug‘urta tashkilotlari ega bo‘lib kelganlar, biroq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-sonli “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq ustav kapitali hajmini 500 ming AQSh dollariga teng miqdorga yetkazgan har qanday sug‘urta kompaniyasi litsenziya asosida majburiy sug‘urta bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shu bilan birga sug‘urta tashkilotlari majburiy sug‘urta qilinishi lozim bo‘lgan obyektlarning but saqlanishi ustidan nazorat o‘rnatishga haqlidirlar.

Sug‘urtalovchining litsenziyasi amal qilishining to‘xtatib turilishi uning yangi sug‘urta shartnomalari tuzishi taqiqlanishiga, shu jumladan amaldagi sug‘urta shartnomalari uzaytirilishining taqiqlanishiga sabab bo‘ladi. Bunda sug‘urtalovchi ilgari tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishga majburdir.

Lisenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e’tiboran besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi sug‘urtalovchini tugatish to‘g‘risidagi ariza bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga murojaat etishi shart.



9.3-rasm. **Sug‘urta tashkilotlari litsenziya olishlariga qo‘yiladigan talab va shartlar**

Sug'urtalovchining ilgari amal qilgan boshqaruv organlarining vakolatlari to'xtatib turiladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tayinlagan sug'urtalovchining muvaqqat ma'muriyatiga o'tadi.

Sug'urta tashkilotlarining ustav kapitallari miqdori davr talabidan kelib chiqib, yillar mobaynida o'zgarib kelgan. O'lchov birligi 2007-2009 yillarda AQSH dollarida, 2010-2017 yillarda ming Yevro ekvivalenti va 2018 yildan esa milliard so'm hisobida belgilangan.

Sug'urtalovchining boshlang'ich ustav kapitali litsenziya olinishi paytida qatnashchilar tomonidan shakllantirilishi va talab qilingan miqdordan kam bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, sug'urtalovchi ustav kapitalining kamida to'qson foizi muassislar (qatnashchilar)ning pul mablag'laridan shakllantiriladi. Sug'urtalovchining ustav kapitalini shakllantirish uchun kreditga olingan, garovga qo'yilgan mablag'lardan va jalb etilgan boshqa mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi[52].

9.2-jadval

O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari ustav fondining minimal miqdoriga qo'yilgan talablar[53]

Sug'urta faoliyati turlari	01.01.2008 yildan, ming AQSh dollari	01.01.2010 yildan, ming yevro ekvivalentida	01.07.2012 yildan, ming yevro ekvivalentida	01.07.2014 yildan, ming yevro ekvivalentida	01.07.2018 yildan, milliard so'm
Umumiy sug'urta	500	750	1125	1500	7,5
Hayot sug'urtasi	750	1000	1500	2000	10
Majburiy sug'urta	1000	1500	2250	3000	15
Qayta sug'urta	3000	3000	4000	5000	30

[52] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 10 apreldagi PQ-618-son qarori bilan tasdiqlangan "Sug'urta bozorining professional qatnashchilari to'g'risida" Nizom, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 sentyabrdagi PF-5197-sonli Farmoniga asosan o'zgatirish kiritilgan

[53] Respublikasi Qonun hujjatlari asosida belgilanadi, oxirgiisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 sentyabrdagi PF-5197-sonli Farmoni

Sug‘urtalovchining ilgari amal qilgan boshqaruv organlarining vakolatlari to‘xtatib turiladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tayinlagan sug‘urtalovchining muvaqqat ma’muriyatiga o‘tadi.

Sug‘urtalovchilarni qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish maxsus vakolatli davlat organining ruxsatnomasi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Sug‘urtalovchi qayta tashkil etishga ruxsatnoma olish uchun maxsus vakolatli davlat organiga tegishli ariza bilan birga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

• muassislarining (ishtirokchilarining) yoki ta’sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sug‘urtalovchi boshqaruv organining qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qarori;

• tuzilayotgan sug‘urtalovchining balansi va faoliyatining taxminiy moliyaviy natijalari;

• qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish shartnomasining loyihasi (qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda).

Sug‘urtalovchilarni qayta tashkil etishni o‘tkazish uchun berilgan ariza zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to‘g‘risida sug‘urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Maxsus vakolatli davlat organi quyidagi hollarda sug‘urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berishni rad qilishga haqli, agar:

• sug‘urtalovchini qayta tashkil etish natijasida yangitdan tashkil qilinadigan sug‘urtalovchilarning moliyaviy barqarorligiga doir talablar buzilishi mumkin bo‘lsa;

• sug‘urtalovchilarning qayta tashkil etilishi sug‘urta bozorida raqobatning cheklanishiga yoki bartaraf etilishiga olib kelishi mumkin bo‘lsa;

- sug‘urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berilishi so‘rab taqdim qilingan hujjatlarda ishonchsiz ma’lumotlar bo‘lsa yoxud bu hujjatlar qonun hujjatlariga nomuvofiq bo‘lsa;
- sug‘urtalovchilarni qayta tashkil etish qonun hujjatlariga zid bo‘lsa.

Qo‘shib yuborish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etilganda sug‘urtalovchi (sug‘urtalovchilar) litsenziyasining amal qilishi tugatiladi. Qayta tashkil etish natijasida yangitdan tuzilgan sug‘urtalovchilarga lisenziyalarni berish soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Qo‘shib yuborish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etilayotgan davri uchun hamda yangitdan tuzilgan sug‘urtalovchilar lisenziya olgunga qadar bo‘lgan davrda ular yangi sug‘urta shartnomalarini tuzishga, amaldagi sug‘urta shartnomalarini uzaytirishga haqli emaslar, ilgari tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha o‘z zimmalariga olingan, huquqiy vorislik tartibida o‘zlariga o‘tgan majburiyatlarni bajarish hollari bundan mustasnodir.

Qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda o‘ziga boshqa sug‘urtalovchi qo‘shilayotgan sug‘urtalovchi, agar qo‘shib olish natijasida litsenziyaning shartlari o‘zgarmasa, amaldagi litsenziyani saqlab qoladi.

Sug‘urtalovchi o‘zining muassislari (ishtirokchilari) yoki sug‘urtalovchining ta’sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqaruv organi qaroriga binoan tugatilayotganda maxsus vakolatli davlat organining ruxsatnomasi talab qilinadi.

Muassislar (ishtirokchilar) yoxud sug‘urtalovchining ta’sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqaruv organi tomonidan tugatish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganidan keyin sug‘urtalovchi maxsus vakolatli davlat organiga tugatishga ruxsatnoma olish uchun ariza bilan yozma ravishda murojaat etgan holda quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

- sug‘urtalovchini tugatish to‘g‘risidagi qaror;
- majburiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- sug‘urtalovchini tugatish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanagacha bo‘lgan, auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan balans hisoboti;
- sug‘urtalovchini tugatish muddatlari va shartlari ko‘rsatilgan holdagi tugatish rejasi.

Sug‘urtalovchini tugatishga ruxsatnoma olish uchun berilgan ariza zarur hujjatlar olingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to‘g‘risida sug‘urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Maxsus vakolatli davlat organi sug‘urtalovchini tugatish uchun ruxsatnoma berish bilan bir vaqtda sug‘urtalovchining taqdim etilgan tugatish rejasiga o‘zgartishlar kiritishga haqli.

Tugatilayotgan sug‘urtalovchi kreditorlarining talablari tugatishni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar, shuningdek tugatiladigan sug‘urtalovchining asosiy vazifalarini ta’minlash zaruratidan kelib chiqadigan xarajatlar to‘langanidan so‘ng quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

- birinchi navbatda - hayotni sug‘urta qilish sohasida majburiy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta qildiruvchilarning talablari;
- ikkinchi navbatda - sug‘urta qildiruvchilarning boshqa majburiy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha talablari;
- uchinchi navbatda - boshqa sug‘urta qildiruvchilarning (naf oluvchilarning) talablari;
- to‘rtinchi navbatda - byudjetga, byudjetdan tashqari fondlarga to‘lovlarni nazarda tutuvchi to‘lov (ijro) hujjatlari bo‘yicha talablar. Ko‘rsatilgan talablar to‘liq qanoatlantirilgandan keyin ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha talablar hamda jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik tufayli fuqarolarning mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha talablari qanoatlantiriladi;
- beshinchi navbatda - sug‘urtalovchining boshqa kreditorlari talablari.

Litsenziya (ruxsatnoma) berish jarayonida sug'urta nazorati sug'urtachining bo'lajak faoliyatini dastlabki tekshiruvdan o'tkazadi. Ya'ni, nizom jamg'armasi va o'z mablag'larining holati hamda bu mablag'larning tashkilot zimmasidagi majburiyatlariga o'zaro munosabati ko'rib chiqiladi.

Sug'urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan va boshqa jalb qilingan mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

9.4. Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasining vazifalari, funksiyalar, huquqlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 8-iyundagi 286 sonli "Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish chora tadbirlari to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 27-noyabrdagi 413-sonli "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga davlat sug'urta nazorati funksiyasi yuklatilib, uning tarkibida Sug'urta nazorati davlat inspekstiyasi tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining sug'urta faoliyati masalalari bo'yicha vakolatlari doirasida chiqarilgan normativ hujjatlari davlat boshqaruv organlari, yuridik shaxslar, birlashmalar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Respublikamizda sug'urta ishining rivojlanishi, sug'urta bozorini isloh qilishning boshlang'ich bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Bu borada respublika sug'urta bozorini rivojlantirishda davlat miqyosida chora-tadbirlarni qabul qilish uchun obyektiv talablar yuzaga keldi.

Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Resrublikasi hududida sug'urta tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organi hisoblanadi. O'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi

Konstitusiyasiga, Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va farmoyishlariga, "O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta nazorati davlat inspeksiyasi to‘g‘risida"gi Nizomga amal qiladi[54].

Davlat inspeksiyasiga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vaziri tomonidan tayinlanadigan boshliq boshchilik qiladi. Davlat inspeksiyasi boshlig‘i Davlat inspeksiyasiga yuklangan vazifalarning bajarilishi va inspeksiya tomonidan o‘z funksiyalari amalga oshirilishi uchun shaxsan javob beradi. Sug‘urta nazoratini amalga oshirish bo‘yicha ishlarni tashkil etishning asosiy masalalari va Davlat inspeksiyasi faoliyatining boshqa masalalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hay'ati tomonidan ko‘rib chiqiladi. Davlat inspeksiyasi o‘z ishini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq tashkil etadi.

Quyidagilar Davlat inspeksiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- bajarilishi majburiy bo‘lgan to‘lov layoqati normalarini va ularni aniqlash tartibini, alohida tavakkalchiliklar bo‘yicha sug‘urtalovchilarning majburiyatlari cheklangan yo‘l qo‘yiladigan miqdorini hisoblab chiqish metodikasini hamda majburiyatlarning jami miqdorini, sug‘urtalovchilarning to‘lovga layoqatliligi bo‘yicha axborot berish tartibi va muddatlarini belgilash;
- sug‘urta bozorining professional qatnashchilari tomonidan sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, to‘lovga layoqatlilikning belgilangan normativlarini va ularning moliyaviy barqarorligiga qo‘yiladigan boshqa talablarni ta'minlash;
- sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta zaxiralari mablag‘lari shakllantirilishi va joylashtirilishi bo‘yicha hisobot yuritish tartibini, hisobotlar tuzishni belgilash;

[54]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 martdagi PQ-2847-sonli qarori bilan o‘zgartirishlar kiritilgan

➢ sug‘urtalovchining ijro etuvchi organi rahbariga va bosh buxgalterga qo‘yiladigan bajarilishi majburiy bo‘lgan malaka talablarini belgilash;

➢ sug‘urtalovchilar tomonidan moliyaviy hisobot berilishi shakllari, tartibi va muddatlarini belgilash;

➢ sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta zaxiralari hosil qilish va joylashtirish tartibi va shartlarini belgilash;

➢ sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta hodisalari boshlanishining oldini olish va ogohlantirish bo‘yicha tadbirlar mablag‘ bilan ta’minlanishi tartibi va shartlarini belgilash;

➢ qonun hujjatlariga muvofiq sug‘urta bozori professional qatnashchilarining faoliyatini tekshirish va aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish to‘g‘risida bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berish;

➢ sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlari litsenziyalarining amal qilishini ko‘pi bilan o‘n ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatga to‘xtatib turish yoxud sug‘urtaning ayrim turlari (klasslari)ga nisbatan to‘liq to‘xtatish, huquqiy ta’sir ko‘rsatish chorasi sifatida ko‘rsatib o‘tilgan litsenziyalarning amal qilishini o‘n ish kunidan ortiq muddatga to‘xtatib turish va to‘xtatish to‘g‘risida sudga murojaat qilish;

➢ har bir moliyaviy yil tamom bo‘lgandan keyin olti oy o‘tgach sug‘urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish bo‘yicha faoliyat to‘g‘risidagi yillik hisobotlarni, shuningdek moliyaviy yil mobaynida sug‘urta bozorining faoliyati to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini e’lon qilish;

➢ qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Davlat inspeksiyasi o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

✓ sug‘urtalovchilar tomonidan sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga rioya qilinishini va ularning hisobotlari ishonchliligini, shuningdek ular uchun belgilangan

to‘lovga layoqatlilik ko‘rsatkichlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari ta’minlanishini tekshirish;

✓ sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarining sug‘urta faoliyatini litsenziyalash;

✓ o‘z vakolatlari doirasida sug‘urtalovchilar ishini metodik ta’minlash;

✓ sug‘urtaning majburiy turlari bo‘yicha sug‘urta qilish qoidalari (shartlari) va sug‘urta tariflari belgilash bo‘yicha takliflar tayyorlash;

✓ Davlat inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab sug‘urta munosabatlarining barcha qatnashchilari tomonidan bajarilishi majburiy bo‘lgan sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini amalga oshirish bo‘yicha normativ hujjatlar va metodik materiallarni ishlab chiqish;

✓ sug‘urta faoliyati masalalari bo‘yicha qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish va ularni ko‘rib chiqish uchun vazirlik rahbariyatiga kiritish;

✓ sug‘urtalovchilar tugatilgan va qayta tashkil etilgan taqdirda sug‘urta qildiruvchilarning manfaatlarini himoya qilish;

✓ respublikada sug‘urta faoliyati rivojlanishining holati va tendensiyalarini tahlil qilish;

✓ sug‘urta faoliyati bo‘yicha mutaxassislarni kasbga tayyorlash va ularni qayta tayyorlashga doir tadbirlarni amalga oshirish, sug‘urta faoliyati masalalari bo‘yicha seminarlar va konferensiyalar tashkil etish;

✓ ommaviy axborot vositalari orqali sug‘urta faoliyati masalalari bo‘yicha axborot-tushuntirish ishlari olib borish;

✓ o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha fuqarolarning takliflari va so‘rovlarini ko‘rib chiqish;

✓ noshirlik faoliyatini amalga oshirish.

Davlat inspeksiyasi quyidagi huquqlarga ega:

➢ sug‘urtalovchilardan sug‘urta faoliyati to‘g‘risida belgilangan hisobot va ularning moliyaviy ahvoli haqidagi axborotni, shuningdek, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, banklardan (kichik va o‘rta

korxonalar, mikrofirmalar bundan mustasno), fuqarolardan o'ziga yuklangan funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni olish;

- sug'urtalovchilar tomonidan sug'urta to'g'risida qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish maqsadida sug'urtalovchilar faoliyatini tekshirish, zarurat bo'lsa buning uchun komissiyalar va ishchi guruhlar tashkil etish;
- davlat ijro etuvchi organlardan o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborot va statistika hisobotini tekin olish.

Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi va uning xodimlari sug'urta bozori professional ishtirokchilarining ustav fondida va boshqaruv organlarida ishtirok etishga, shuningdek sug'urta vositachisi sifatida ish yuritishga haqli emaslar.

10-BOB. BANK MUASSASALARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH

10.1. Bank nazoratining mohiyati va zarurligi

Bank nazorati hukumatning amaldagi bank-moliya tizimini barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlari yig'indisidan iborat tizimli boshqaruv vositasi hisoblanadi. Mazkur tizim oldiga ikkita asosiy vazifa qo'yiladi: nazorat jarayonlarini amalga oshirayotgan paytda ham banklar manfaatini, ham mazkur banklarga o'z omonatlarini joylashtirgan mijozlar manfaatdorligini ko'zlab ish ko'rishlari lozim bo'ladi.

Bundan tashqari nazorat qilinayotgan banklar joriy faoliyati bilan bog'liq risklar darajasini aniq baholab berish talab qilinadi. Zero, bank mijozlari banklarning ommaviy chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlari axborotlari asosida moliyaviy koeffisientlardan foydalangan holda bank faoliyatiga mustaqil baho berishlari mumkin. Bunda bank tizimidagi biron-bir bank faoliyatiga salbiy baho berilishi bank tizimi mijozlarida boshqa banklarga bo'lgan ishonchga ham putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun ham bank tizimini to'la-to'kis sog'lom ishlashini ta'minlash maqsadida tegishli nazoratlar o'tkazib turish juda muhim hisoblanadi.

Bank nazoratining yana bir vazifalaridan biri bank sektorida ichki raqobatni rivojlantirish va shu asosda mijozlarga ularning bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutanosib ravishda xizmat ko'rsatishni ta'minlash hisoblanadi.

Bank nazorati 100 yildan ortiq muddat davomida AQShda va G'arbiy Yevropa davlatlarida o'zining qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, shakllanib kelgan edi. So'nggi 15-20 yil atrofida rivojlanayotgan mamlakatlar ham bank nazoratini bank-moliya tizimini

barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini anglab yetdilar va o'z milliy bank tizimlariga joriy qila boshladilar.

Bank nazoratini amalga oshirish uchun bank tizimidagi mavjud muammolarni yechimi sifatida quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

-mamlakat bank tizimini barqarorligini ta'minlash uchun turli xil iqtisodiy siyosatlar ishlab chiqishni talab etadi (Masalan: hisob siyosati, kredit siyosati, investisiya siyosati va h.k.);

-bank tizimini nobarqarorligi banklarni bankrot bo'lishiga va shu tarzda bank mijozlarida banklarga bo'lgan ishonchni susayishiga olib kelish muammosini bartaraf etish uchun davriy tekshiruv nazoratlarini o'tkazib turish talab qilinadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirilmasligi quyidagi makroiqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi:

-pul massasini qisqarishi;

-pul tizimini buzilishi va natijada hukumatning yirik hajmdagi ko'zda tutilmagan majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilmay qolishi.

Jahonning rivojlangan davlatlari tajribasiga ko'ra, emissiya banki va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga olgan ikki pog'onali bank tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini yo'lga qo'ymasdan turib, davlat iqtisodiyotini yuksaltirish mumikn emas. Bunda birinchi pog'onada Markaziy bank bo'lib, u mamlakatning pul muomalasini va barcha kredit muassasalarining faoliyatini tartibga solib turadi.

Bank faoliyati barcha mamlakatlarda qat'iy ravishda tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Albatta nazoratning maqsadi aholini qolaversa, mamlakat manfaatlarini himoya qilishdir.

Bank nazoratini amalga oshirishning bir qator sabablari mavjud.

Birinchidan, banklar mamlakat aholisining jamg'armasini asosiy saqlovchisi hisoblanadi. Banklar faoliyatini nazorat qilish mamlakat aholisini moddiy zarar ko'rishdan saqlash uchun tashkil etiladi.

Ikkinchidan, bank kreditorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida banklar faoliyatini nazorat qilish, tartibga solish amaliyotlari qo'llaniladi. XYuS va jismoniy shaxslar o'z faoliyatlarini rivojlantirish,

turmush farovonligini oshirish maqsadida tijorat banklarining kreditlaridan foydalanadilar. Bu kreditlarning narxini oshib ketmasligini ta'minlash maqsadida hukumat bank nazoratining bilvosita usuli hisoblangan raqobatni ta'minlab erishadi.

Uchinchidan, hukumat o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish uchun samarali bank nazoratini tashkil etadi. Banklar bo'sh pul mablag'larini jalb etib, ularni kreditlar uchun yo'naltirish bilan mamlakatdagi iqtisodiy faollikni oshirib, ishsizlikni kamaytiradi, shu bilan birga mamlakatdagi pul massasiga bilvosita ta'sir etib inflatsiyani keltirib chiqaradi.

To'rtinchidan, bank aksiyadorlari va ishchi-xodimlar manfaatlarini himoya qilish uchun ham bank nazorati tashkil etiladi.

Bozor iqtisodiyoti qaror topgan rivojlangan davlatlarda davlatning bank nazorati sohasidagi asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- pul taklifi ustidan nazorat o'rnatish;
- iqtisodiyotdagi moliyaviy nobarqarorlikka barham berish;
- banklarning foyda asosida faoliyat yuritishini ta'minlash;
- bank tizimiga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ularini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik.

Banklar tomonidan o'z kapitalining yetarliligini ta'minlanishi Markzaiy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga rioya etilishi, risklarning oqilona diversifikatsiyalanishini ta'minlanishi, bank-kredit portfelining holatini aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda nazorat qilishdir.

Bank nazoratining asosini banklarning o'zlari tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisobot shakli yoki auditorlik firmalari tasdiqlagan ish faoliyatining moliyaviy ahvoli va rentabelligi haqidagi axborotlar tashkil etadi. Ko'pgina xalqaro me'yoriy hujjatlarda bank aktivlari va passivlarini to'g'ri baholash, ular faoliyatining moliyaviy natijalari haqqoniy baholanishi zarurligi ta'kidlanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, rivojlangan davlatlarda, xususan Yevropa Ittifoqi davlatlarida, AQSh, Kanada, Yaponiya kabi davlatlarda bank nazoratining zarurligi 1975 yilga kelib o'z aksini topdi, ya'ni

rivojlangan davlatlar bank nazoratini faqat moliyaviy sektorda emas, balki, umuman iqtisodiyotda asosiy rol o'ynashini tan oldilar. Natijada bank nazorati bo'yicha xalqaro tashkilot "Bazel qo'mitasi " tashkil etildi.

Banklarning tizimli riskni keltirib chiqarishi, bir-biri bilan iqtisodiy aloqada bo'lgan davlatlarni ham iqtisodiy inqiroz yoqasiga olib kelishi mumkin ("kapalak effekti" nazariyasi, Braziliyada qanot qoqqan kapalaklar Texasda tornadoni vujudga keltirish mumkin).

Bazel qo'mitasi butun dunyo mamlakatlari uchun bank nazorati tamoyillarini ishlab chiqadi va mintaqaviy bank nazoratida banklar faoliyati, ularning nazorat qilish tamoyillari ishlab chiqilib, davlatlar uni o'zlarining iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda bank nazorati bo'yicha standartlariga muvofiqlashtiradi.

Qo'mita tomonidan belgilangan xalqaro bank nazoratining tamoyillari:

- Chet mamlakatlar banklari tomonidan boshqa davlatlarda tashkil qilingan bank muassasalari faoliyatini nazorat qilish ikkala davlat nazorat organlariga yuklatiladi.
- Likvidlik bo'yicha nazorat xorijiy bank muassasasi ochilgan davlat nazorat organlarining vazifasi hisoblanganligi sababli, likvidlikni boshqarishda xorijiy banklar mahalliy me'yorlarga rioya qilishlari lozim.
- Xorijiy banklarning to'lovga layoqatliligini nazorat qilish ushbu bank joylashgan davlatning nazorat organlariga yuklatiladi.
- Amaliy hamkorlik xorijiy bank joylashgan va uning muassasasi ochilgan davlatlarning nazorat organlari o'rtasida ma'lumot almashish hisobidan ta'minlanadi.

Hozirgi kunda bank nazorati tizimini quyidagi turlarga bo'lish mumkin[55]:

[55] Norqobilov S., Dadaboeva H., Jo'raev O'. Xalqaro amaliyotda bank nazorati, T. Iqtisod-Moliya, 2007.



10.1-rasm. **Bank nazorati tizimi**

Barcha davlatlardagi bank nazorati tizimlari oldida 2ta muhim vazifa turadi:

- Bank tizimini mustahkamlash hamda iqtisodiy o'sishga hamkorlik qilish;
- Barcha omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish.

Bank nazorati oldida turgan asosiy vazifa butun bank tizimi barqarorligini ta'minlash bo'lsada, lekin alohida olingan bank duch kelishi mumkin bo'lgan jiddiy muammolarni va inqirozlarni oldini olish maqsadga erishishdagi eng yaxshi yo'ldir. Omonatchilar va kreditorlar manfaatini himoya qilishdan maqsad, ular o'z mablag'laridan foydalanayotgan banklar tomonidan qanday xavf-xatarli operasiyalar bajarilayotganligi to'g'risida ma'lumotga ega emaslar.

Bu borada mamlakamizda amalga oshirilgan ishlardan biri 1997 yil mart oyidan boshlab jahon andozalariga mos keladigan va banklar faoliyatini oydinlashtirish imkonini beradigan tijorat banklari hisobvaraqlari yangi rejasi amalga oshirilishi joriy qilinganligi bo'ldi. Yangi hisobvaraqlar rejasini joriy qilinishi banklar faoliyati "oshkoraligini" (shaffoflik, ochiq-oydinlik) sarmoyadorlar, bank mijozlari va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar uchun ochiqligini ta'minlash imkonini berdi.

Respublikamizda tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishining asosiy maqsadi tijorat banklariga biron bir iqtisodiy chora ko'rish emas, balki bank faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etib, bank tizimining barqarorligini oshirish natijasida bank omonatchilari va kreditorlarining manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

1995-yil 9-noyabrdagi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirishning kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 427-sonli qarorida aholi omonatlarini himoya qilish ko'zda tutilgan va 1998-yilda "Omonat-himoya" sug'urta fondi tashkil etilgan edi. Ammo, fondga a'zo bo'lish ixtiyoriy bo'lganligi uchun unga ayrim banklar a'zo bo'lmasligiga olib keldi. Bu esa o'zining samarali natijasini bermadi.

O'zbekiston Repsublikasi Prezidentining 2000-yil 21-martdagi "Bank tizimini yanada erkinlashtirish va isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2002-yil 5-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi qonunini[56] qabul qilinishi bilan respublikamizda aholi omonatlarini kafolatlash tizimi tashkil etildi.

Qonun ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Repsublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-sentyabrdagi 326-sonli qarori bilan Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi. Ushbu Fondda barcha tijorat banklari va xorijiy banklarning sho'ba banklari tomonidan jalb etilgan omonatlar sug'urtalanadi. Bunda banklar Fond bilan yozma bitim tuzishlari kerak bo'ladi va majburiy badal to'lovlarnini amalga oshirib boradilar.

Majburiy badallar 2 xil bo'ladi:

- bir yo'la to'lanadigan badalni banklar Fondga a'zo bo'lib kirganda to'laydi va u bank ustav kapitplining 0,1 % miqdorida bo'ladi.
- kalendar tartibda to'lanadigan badalni banklar yilning har choragida to'lab boradilar. Bu badal bankdagi omonatlarning yil choragidagi o'rtacha miqdorining 0,5% miqdorida bo'ladi. Bu ikkala

[56]O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 6 apreldagi O'RQ-203-sonli Qonuni tahririda. 70-modda

badallarning umumiy summasi omonatlar qoldig'ining 5%ga yetganda kalendar tartibda to'lanadigan badallarni to'lash to'xtatiladi.

Fond faoliyatining maqsadi bank operasiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyasi Markaziy bank tomonidan chaqirib olinganda, tijorat banklari o'z majburiyatlarini bajara olmay qolganda omonatchilarning omonatini 100%ini to'lab beriladi.[57]

Umuman olganda barcha davlatlarda omonatlarning sug'urtalash tizimida omonatlarni to'lash bo'yicha limitlar mavjud. Masalan, AQShda omonatlarning 100 ming AQSh dollari, Kanadada 60 ming Kanada dollari, Yaponiyada 10 mln ienasi, Yevropa Ittifoqida 20 ming yevroga teng bo'lgan qismini sug'urtalash tavsiya etilsa, Buyuk Britaniyada esa 70%ini to'lash nazarda tutilgan.

Fond o'z odiga qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun tijorat banklaridan ma'lum darajada hisobotlar talab qiladi va bugungi kunda ushbu hisobotlarni tijorat banklariga litsenziya berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti orqali olmoqda.

10.2. Bank nazoratini amalga oshirish usullari

Bank tizimi amaliyotida bank nazoratining bir nechta usulidan foydalanish samarali natija berishini inobatga olgan holda, ularga batafsil to'xtalib o'tamiz.

Birinchisi, Markaziy bank tomonidan tijorat banklar faoliyatini masofadan turib, ya'ni ular taqdim etgan moliyaviy hisobotlarini tekshirish orqali nazorat qilish.

Ikkinchisi, banklarni joylarga chiqib inspeksiya qilish, ya'ni barcha moliyaviy hisobotlar va ularga tegishli qo'shimcha ma'lumotlar tijorat banklarining o'ziga borib tekshirishdir.

Uchinchisi, aralash usul bo'lib, bunda masofadan turib va joylarga chiqib tekshirish tekshirish usullari birgalikda amalga oshiriladi.

Masofadan turib banklarni nazorat qilish usuli Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanilgan. Bunda Markaziy bankning nazorat

[57] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrdagi "Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4057-son farmoni.

departamentlari tashqi audit firmalari bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Har yili tugashidan oldin sertifikatlangan tashqi audit firmalariga audit tekshirishlarida faoliyatning qaysi tomonlariga e'tibor berish kerakligi ko'rsatiladi. Ayrim hollarda tashqi audit firmalarining ishchi materiallariga, garchi ularning xususiy mulki bo'lsada, ushbu materiallardan foydalanish talab qilinadi.

Jahon tajribasidan keng o'rin olgan masofadan turib nazorat o'rnatish bank faoliyatiga oid moliyaviy va boshqa hisobotlarni tahlil qilish hamda tekshiruvdan o'tkazishni ko'zda tutadi. Hisobotlar balans, foyda va zararlar haqidagi hisobot, faoliyat turi, kreditlar, qo'yilmalar, majburiyatlar, kapital, likvidlik, ssudalar bo'yicha yo'qotishlarga qarshi zaxiralar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Demak, masofadan nazorat qilish yoki uzoqlashtirilgan monitoring bank holatini so'nggi ma'lumotlar asosida baholash imkonini beradi. Ya'ni masofadan nazorat etish bank faoliyati samaradorligiga xalal berishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlab, kelgusida ular bilan bog'liq xarajatlarning oldini oladi.

Bundan tashqari, yil yakuni bo'yicha tijorat banklari chet el tashqi auditorlar xizmatidan foydalanadiki, uning asosida bankning moliyaviy holati to'g'risida hamda ehtimoliy to'lovga layoqatsizligi yoki nolikvidligi haqida masofadan nazorat qilish tizimiga axborot beriladi. Keyingi paragrafda samarali bank nazoratini olib borishda bank auditining roli alohida ko'rib chiqiladi.

Masofadan nazorat qilishda quyidagilar tekshiriladi:

- bank aktivlari va passivlari holatini, bank kapitali likvidliligi, foyda va zararlar hisoboti, bank tushumlari to'liq tahlil qilib chiqiladi;
- tahlil jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar to'g'risida banklar faoliyatini tahlil qilish Boshqarmasi xodimlari tomonidan rahbariyatga ma'lumotnoma jo'natiladi;
- takrorlangan kamchilik yuzasidan bankka nisbatan jarima chorlari ko'riladi.



10.2-rasm. **Masofadan nazorat qilishning qulayligi va samaraliligi.**

Masofadan nazorat qilish quyidagi vazifalarni bajaradi:

- banklar faoliyati ustidan monitoring o'rnatish;
- monitoring natijasida bank faoliyatidagi keskin o'zgarishlarni aniqlash;
- bank faoliyatidagi keskin o'zgarishlar shubha uyg'otgan taqdirda inspeksiya va tematik tekshirishlar tayinlash;
- "tartibbuzar" banklarga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank to'g'risida"gi qonunida beligilangan choralarni qo'llash.

Masofadan nazorat qilish monitoringi natijalari asosida reyting tuzish nazorat ma'lumotlari va nazorat organlari foydalanishi mumkin bo'lgan boshqa axborotlar, shu jumladan, joyga chiqib o'tkazilgan tekshiruv natijalariga asoslanadi.

Joyga chiqib tekshirishlarni tashkil qilishdan quyidagi maqsadlar ko'zlanadi:

- masofadan nazorat qilish jarayonida aniqlangan holatlarni bevosita joyida o'rganish;
- masofadan nazorat uchun taqdim etilgan hisobotlarni birlamchi hujjatlar bilan taqqoslash orqali ularni haqqoniyligini aniqlash;
- bank aktivlari sifatini tasniflash va shu yo'l bilan tavakkalchilik darajasini aniqlash va baholash;
- tavakkalchilik darajasidan kelib chiqib kapitalning yetarliligini aniqlash va baholash;
- bankning joriy likvidlilik darajasini aniqlash va baholash;
- bankning korporativ boshqarish qobiliyatini aniqlash va baholash.

Joyga chiqib (inspeksiya qilish) tekshirish jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

- Ustav kapitalidagi aksiyadorlar ulushining dinamikada o'zgarish sabablari;
- Aksiyadorlar ulushidagi o'zgarishlarga Markaziy bank tasdig'i talab qilingan bo'lsa, uning mavjud yoki mavjud emasligi;
- Bank kapitalini Markaziy bank tomonidan belgilangan minimal talablarga javob berishi;
- Bank tushumining kapital o'sishiga ta'siri;
- Kapitalni o'stirish rejasining tahlili;
- Yuqoridagilar qatorida aktivlarning sifati, tushumlarning o'zgarishi va foydaning sifatiga alohida e'tibor berilishi kerak.

Joylarda nazorat o'tkazishning afzalliklari shundan iboratki, inspeksiya xodimi nafaqat kamchilikni topadi, balki uni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib beradi va ayrim hollarda bu jarayonda o'zi ham ishtirok etadi. Nazorat obyekti faoliyati qoniqarsiz deb topilganda Markaziy bank o'z otalig'iga olgan holda kuzatuvchisi bank faoliyatini joyida doimiy nazorat qilib borilishini ma'qul topadi.



10.3-rasm. **Joyga chiqib nazorat o'tkazish jarayoniga tayyorgarlik bosqichlari**

Joyga chiqib tekshirishda natijalarni solishtirish va ma'lumotlardan xalqaro amaliyotda keng foydalanish maqsadida umumiy ko'rsat-kichlardan foydalaniladi.

CAMEL komponentlari:

- **C** - kapitalning yetarliligi;
- **A**- aktivlar sifati;
- **M** - boshqaruvchilik qobiliyati;
- **E** - daromadlilik;
- **L** – likvidlilik.

Reyting tizimi bo'yicha *kapital* nazorat jarayonining birinchi komponenti bo'lib, bunda bank kapitalining yetarlilik darajasi,

kapitalning ko'paytirish borasida olib borilayotgan faoliyat va dividentlarni to'lash siyosati tahlil qilinadi.

Tijorat banklari *aktivlari*ning *sifati*ni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri - aktivlarning daromadliligi ko'rsatkichi hisoblanadi. Aktivlar daromadliligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biri aktivlar tarkibida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ining o'zgarishi hisoblanadi.

Inspektor *boshqarish qobiliyati* punktida bank rahbariyatining tarkibi, bank kengashi va boshqaruvining bank to'loviga qobilligi va ishonchli faoliyat ko'rsatishini ta'minlash borasidagi ish tajribasini baholaydi.

Bank faoliyatining asosiy maqsadi *daromad* olishdir. Inspektorlar daromad va xarajatlarni tekshirish jarayoniga oqilona yondashishi lozim. Bunda moliyaviy hisobotlarni shu jumladan, balans hisoboti, foyda va zararlar hisoboti, pul mablag'lari oqimi hisobotlarini tekshirilishi talab qilinadi.

Bank tomonidan *likvidlikni boshqarish* orqali uni yetarli darajada saqlab turish foyda olishga qaratilgan harakat bilan muvozanatlashgan holda amalga oshirilishi darkor, ya'ni ko'proq foyda olish maqsadida aktivlarning samarasiz joylashtirilishi likvidlik holatini yomonlashuviga olib keladi.

10.3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank nazoratini amalga oshirishdagi roli va ahamiyati

Mamlakatimizda bank tizimi barqarorligini qo'llab-quvvatlash, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlari himoyalanishini ta'minlash maqsadida bank nazorati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi. Markaziy bankning huquqiy maqomi, vazifalari, vakolatlari, tashkil etilishi va faoliyati tamoyillari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki

to‘g‘risida” 1995 yil 21 dekabrdagi 154-I-son qonuni[58] va boshqa qonunlar bilan belgilanadi.

Markaziy bank yuridik shaxs bo‘lib, davlatning mulki hisoblanadi va o‘z sarf-xarajatlarini o‘zining daromadlari hisobidan amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining boshqaruv va risk menejmenti sifatiga ta’sir qilish mexanizmlarining takomillashmaganligi, banklar faoliyatiga ma’muriy aralashuv amaliyotining davom etayotganligi, ayniqsa, banklar tomonidan o‘z faoliyatiga xos bo‘lmagan korxonalar tashkil etilishi, shuningdek ularning faoliyat yo‘nalishiga muvofiq bo‘lmagan vazifalarning yuklatilishi bank nazoratini ta’sirchan amalga oshirishni qiyinlashtirmoqda.

2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, shuningdek pul-kredit siyosati, umuman bank tizimining barqaror faoliyat ko‘rsatishi ustidan samarali nazoratni va Markaziy bank faoliyatini yanada takomillashtirishni ta’minlash maqsadida quyidagilar Markaziy bank faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi[59]:

• birinchidan, asossiz inflyatsion kutilmalarni oldini olish maqsadida inflyatsion targetlashning tamoyil va mexanizmlarini bosqichma-bosqich tatbiq qilish bilan pul-kredit siyosati va uning instrumentlarini tubdan takomillashtirish, ushbu usulga o‘rta muddatli istiqbolda to‘liq o‘tish va pul-kredit sohasida amalga oshirilayotgan siyosat va chora-tadbirlarning shaffofligini oshirish;

• ikkinchidan, inflyatsiya omillarini chuqur o‘rganish va to‘lov balansini hisobini yuritish va tahlil qilish tizimini to‘liq shakllantirish asosida pul-kredit siyosatini shakllantirish, qabul qilish va amalga

---

[58]Izoh: oxirgi o‘zgartirish O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 3 yanvardagi O‘RQ-456-sonli Qonuni bilan kiritilgan. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son

[59]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5296-son Farmoni, 9.01. 2018 yil

oshirish uslublarini takomillashtirish maqsadida statistik, tahliliy va tadqiqot bazasini rivojlantirish;

• uchinchidan, bank tizimini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarini, shu jumladan tijorat banklar faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni dastlabki bosqichlarida aniqlash va ularni bartaraf etuvchi choralar ko'rish imkonini beruvchi tijorat banklar tavakkalchiligini boshqarish va baholash tizimini takomillashtirish;

• to'rtinchidan, o'rta va uzoq muddat istiqbollarda iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim tarkibiy qism sifatida bank tizimini rivojlantirish, tijorat banklar va tadbirkorlik subyektlarining o'zaro to'liq sheriklik munosabatlarini shakllantirish, aholining bank tizimiga ishonchli institutsional sherik sifatida ishonchini mustahkamlash uchun raqobat sharoitlarni yaratish;

• beshinchidan, to'lov tizimini yanada rivojlantirish, shu jumladan real vaqt rejimida tezkorlik bilan hisob raqamlarni boshqarish va bank operatsiyalarini o'tkazish imkonini beruvchi masofadan bank xizmatlari ko'rsatgan holda tijorat banklarining samarali axborot almashinuvi tizimini tashkil etish;

• oltinchidan, nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini kuchaytirish, shuningdek ularning faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

• yettinchidan, bank xizmatlari iste'molchilari huquqi va qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash, aholi va tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy ochiqlikni va ularning savodxonlik darajasini oshirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018 yil 9 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-sonli Farmoniga muvofiq Markaziy bankning vazifalaridan kelib chiqib, tarkibiy tuzilishida ham bir qator o'zgarishlar bo'ldi. Jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash departamenti negizida asosiy vazifasi bank xizmatlari ist'emolchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash, aholi va tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy ochiqlikni va ularning savodxonlik darajasini oshirish bo'lib

hisoblangan Markaziy bankning Bank xizmatlari ist'emolchilarining huquqlarini himoya qilish xizmati tashkil etildi.

Bundan tashqari, asosiy vazifalari tegishlicha bank tizimining barqarorligini ta'minlash, omonatchilar va kreditorlar manfaatlarini himoya qilish va Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalarini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarini amalga oshirish bo'lib hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining nazorat qo'mitasi va Kredit qo'mitasi o'z faoliyatini boshlaydi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, yuqoridagi farmonda qayd etilishicha 2018 yil 1 sentabr kuniga qadar ilg'or xorijiy tajriba va umum e'tirof etilgan normalar va standartlarni chuqur o'rganib, ixtisoslashgan xalqaro moliya institutlarining tegishli ekspert xulosalari asosida "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi hamda "Bank va banklar faoliyati to'g'risida"gi qonunlari loyihalari yangi tahrirda ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 25-apreldagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunning 44-moddasida "Markaziy bank qonun hujjatlariga muvofiq banklar faoliyatini nazorat qilib boradi" deb belgilab qo'yilgan.

Markaziy bank nazorat funksiyalarini bajarish bo'yicha o'z vakolatlarini amalga oshirish yuzasidan bank operasiyalarini amalga oshirish, buxgalteriya hisobini yuritish va bank statistik hisobotini yuritish, yillik hisobotlarni tuzish uchun banklar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qoidalarni belgilaydi.

Markaziy bankning nazorat qilish sferasi hozirgi kunda kengaydi va uni quyidagicha tasvirlaymiz.



10.4-rasm. **Markaziy bankning nazorat qilish sferasi**

Markaziy bank moliya-bank tizimi barqarorligini saqlab turish, omonatchilar, qarz oluvchilar va kreditorlarning manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida banklar, mikrokredit tashkilotlari lombardlar va kredit byurolari faoliyatini tartibga soladi hamda nazorat qiladi, shuningdek ular tomonidan ichki nazorat qoidalariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog'liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibiga rioya etilishi ustidan monitoring hamda nazorat qiladi.

Markaziy bank banklarni, kredit byurolarini ro'yxatga oladi, shuningdek bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyalar beradi, mikrokredit tashkilotlari, lombardlar, kredit byurolari faoliyatini va qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalaydi.

Banklarni, kredit byurolarini ro'yxatga olish, banklarga, mikrokredit tashkilotlari va lombardlarga litsenziyalar berish Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda haq evaziga amalga oshiriladi. Qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqarishga litsenziya berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haq evaziga amalga oshiriladi. Berilgan litsenziyalar to'g'risidagi axborot e'lon qilinishi, shuningdek Markaziy

bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishi kerak hamda tanishib chiqish uchun ochiqdir.

Markaziy bankning nazorat vazifalarini bajarishga doir bir qator vakolatlari belgilangan.[60]



10.5-rasm. **Markaziy bank tomonidan belgilanadigan qoidalar**

Bank nazorati sohasida Markaziy bankka quyidagi huquqlar berilgan:

- banklar, mikrokredit tashkilotlari lombardlar va kredit byurolarining hisoboti va boshqa hujjatlarini olish va tekshirish, ularning faoliyati, shu jumladan operatsiyalari to'g'risida axborot so'rash hamda olish;
- olingan axborot yuzasidan izoh talab qilish;
- banklar va mikrokredit tashkilotlarining, ularning filiallari va ular bilan uzviy bog'langan shaxslarning, shuningdek lombardlar va kredit byurolarining faoliyatini tekshirish, qoidabuzarlarga nisbatan sanksiyalarni qo'llash;

[60] "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunining VIII bobi 51-moddasi

- banklar va kredit byurolarining ichki auditiga doir talablarni belgilash;
- bank aktivlari sifatini tasnif qilish va aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar o'rnini qoplash uchun shunga monand rezervlar yaratishga doir talablarni belgilash;
- ishonchsiz aktivlarni hisobdan chiqarish shartlari va taomilini aniqlash;
- banklar, mikrokredit tashkilotlari lombardlar va kredit byurolariga ularning faoliyatida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish to'g'risida ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuborish;
- bank aksiyadorlari ustav kapitalining qonun hujjatlarida belgilangan miqdordan ortiqroq qismini sotib olgan taqdirda ularning moliyaviy ahvoli hamda obro'-e'tibori haqida axborot so'rash va olish;
- banklarning va ular filiallarining rahbarlari, boshqaruv a'zolari hamda bosh buxgalterlariga, mikrokredit tashkilotlari va kredit byurolari ijro organlarining rahbarlariga nisbatan malaka talablarini qo'yish.

Tekshirishlar Markaziy bankning vakolatli vakillari va Markaziy bank belgilaydigan auditorlar tomonidan amalga oshiriladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan hollarda bank aksiyalarini sotib olish uchun oldindan Markaziy bankning roziligini olish talab qilinadi. Markaziy bank aksiya sotib oluvchilarning moliyaviy ahvoli qoniqarsizligi aniqlangan taqdirda bank aksiyalari xarid qilinishi va sotilishiga rozilik bermaslik huquqiga ega. Markaziy bank o'z qarori to'grisida ariza beruvchiga iltimosnoma olingan kundan boshlab o'ttiz kundan kechiktirmay yozma ravishda xabar beradi.

Markaziy bank auditorlardan Markaziy bankning normativ hujjatlariga, shu jumladan tartib va uslubiyotlariga rioya etishlarini talab qilishga, shuningdek ulardan bank auditi bilan bog'liq har qanday ma'lumotlarni bevosita olishga haqli.

Markaziy bank banklar uchun majburiy bo'lgan iqtisodiy normativlarni belgilaydi va bu normativlarning o'zgarishi to'g'risida kamida bir oy oldin e'lon qiladi.

Banklar va ularning filiallari iqtisodiy normativlarni belgilovchi banklarga oid qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, Markaziy bank tomonidan ustav kapitalining eng kam miqdoridan 0,1 foizgacha jarima undiriladi yoki ayrim operatsiyalarni o'tkazishni olti oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yiladi.[61]

Agar yo'l qo'yilgan tartib buzilishlar yoki bank o'tkazayotgan operatsiyalar omonatchilar va kreditorlarning manfaatlariga aniq xavf tug'dirgan bo'lsa, Markaziy bank quyidagilarga haqli:

- banklardan ustav kapitali eng kam miqdorining bir foizidan oshmagan summada jarima undirishga;
- bankdan bankni moliyaviy sog'lomlashtirish, shu jumladan aktivlar tuzilmasini o'zgartirish, bank xarajatlarini kamaytirish va aksiyadorlarga dividendlar to'lashni to'xtatish tadbirlarini ko'rishni, bank yoki uning filiali rahbarlarini, shu jumladan bank kengashi rahbarlari va a'zolarini almashtirishni, bankni qayta tashkil etishni, filialni tugatishni talab qilishga;
- bank uchun iqtisodiy normativlarni olti oylik muddatgacha o'zgartirishga;
- bankning ayrim bank operatsiyalarini amalga oshirishini bir yilgacha bo'lgan muddatga, shuningdek filiallar ochishni ham shuncha muddatga taqiqlab qo'yishga;
- bankni moliyaviy sog'lomlashtirish yoki Markaziy bank ko'rsatmalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davrda mansabdor shaxslar va aksiyadorlar ega bo'lgan barcha vakolatlarni vasiyga berib, bankka vasiylik qilish tartibini belgilash to'g'risida qaror qabul qilishga;
- bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani qaytarib olishga.

Bank filiallari to'lovlarni o'z vaqtida o'tkazmagan va ularning vakillik hisobvaraqlari qoniqarsiz ahvolda bo'lgan hollarda Markaziy bank bank filiali ushbu harakat natijasida olgan daromadini qat'iy tartibda undirib oladi, shuningdek shunday miqdorda jarima soladi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun

[61]O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 29 dekabrdagi O'RQ-396-sonli Qonuni tahririda

hujjatlari banklar, mikrokredit tashkilotlari va lombardlar tomonidan buzilganligi aniqlangan taqdirda, Markaziy bank ularga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq choralar hamda sanksiyalar qo'llashga haqli.

Mikrokredit tashkilotlari, ularning filiallari, shuningdek lombardlar tomonidan mikrokredit tashkilotlari va lombardlar to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari, belgilangan iqtisodiy normativlar buzilgan taqdirda, Markaziy bank mikrokredit tashkilotidan ustav fondining belgilangan eng kam miqdoridan bir foizgacha jarima undirishga hamda lombarddan belgilangan eng kam ish haqining ellik baravarigacha miqdorda jarima undirishga haqlidir.

Banklarga, mikrokredit tashkilotlariga, lombardlarga va kredit byurolariga, shuningdek qimmatli qog'ozlar blankalari ishlab chiqaruvchilarga nisbatan choralar hamda sanksiyalar qo'llash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

10.4. Tijorat banklarini lisenziyalash va davlat ro'yhatidan o'tkazish orqali nazorat qilish

Mamlakatimizda tijorat banklariga lisenziya berish va ular faoliyatini tartibga solish Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Bank faoliyatini lisenziyalash nazoratning dastlabki bosqichi bo'lib, u bank tizimining barqarorligini saqlash, bozorga yangi, moliyaviy barqaror banklar kirib kelishini nazorat qilish vositalaridan biri hisoblanadi.

2009 yil 15 avgustda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining "Banklarni ro'yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" qarori[62] qabul qilingan. Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi hududida banklarni ro'yxatga olish va ularga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya berish tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimida faoliyat yuritayotgan barcha banklar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Markaziy

[62] O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2017-yil 9-sentyabrdagi 23/2-sonli qarori tahririda

banki tomonidan beriladigan lisenziya asosida amalga oshiradi. Lisenziyada bank bajaradigan operasiyalar ro'yxati ko'rsatiladi. Lisenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g'ayriqonuniy deb hisoblanadi va bunday faoliyat natijasida olingan daromad davlat byudjetiga olib qo'yilishi lozim.[63]

Shu o'rinda banklarga, xususan tijorat banklari, norezident bank, xususiy bank, chet el bankining sho'ba banki va chet el kapitali ishtirokidagi banklarga ta'rif berib o'tamiz.

Tijorat banki O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan berilgan litsenziya asosida bank faoliyati deb hisoblanadigan yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish, to'lovlarni amalga oshirish kabi faoliyatlar majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

Norezident bank xorijiy davlat hududida ro'yxatga olingan bankdir.

Xususiy bank ustav kapitalida muassislar (aksiyadorlar) bo'lgan jismoniy shaxslarning ulushi kamida ellik foizni tashkil etishi lozim bo'lgan bank bo'lib, ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan yuridik shaxslar, davlat organlari, shuningdek siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, jamoat fondlari va diniy tashkilotlar xususiy bank muassislari (aksiyadorlari) bo'lishi mumkin emas. Bank o'z ustav kapitalini qonun hujjatlariga muvofiq shakllantira olmasligi sababli, o'z maqomini xususiy bankka o'zgartirishiga yo'l qo'yilmaydi.

Chet el bankining sho'ba banki ustav kapitali to'laligicha norezident bank tomonidan shakllantiriladigan bank bo'lsa, chet el kapitali ishtirokidagi bank esa chet ellik investorlarning ishtiroki ustav kapitali umumiy summasining kamida o'ttiz foizini tashkil etadigan bankdir. Bunda, chet ellik investorlardan biri yuridik shaxs bo'lishi lozim. Bunday bankning ustav kapitalini shakllantirishda rezident jismoniy va yuridik shaxslar hamda norezident jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek norezident banklar ishtirok etishlari mumkin.

---

[63]O'zbekiston Respublikasining Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi Qonuni, 1996 yil, 5 - modda

Markaziy bank tomonidan bank nazoratini amalga oshirishda ularni litsenziyalash muhim ahamiyat kasb etadi, sababi banklar litsenziya olishlari uchun quyidagi barcha talablarni bajarishlari kerak bo'ladi.

Banklarni litsenziyalash jarayoni ikki bosqichdan iborat:

• Birichisi, bank ta'sis etish uchun Markaziy bankning dastlabki ruxsatini berish;

• Ikkinchisi, bankni ro'yxatga olish bilan bir vaqtda litsenziya berish.

Birinchi bosqichda bank faoliyati uchun dastlabki ruxsatnoma berilib, bank muassislariga bankni yaxshi tashkil etish uchun ma'lum muddat beriladi va shu davrda Markaziy bank tomonidan to'liq kuzatish ishlari amalga oshiriladi. Dastlabki ruxsatnomani berilishi asosiy litsenziyani kafolatlamaydi va uning amal qilish muddati olingan kundan boshlab 6 oy muddatgacha yuridik kuchga ega.

Dastlabki ruxsatnoma olingandan so'ng muassislar asosiy litsenziyani olish va bankni ro'yhatdan o'tkazish uchun kerakli tashkiliy texnik tadbirlarni amalga oshiradilar.

Litsenziyalash – bank operasiyalarini amalga oshirishni chegaralash maqsadida faqat vakolatli banklar tomonidan yuridik shaxslarga ularni amalga oshirish uchun ruxsat berishdir. Banklar Markaziy bankda davlat ro'yhatidan o'tkazilgandan so'ng yuridik shaxs maqomini oladi.

Markaziy bank tomonidan 1 oy muddat ichida qaror qabul qilinadi. Litsenziya berish tartibi bo'yicha masalani ko'rishda nazorat organlari tomonidan yangi bank filiallarini tashkil etish sharoiti, raqobat tufayli ularning moliya-kredit sektoriga ta'sir etishi kabi masalalarga ham alohida e'tibor beriladi.

Markaziy bank chet el kapitali ishtirokidagi banklar oldiga qo'shimcha talablar qo'yish, shu jumladan chet davlatlar banklaridan ular o'zlari joylashgan va ro'yxatga olingan yerdagi tekshiruv organi nazorati ostida ekanliklarining tasdiqnomasini talab qilish huquqiga ega.

Chet el banklariga litsenziyalar, basharti, chet davlat banki o‘z mamlakatida qaytarib berish sharti bilan pul depozitlari va boshqa boyliklarni qabul qilish huquqiga ega bo‘lsagina beriladi.

Markaziy bank quyidagilarga asoslanib bankni ro‘yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etishi mumkin:

- bankni ro‘yxatga olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar topshirilmaganligi;
- ta’sis hujjatlarining qonun hujjatlariga nomuvofiqligi;
- bir yoki bir necha muassisning moliyaviy ahvoli qoniqarsizligi;
- muassislar moliyaviy mablag‘larining manbalari e’lon qilinmaganligi;
- bankni ro‘yxatga olish paytigacha eng kam ustav kapitalining to‘lanmaganligi;
- bank rahbari va bosh buxgalteri lavozimlariga nomzodlarning bu kasbga nomuvofiqligi.

Bankni ro‘yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to‘g‘risidagi qaror ariza beruvchiga rad etish sabablari hamda ariza beruvchi ko‘rsatilgan sabablarni bartaraf etib, takroran ko‘rib chiqish uchun ariza berishi mumkin bo‘lgan muddat ko‘rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi. Bunda bankni ro‘yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan muddat kamchiliklarni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan vaqtga mutanosib bo‘lishi kerak.

Bankni ro‘yxatga olish va unga litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani takroran ko‘rib chiqish ariza barcha zarur hujjatlar bilan birga olingan kundan e’tiboran o‘n besh kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda amalga oshiriladi. Bankni ro‘yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan muddat o‘tganidan keyin berilgan ariza yangidan berilgan hisoblanadi.

Bankni ro‘yxatga olish va unga litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani takroran ko‘rib chiqishda bankni ro‘yxatga olishni va litsenziya berishni rad etish to‘g‘risidagi xabarnomada ilgari ko‘rsatilmagan yangi

asoslar bo‘yicha ro‘yxatga olishni va litsenziya berishni rad etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bankni ro‘yxatga olishni va unga litsenziya berishni rad etish to‘g‘risidagi qaror ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Markaziy bank quyidagi hollarda bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyani chaqirib olishi mumkin:

- bank to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolganida, passivlar aktivlardan ko‘payib ketganida;
- litsenziya berishga asos bo‘lgan ma’lumotlarning noto‘g‘riligi aniqlanganda;
- bank o‘z omonatchilari va boshqa kreditorlari oldidagi majburiyatlarini bajarishga qodir bo‘lmaganida;
- hisobot ma’lumotlari muntazam ravishda buzib ko‘rsatilganda;
- qonun hujjatlariga va litsenziya shartlariga zid keladigan bank operatsiyalari amalga oshirilganda;
- litsenziya berilgan paytdan e’tiboran bank operatsiyalarini amalga oshirish bir yildan ortiq muddatga kechikkanda;
- monopoliyaga qarshi qoidalar buzilganda;
- ichki nazorat qoidalari hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq axborotni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etish tartibi buzilganda;
- O‘zbekiston Respublikasida o‘z sho‘ba bankini tashkil etgan chet el bankidan litsenziya chaqirib olinganda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-son qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018 yil 17 yanvarda “Bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga litsenziya berish uchun arizani ko‘rib chiqilganligi, shuningdek bankni ro‘yxatdan o‘tkazilganligi va bank operatsiyalarini amalga oshirish

huquqiga litsenziya berilganligi uchun davlat boji miqdorlarini belgilash to‘g‘risida” 31-sonli qarori qabul qilindi.



10.6-rasm. **Bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga litsenziya berish uchun arizani ko‘rib chiqish, shuningdek bankni ro‘yxatdan o‘tkazilganligi va bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga litsenziya berilganlik uchun belgilangan yig‘im, davlat boji miqdorlari**

Bankning ustav kapitali bank muassislari va aksiyadorlari to‘lagan pul mablag‘laridan tashkil topadi.

Kreditga va garovga olingan mablag‘lardan hamda boshqa jalb etilgan mablag‘lardan bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Eng kam ustav kapitali bank muassislari tomonidan uni ro‘yxatga olish paytigacha to‘lanishi kerak. Ustav kapitali uchun to‘lanadigan mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasining Markaziy bankida yoki boshqa banklarida ochilgan jamg‘arish hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Ko‘rsatilgan mablag‘lardan depozit sifatida foydalanish mumkin.

Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

2017-yil 1-oktabrdan boshlab tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdori 100 mlrd so‘m miqdorida belgilandi. Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari 2019-yilning 1-yanvariga qadar o‘z ustav kapitalini ushbu miqdorga yetkazishlari lozim.

2018-yil 1-sentabr kuniga qadar ilg‘or xorijiy tajriba va umume’tirof etilgan normalar va standartlarni chuqur o‘rganib,

ixtisoslashgan xalqaro moliya institutlarining tegishli ekspert xulosalari asosida "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi hamda "Bank va banklar faoliyati to'g'risida"gi qonunlari loyihalari yangi tahrirda ishlab chiqiladi.

III BO'LIM BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Soliq nazoratining qanday huquqiy asoslarini mavjud?
2. 2017-yil 18-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonidagi davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari qaysilar?
3. Soliq nazoratining qanday shakllari mavjud?
4. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida "sog'lom raqobat"ni ta'minlash va "xufiyona biznes" yuritishga barham berish maqsadida qanday ishlar amalga oshirildi?
5. Soliq tekshiruvlarining qanday shakllari mavjud?
6. Soliq tekshiruvlarining qanday turlarini bilasiz?
7. Rejali va rejadan tashqari soliq tekshiruvini o'tkazish uchun nimalar asos bo'ladi?
8. Soliq tekshiruvini o'tkazish dasturida nimalar ko'rsatilishi kerak?
9. Soliq organlari tomonidan soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi qanday?
10. Davlat soliq qo'mitasining soliq nazoratini amalga oshirishdagi vazifalari nimalardan iborat?
11. Davlat soliq qo'mitasi soliq nazoratini amalga oshirishda qanday funksiyalarni bajaradi?
12. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tarkibidagi Bosh nazorat-taftish boshqarmasining soliq nazoratini amalga oshirishdagi vazifalari nimalardan iborat?
13. Bojxona nazoratini amalga oshirishdan maqsad nima?

14. Bojxona nazoratini amalga oshirishda qanday huquqiy asoslani bilasiz?

15. Bojxona nazorati qanday shakllarda amalga oshiriladi?

16. Bojxona identifikatsiyalash vositalariga nimalar kiradi?

17. Ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili (uni kuzatib boruvchi shaxs) shaxsiy ko'rikdan o'tkazish jarayonida qanday huquqlarga ega?

18. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish tizimini tekshirish bojxona organlari tomonidan qanday hollarda qo'llanilishi mumkin?

19. Nimalar bojxona ko'rigidan o'tkazilmaydi?

20. Bojxona organlarini bojxona nazoratini olib borishdagi vazifalari nimalardan iborat?

21. Davlat bojxona organlari o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarga muvofiq qanday funksiyalarni bajaradi?

22. Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida qanday huquqlarga ega?

23. Bojxona organlari qanday majburiyatlarga ega?

24. Bojxona organi xodimi bojxona ko'rigini qanday hollarda vakolatli shaxslar ishtirokisiz, ikki nafar xolis hozirligida o'tkazishga haqli?

25. Sug'urta faoliyati to'risidagi qaysi meyoriy hujjatlarni bilasiz?

26. Sug'urta qanday sohalarga bo'linadi?

27. Sug'urtalovchilar, sug'urta brokerlari qaysi organ tomonidan litsenziyalanadi va qaysi meyoriy hujjat asosida?

28. Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan qanday maqsadlarda nazorat qilinadi va uning vazifalari nimalardan iborat?

29. Qaysi hollarda sug'urta tashkiloti majburiy sug'urtani amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi?

30. Sug'urta tashkiloti litsenziya olish uchun qaysi talablar va shartlarga javob berishi lozim?

31. Tugatilayotgan sug'urtalovchi kreditorlarining talablari tugatishni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar qanday tartibda qanoatlantiriladi?

32. Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi qanday vazifalarini bajaradi?

33. Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi qanday funksiyalarni bajaradi?

34. Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi qanday huquqlarga ega?

35. Bank nazorati deganda qanday nazoratni tushunasiz?

36. Bank nazoratining vujudga kelishining asosiy sabablari nimada?

37. Bozor iqtisodiyoti qaror topgan rivojlangan davlatlarda davlatning bank nazorati sohasidagi asosiy maqsadlari nimalardan iborat?

38. Bazel qo'mitasi qachon va nima maqsadda tashkil etilgan?

39. Bazel Qo'mitasi tomonidan xalqaro bank nazoratining qanday tamoyillari belgilangan?

40. Bank nazoratining asosiy maqsadi nimada?

41. Bank nazoratining asosiy vazifalari nima ?

42. Bank nazoratini amalga oshirish banklar faoliyati rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

43. Bank nazorati qanday usullarda amalga oshiriladi?

44. Markaziy bank tomonidan tijorat banklar faoliyatini masofadan turib, ya'ni ular taqdim etgan moliyaviy hisobotlarini tekshirish orqali nazorat qilishning qanday afzallik va kamchilik tomonlari bor?

45. Banklarni joylarga chiqib inspeksiya qilish, ya'ni barcha moliyaviy hisobotlar va ularga tegishli qo'shimcha ma'lumotlar tijorat banklarining o'ziga borib tekshirishning qanday afzallik va kamchilik tomonlari bor?

46. Tijorat banklarini litsenziyalash va davlat ro'yhatidan o'tkazish orqali nazorat qilish tartibini bilasizmi?

47. Markaziy bankning moliyaviy nazoratni amalga oshirishda vazifalari nimalardan iborat?

48. Markaziy bankka bank nazorati sohasida qanday huquqlarga ega ?

III BO‘LIM YUZASIDAN TESTLAR

1. Soliq nazoratining maqsadi nima?

a) Qonun buzuvchilarni jazolash

b) Soliq qonunchiligining buzilishiga yo‘l qo‘ymaydigan intizom yaratish

d) Budjetni mablag‘ bilan to‘ldirish

e) Soliq tushumlarini ko‘paytirish

2. Soliq ma’muriyatchiligi va soliqqa tortishning zamonaviy usullarini, soliqlarning to‘liq yig‘iluvchanligi va byudjetga o‘z vaqtida tushishi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali soliq-byudjet siyosatini yanada takomillashtirish maqsadida qanday komissiya tashkil etildi?

a) O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining yangi tahriri loyihasini tayyorlash bo‘yicha soliq komissiyasi

b) O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining yangi tahriri loyihasini tayyorlash bo‘yicha Respublika komissiyasi

d) O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining yangi tahriri loyihasini tayyorlash bo‘yicha byudjet komissiyasi

e) O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining yangi tahriri loyihasini tayyorlash bo‘yicha Respublika komissiyasi

3. O‘zbekistonda 2018-yil 1-yanvardan soliq nazoratining qanday zamonaviy shakli joriy etildi?

a) Soliq tahlili

b) Muqobil tekshiruv

d) Soliq monitoringi

e) Soliq ta’tili

4. Qaysi hududlarda soliq organlariga hisob-kitoblar haqidagi ma’lumotlarning onlayn rejimida berilishini ta’minlaydigan nazorat-kassa mashinalarini qo‘llash orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etildi?

a) Toshkent shahar va Toshkent viloyatida

b) Toshkent, Nukus shaharlarida va viloyat markazlarida

d) Toshkent shahar va viloyat markazlarida

e) barcha hududlarda

5. Qanday xo'jalik yurituvchi subyektlarga soliq ta'tillari berish tarzidagi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi shakli nazarda tutgan?

a) Barcha halol soliq to'lovchilarga

b) Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to'qnash kelgan barcha soliq to'lovchilarga

d) Imtiyozga ega soliq to'lovchilarga

e) Vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to'qnash kelgan halol soliq to'lovchilarga

6. Quyidagilardan qaysi biri soliq nazoratining shakli hmsoblanadi?

a) Ko'ruvdan o'tkazish

b) Kameral nazorat

d) Qiyosiy baholash

e) Og'zaki so'rab-surishtirish

7. Soliq tekshiruvi turlarni to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

a) Rejali va rejadan tashqari soliq tekshiruvi

b) Kameral va hujjatli soliq tekshiruvi

d) Asosiy va qo'shimcha soliq tekshiruvi

e) Rejali va muqobil soliq tekshiruvi

8. Soliq tekshiruvining qanday shakllari bor?

a) Rejali, rejadan tashqari

b) Qisqa muddatli, uzoq muddatli

d) Ixtiyoriy, majburiy

e) Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiruv, qisqa muddatli

9.....yuridik shaxs tugatilishi munosabati bilan o'tkaziladigan soliq to'lovchi moliya-xo'jalik faoliyatining soliq tekshiruvdir.

a) Rejali soliq tekshiruvi

b) Rejadan tashqari soliq tekshiruvi

d) Muqobil soliq tekshiruvi

e) Soliq profilaktikasi

10. "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-418-sonli qonuniga asosan bekor qilingan soliq tekshiruvi turini ko'rsating.

a) Muqobil tekshiruv

b) Rejadan tashqari tekshiruv

d) Kameral tekshiruv

e) Rejali tekshiruv

11. Soliq to'lovchilar moliya-xo'jalik faoliyatining rejali tekshiruvi xususiy bank va boshqa xususiy moliya institutlarida ..... o'tkaziladi.

a) 1 yilda ko'pi bilan bir marta

b) 4 yilda ko'pi bilan bir marta

d) 5 yilda ko'pi bilan bir marta

e) 3 yilda ko'pi bilan bir marta

12. Mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ..... o'tkaziladi.

a) 1 yilda ko'pi bilan bir marta

b) 4 yilda ko'pi bilan bir marta

d) har yili

e) 2 yilda bir marta

13. Davlat soliq xizmati organlarining shtatlar sonini qisqartirish hisobidan qanday inspeksiya tashkil etildi?

a) Oliy Majlisga bo'ysunuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushumlarning to'liqligini nazorat qilish inspeksiyasi

b) Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushumlarning to'liqligini nazorat qilish inspeksiyasi

d) Hisob Palatasi tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushumlarning to'liqligini nazorat qilish inspeksiyasi

e) Moliya vazirligi tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushumlarning to'liqligini nazorat qilish inspeksiyasi

14. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi Nazorat-taftish bosh boshqarmasining vazifasi noto'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

a) Soliq to'lovchilar bilan soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha ish olib borish

b) Fuqarolarning soliq qonunchiligi buzilishlari faktlari to'g'risidagi xatlari, shikoyatlari va arizalarini ko'rib chiqish

d) Soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish, ularga barham berish

e) Valyuta operatsiyalari bo'yicha hisob va hisobotlarning to'liqligi va obyektivligini nazorat qilish

15. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qaysi hujjat asosida tashkil etildi?

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.05.2018 yildagi PF-5446-son "Byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan

b) 2017 yil 1 avgustdagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3168-son qarori

d) 2018 yil 26 iyundagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"giPQ-3802-sonli qarori

e) Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 28 avgustdagi 677-sonli "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan

16. Bojxona nazorati bu ... dir.

a) O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasidagi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida tovarlarni respublikaga olib kirilishini nazorat qilish bilan bog'liq tadbirlar majmui

b) O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasidagi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar majmui

d) O‘zbekiston Respublikasining bojxona sohasidagi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta’minlash maqsadida bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan boj undirishga qaratilgan tadbirlar yig‘indisi

e) O‘zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasidagi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta’minlash maqsadida davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar yig‘indisi

17. Mamlakatimizda yangi tahrirdagi Bojxona Kodeksi qachon qabul qilindi?

a) 2000-yil 26-dekabrda

b) 2016-yil 20-yanvarda

d) 2017-yil 20-yanvarda

e) 2018-yil 26-dekabrda

18. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risidagi” 502-sonli Qonuni yangi tahrirda qachon qabul qilingan?

a) 1997-yil 29-avgustda

b) 1998-yil 18-oktyabrda

d) 2007-yil 29-avgustda

e) 2018-yil 18-oktyabrda

19. Yangi tahrirdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ko‘ra bojxona tuzilmasi tarkibiga ..... kiritildi.

a) Oliy harbiy bojxona instituti va Milliy kinologiya markazi

b) Bojxona instituti va Bojxona kolleji

d) Milliy kinologiya markazi va bojxona markazi

e) Oliy harbiy bojxona instituti va Milliy xavfsizlik markazi

20. Yangi tahrirdagi “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga ko‘ra “bojxona organlarining mansabdor shaxslari” atamasi o‘rniga qanday atama kiritildi?

a) “Bojxona xodimlari”

b) “Bojxona nazoratchilari”

d) “Bojxona organlari xodimlari”

e) "Bojxonachilar"

21. Quyidagilardan qaysi biri Bojxona Kodeksiga asosan bojxona nazoratining shakli hisoblanmaydi?

a) Fiskal xotirali kassa mashinasini o'rnatish

b) Tovarlar, transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojxona tomonidan qiyoslash

d) Jismoniy shaxslarni og'zaki so'rab-surishtirish

e) Bojxona nazoratidan o'tish

22. Quyidagilar bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi:

a) Xorijlik shaxslar, jangovar va harbiy texnikalari

b) Chet el harbiy kemalari, jangovar va harbiy texnikalari

d) Chet ellik rezidentlar, siyosiy partiya a'zolari

e) Chet el havo kemalari va harbiy texnikalari

23. O'zbekiston bojxona tizimida "yagona oyna" tizimini joriy qilishda qaysi davlatning texnik yordamidan foydalanildi?

a) Rossiya Federatsiyasi

b) Fransiya

d) Janubiy Koreya

e) Shimoliy Koreya

24. Mamlakatimiz aeroportlari bojxona nazorat punktlarida 2018 yildan boshlab jismoniy shaxslar uchun qanday yengilliklar yaratildi?

a) "Yashil" va "qizil" yo'laklar tashkil etildi

b) "Qizil" va "ko'k" yo'laklar tashkil etildi

d) "Ochiq" va "yopiq" yo'laklar tashkil etildi

e) "Umumiy" va "maxsus" yo'laklar tashkil etildi

25. 2018-yil 1-yanvardan qancha miqdordagi valyutani olib kirish va olib chiqib ketish uchun deklaratsiya taqdim etilishi bekor qilindi?

a) 300 AQSh dollari miqdorida

b) 1000 AQSh dollari miqdorida

d) 2000 AQSh dollari miqdorida

e) 3000 AQSh dollari miqdorida

26. O'zbekiston Respublikasi "Sug'urta faoliyati to'g'risida" qonuni qachon qabul qilingan?

a) 1993-yil 5-aprelda

b) 1993-yil 5-dekabrda

d) 2002-yil 5-aprelda

e) 2002-yil 5-dekabrda

27. Sug'urta vositachilarini ko'rsating.

a) Sug'urta agenti, sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri

b) Sug'urta faoliyatining subyektlari, sug'urta brokeri, qayta sug'urta brokeri

d) Sug'urta agenti, sug'urta brokeri, sug'urta faoliyatining sub-yektlari

e) Sug'urta agenti, sug'urta brokeri, sug'urtalovchi

28. Quyidagilardan qaysi biri davlat sug'urta nazoratining asosiy vazifasi hisoblanmaydi?

a) Sug'urta bozorida tenglik va raqobatbardoshlikni ta'minlash

b) Sug'urta tashkilotlarini daromadlarini ko'paytirish

c) Sug'urta xizmatlaridan foydalanuvchilarni haq-huquqlarini himoya qilish

d) Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash

29. Sug'urta nazoratida quyidagilardan qaysi biri tekshiruv obyekti bo'lib hisoblanmaydi?

a) Ustav kapitali va o'z mablag'larining holati

b) Litsenziya sug'urtalashning qaysi turiga berilganligi

c) Sug'urta zaxiralarini to'g'ri joylanishi

d) Kommunal xizmatlar uchun to'lovlar

30. Sug'urta faoliyati bo'yicha litsenziyani berish, bekor qilish ishlari qaysi vazirlik yoki qo'mita tomonidan amalga oshiriladi?

a) Moliya vazirligi

b) Davlat bojxona qo'mitasi

d) Iqtisodiyot vazirligi

e) Davlat soliq qo'mitasi

28. Sug'urta nazorati Davlat inspeksiyasi faoliyati bo'limlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

a) Litsenziya bo'limi va sug'urta faoliyatini o'rganish bo'limi

b) Litsenziyalarni nazorat qilish va o'rganish bo'limi

d) Litsenziya bo'limi, sug'urta faoliyatini inspeksiya qilish bo'limi

e) Litsenziya bo'limi, sug'urta faoliyatini taftish qilish bo'limi

29. Sug'urta tashkilotlarining ustav kapitali minimal miqdoriga .... ta'sir etmaydi.

a) Sug'urta hodisalari yuz berish ehtimoli va ularning ta'sir darajasini o'sib borishi

b) Sug'urta tashkilotlari xodimlarining ish haqi

d) Sug'urta obyektlari qiymatining o'sishi muammolari

e) Jahon sug'urta bozorida yuzaga keladigan vaziyatlar

30. Qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatga muvofiq sug'urta tashkilotlarining ustav kapitalining eng kam miqdoriga bo'lgan talab milliard so'mda belgilandi?

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida» PF-5177-sonli Farmoniga muvofiq

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-son Farmoniga muvofiq

d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-2847-son Qaroriga muvofiq

e) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5147-son farmoniga muvofiq

31. Davlat sug'urta nazorati inspeksiyasi faoliyatini amalga oshirish rejasi qaysi organ tomonidan tasdiqlanadi?

a) Vazirlar Mahkamasi

b) Moiya vazirligi

d) Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi

e) Reja tasdiqlanmaydi

32. Davlat sug'urta nazorati inspeksiyasining vazifasi noto'g'ri ko'rsatilgan qatori toping.

a) Qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta bozori ishtirokchilari faoliyatini tekshirish va aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish

b) Qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta brokerlari va sug'urtalovchilarni litsenziyasini bekor qilish

d) Sug'urtalovchilvrni moliyaviy hisobotlarini taqdim etish shakli , tartibi va muddatini belgilash

e) Elektr energiyasi uchun limitlarga rioya etilishi ustidan tekshi-ruvlar o'tkazish

33. Quyidagilardan qaysi biri bank nazoratining vazifasi hisoblanmaydi?

a) Aholining turmush darajasini yaxshilash

b) Bank tizimini mustahkamlash hamda iqtisodiy o'sishga hamkorlik qilish

d) Tijorat banklari ustidan nazorat qilish

e) Bank omonatchilari va kreditorlari manfaatlarini himoya qilish

34. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining nechanchi moddasida "Markaziy bank qonun hujjatlariga muvofiq banklar faoliyatini nazorat qilib boradi" deb belgilab qo'yilgan?

a) 4-moddasida

b) 5-moddasida

d) 32-moddasida

e) 44-moddasida

35. 2017-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida banklarni litsenziyalash bo'yicha qanday o'zgarish sodir bo'ldi?

a) Barcha tijorat banklarining milliy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyalarning amal qilishi tugatildi

b) Barcha tijorat banklarining chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun berilgan litsenziyalarining amal qilishi tugatildi

d) Barcha tijorat banklarining milliy valyutada operatsiyalarni amalga oshirish uchun berilgan qo'shimcha litsenziyalarning amal qilishi tugatildi

e) Barcha tijorat banklarining chet el valyutasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun litsenziyalarning amal qilishi joriy etilishi

36. Tijorat banklari faoliyati ustidan nazorat olib boruvchi organni ko'rsatinig?

a) Markaziy Bank

b) Moliya Vazirligi

d) DSQ

e) DBQ

37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi «Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi omonatlarini himoyalash kafolatlarini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4057-son Farmoniga asosan omonatchilarning omonatlarini qancha miqdori kafolatlanadi?

a) Omonatlar minimal ish haqining 100 barobarigacha bo'lsa 100%i

b) Omonatlar minimal ish haqining 100 barobaridan 250 barobarigacha bo'lsa 90%i

d) Barcha omonatlarning 100 %i

e) Omonatlar minimal ish haqining 100 barobarigacha bo'lsa 100%i, minimal ish haqining 100 barobaridan 250 barobarigacha bo'lsa 90%i

38. Bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyani qaytarib olish, bank uchun iqtisodiy normativlarni olti oylik muddatgacha o'zgartirish kabi ishlar nima deb ataladi?

a) Markaziy bankning moliyaviy nazorati

b) Markaziy bankning emissiya siyosati

d) Markaziy bank qo'llaydigan jazo va jarimalar

e) Markaziy bank qo'llaydigan chora va sanksiyalar

39. Tijorat banklarida majburiy rezerv normasi kim tomonidan belgilanadi?

a) Oliy Majlis tomonidan

b) Vazirlar Mahkamasi tomonidan

d) Markaziy Bank tomonidan

e) Moliya Vazirligi tomonidan

40. 2017-yil 1-oktyabrdan boshlab tijorat banklari ustav kapitalining eng kam miqdoriga bo'lgan talab qancha miqdorda belgilandi?

a) 50 mlrd so'm

b) 100 mlrd so'm

d) 10 ming yevro ekvivalentida

e) 5 ming yevro ekvivalentida

41. Xalqaro amaliyotda bank nazorat usullari nechta?

a) 1ta

b) 2ta

d) 3ta

e) 4 ta

42. Joylarga chiqib tekshirishda foydalaniladigan ko'rsatkich nima deb ataladi?

a) CAMEL

b) CAMBEL

d) SAMEEL

e) SAMIL

43. 2018-yil 17-yanvardan boshlab bankni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im hamda bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga litsenziya berilganligi uchun davlat boji miqdorini ko'rsating.

a) Yig'im eng kam oylik ish haqining 0,1 baravari miqdorida, davlat boji bank ustav kapitali eng kam miqdorining 5 foizi miqdorida

b) Yig'im bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,1 foizi miqdorida, davlat boji eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida miqdorida

d) Yig'im eng kam oylik ish haqining besh baravari miqdorida, davlat boji bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,1 foizi miqdorida

e) Yig'im eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida, davlat boji eng kam oylik ish haqining 4 miqdorida

44. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018-yil 9-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5296-son farmoniga muvofiq Markaziy bank tarkibida qanday qo'mitalar faoliyat yuritadi?

a) O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining tashqi nazorat qo'mitasi va mikrokredit qo'mitasi

b) O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining ichki nazorat qo'mitasi va Kredit qo'mitasi

d) Markaziy bankning bank xizmatlari ist'emolchilarining huquqlarini himoya qilish qo'mitasi

e) O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining nazorat qo'mitasi va Kredit qo'mitasi

45. Markaziy bank qaysi organga hisobot taqdim etadi?

a) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga

d) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga

e) Markaziy Bank hech kimga hisobot bermaydi

IV BYUDJET NAZORATI

11-BOB. BYUDJET NAZORATINI TASHKIL ETISH

11.1. Byudjet nazoratning mohiyati va zaruriyati

Davlat byudjeti davlat moliyasi tizimida markaziy o'rinni egallaydi. Iqtisodiyot rivojlanishini turli bosqichlarida byudjet davlat siyosatini amalga oshirish quroli, mo'ljallangan dasturlar va tadbirlarni amalga oshirish uchun pul mablag'larini asosiy manbai hisoblanadi. Davlat byudjeti, davlat hokimiyatining kundalik masalalarini ham, rivojlanish istiqbollari vazifalarini ham hal etishda katta ahamiyatga egadir.

Byudjetni shakllantirish avvalo uning xarajat qismini tuzish yo'li bilan yuz beradi, chunki davlat o'zida mavjud moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqibgina xarajatlar qilishi mumkin emas. Davlat avvalo jamiyatni samarali rivojlantirish maqsadida uning oldida turgan vazifalarni bajarish uchun zarur mablag'lar hajmini belgilashi va shundan keyingina o'z qo'lida bo'lgan byudjet daromad qismini to'ldirishning asosiy vositasi - soliqlar va boshqa manbalar yordamida ana shu moliyaviy resurslarni jalb etishi kerak.

Davlat byudjeti pul resurslarining markazlashtirilgan jamg'armasi (fondi) bo'lib, mamlakat hukumati davlat apparati, qurolli kuchlarni tutib turish, shuningdek iqtisodiy funksiyalarni bajarish uchun uni tasarruf etadi.

Hozirgi shart-sharoitda byudjet davlatning iqtisodiyotni tartibga solish, xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatish shuningdek krizisga qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirishning qudratli vositasi hamdir. Hozirgi davlat byudjeti uning butun xilma-xil funksiyalarini aks ettiradigan murakkab, ko'p ko'rinishli hujjat hisoblanadi. Avvalo byudjetda davlat xarajatlari va daromadlari tartibi o'z aksini topadi. Xarajatlar byudjet qurollarining sarflanish yo'nalishlari va maqsadlarini ko'rsatadi.

Xarajat moddalarining ahamiyati juda muhim, chunki ularning qanchalik maqsadga muvofiqligiga mazkur davlat soliq to'lovchilari zimmasiga yuklatiladigan soliq yukiga bog'liq bo'ladi. Bundan shu narsa ravshanki, mazkur aniq davrda amal qiladigan soliqlar tizimi (soliq miqdori, ularni stavkalari, soliq solinadigan baza) davlat byudjetida xarajatlarning qanday moddalari ko'zda tutilganiga va ularni qoplash uchun qancha miqdorda mablag'lar zarurligiga to'la ravishda bog'liqdir.

Iqtisodiyotni ishlab chiqarish sektorlari faoliyati uchun eng qulay shart-sharoitlarini yaratish bilan bog'liq xarajatlar davlat xarajatlarining eng muhim moddalari qatoriga kiradi.

Byudjet tizimi va byudjet jarayonida yuzaga keladigan barcha bosqichlarda "Byudjet Kodeksi" talablariga, byudjet tizimining asosiy tamoyillariga, byudjet tizimi to'g'risidagi me'yoriy xarajatlarga, yo'riqnoma va tartiblarga amal qilinishi byudjet intizomi tushunchasini belgilaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy tangliklar va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar sharoitida byudjet nazoratining ahamiyati o'sib boradi va yangicha mazmun kasb etadi.

Byudjet nazorati davlat moliyaviy nazoratining muhim qismi bo'lib, byudjet jarayonida amalga oshiriladi.

Uning bosh maqsadi – byudjet munosabatlarining barcha ishtirokchilari tomonidan byudjet qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilishdir, shuningdek byudjet mablag'larini hosil qilish va ishlatishda maqsadlilik, samaradorlik, tartiblilik, qonuniylikning ta'minlanishiga erishish zarurligidan iboratdir.

Byudjet nazoratining vazifalari:

- byudjet moddalari hajmi, tarkibi va maqsadliligi bo'yicha to'g'ri tuzilishi va ijro etilishini ta'minlash;
- byudjet mablag'lari va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larining samarali va maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat;
- barcha darajadagi byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg'armalarga tushumlar to'liq va o'z vaqtida kelib tushishi ustidan nazorat;

• byudjetning shakllanishi va ijrosiga ta'sir etuvchi davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari, davlat dasturlarining moliyaviy ekspertizasini amalga oshirish;

• buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishining to'g'riligi ustidan nazorat;

Nazorat iqtisodiy ishlarni tashkil qilishda yetakchi rolni O'zbekiston Respubikasi Moliya vazirligi bajaradi.

Har yili mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi tahlil qilinadi va o'tgan yillar bilan solishtiriladi

Mahalliy byudjetlar ijrosini taftish va tekshirishlardan o'tkazish Moliya vazirining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi va vazirlikning barcha soha mutaxassislari jalb qilinadi.

Bundan tashqari, moliya organlarida hukumat topshiriqlari va Moliya vazirligi Hay'ati yig'ilishi hamda vazirlik rahbariyati topshiriqlariga asosan ma'lum bir yo'nalish, soha bo'yicha mavzuli tekshirishlar ham o'tkazilishi mumkin.

Byudjet tizimi byudjetlari ijrosi jarayonida byudjet intizomiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash maqsadida quyidagilar belgilanadi:

O'tgan yil uchun Davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni o'z vaqtida va sifatli shakllantirilishini ta'minlash maqsadida, Davlat byudjeti bosh boshqarmasi va Hududlar moliyasi bosh boshqarmasi, Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy bo'linmalari, hududiy moliya idoralari belgilangan muddatda byudjetlararo o'zaro hisob-kitoblarni tartibga solinishini ta'minlashlari;

Byudjet tashkilotlarining joriy yil uchun xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallarini ro'yxatga olish tugallangunga qadar, quyidagilar ma'lumot va ijro uchun qabul qilishlari:

a) xarajatlarni moliyalashtirish (to'lovlarini amalga oshirish) "O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi;

b) respublika va mahalliy byudjetlar xarajatlari quyidagilarga asosan amalga oshiriladi:

• respublika byudjetidan moliyalashtiriluvchi tashkilotlar bo'yicha – joriy yil I chorak uchun dastlabki (vaqtinchalik) xarajatlar yoyilmalari;

• Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar)lar mahalliy byudjetlaridan moliyalash-tiriluvchi tashkilotlar bo'yicha – joriy yil I chorak uchun vaqtinchalik xarajatlar smetalari.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yilgi byudjet tizimi byudjetlari ijrosini ta'minlash maqsadida, Moliya vazirligining boshqarma boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari boshliqlari, shuningdek tuman (shahar) moliya bo'limi mudirlari:

• xarajatlar yoyilmasini tuzish hamda byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallarini ro'yxatdan o'tkazishda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomga, shuningdek amaldagi boshqa qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya etilishini;

• birinchi navbatda I va II guruh xarajatlariga, IV guruh xarajatlari bo'yicha esa tegishli byudjetlarning tasdiqlangan xarajatlar parametrlari doirasida kommunal xizmatlar, ko'mir sotib olish va yetkazish, yoqilg'i va YaMM, dori-darmon va oziq-ovqat mahsulotlariga zarur mablag'lar rejalashtirilishini;

• o'tgan yilda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlarni, byudjet mablag'lari oluvchilar sonining o'zgarishini har tomonlama tahlili asosida, shuningdek xarajatlarning mavsumiyligini hisobga olgan holda byudjet mablag'lari oluvchilariga byudjet mablag'larini taqsimlanishini, bunda, xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazish jarayonida vujudga kelgan bo'shab qoladigan mablag'larni kelgusi yil byudjet xarajatlari yoyilmasining tegishli bo'limi, bobi, moddasida ko'zda tutish lozim;

• byudjet daromadlari va xarajatlari yoyilmasini belgilangan muddatda va tartibda tayyorlanishini;

• byudjet tashkilotlarining joriy yilgi shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini tegishli byudjet parametrlari tasdiqlangandan boshlab 40 kundan kechiktirmay ro‘yxatdan o‘tkazish, shuningdek ro‘yxatdan o‘tkazilgan xarajatlar smetalarida qayd etilgan ma’lumotlarni dasturiy majmuaga o‘z vaqtida kiritish choralari ko‘rilishini;

• joriy yil uchun byudjet xarajatlari yoyilmasiga indeksasiya mablag‘larini belgilangan ilovadagi koeffisientlarga muvofiq kiritish hamda ularni belgilangan tartibda faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsati bilan ishlatilishini ta’minlashlari lozim.

Davlat byudjetining muvozanatliligini va joriy yilgi Davlat byudjeti parametrlarida ko‘zda tutilgan mablag‘lar hisobiga maqsadli tadbirlarni moliyalashtirilishini ta’minlash maqsadida, Davlat byudjeti bosh boshqarmasi respublika byudjeti xarajatlar yoyilmasining indeksasiyasida belgilangan ilovaga muvofiq mablag‘larni ko‘zda tutishi lozim.

Bunda, ko‘rsatilgan mablag‘lardan foydalanish qat’iyan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy soha va fanni moliyalashtirish bosh boshqarmasi o‘n kunlik muddat ichida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Maktabgacha ta’lim vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi bilan kelishilgan kelgusi yilga maktabgacha bolalar ta’lim muassasalari, umumta’lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida bir o‘quvchiga (tarbiyalanuvchiga) bazaviy me’yorlarini aniqlash va tartibga soluvchi koeffitsientlarni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni vazirlik rahbariyatiga tasdiqlash uchun kiritishi lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari tegishli byudjetlardan moliyalashtiriluvchi byudjet tashkilotlarining joriy yil uchun xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish jadvalini tasdiqlab, besh kun muddat ichida Hududlar moliyasi bosh boshqarmasiga taqdim etishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, Andijon, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari mahalliy byudjetlariga hududlar bo‘yicha hisoblangan barcha soliq va majburiy to‘lovlar tushumi bashorati hisobga olinib, hajmi aniqlashtirilgan holda quyidagi xarajatlarni amalga oshirish uchun byudjet transfertlari ajratiladi:

➢ xalq ta’limi muassasalarining ish haqi va yagona ijtimoiy to‘lovlari;

➢ ijtimoiy nafaqalar (bola 2 yoshga to‘lguncha uni parvarishlash uchun onalarga beriladigan oylik nafaqalar, 14 yoshgacha bolali oilalarga oylik nafaqalar va kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam).

Moliya vazirligi G‘aznachiligi:

a) Moliya vazirligining G‘aznachiligi va uning hududiy bo‘linmalari barcha xodimlarining o‘z xizmat vazifalarini amalga oshirishda byudjetning g‘azna ijrosi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, boshqa qonunchilik hujjatlari, Moliya vazirligining me’yoriy-huquqiy hujjatlari talablarini qat’iy va so‘zsiz bajarishga qaratilgan javobgarligini kuchaytirish choralarini ko‘rishi lozim;

b) quyidagilarni:

- g‘aznachilik operasiyalarini amalga oshirish jarayonida ichki nazoratni hamda tavakkalchilik, tartib buzilish va kamchiliklarni minimallashtirish, tezkor aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha mavjud mexanizmni mustahkamlashni;
- xodimlarining malakalarini doimiy oshirishni;

G‘aznachilikning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘yicha boshqarmalari hamda tuman va shahar G‘aznachilik bo‘linmalarining faoliyati ustidan qattiq nazorat o‘rnatilishini ta’minlash lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmalari boshliqlari, tuman va shahar

G‘aznachilik bo‘linmalari rahbarlari o‘z xodimlari tomonidan byudjet tizimi byudjetlari g‘azna ijrosi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga qat’iy va so‘zsiz rioya qilinishi yuzasidan shaxsan javobgar ekanligi belgilanishi lozim.

Moliya vazirligining G‘aznachiligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmalari, tuman va shahar G‘aznachilik bo‘linmalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentyabrdagi 414-sonli “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, joriy moliya yilida byudjet muassasalarining birinchi darajali xarajatlari to‘lovini amalga oshirishning quyidagi ketma-ketligini ta’minlash lozim:

- ish haqi, ish haqidan ajratmalar (YaIT), ijtimoiy nafaqalar, pensiya va stipendiyalar;
- oziq-ovqat, dori-darmon;
- kommunal xizmat xarajatlari, yoqilg‘i va boshqalar;
- kapital qo‘yilmalar;
- boshqa xarajatlar.

G‘aznachilik hisob raqamlaridagi mablag‘lar qoldig‘i miqdori:

- tegishli byudjet bo‘yicha I va II guruh xarajatlarini to‘lash uchun mablag‘larga bo‘lgan talabni to‘liq qoplagan taqdirda, III-guruh xarajatlarini, shuningdek I va II-guruh xarajatlarini to‘liq amalga oshirib bo‘lgan byudjetdan mablag‘ oluvchilarning IV-guruh xarajatlarini amalga oshirishga ruxsat beriladi;
- oziq-ovqat xarajatlarini to‘lanmagan qismidan oshgan taqdirda dori-darmon xarajatlarini (huddi shunday boshqa turdagi xarajatlar bo‘yicha ham) qoldiqdan oshgan qismi doirasida amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Bunda, byudjet tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yoki uning hududiy moliya idoralari bilan kelishgan holda IV guruh xarajatlari uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar hisobidan mavsumiy va favqulodda tadbirlarni (birinchi sinf o‘quvchilari uchun o‘quv

qurollari, kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun qishki kiyim-bosh, epidemiologiyaga qarshi, dezinfeksion va boshqa tadbirlar) tezkor moliyalashtirishni amalga oshirishlari mumkin.

Davlat byudjeti bosh boshqarmasi va Hududlar moliyasi bosh boshqarmasi mahalliy byudjetlarning birinchi darajali xarajatlarini o'z vaqtida moliyalashtirish maqsadida, respublika byudjetidan byudjet subvensiyasi va o'tkazib beriladigan daromadlarni belgilangan choraklik reja doirasida:

√ ish haqi (har oyning 1-5 sanasida 60% miqdorida va 15-20 sanasida 40% miqdorida);

√ yagona ijtimoiy to'lov (har oyning 1-5 sanasida);

√ ijtimoiy nafaqalar to'lovi (har oyning 1-25 sanasida) xarajatlari uchun moliyalashtirilishini amalga oshirishlari lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari, tuman (shahar) moliya bo'limi rahbarlari Respublika kitob jamg'armasi hisobidan joriy o'quv yilida umumta'lim maktablari o'quvchilarini darsliklar va o'quv qo'llanmalari bilan o'z vaqtida to'liq ta'minlanishi, shuningdek darsliklarni ijaraga berishdan tushadigan to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq tushishining doimiy nazoratini ta'minlashlari lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar moliya boshqarmalari, byudjet ijrosi monitoringi va tahlili natijalari asosida, shuningdek birinchi darajali xarajatlarni (ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, yagona ijtimoiy to'lov, ijtimoiy nafaqalar) so'zsiz moliyalashtirish (to'lash) zaruriyatini hisobga olgan holda byudjet transfertlari va byudjet ssudalarini (daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik kassa farqini qoplashga) mahalliy tuman (shahar) byudjetlariga ajratishlari lozim.

Hududlar moliyasi bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tarmoqlarni moliyalashtiruvchi tegishli boshqarmalari bilan birgalikda yil davomida mahalliy byudjetlar xarajatlarining to'g'ri taqsimlanishi, byudjet tashkilotlari xarajat

smetalari va shtat jadvallarini to‘g‘ri tuzilishi hamda ro‘yxatdan o‘tkazilishi yuzasidan tekshirishlar tashkil etilishini ta’minlashlari lozim.

Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari:

- moliya, g‘aznachilik idoralari va byudjet tashkilotlarida byudjet ijrosi bo‘yicha qonunchilik talablari bajarilishini ta’minlanishi ustidan har tomonlama, kuchaytirilgan va ta’sirchan nazorat o‘rnatishni ta’minlashi lozim;
- belgilangan muddatda moliya idoralarida byudjet tashkilotlari shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini ro‘yxatdan o‘tkazilishi o‘z muddatida va belgilangan tartibga muvofiq amalga oshirilishi yuzasidan tekshirishlar o‘tkazishlari lozim. Bunda, xarajatlarni asossiz markazlashtirish, xarajatlar va shtatlarni ortiqcha rejalashtirish, lavozim razryadlarini yuqori qo‘llash kabi holatlarga, shuningdek xizmat avtomobillarini saqlash uchun hamda byudjet tashkilotlari tomonidan joriy yil yakuni bo‘yicha iqtisod qilingan hamda rivojlantirish jamg‘armasiga o‘tkazilgan xarajat turlari bo‘yicha mablag‘lar rejalashtirilishi asosliligiga alohida e’tibor qaratishlari lozim;
- har 10 kunda tekshirishlar jarayonida aniqlangan kamchiliklar haqida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rahbariyatiga axborot taqdim etilishi lozim;
- birinchi darajali xarajatlarni, shu jumladan ish haqi va barcha turdagi ijtimoiy nafaqalarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishi, shuningdek ularni naqd pul bilan ta’minlanishi ustidan nazoratni kuchaytirish lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar moliya, shuningdek hududiy nazorat-taftish boshqarmalari boshliqlarini qayta tekshirish vaqtida smeta-shtat intizomiga amal qilmaslik yoki ushbu holatlarni yashirish, byudjet mablag‘larini maqsadsiz va noo‘rin xarajat qilish, kamomad va o‘zlashtirishlarga yo‘l qo‘yish holatlar aniqlansa, ularga nisbatan qonunchilikda ko‘zda tutilgan choralar ko‘rilishi to‘g‘risida ogohlantirilishlari lozim.

11.2. Byudjetni tuzish va ijro etish jarayonini nazoratni tashkil etish

Byudjet tizimi va byudjet jarayonida yuzaga keladigan barcha bosqichlarda byudjet tizimi to'g'risidagi qonun talablariga, byudjet tizimining asosiy tamoyillariga, byudjet tizimi to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarga, yo'riqnoma va tartiblarga amal qilinishi *byudjet intizomi* tushunchasini belgilaydi.[64]

Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy tangliklar va moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar sharoitida byudjet nazoratining ahamiyati o'sib boradi va yangicha mazmun kasb etadi.

Byudjet nazoratini amalga oshirishdan maqsad byudjet mablag'larini tashkil qilish va ishlatishda maqsadlilik, samaradorlik, tartiblilik, qonuniylikning ta'minlanishiga erishish zarurligidan iboratdir.

Quyidagilar byudjet intizomini buzishdir:

- Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini olish (ulardan foydalanish) shartlariga muvofiq bo'lmagan maqsadlarga yo'naltirish;
- mehnatga haq to'lash bo'yicha belgilangan razryadlarga, lavozim maoshlari, ustamalar, ish haqiga qo'shimchalar va boshqa to'lovlar miqdorlariga rioya etmaslik;
- byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalar va tashkilotlarga ish haqi, pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ularga tenglashtirilgan boshqa xarajatlarni to'lash uchun pul mablag'lari berilishini, shuningdek pensiyalarni yetkazib berishni amalga oshiruvchi muassasalarga pul mablag'lari berilishini banklarning rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan asossiz kechiktirish.

Parlamentining byudjet sohasidagi nazorati:

- navbatdagi yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini, davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlarini hamda soliq

[64]Turabov B. Byudjetdan moliyalashtiriladigan muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash masalalalari. Nomzodlik dissertasiyasi, 2007 y

va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlarini qabul qilish, shuningdek Davlat byudjeti ijrosining borishini ko'rib chiqish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, shuningdek soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalarini ishlab chiqish jarayonini tashkil etadi hamda muvofiqlashtirib boradi.



11.1-rasm. **O'zbekiston Respublikasida byudjet nazoratini amalga oshiruvchi organlari**

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining byudjet sohasidagi asosiy vazifalari:

• birinchi, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyihasi parametrlari shakllantirilishi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini tizimli tahlil qilish, qabul qilinayotgan davlat va hududiy dasturlarning moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganligining auditini amalga oshirish;

• ikkinchi, byudjet tizimi byudjetlariga mablag'lar va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar tushumining to'liqligini o'rganish va nazorat qilish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash orqali byudjet daromadlarini ko'paytirish zaxiralarini aniqlash va safarbar qilish;

• uchinchi, byudjet tizimi byudjeti va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgan xarajatlarning samaradorligi va qonuniyligini auditdan o'tkazish va barcha darajada ularni qisqartirish bo'yicha zaxiralarni aniqlash, byudjet tizimi byudjetlari va davlat tomonidan jalb qilingan mablag'lar hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining maqsadga muvofiqligi va asosliligini baholash;

• to'rtinchi, soliq va byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, tizimli qonunbuzarliklarning sabablari hamda o'zini oqlagan jahon tajribasini o'rganish va umumlashtirish orqali byudjetni rejalashtirishning zamonaviy usullarini joriy qilish.

Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini, byudjet tizimi byudjetlari mablag'lari maqsadli sarflanishini, moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan byudjet qonunchiligiga, shuningdek byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat moliyaviy nazorat organi hisoblanadi.

Bosh boshqarma va uning hududiy boshqarmalarining vazifalari va funksiyalari:

• byudjet tashkilotlarida byudjet mablag'larini boshqarish va byudjet hisobini yuritish bo'yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy mahsulotlar vositasida byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilish;

• byudjet qonunchiligiga rioya etish bo'yicha byudjet tashkilotlari bilan tizimli asosda profilaktika ishlarini olib borish;

• byudjet tashkilotlarida aniqlanayotgan pul mablag'lari va moddiy boyliklarni talon-toroj qilish, kamomadlarga yo'l qo'yish, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish tartibini buzish va byudjet qonunchiligini boshqacha tarzda buzish holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

• masofaviy nazoratni keng ko'lamda qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalari va ma'lumotlar bazasi vositasida tekshirish obyektlari va

maqsadlarini aniqlash yo‘li bilan kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda byudjet tashkilotlarini tekshirish samaradorligini oshirish;

• O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg‘armalari mablag‘laridan foydalanishda byudjet qonunchiligiga hamda byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish va boshqalar.

Hududiy moliya organlari:

• Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari, tumanlar va shaharlar byudjetlari loyihalarini tayyorlaydi hamda ularni tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga ko‘rib chiqish uchun kiritadi;

• soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ularning manbalari kesimida to‘liq va o‘z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;

• tegishli byudjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘shimcha zaxiralarni aniqlaydi;

• byudjet tashkilotlariga va byudjet mablag‘lari oluvchilarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmlarini yetkazadi;

• byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalari va shtat jadvallarini hamda byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlar smetalarini, shuningdek ularga kiritilgan o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazadi;

• tegishli byudjetlarning mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

• yuqori turuvchi moliya organlariga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklariga tegishli byudjetning ijrosi to‘g‘risida har choraklik hisobotlarni taqdim etadi;

• byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;

• tegishli byudjetlar ijrosining byudjet hisobini yuritadi va byudjet hisobotini qabul qiladi;

• mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli byudjetlar daromadlari va xarajatlari balansliligiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarini moliyaviy va iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi.



11.2-rasm. **Qoraqalpog'iston Respublikasining byudjeti va mahalliy byudjetlarni tuzilishi va ijrosini nazorat qilish**

Moliya organlarida Qoraqalpogiston Respublikasining byudjeti va mahalliy byudjetlarning daromadlar qismini rejalashtirish va bajarilishi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan o'tkaziladigan nazorat tadbirida:

• byudjet daromadlarini rejalashtirishda hududning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va tushumlarning muddati va mavsumiyligini inobatga olinishi, daromad turlari bo'yicha tushumlarning to'liq byudjetga tushirilishi ta'minlanganligini hamda qo'shimcha daromadlar tushirilishi yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar mahalliy soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning asosliligi, daromadlar rejasi bajarilmaslik

sabablari tahlili yuzasidan hokimliklarga axborot kiritilganligini hamda ko‘rilgan chora-tadbirlar tahlil etilishi lozim.

Byudjetning xarajat qismi rejalashtirilishi yuzasidan o‘tkaziladigan nazorat tadbirida:

-byudjet xarajatlarining yoyilmasi tasdiqlangan tegishli byudjet ko‘rsatkichlarga muvofiq tuzilganligi, xarajatlar smetasida mehnatga haq to‘lash miqdorlari va shartlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi va tariflari to‘g‘ri qo‘llanilganligini hamda iqtisod qilish tartibiga amal qilinganligi;

-byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallarini ro‘yxatdan o‘tkazishda qonunchilik talablariga rioya etilishi, o‘tgan yildagi haqiqiy xarajatlarni o‘zgarishi tahlili, xarajatlarning mavsumiyligini hisobga olgan holda byudjet mablag‘larini taqsimlanishi, xarajatlar smetasini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonidan bo‘shab qolgan mablag‘larni byudjet xarajatlari yoyilmasining tegishli bo‘limida ko‘zda tutilganligi tahlil etilishi lozim.

Joriy moliya yili uchun mo‘ljallangan Davlat byudjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori ortgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taqdimnomasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalariga Davlat byudjeti xarajatlarini qisqartirish to‘g‘risida takliflar kiritadi.

Davlat byudjeti xarajatlarini qisqartirishda xarajatlarning ustuvorligi va ijtimoiy yo‘naltirilganligi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag‘lari oluvchilarning qabul qilingan yuridik hamda moliyaviy majburiyatlari hisobga olingan holda baholanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, shuningdek tumanlar va shaharlar Kengashlari o‘z byudjetlarining balansliligi buzilishiga va Davlat byudjeti taqchilligining tasdiqlangan cheklangan miqdori oshishiga olib keladigan tegishli byudjet daromadlarini qisqartirishga yoki xarajatlarini ko‘paytirishga qaratilgan biror-bir qaror qabul qilishga haqli emas.

Umumdavlat daromadlari va soliqlari har yili qonun bilan belgilangan tartibda o‘rnatilgan me’yorlar asosida tegishli byudjetlar

o‘rtasida taqsimlanadi. Tegishli ma’muriy-hududiy bo‘linmaning byudjeti uchun o‘rnatiladigan mazkur me’yorlar asosan quyidagilarni e’tiborga olgan holda o‘rnatiladi:

– hududlarning moliyaviy ahvoli hamda ularning o‘z daromad bazalarining holatiga ko‘ra;

– hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va boshqa umumdavlat vazifalarining va dasturlarning mavjudligi va amal qilishiga ko‘ra;

– hududlar bo‘yicha tovarlar va xizmatlar narhlaridagi farqlarning mavjudligiga ko‘ra;

– har bir hudud bo‘yicha aholi soni, tarkibi va zichligi bo‘yicha;

– tegishli hududda joylashgan byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘larini o‘z tasarrufiga oluvchilarning byudjet mablag‘lariga bo‘lgan talabiga ko‘ra.

Byudjet ssudalari rezident-yuridik shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida berilishi mumkin.

Byudjet ssudalari byudjet tashkilotlariga bevosita O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan beriladi.

Byudjet ssudasi shu jumladan foizlar byudjet ssudasini berish yoki kredit liniyasini ochish to‘g‘risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda va hajmlarda o‘z vaqtida qaytarilmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi:

• qarzni qarzdordan so‘zsiz tartibda undiradi;

• har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o‘tkazib yuborilgan qarz summasining 0,033 foizi miqdorida penya hisoblaydi.

Foydalanilmagan subvensiyalar joriy moliya yili oxirida tegishli yuqori turuvchi byudjetga qaytarilishi kerak.

Yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga dotatsiya quyi turuvchi byudjet xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi subvensiyalar va o‘tkazib beriladigan daromadlar hisobga olingan holda mazkur byudjet daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratiladi.

O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan davlat maqsadli jamg‘armalarining byudjetlariga dotatsiya jamg‘armalar xarajatlarining rejalashtirilgan hajmi yil boshidagi qoldiq hisobga olingan holda jamg‘armalar daromadlarining prognoz qilingan hajmidan oshib ketgan taqdirda ajratilishi mumkin.

Davlat byudjetining qo‘shimcha manbalari Davlat byudjetining har bir darajasidagi byudjetlarida alohida-alohida shakllantiriladi va quyidagilardan tashkil topadi:

- O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining, Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining har yil boshida aniqlanadigan erkin qoldiq mablag‘laridan;
- O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti, tumanlar va shaharlar byudjetlari daromadlarining birinchi - uchinchi hisobot choraklari yakunlari bo‘yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilishidan;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika byudjetiga, viloyatlarning viloyat byudjetlariga va Toshkent shahrining shahar byudjetiga davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lardan.

O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining, Toshkent shahri shahar byudjetining, tumanlar va shaharlar byudjetlarining erkin qoldiq mablag‘lari ularning shaxsiy g‘azna hisobvaraqlaridagi byudjet mablag‘lari qoldig‘ining (davlat aktivlarini xususiylashtirishdan tushgan mablag‘larning yil boshidagi qoldiqlari summasi bundan mustasno) ushbu byudjetlar uchun joriy moliya yiliga tasdiqlangan aylanma kassa mablag‘lari miqdoridan oshgan summasi sifatida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo‘shimcha manbalari O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjeti

taqchilligini qoplashga, joriy moliya yili uchun belgilangan aylanma kassa mablag'larining miqdorini to'ldirishga, qolgan qismi esa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilanadigan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining, Toshkent shahri shahar byudjetining, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo'shimcha manbalari birinchi navbatda joriy moliya yili uchun belgilangan aylanma kassa mablag'larining miqdorini to'ldirishga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining, Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining, Toshkent shahri shahar byudjetining, shuningdek tumanlar va shaharlar byudjetlarining qo'shimcha manbalari tegishli byudjet hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilmagan tashkilotlarni saqlab turishga yo'naltirilishi mumkin emas.

Byudjetni tuzish va ijro etishni nazorati jarayonida byudjetlararo munosabatlar qanday amalga oshirilayotgani tekshiriladi. Byudjetlararo munosabatlar O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti, tumanlar, shaharlar byudjetlari, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi tegishli byudjetlarga biriktirilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tegishli byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga doir munosabatlardir.

Byudjet jarayonida:

- O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan;
- davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tumanlar va shaharlar byudjetlari bilan;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika byudjetining, viloyatlar viloyat byudjetlarining va Toshkent shahri shahar byudjetining bir-biri bilan, shuningdek boshqa ma'muriy-hududiy birlikning tumanlari va shaharlari byudjetlari bilan;

• tumanlar va shaharlar byudjetlari o‘rtasida o‘zaro munosabatlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

Daromadlarni kompensatsiya qilish yoki xarajatlarni qoplash Davlat byudjetini ijro etish jarayonida Byudjet Kodeksning 138-moddasida nazarda tutilgan, quyi turuvchi byudjetlarning daromadlarini va (yoki) xarajatlarini kamaytirishga yoxud ko‘paytirishga olib keladigan hollarda o‘zaro hisob-kitoblar bo‘yicha mablag‘larni ajratish yoki olib qo‘yish orqali majburiy tartibda amalga oshiriladi.

12-BOB. BYUDJET TASHKILOTLARI XARAJATLAR SMETASINI REJALASHTIRISH VA BYUDJETDAN MOLIYALASHTIRISHDAGI MOLIYAVIY NAZORAT

12.1. Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasining mohiyati va ahamiyati

Davlat byudjetidan xarajatlar tasdiqlangan byudjetdan ajratilgan mablag'lar doirasida va tashkilotlarning xarajatlar smetasida ko'rsatilgan maqsadlar uchun amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetasi - tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkilotlar uchun xarajatlar moddalari bo'yicha ko'zda tutilgan uchun byudjetdan ajratilgan mablag'lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot muassasalari, davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlari, huquqni muhofaza qilish organlari va ayrim boshqa muassasalar va tashkilotlar smeta tartibida moliyalanadi.

Xarajatlar smetasi asosida moliyalashning muhim tamoyili byudjet tashkilotlari tomonidan tarmoq, shtat va kontingent bo'yicha rejani bajarish darajasi hamda ilgari berilgan mablag'larning amaldagi foydalanilishi hisobga olingan holda ularga mablag'lar berilishi hisoblanadi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va xarajatlarni qoplash byudjetdan ajratilgan mablag'lardan tashqari boshqa daromad manbalari mavjud bo'lgan tashkilotlar ham byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalarni tuzadilar.

Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta - tashkilotlar tomonidan joriy moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan hujjat bo'lib, unda tashkil bo'lish manbalari va ushbu mablag'larning qonunchilikka muvofiq foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda

byudjetdan tashqari daromadlar tushumlarining prognoz hajmlari aks ettiriladi.

Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tayinlanishi va to'lovlarni aniq turlarini ifodalaydigan qismi xarajatlar moddasidir.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi - tashkilotlarning xarajatlar smetasi tasdiqlangunga va ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar amal qiluvchi hujjat bo'lib, unda byudjet tashkilotlari uchun ko'zda tutilgan, qonunchilikka o'zgartirishlarni hisobga olgan holda, har oyda avvalgi moliya yilining oxirgi choragidagi byudjetdan ajratiladigan mablag'larning uchdan bir qismidan ortiq bo'lmagan miqdorlardagi byudjetdan ajratilgan mablag'lar (xarajatlar rejasi) aks ettiriladi.



12.1-rasm. **Xarajatlar smetasining guruhlanishi**

Davlat byudjetidan mablag' oladigan tashkilotda tasdiqlangan xarajatlar smetasi, byudjetdan tashqari mablag'lar mavjud bo'lganda esa, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta bo'lishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Byudjet tashkilotlarini moliyalash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 1999 yil 3-sentabrdagi 414-sonli qarori bilan 2000-yil 1-yanvardan boshlab byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashning yangi tartibi amalga kiritilgan bo‘lib, u maxsus me’yoriy hujjatda mustahkamlab berilgan.

Byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashning yangi tartibi Davlat byudjeti hisobidan moliyalanadigan tarmoqlarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, byudjet tashkilotlarini moliyalash mexanizmini takomillashtirish, byudjet mablag‘laridan aniq belgilangan yo‘nalish bo‘yicha samarali foydalanish maqsadida o‘rnatilgan bo‘lib, quyidagilarni ko‘zda tutadi:

- byudjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish, byudjet mablag‘larini tejab, samarali va aniq belgilangan maqsadda ishlatilishi hamda byudjet intizomini mustahkamlash uchun mas’uliyatini oshirish;

- byudjet tashkilotlarini moliyalash mexanizmini soddalashtirish va mavjud mablag‘lardan foydalanishda eng ko‘p natijalarga erishish maqsadida ularni to‘g‘ri yo‘naltirish imkoniyatlarini yaratish;

- faoliyat turlariga qarab, normativlar bo‘yicha bir satr bilan moliyalash, chegaralangan ajratilgan mablag‘larni ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar uchun guruhlarga ajratib, ish haqi, kapital qo‘yilmalar va boshqa xarajatlar uchun hisoblab, byudjet tashkilotlarini moliyalashning yangi tartibini joriy etish;

- byudjetdan moliyalashni ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish va byudjet tashkilotlarining faoliyati yo‘nalishi bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizasiya qilish bilan birgalikda olib borish;

- byudjet tashkilotlari xodimlarining mehnatini rag‘batlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish va kadrlarni mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratish.

Byudjet tashkilotlarini moliyalash tegishli moliya yili uchun tasdiqlangan byudjet parametrlari hamda byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasiga muvofiq ravishda, byudjetni ijro etish jarayonida ro‘yxat va xarajatlar smetasiga kiritiladigan o‘zgartirishlarni hisobga olgan holda,

tuzilgan byudjet xarajatlarining yillik ro'yhatini choraklar bo'yicha taqsimlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Byudjet tashkilotlarini Davlat byudjeti hisobidan yangi tartibda moliyalash faoliyat yo'nalishi turlariga qarab, normativlar bo'yicha xarajatlarning quyidagi guruhlari bo'yicha bir satrda moliyalash usuli bilan amalga oshiriladi:

I. Ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa to'lovlar (bolali oilalarga beriladigan nafaqalar, kam ta'minlangan oilalarga - moddiy yordam, stipendiyalar va b.);

II. Ish haqiga hisoblab, yoziladigan xarajatlar;

III. Kapital qo'yilmalar (Davlat investision dasturida ko'zda tutilgan adres ro'yxatlarga muvofiq);

IV. Boshqa xarajatlar.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq birinchi navbatda byudjet tashkilotlarining I va II-guruhlar bo'yicha xarajatlari moliyalanadi. Bunda I guruh xarajatlarini, II-guruh bo'yicha tegishli mablag'larni ajratmasdan turib, amalga oshirish taqiqlanadi.

Respublika va mahalliy byudjetlardan I va II-guruhlar bo'yicha xarajatlarni moliyalash har oyda smetalar va xarajatlar ro'yhatiga muvofiq ravishda, ularga kiritilgan o'zgartirishlar hisobga olingan holda, amalga oshiriladi. Ayni vaqtda oldingi hisobot yili uchun belgilangan baholash ko'rsatkichlarining bajarilishi ham hisobga olinadi.

III-guruh xarajatlarini moliyalash byudjet tashkilotlari tomonidan joriy moliya yili uchun Respublika investitsion dasturida belgilangan limitlar doirasida amalga oshiriladi.

IV-guruh "Boshqa xarajatlar" bo'yicha belgilangan limitlar doirasida ajratilgan moliyaviy mablag'larni xarajat qilish quyidagi navbatga rioya etilgan holda amalga oshiriladi: 1) ovqatlanish; 2) dori-darmonlar; 3) kommunal xizmatlar; 4) boshqa xarajatlar.

Byudjet tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yoki uning hududiy moliya tashkilotlari bilan kelishuv bo'yicha IV guruh mablag'lari hisobidan mavsumiy va shoshilinch tadbirlar (birinchi sinf o'quvchilari uchun maktabga kerak narsalar, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun qishki kiyim sotib olish, epidemiyaga qarshi,

dezinfeksion va boshqa tadbirlar)ni moliyalash uchun operativ xarajatlar qilishi mumkin.

Ko'rib chiqilayotgan xarajatlar guruhi hisobidan avtomobillar va boshqa transport vositalari (maxsus transportdan tashqari), uyali telefonlar va boshqa predmetlar (import ofis mebeli, audio- va videotexnika[65]) sotib olishga faqat.

Xarajat guruhlari	Xarajat turi
I guruh	Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar
II guruh	Ish haqiga hisoblab yozilgan qo'shimchalar
III guruh	Kapital qo'yilmalar
IV guruh	Boshqa xarajatlar

12.2-rasm. **Xarajatlar smetasining guruhlari**

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holdagina yo'l qo'yiladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq byudjet tashkilotlari hisobvaraqlarida qolgan, tejalgan (foydalanilmagan) byudjet mablag'lari (kapital qo'yilmalarni moliyalash uchun ko'zda tutilgan mablag'lardan tashqari) hisobot choragi oxirgi ish kuni tugayotganida olib qo'yilmaydi. Ular Byudjet tashkilotini rivojlantirish fondi hisobiga o'tkaziladi va belgilangan tartibda sarflanadi. Byudjet tashkilotlarini keyingi chorakka moliyalash hajmi hisobot choragida tejalgan (foydalanilmagan) byudjet mablag'lari summasi miqdorida kamaytirilmaydi.

Tashkilotlar, agarda qonunchilikda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, mustaqil ravishda xarajatlar smetasini, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetani, shuningdek shtatlar jadvalini tasdiqlangan tashkiliy tuzilma, shtat birliklari, namunaviy shtatlar va byudjetdan moliyalashtirish me'yorlariga muvofiq ishlab chiqadilar va tasdiqlaydilar.

---

[65]O'quv, ilmiy va tibbiy jarayonlarda foydalaniladigan jihozlar va shu turdagi texnika vositalarilan tashqari.

Xarajatlar smetasiga O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli hokimiyatlar ularga berilgan tegishli huquq va vakolatlar doirasidagi qarorlari va farmoyishlarida ko‘zda tutilgan xarajatlar kiritiladi.

Xarajatlar smetasi va byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smeta bir yillik muddatga – 1-yanvardan 31 dekabrni ham qo‘shgan holda, mavsumiy yoki joriy yilda ishga tushiriladigan tashkilotlar bo‘yicha esa, ularning mazkur moliya yilidagi faoliyat ko‘rsatish muddatiga tuziladi va amal qiladi.

Agar kelgusi moliya yili uchun Davlat byudjeti yil boshlangunga qadar qabul qilinmagan bo‘lsa, u holda Davlat byudjeti qabul qilingunga qadar bo‘lgan davrda xarajatlar tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetasini, byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetani tuzishda mehnatga haq to‘lash miqdorlari va shartlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi va tariflari quyidagicha hisobga olinadi:

-mavsumiy tashkilotlar yoki joriy yilda ishga tushirilgan tashkilotlar bo‘yicha - ushbu tashkilotning faoliyat ko‘rsatishi boshlangan oyning birinchi sanasi holatiga;

-qolgan tashkilotlar bo‘yicha - mazkur smetalar tuzilayotgan tegishli yilning 1-yanvariga bo‘lgan amaldagi shartlarda.

Byudjet ijrosi jarayonida yuzaga keladigan barcha qo‘shimcha xarajatlarga tashkilotlarning xarajatlar smetalariga qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritib boriladi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi, byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha smetasi, vaqtinchalik xarajatlar smetasi, shuningdek shtatlar jadvali, qoida tariqasida, ming so‘mda tuziladi.

Xarajatlar smetasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhlari bo‘yicha, 4-guruh xarajatlarining to‘liq yoyilmasini va hisob-kitoblarni o‘z ichiga olgan holdagi ilova bilan birgalikda tuziladi.

Ilova xarajatlar smetasining ajralmas qismi bo‘lib, smetasining prognoz hisob-kitoblarini asoslaydi va hisobot tuzish maqsadida foydalaniladi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo‘yicha ishlarni tashkil etish davomida O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo‘limlari o‘zlariga bo‘ysunuvchi tashkilotlarga tegishli xalq deputatlari Kengashi sessiyasining byudjetni tuzish tartibi va muddati to‘g‘risidagi qaroridan va moliya organining ushbu masala bo‘yicha ko‘rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to‘g‘risida ko‘rsatmalar beradilar.

Buning uchun O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo‘limlari o‘zlariga qarashli tashkilotlarning rahbarlari hamda tegishli xodimlari kengashini chaqiradilar va xarajatlar smetasini tuzish tartibi va muddatlari to‘g‘risida yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadilar, ularga tashkilotlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga va ularga xarajatlar smetasini tuzish masalalari bo‘yicha qonunchilik talablarini tushuntiradilar, byudjet mablag‘lari bo‘yicha xarajatlar smetasi hisob-kitoblarini albatta qonunchilikka muvofiq kelishi, xarajat qilishda moliya intizomiga, iqtisod qilish tartibiga rioya qilish haqida ko‘rsatmalar beradilar, shuningdek xarajatlar smetasini tuzish hamda blankalarni to‘ldirish texnikasi masalalari bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatadilar.

Bir vaqtning o‘zida o‘zlariga qarashli tashkilotlarga ijtimoiy rivojlanishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida (sinflar, o‘quvchilar, bolalar, shifoxonalarda joy-kunlar, bola-kunlar soni va boshqalar) kelgusi yil uchun ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yozma ravishda xabar qiladilar.

Xarajatlar smetasi bo‘yicha xarajatlarni hisoblab chiqish mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojga muvofiq iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlarini va iqtisod qilishning qat’iy tartibini amalga oshirishni hisobga olgan holda amalga oshirilishi shart.

12.2. Xarajatlar smetasini tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayoni nazorati

Xarajatlar smetasini tuzishda quyidagilarga amal qilish kerak:

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, tegishli hokimiyatlarning ularga berilgan huquq va vakolatlar doirasida qabul qilingan qaror va farmoyishlariga;

- byudjet tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar me’yorlariga;

- tovar va xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflariga.

Jumladan:

-xarajatlar smetasiga ish haqi uchun mablag‘lar qonunchilik bilan belgilangan maoshlari va ish haqi stavkalari va ularga qo‘shimcha to‘lovlardan, amaldagi namunaviy shtatlar va me’yorlarga rioya qilishdan kelib chiqib kiritiladi. Ishbay usul bilan bajariladigan ishlar uchun ish haqi xarajatlar smetasiga byudjet yiliga xarajatlar smetasida ko‘zda tutilgan ish hajmlaridan kelib chiqib kiritiladi;

-pedagog xodimlar ish haqi uchun mablag‘larni ajratishda, qonunchilikda belgilangan ish haqi stavkalaridan va o‘quv rejasiga muvofiq daftar tekshirish, sinf rahbarligi va boshqalar uchun qo‘shimcha haq to‘lashni hisobga olgan holda tuzilgan tarifikasiyalardan kelib chiqilishi lozim;

-tibbiyot xodimlari ish haqi uchun mablag‘larni ajratishda, ish haqi stavkalari va qonunchilikka muvofiq mehnatga haq to‘lash shartlarini hisobga olgan holda tuzilgan tibbiyot xodimlari tarifikasiyalaridan kelib chiqilishi lozim;

-oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limda ta’lim oluvchilarni stipendiya xarajatlari belgilangan stipendiyalar miqdori va stipendiya ta’minoti tartibidan kelib chiqqan holda hisoblanadi;

-mehnatga haq to‘lash jamg‘armasidan yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lash xarajatlari xarajatlar smetasiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq belgilangan stavkalarda, qonunchilikka muvofiq yagona ijtimoiy to‘lov to‘lanadigan barcha to‘lov summalaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

-ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta mukofotini to‘lash xarajatlari xarajatlar smetasiga qonunchilikda belgilangan tartibda ish beruvchining barcha xodimlarining o‘tgan yilgi ish haqining haqiqiy xarajatlaridan kelib chiqqan holda kiritiladi;

-xo‘jalik xarajatlari, jumladan, kommunal xizmatlar uchun xarajatlar limitlar doirasida kommunal xizmatlar uchun baho va tariflarni hisobga olgan holda hisoblanadi;

-telefon va boshqa telekommunikasiya xizmatlari xarajatlari abonent raqamlari soni va xizmatlar uchun tasdiqlangan tariflaridan kelib chiqib hisoblanadi. Bunda, limitdan oshiq foydalanilgan shaharlararo (davlatlararo) so‘zlashuvlar uchun aloqa xizmatlari, internet bo‘yicha xizmatlar va boshqa aloqa xizmatlari xarajatlari byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasida tegishli moliya organlari bilan kelishilgan holda o‘zlarining faoliyat xususiyatlaridan va ushbu xizmatlarga bo‘lgan talabdan kelib chiqib ko‘zda tutiladi;

-davolash, bolalar va boshqa ijtimoiy soha muassasalarida ovqatlanishga ketadigan xarajatlar tashkilotlarning har bir turi uchun tasdiqlangan ovqatlanish kunining o‘rtacha yillik sonidan va natural me’yorlaridan kelib chiqib hisoblanadi;

-dori-darmonlarga ketadigan xarajatlar qonunchilikda belgilangan pul xarajatlari me’yoriga qarab:

-stasionarlarda - har bir joy-kunga, shifoxonalarda - shifokorga har bir kirishga belgilanadi;

-ijtimoiy-madaniy tashkilotlarni ayrim guruhi uchun kiyim-kechak, poyabzal, choyshab, yotish anjomlari va boshqa yumshoq buyumlar sotib olishga ketadigan xarajatlar, moddiy ta’minotning me’yorlari asosida, lekin ajratilgan mablag‘lar doirasida hisoblanadi;

-suv, o‘rmon xo‘jaligi va boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari

ularning bajarayotgan ish me'yori va hajmidan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

-inspeksiya va qo'riqlash faoliyati bilan bog'liq xizmatlar to'lovi xarajatlari tashkilotlar va ushbu xizmatlarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi shartnomaga muvofiq aniqlanadi;

-tashkilotlarning binolar, inshootlar va transport vositalaridan foydalanish, binolar va transport vositalari, shuningdek boshqa davlat mulklari ijarasi bilan bog'liq xarajatlari belgilangan limitlar va natural ko'rsatkichlardan kelib chiqib aniqlanadi;

-xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlar tashkilotlarning oldiga qo'yilgan vazifalaridan, shuningdek qonunchilikda belgilangan me'yorlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi;

-epizootik kasalliklarga qarshi tadbirlar va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga (chigirtkalar, tut parvonasi va boshqalar) qarshi kurashish bilan bog'liq xarajatlar prognoz ish hajmlari va kimyoviy preparatlarga bo'lgan ehtiyojlar, shuningdek bajariladigan ish turlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.[66]

Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlar, shuningdek Davlat byudjeti xarajatlarining iqtisodiy tasnifi bo'yicha boshqa xarajatlarni aniqlashda boshqa ko'rsatkichlar va uslublar qo'llanishi mumkin, ularning asoslanganligi xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazuvchi tegishli moliya organlari tomonidan tekshiriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan va tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh bo'linma sifatidagi byudjet tashkiloti) huzuridagi markazlashtirilgan buxgalteriyalar va tegishli hokimiyatlarning buxgalteriyalari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar bo'yicha quyidagi alohida hollarda jamlanma xarajatlar smetasi tuzilishi mumkin:

-bir turdagi kichik tashkilotlar bo'yicha - veterinar uchastkalar va punktlar hamda boshqa tashkilotlar bo'yicha;

-bir turdagi yirik tashkilotlar bo'yicha, qachonki ularga xo'jalik

---

[66]2014 yil 15 dekabrda 2634-sonli " Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'I oluvchilarning xarajatlar smetasi vashtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida NIZOMni tasdiqlash haqida" O'z. Res.Moliya vazirligining buyrug'i

xizmatlarini ko‘rsatish xo‘jalik xizmatlarni ko‘rsatuvchi maxsus guruhlar orqali markazlashtirilgan holda amalga oshirilsa;

-fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bo‘yicha;

-ozodlikdan mahrum etilgan joylardan qaytgan shaxslarga ijtimoiy moslashuv markazlari hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari bo‘yicha.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tashkil etilgan tegishli davlat boshqaruv organlari (bosh tashkilotlar) rahbarlari va tegishli hudud hokimlari (ular vakolat bergan mansabdor shaxslar) jamlanma xarajatlar smetasi bo‘yicha byudjetdan ajratilgan mablag‘larni taqsimlovchilar bo‘lib hisoblanadilar.

Jamlanma xarajatlar smetasi, xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotlarning rahbarlaridan olingan buyurtmalar asosida hamda markazlashtirilgan buxgalteriyada mavjud bo‘lgan hisob va hisobot, shuningdek iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga muvofiq markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuziladi.

Jamlanma xarajatlar smetasini tuzish uchun buyurtmalar hokimiyatlarning tegishli boshqarma va bo‘limlari tomonidan belgilangan shakllar yoki ko‘rsatkichlar ro‘yhati bo‘yicha xarajatlarning guruhlari bo‘yicha va ilovalarni hamda smetalarga qilingan hisob-kitoblarni ilova qilgan holda tashkilotlar tomonidan taqdim qilinadi.

Buyurtmalarda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

-isitish, yoritish, suv ta’minoti xarajatlarini hisoblash uchun zarur natural ko‘rsatkichlar;

- sotib olish uchun mo‘ljallangan asbob-uskunalar va jihozlar ro‘yhati;

- kapital va joriy ta’mirlash bo‘yicha asosiy ishlar ro‘yhati;

- o‘rmon xo‘jaligi tashkilotlarining bajaradigan ishlari hajmi;

- qonunchilikka muvofiq belgilangan kadastr yuritish bo‘yicha ishlar hajmi va boshqa ko‘rsatkichlar hisobi;

- bino va inshootlarni kapital ta’mirlash bo‘yicha manzilli ro‘yxatga kiritish uchun hisob-kitoblarning asoslanganligi;

- byudjetdan mablag‘lar ajratishni asoslash uchun boshqa kerakli hisob-kitoblar.

Tashkilotlar tomonidan berilgan buyurtmalar markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan tegishli tashkilotlarning vakillari ishtirokida oldindan ko‘rib chiqiladi hamda jamlanma xarajatlar smetasini tuzishda hisobga olinadi.[67]

Markazlashtirilgan buxgalteriya tomonidan tuzilgan jamlanma xarajatlar smetasining loyihalari tegishli tashkilotlar rahbarlari ishtirokida ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi uch nusxada tuzilib, tashkilotning rahbari yoki uning o‘rinbosari (birinchi imzo huquqiga ega shaxs), tashkilot bosh hisobchisi yoki uning o‘rinbosari (ikkinchi imzo huquqiga ega shaxs), shuningdek moliya-iqtisod bo‘limi boshlig‘i (shtatlar jadvaliga muvofiq moliya-iqtisod masalalari bo‘yicha mutaxassis) tomonidan imzolanadi hamda belgilangan tartibda moliya organida ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng:

birinchi nusxasi - tashkilotda qoladi;

ikkinchi nusxasi - tegishli moliya organiga taqdim qilinadi;

uchinchi nusxasi - yuqori tashkilotga taqdim qilinadi (zarur hollarda).

Tegishli moliya organlari xarajatlar smetasini chuqurroq o‘rganish maqsadida tashkilotlarning xarajatlar smetasini tuzish va ijro etishning istalgan bosqichida ularning qo‘shimcha hisob-kitoblarini talab qilishga haqli.

Markazlashtirilgan buxgalteriyalar tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotlarning xarajatlar smetasi tashkilotlar bilan markazlashtirilgan buxgalteriyalar bosh (katta) hisobchilari yoki iqtisodchilari ishtirokida tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo‘limlari markazlashtirilgan holda amalga oshiriladigan xarajatlar bo‘yicha ularning o‘zini saqlash uchun xarajatlar smetasidan tashqari tashkilotning markazlashtirilgan tadbirlari uchun xarajatlar smetasini tuzadilar. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston

[67]O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-raqam bilan ro‘yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag’lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibito‘g’risidagi Nizom"

Respublikasi vazirliklari, idoralari va hokimiyatlar boshqarmalari va bo'limlari tomonidan markazlashtirilgan holda bir necha tadbirlar (tizimdagi barcha tashkilotlar bo'yicha qo'riqlash xizmatini to'lash, xizmat kiyimini sotib olish, yagona axborot-kompyuter tizimiga xizmat ko'rsatish, seminarlar o'tkazish va boshqalar) bo'yicha xarajatlar amalga oshirilayotganda, xarajatlar smetasiga har bir to'lanadigan markazlashtirilgan tadbirlar bo'yicha hisob-kitoblar ilova qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari, bo'limlari va xarajatlar smetalarini tasdiqlash huquqiga ega bo'lgan boshqa tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ularga yetkazilgan ajratilgan mablag'lar hajmlari, belgilangan tartibda rejalashtirilgan yil uchun tasdiqlangan Davlat byudjeti parametrlari doirasida o'z qaramog'idagi tashkilotlarning kelib tushgan xarajatlar smetalarini sinchiklab ko'rib chiqishni ta'minlaydilar.

Tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan xarajatlar smetalari zarur hollarda tegishli tashkilotlarning rahbarlari ishtirokida ko'rib chiqiladi. Bunda, xarajatlar smetalarini ko'rib chiquvchi tashkilotlar quyidagilarga majbur:

-qonunchilik talablariga, shuningdek kelgusi yil smetalarini tuzish bo'yicha ko'rsatmalarga qat'iy amal qilishni ta'minlash;

-iqtisod qilish tartibiga amal qilgan holda xarajatlar smetalarida talab etilmaydigan tadbirlar uchun mablag'lar ajratishga yo'l qo'ymaslik;

-alohida tadbirlarni o'tkazish muddatlari va ularni moliyalashtirish imkonini ta'minlashni hisobga olgan holda xarajatlar smetasi bo'yicha ajratilgan mablag'larni chorak (oy)larga taqsimlashni ta'minlash;

-hisob-kitoblar va asoslantirishlar bilan tasdiqlanmagan summalarni xarajatlar smetalarida qabul qilishga yo'l qo'ymaslik.

Agar tashkilotlarning xarajatlar smetalarini ko'rib chiqish natijasida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirligi, idorasi bo'yicha, hokimiyatning boshqarma, bo'limi bo'yicha jami xarajatlar summasi yoki ish haqi, ish haqiga ajratmalar, kapital

qo‘yilmalar va xarajatlarning boshqa turlari bo‘yicha xarajatlar summasi qabul qilingan byudjet va tegishli moliya organlari tomonidan ularga yetkazilganiga nisbatan ortiq bo‘lsa, vazirlik, idora, hokimiyatning boshqarma va bo‘limi rahbari alohida tashkilotlarning xarajatlar smetalari bo‘yicha xarajatlarini qisqartirishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari taqdim etilgan materiallarni jamlangan xarajatlar smetasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tasdiqlanayotganda belgilanadigan umumiy xarajatlar hajmiga, belgilangan ish haqi, ish beruvchining ajratmalari, kapital qo‘yilmalar va boshqa xarajatlar turlari bo‘yicha amal qilinganligini, shuningdek Davlat byudjetini tuzish bo‘yicha qonunchilik talablarining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiradilar.



12.3-rasm. **Xarajatlar smetalarini ko‘rib chiquvchi tashkilotlarning majburiyatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar tasdiqlanganidan keyin, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari tashkilotlarga ularning umumlashtirilgan smetalari bo‘yicha choraklar kesimidagi taqsimotini, shuningdek ish haqiga, ish beruvchilarning ajratmalariga, kapital qo‘yilmalarga va boshqa xarajatlar summasiga byudjetda belgilangan eng yuqori miqdorlarini ajratib ko‘rsatgan holda xabar beradilar.

Shahar moliya bo‘limlari bundan tashqari shaharga bo‘ysunadigan tuman hokimiyatlarining bo‘limlariga, yuqorida ko‘rsatilgan xarajatlarni Xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyasi tomonidan tasdiqlangan ularning byudjetlari hajmlari doirasida ajratib ko‘rsatib, xabar qiladilar.

Xarajatlar smetasini tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining yoki tegishli viloyatlar, shaharlar, tumanlar Xalq deputatlari kengashlari sessiyalarining byudjet haqidagi qarori qabul qilingan kundan boshlab ikki hafta muddat ichida (agar boshqa muddat belgilanmagan bo‘lsa) va tegishli byudjetlarda turuvchi tashkilotlar uchun xarajatlar tasnifi moddalari bo‘yicha bo‘lingan holda amalga oshiriladi hamda smetalarni tasdiqlagan tashkilot rahbari (yoki rahbar o‘rinbosari) imzosi bilan, tasdiqlangan kuni ko‘rsatilgan holda, shuningdek ushbu tashkilotning muhri smetaning barcha nusxalariga bosilib, bir paytning o‘zida xarajatlar smetasi bo‘yicha umumiy summasini yuqori o‘ng burchagida shtatdagi xodimlarning mehnatga haq to‘lash jamg‘armasining umumiy summasini ajratib ko‘rsatgan holda rasmiylashtiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari tomonidan umumlashtirilgan xarajatlarni va alohida xarajatlar smetalarini tasdiqlangan byudjetga, shuningdek byudjetni tuzish bo‘yicha qonun hujjatlariga muvofiq kelishi tekshirib ko‘riladi.

Alohida va umumiy xarajatlar smetalarining bir nusxasi vazirliklar, idoralar, tegishli hokimiyatlarning boshqarmalari va bo‘limlarida qat’iy hisob hujjatlari tariqasida saqlanadi.

Vaqtinchalik xarajatlar smetasi xarajatlar smetasi tasdiqlangunga qadar amalda bo‘ladi, bunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan

xarajatlar smetasidagi birinchi chorak uchun xarajatlar summasi tashkilotlarning vaqtinchalik xarajatlar smetasida ko‘zda tutilgan xarajatlar summasidan kam bo‘lishi mumkin emas.

12.3. Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining tasdiqlanishi hamda ro‘yxatdan o‘tkazishning rasmiylashtirilishini to‘g‘riligini tekshirish

Yuqori tashkilot moliya organiga xarajatlar guruhlari bo‘yicha xarajatlar yig‘ma smetasini, xarajatlarning to‘liq yoyilmasini va xarajatlar smetasiga hisob-kitoblarni ilova qilgan holda, shuningdek qaramog‘idagi barcha tashkilotlar bo‘yicha esa, ro‘yxatdan o‘tkazish uchun quyidagi hujjatlarni ham taqdim etadi:

-Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarining tasnifiga muvofiq xarajatlar guruhlari bo‘yicha xarajatlar yoyilmasini ilova qilgan holda xarajatlar smetasini;

-xarajatlar smetasining barcha moddalari bo‘yicha hisob-kitoblarni;

-byudjet hisobidan saqlanuvchi lavozim va tarif stavkalari bo‘yicha shtatlar jadvalini.

O‘zining tarkibida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan bo‘linmalarga ega bo‘lgan tashkilotlar ularning ro‘yhatini joylashgan joyi, xodimlar sonini tasdiqlangan shtat xodimlari miqdoridan chiqmagan holda taqdim etadi.

Yuqori tashkilot tomonidan taqdim etilgan xarajatlar smetalarini va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish paytida moliya organlari quyidagilarni tekshirishi lozim:

byudjet tashkilotlari xodimlariga ish haqi to‘lovi uchun xarajatlar smetasi bo‘yicha tasdiqlangan summalarining shtatlar jadvali (bunda, xarajatlar smetasidagi ish haqi jamg‘armasi, xodimlar to‘liq to‘ldirilmaganligi tufayli mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi bo‘yicha tejab qolingan mablag‘lar summasiga shtatlar jadvalidagidan kam miqdorda tasdiqlanishi mumkinligini ko‘zda tutish lozim) bo‘yicha tasdiqlangan ish haqi summalariga muvofiqligi;

• ro‘yxatdan o‘tkazish uchun taqdim etilgan shtatlar jadvalini belgilangan namunaviy shtatlar jadvali va shtatlar normativlariga muvofiqligi;

• shtatlar jadvalida belgilangan lavozimlar bo‘yicha maoshlar hamda ularga qo‘shimchalarning to‘g‘ri belgilanganligi;

• byudjet tashkilotlari va muassasalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maxsus jamg‘armasining to‘g‘ri tashkil qilinishi;

• umumta’lim, o‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining Direktor jamg‘armasi to‘g‘ri tashkil qilinishi;

• xarajatlar smetasi bo‘yicha tasdiqlangan stipendiyalar uchun xarajatlar summasini xarajatlar smetasi bo‘yicha hisob-kitoblarga muvofiqligi;

• “Boshqa xarajatlar” guruhi xarajatlari summasining xarajatlar smetasida tasdiqlangan summasiga muvofiqligi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtida moliya organlari o‘z vakolatlari doirasida ortiqcha shtatlarni yo‘qotishlari lozim. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyingina ro‘yxatdan o‘tkazishni amalga oshirish lozim.

Yangidan tashkil qilinayotgan (jumladan, qayta tashkil etish natijasida) tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish ushbu tashkilotlarni belgilangan tartibda tashkil qilinishi to‘g‘risidagi tegishli qaror ko‘rsatilganidan so‘ng amalga oshiriladi.

Yangidan tashkil qilinayotgan mahalliy tasarrufdagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish mazkur tashkilotlarning belgilangan tartibda tashkil qilinishi to‘g‘risidagi tasdiqlovchi hujjatlar ko‘rsatilganidan so‘ng amalga oshiriladi.

Tashkilotlar xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro‘yxatdan o‘tkazish kartochkasini berish yo‘li bilan rasmiylashtiriladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish kartochkasi yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tashkilotlarga beriladi.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan, boshqa tashkilotning tuzilmaviy bo‘linmasi bo‘lgan tuzilmalar o‘zlari qarashli bo‘lgan

tashkilotlar bilan birga bitta ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi bo'yicha ro'yxatdan o'tkaziladi.

Bunda, zarur hollarda ro'yxatdan o'tkazish kartochkasida shtatlar bo'yicha ko'rsatkichlar tashkilotlar va ularning tuzilmalari bo'yicha alohida beriladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi hujjatlar (ro'yxatdan o'tkazish kartochkalari, smetalar va shtatlar jadvali) quyidagi tarzda: smetalar va shtatlar jadvali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida ro'yxatdan o'tkaziladigan tashkilotlar bo'yicha - moliya vazirining o'rinbosari, sohalarni moliyalashtiruvchi boshqarma va bo'lim boshliqlari tomonidan, hududiy moliya organlarida - moliya organlari boshliqlari (mudirlari) yoki ularning o'rinbosarlari hamda moliya organlari byudjet bo'limlari boshliqlari tomonidan imzolanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlarida turuvchi xalq ta'limi muassasalari (tashkilotlari) bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish haqidagi hujjatlar moliya organi boshlig'ining (mudirining) o'rinbosari - xalq ta'limi muassasalarini moliyalashtirish bo'limi boshlig'i va moliya organi byudjet bo'limining tegishli mutaxassisi tomonidan imzolanadi.

Ishlatilmay qolgan joriy yilning o'tgan oy (chorak) rejadagi ajratilgan mablag'lar qoldig'i joriy yilning keyingi oyi (choragi)ga xarajatlar smetasiga o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazilmasdan amalga oshiriladi.

Tashkilotlar boshqa shahar yoki tumandan belgilangan tartibda o'tkazilgan holda yuqori tashkilotlar rahbarlari o'n kunlik muddatda yangi joylashgan joydagi moliya organiga avval ro'yxatdan o'tkazilgan smeta, shtatlar jadvali va ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini taqdim etishlari lozim.

Bir vaqtning o'zida moliya organi tashkilotlarni saqlash xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha ma'lumotlarni oldingi ro'yxatdan o'tkazish joyidagi moliya organidan talab qiladi hamda mazkur ma'lumotlar olinganidan so'ng Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali hisobining jurnaliga "hisobga qabul qilindi" deb yozadi. Bunda, ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi tegishli o'zgartirishlar bilan yangisiga almashtiriladi.

Tashkilotlar rahbarlarining xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish masalalari bo'yicha arizalari mazkur hujjatlar ro'yxatdan o'tkazilgan hududiy moliya organining rahbari tomonidan o'n kunlik muddatda ko'rib chiqiladi.

Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazgan hududiy moliya organining qarori bo'yicha norozilik to'g'risidagi arizalar yuqori moliya organida ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining o'rinbosari qarori bo'yicha norozilik to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri tomonidan ko'rib chiqiladi.

Byudjet intizomiga rioya qilinishining nazorat etilishini ta'minlash maqsadida, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng bir haftalik muddatda byudjetdan moliyalashtiriladigan vazirliklar va idoralarning rahbarlari tomonidan vazirliklar va idoralarda, shuningdek ularga bo'ysunuvchi tashkilotlarda byudjet intizomiga rioya etilishini ta'minlovchi buyruqlar chiqariladi. Buyruqlarda quyidagilar tartibga solinadi:

-byudjet intizomiga rioya qilish, xarajatlarni tasdiqlangan mablag'lar doirasida amalga oshirish;

-bo'ysunuvchi tashkilotlar rahbarlarining quyidagilar bo'yicha majburiyatlari:

-byudjet intizomiga rioya qilinishi nazoratini tashkil qilish va amalga oshirish;

-byudjetga keltirilgan zararni qoplash bo'yicha choralarni qo'llash;

-byudjet intizomini buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish.

Kommunal xizmatlar (issiqlik va elektr energiyasi, gaz, issiq va sovuq suv, kanalizasiya) bo'yicha tashkilotlar uchun belgilangan pul va naturadagi limitlarga rioya qilishni ta'minlash maqsadida buyruqlarda, shuningdek quyidagilarga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar ko'rsatiladi:

-kommunal xizmatlar iste'mol qilish limitlarini tasarruflaridagi tashkilotlarga yetkazish;

-belgilangan limitlar doirasida kommunal xizmatlar ta'minotchilari bilan shartnomalar tuzishni ta'minlash;

-kommunal xizmatlar iste'moli hisobini o'lchagich asboblarini o'rnatish va ularning ishlashi ustidan nazorat o'rnatish;

-belgilangan limitlardan ortiqcha xarajatga yo'l qo'ygan quyi tashkilotlarning bosh hisobchilari va rahbarlarini javobgarlikka tortish yuzasidan choralar ko'rish;

-kommunal xizmatlar ta'minotchilarini, shartnomalarda ko'rsatilgan hajmlardan va mablag'lardan ortiqcha xizmat ko'rsatayotgan xizmatlar uchun haq to'lanmasligi to'g'risida ogohlantirish;

-ko'rsatilgan buyruqlarni bajarish.[68]

Buyruq chiqarilgandan so'ng uch kun muddat ichida uning bir nusxasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etiladi.

Buyruqlar bilan quyidagilar bir haftalik muddat ichida imzo qo'ydirib tanishtiriladilar:

-byudjetdan moliyalashtiriladigan vazirliklar va idoralar rahbarlarining o'rinbosarlari;

-ushbu vazirliklar va idoralarning reja-iqtisod xizmatlari xodimlari;

-byudjet mablag'larining sarflanishiga mas'ul bo'lgan boshqa xodimlar;

-quyi tashkilotlarning rahbarlari va bosh hisobchilari.

Har yili birinchi chorakda moliya organlari barcha tashkilotlarining xarajatlar smetasi (byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smeta va vaqtinchalik xarajatlar smetasi)ning tuzilishi, tasdiqlanishining to'g'riligini va o'z vaqtida yetkazilishini tekshirishdan o'tkazishi, hududiy moliya organlari tomonidan mazkur ishlarning o'z vaqtida va sifatli olib borilganligini tizimli nazorat qilishi, tekshiruvlarni tashkillashtirishda va o'tkazishda ularga zarur yordamlarni ko'rsatishi lozim.

Tekshirish tasdiqlangan dasturga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan tekshirishlarni o'tkazishda quyidagilar zarur:

- smeta-moliya hujjatlarini, bunda byudjet mablag'laridan qonunchilikka va byudjet mablag'larining tejamli yo'naltirilishiga qat'iy

[68]O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2014-yil 15-dekabrda 2634-raqam bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom"

rioya etilishiga erishgan holda, chuqur tahlil qilishni va har tomonlama o'rganishni amalga oshirish;

-O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari, idoralari, hokimiyatlarning tegishli boshqarmalari va bo'limlarida xarajatlar smetasini ko'rib chiqish, tasdiqlash va o'z vaqtida tashkilotlarga yetkazish bo'yicha ishlarni to'g'ri tashkillashtirishga erishish;

- daromadlarning to'liq hisobi, pul mablag'larining o'tuvchi qoldiqlari, bu mablag'lardan tejamli va samarali foydalanishni inobatga olgan holda, byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasining tuzilishining qonuniyligi va rejalashtirishning asoslanganligini e'tiborga olish;

- smetani rejalashtirishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishda tezkor holda chora-tadbirlarni qo'llash, smeta xarajatlari bo'yicha aniqlangan ortiqcha ajratilgan mablag'lar summasini bu haqda tashkilot rahbariga xabar bergan holda o'z vaqtida byudjetdan moliyalashtirish miqdorini qisqartirish.

O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirliklari va idoralari, hokimiyatning boshqarmalari va bo'limlarida smetani rejalashtirish holatini tekshirish natijalari bo'yicha zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, tegishli hokimiyatlarga axborot berilishi, qoida buzilishlarni yo'qotish bo'yicha takliflar berilishi va aniqlangan ortiqcha ajratilgan mablag'lar summasini xarajatlar smetasi bo'yicha tayinlash kamaytirilishi mumkin.

Tashkilotlarning smeta xarajatlarining to'g'ri tuzilishi, tasdiqlanishi va o'z vaqtida yetkazilishi bo'yicha tekshirish natijalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlarida muntazam umumlashtiradi va ko'rib chiqiladi hamda ushbu ishlarni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinadi.

Tashkilotlarning smeta ijrosi bevosita ushbu tashkilot rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Byudjet mablag'laridan tasdiqlanmagan xarajatlar smetasi, xarajatlar smetasida ko'zda tutilmagan tadbirlar, shuningdek byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetada yoki

umumlashgan smeta va alohida xarajatlar smetasida tayinlanganidan ortiq summalarda xarajat qilish taqiqlanadi.

Vazirliklar va idoralar rahbarlari, shuningdek ular tasarrufidagi tashkilotlar byudjet mablag'lari xarajatlari hisobi va hisobotini yuritishining belgilangan tartibi, byudjet intizomiga rioya etilishiga shaxsan javobgardirlar.

Ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim qilingan xarajatlar smetasiga hisob-kitoblarda ko'rsatilgan tashkilotlarning ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (maydoni, hajmi, sarflanayotgan kommunal xizmatlari bo'yicha tabiiy ko'rsatkichlar hajmi hamda ular bo'yicha xarajatlarning tasdiqlangan xarajatlar smetasiga va pasport ma'lumotiga, shartnomalar va boshqalarga mosligi)ning to'g'riligi va asoslanganligi uchun tashkilotlarning rahbarlari va bosh hisobchilari, moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i (shtatlar jadvaliga muvofiq moliya-iqtisod masalalari bo'yicha mutaxassis) shaxsan javob beradilar.

Moliya organlarining javobgar xodimlari tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali ro'yxatdan to'g'ri o'tkazilganligi uchun javobgar bo'ladilar.

12.4. Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari manbalarining shakllanishi, mablag'larning ishlatilishi yuzasidan nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil qilish

O'zbekiston Respublikasi byudjet tashkilotlarida byujdet va byudjetdan tashqari mablag'lar moliyaviy nazorati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining moliya boshqarmalari, nazorat-taftish boshqarmalari va g'aznachilik bo'linmalari tomonidan qonunchilikda belgilangan muddat va tartibda amalga oshiriladi.

Tegishli moliya organlari tashkilotlarning xarajatlar smetasini chuqur o'rganish maqsadida byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasini, byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning jamlanma xarajatlar smetasini tuzish va ijro etishning istalgan bosqichida qo'shimcha hisob-kitoblarini talab qilishga haqli.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazishda moliya organlari ortiqcha shtatlarni chiqarib tashlashlari lozim. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilganidan keyingina ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirish lozim.

Yangidan tashkil etilayotgan jumladan, qayta tashkil etish natijasida tashkil qilingan tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ro'yxatdan o'tkazish mazkur tashkilotlarni belgilangan tartibda tashkil qilinishi to'g'risidagi tegishli qaror ko'rsatilganidan so'ng amalga oshiriladi.



12.4-rasm. **Byudjet tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari**

Byudjet tashkilotlari yoki byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ro'yxatga olish ro'yxatdan o'tkazish kartochkasini berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

Harajatlar smetasi hamda shtat jadvallari, shuningdek jamlanma xarajatlar smetasi, jamlanma daromadlar va xarajatlar smetasi va jamlanma shtat jadvallari quyidagi tarzda:

-smetalar va shtat jadvallari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida ro'yxatdan o'tkaziladigan tashkilotlar bo'yicha — moliya

vazirining o‘rinbosari, sohalarni moliyalashtiruvchi boshqarma va bo‘lim boshliqlari tomonidan;

-hududiy moliya organlarida — Qoraqalpog‘iston Respublikasi moliya vaziri yoki uning o‘rinbosari, moliya organlari boshliqlari (mudirlari) yoki ularning o‘rinbosarlari hamda moliya organlari byudjet bo‘limlari va moliya organlarining tegishli (bo‘limlari) sektorlari boshliqlari tomonidan imzolanadi.

Tashkilotlarning xarajatlar smetasining to‘g‘ri tuzilishi, tasdiqlanishi va o‘z vaqtida yetkazilishi bo‘yicha tekshirish natijalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari, idoralarida muntazam umumlashtiriladi va ko‘rib chiqiladi hamda mazkur ishlarni yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinadi.

Ma’lumki, davlat moliyaviy nazoratining dastlabki, joriy va so‘nggi nazorat shakllari mavjud.

Davlat byudjeti g‘azna ijrosining joriy etilishi bilan dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish Moliya vazirligi tizimidagi hududiy va mahalliy moliya organlari bilan bir qatorda, g‘aznachilik organlariga ham yuklatiladi.

Dastlabki va joriy moliyaviy nazoratni amalga oshirish byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag‘ oluvchilar majburiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi.

G‘aznachilikda ikki turdagi majburiyat amal qiladi: *yuridik majburiyat va moliyaviy majburiyat.*

Yuridik majburiyat byudjetdan mablag‘ oluvchilar va ularga mol (tovarlar, ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi shartnoma tegishli tartibda majburiy ravishda G‘aznachilikda ro‘yxatdan o‘tkazilganidan keyin vujudga keladi.

Yuridik majburiyatlarni tegishli G‘aznachilik organlarida majburiy ravishda ro‘yxatga olishdan ko‘zlangan asosiy maqsad - byudjet nazoratining samaradorligini yanada oshirish, shartnomalarda nazarda

tutilgan xarajatlarning tasdiqlangan rejadan (xarajatlar smetasi ko'rsatkichlaridan) ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik.

Moliyaviy majburiyatlar– byudjet tashkilotlarida va byudjetdan mablag' oluvchilarda ularga pul mablag'larini o'tkazib berish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar bo'lib, ular qabul qilingan yuridik majburiyatlar va xarajatlarni to'lash uchun berilgan ruxsatnomalar doirasida hisobvaraq-fakturalari hamda moliyaviy majburiyatlar mavjudligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar asosida g'aznachilik bo'linmalari tomonidan qabul qilinadi hamda ro'yxatdan o'tkaziladi.[69]

Byudjet tashkiloti kontragentdan tovarlar sotib olish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) to'g'risida ofertani (taklifni) qabul qilganidan so'ng, shartnomani aktseptlaydi (imzolaydi) va G'aznachilikka ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etadi. Yuridik majburiyat vujudga kelishi uchun bu shartnomaning ro'yxatdan o'tkazilishi talab qilinadi

Byudjetdan mablag' oluvchilar va mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalar g'aznachilik bo'linmalariga quyidagi talablarga rioya qilingan holda taqdim qilinadi:

–byudjetdan mablag' oluvchilarning mahsulot etkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari majburiy tartibda ularning yuridik xizmatlari (shartnoma asosida jalb qilingan advokatlar) tomonidan qonun hujjatlariga muvofiqligiga tekshirilgan bo'lishi zarur. Agar taqdim etilayotgan shartnomaning summasi qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 200 baravari miqdoridan oshmasa, shartnomalarga tomonlarning yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar imzosi qo'yiladi. Agar shartnoma summasi, qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining 200 baravaridan ortiq bo'lsa, tomonlar yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlarning xulosasi ilova qilinishi lozim;

–umumiy summasi 100 ming AQSh dollariga teng miqdordan kam bo'lgan shartnomalarni mahsulot yetkazib beruvchini tanlash bo'yicha o'tkazilgan eng yaxshi konkurs takliflarini tanlab olish hujjatlari ilova

[69] O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 123-modda

qilingan holda taqdim qilinadi. Bunda, konkurs takliflari tanlovini o'tkazish, mahsulot yetkazib beruvchini tanlash bo'yicha kamida ikkita konkurs taklifi bo'lganda, qonunchilikda nazarda tutilgan hollardan tashqari, konkurs takliflarini ko'rib chiqish asosida konkurs takliflari tanlovi bayonnomasini rasmiylashtirish asosida amalga oshiriladi;

–shartnoma summasi 100 ming AQSh dollariga teng bo'lgan miqdoridan ortiq bo'lganda, qonunchilikka muvofiq o'tkazilgan tender savdolari bo'yicha hujjatlarni shartnomaga ilova qilgan holda taqdim qilinadi;

–shartnomalar mahsulot yetkazib beruvchi va buyurtmachi (byudjetdan mablag' oluvchilar) tomonidan imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan imzolangan bo'lishi va ikki tomonning muhrlari bilan tasdiqlangan bo'lishi shart;

–buyurtmachi (byudjetdan mablag' oluvchilar)ning rekvizitlarida, shuningdek buyurtmachi (byudjetdan mablag' oluvchi)ning xarajatlari to'lovi amalga oshiriladigan tegishli g'azna hisobvarag'i ham ko'rsatiladi;

–shartnomani ro'yxatga olish uchun byudjetdan mablag' oluvchi g'aznachilik bo'linmasiga shartnomaning ikki asl nusxasini va bitta ko'chirma nusxasini taqdim qiladi. Shartnomalarga 1-ilovadagi shaklga muvofiq to'lovlar jadvali ilova qilinishi hamda barcha o'rnatilgan talablarga rioya qilish shart;

–byudjetdan mablag' oluvchilar shartnomalarni g'aznachilik bo'linmalariga ro'yxatga olish uchun ular tuzilgandan so'ng 20 ish kuni mobaynida, biroq joriy moliya yilining 25 dekabridan kechikmasdan taqdim etishlari lozim, byudjetdan mablag' oluvchi tomonidan shartnomalar tuzilib, 20 ish kuni o'tgandan so'ng taqdim qilingan hollarda, shartnoma byudjetdan mablag' oluvchiga G'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olinmasdan qaytariladi.

G'aznachilik bo'linmasi byudjetdan mablag' oluvchi tomonidan shartnoma taqdim etilgan kundan boshlab uch ish kuni davomida quyidagilarni tekshiradi:

– shartnomada ko‘rsatilgan summani to‘lash uchun byudjetdan mablag‘ oluvchining xarajatlar smetasida nazarda tutilgan byudjet mablag‘larining mavjudligi;

– qonunchilikka muvofiq yuridik xizmat yoki jalb qilingan advokatlarning imzolari, yuridik xulosalarining mavjudligi va haqqoniyligi;

– tomonlarning zarur bank rekvizitlari, muhri va imzolarining mavjudligi;

– tovar (ish, xizmat)larning yetkazib berish jadvali, qurilish pudrat shartnomalari bo‘yicha qurilish obyekti jadvalining mavjudligi va b.

G‘aznachilik bo‘linmalari shartnomalarni mas’ul xodim tomonidan shartnomaning birinchi va ikkinchi asl nusxalari va ko‘chirma nusxasining barcha varaqlariga “Ro‘yxatga olingan” shtampini qo‘yish va ro‘yxatga olingan raqami va sanasi ko‘rsatilib, ularni G‘aznachilik bo‘linmasining vakolatli shaxsi imzosi va G‘aznachilik bo‘linmasining muhri bilan tasdiqlash orqali ro‘yxatga oladi.

G‘aznachilikda yuridik majburiyat vujudga kelishidan avval dastlabki nazoratni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu *narxlar monitoringi* orqali ta’minlanadi.

Bunda byudjet tashkiloti sotib olmoqchi bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi muqobil yetkazib beruvchilar narxlari bilan taqqoslanadi. Muqobil yetkazib beruvchilar to‘g‘risida ma’lumot to‘plashning turli usullari mavjud. Masalan:

–tovar xomashyo birjalari ma’lumotlaridan foydalanish;

–bozorlardan ma’lumotnomalar olish;

–raqobatchi tashkilotlardan tijorat takliflari olish;

–ommaviy axborot vositalari va ixtisoslashtirilgan reklama nashrlaridagi ma’lumotlarni umumlashtirish.

Xo‘jalik shartnomasini ro‘yxatdan o‘tkazish chog‘ida har bir shartnomaga bir nechta (kamida 2ta) yetkazib beruvchining tijorat taklifi ilova qilinishi, bunda har bir yetkazib beruvchining rekvizitlari (nomi, manzili, telefon raqamlari, rahbari to‘g‘risidagi ma’lumotlari) aniq

ko‘rsatilishi, yetkazib beruvchilar shu sohada uzoq yillik ish tajribasiga ega bo‘lgan, yuqori mavqeli korxonalar bo‘lishi tavsiya etiladi.

O‘zbekistonda ishlab chiqariluvchi tovarlar vositachilarsiz, aynan ishlab chiqaruvchining o‘zidan sotib olinishi, chetdan keltiriluvchi tovarlar esa bevosita importyordan sotib olinishi narxlarning asossiz o‘sishining oldini oladi.

Moliyaviy majburiyatning yuzaga kelishi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishini talab etadi. Masalan, tovarlar yetkazib berilganligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lgan *schet-fakturalar,* ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko‘rsatilganligini tasdiqlovchi *qabul qilib olish-topshirish dalolatnomalari*, *ish haqi qaydnomalari* (vedomostlar) va boshqa shu kabi hujjatlar. Mazkur hujjatlar tegishli vakolatga ega bo‘lgan mas’ul shaxslar tomonidan imzolanishi va tashkilot muhri bilan tasdiqlanishi shart. Amaldagi qonunchilik talablariga ko‘ra, byudjet tashkilotlari oldindan kamida 15 foiz to‘lovni amalga oshirishlari talab qilinadi Moliyaviy majburiyatlar, ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar, shuningdek sud qarorlari bo‘yicha to‘lovlar, yig‘imlar, badallar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan tashqari, oldin tuzilgan shartnomalar va yuridik majburiyatlar qabul qilinganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar doirasida qabul qilinadi.

Tegishli byudjet bo‘yicha I va II guruh xarajatlari to‘lovi uchun g‘azna hisobvaraqlarida zarur mablag‘larni qoplaydigan qoldiqlar mavjud bo‘lganda, I va II guruh xarajatlarini to‘liq amalga oshirgan tashkilotlar bo‘yicha IV guruh xarajatlarini amalga oshirishga ruxsat etiladi.

Byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlari uchun to‘lovlar, Davlat byudjetining g‘azna ijrosi Qoidalarida (2007-sonli) ko‘zda tutilgan tartib asosida quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

-to‘lov topshiriqnomasida byudjet tasnifining tegishli kodlari, shartnoma, hisobvaraq-faktura, avans miqdori va boshqa kerakli rekvizitlar to‘g‘ri ko‘rsatilganda;

-qurilishlarning tasdiqlangan manzilli va titul ro'yxatlari asosida va tegishli obyektlar bo'yicha shaxsiy g'azna hisobvaraqlaridagi mavjud ajratilgan byudjet mablag'lari summalari doirasida bo'lganda;

-agar to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan summa g'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan shartnomaga asosan, oldin o'tkazilgan mablag'larni hisobga olgan holda, to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'laridan oshmaganda;

-buyurtmachining pudratchi oldidagi kreditorlik qarzining mavjudligini tasdiqlovchi hisobvaraq-faktura va hujjatlar, yoki buyurtmachining pudratchiga avans to'lovlarini o'tkazishi lozimligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda;

-to'lov topshiriqnomasida ko'rsatilgan pudratchining nomi va rekvizitlari shartnomada ko'rsatilgan pudratchining nomi hamda rekvizitlariga muvofiq bo'lganda.

13-BOB. BYUDJET TASHKILOTLARI MOLIYA-XO'JALIK FAOLIYATIDA NAZORATNING AHAMIYATI

13.1. Nazorat-taftish - moliya organlari nazorat-iqtisodiy ishlarining asosiy usuli sifatida

Nazorat-taftish moliyaviy nazoratni o'zining maqsadi va obyektlari nuqtai nazaridan ham, moliya intizomini samarali ta'minlay olishi jihatidan ham eng muhim nazorat usuli hisoblanadi. Nazorat-taftish – korxona, tashkilot va muassasalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining, shuningdek moliya organlarining byudjetni tuzish va ijro etish bo'yicha ishlarining o'zaro bog'langan tekshiruvlari majmuidir

Qonunchilikda taftishning huquqiy maqomi mustahkamlab qo'yilgan. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining davlat nazorati to'g'risidagi qonuniga muvofiq taftish xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya va soliq masalalari bo'yicha qonunchilikka rioya etishlari, soliq organlari, davlat statistika organlari va banklarga taqdim etiladigan hisob yuritish va hisobotlari to'g'riligini nazorat etish maqsadida ularning buxgalteriya, moliyaviy va boshqa hujjatlarini tekshirishdan iboratdir.

Taftish yordamida davlat va xo'jalik organlari moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan to'liq foydalanganlik to'g'risida, taftish qilinayotgan korxona faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlari to'g'risida ishonchli ma'lumot oladi, bu esa o'z navbatida operativ va to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga olib keladi. Taftishning ahamiyati xo'jalik faoliyatini yuritishning ijobiy tajribalarini umumlashtirish va targ'ib qilishda, qonunbuzarlik va suiste'molliklarning oldini olishda, byudjet- soliq intizomini tartibga solishda, moliyaviy huquqning anglash hissi paydo bo'lishiga ko'maklashishda ham namoyon bo'ladi

Taftishlarni o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013 yil 27 sentyabrdagi 137-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-

taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy nazorat-taftish boshqarmalari tomonidan taftish va tekshirishlarni o'tkazish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomasi" bilan tartibga solinadi. Ushbu me'yoriy hujjat taftishlarning maqsad va vazifalari, ularni tashkil etish va o'tkazish, ularning natijalarini rasmiylashtirish hamda aniqlangan moliya intizomini buzishlar va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilish tartibini belgilaydi.

Nazorat tadbirlarini o'tkazishning asosiy vazifalari:

- nazorat obyekti tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatining ta'sis hujjatlariga muvofiqligi;
- byudjetlar va xarajatlar smetalarini asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq tuzilganligi va ularning ijrosi;
- Davlat byudjeti va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari hamda Moliya vazirligi huzuridagi jamg'armalar mablag'larining maqsadli ishlatilishi; byudjet intizomiga rioya etilishi;
- pul mablag'lari va moddiy qiymatliklar saqlanishi, harakati asosliligi hamda kassa operatsiyalari yuritish qoidalariga amal qilinishi;
- davlat xaridlari bo'yicha tender (tanlov) savdolari to'g'ri o'tkazilishi; tovar va xizmatlar yetkazib berish bo'yicha tuzilgan shartnomalar ro'yxatdan o'tkazilishi va to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirilishi;
- tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar hamda xodimlar bilan hisob-kitoblarning qonuniyligi;
- fuqarolarning moliya va byudjet intizomining buzilishi holatlari to'g'risidagi xatlari, shikoyatlari va arizalari;
- paxta tozalash sanoati korxonalarida hisob va hisobotning ishonchliligi; investitsiya dasturlariga ajratilgan markazlashtirilgan mablag'lardan va Hukumat tomonidan kafolatlangan kreditlardan maqsadli foydalanilishi;
- korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga berilgan muruvvat yordami va texnik ko'maklashish vositalaridan maqsadli foydalanilishi;
- buxgalteriya hisobi yuritilishi to'g'riligi va hisobotlarni to'g'ri tuzilishi yuzasidan va boshqa nazorat tadbirlarini olib borishdan iborat.

Moliya vazirligi huzurida Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi mavjud bo'lib, u Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to'g'risida Nizom" 2017-yil 24-oktabrdagi 870-son Qaroriga asosan faoliyat yuritadi.

Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Davlat moliyaviy nazorati boshqarmalarining asosiy vazifasi byudjet jarayonining barcha bosqichlarida byudjet intizomiga rioya etilishini nazorat qilishdir.

Byudjet tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat etishdan maqsad:

-byudjet tashkilotlari moliya-byudjet intizomi buzilishlarini oldini olish;

-birinchi darajali mablag'larni o'z vaqtida berilishini ta'minlash;

-aniqlangan kamchiliklarni yana yuz bermaslik uchun taklif va tavsiyalar berish;

-byudjet mablag'larini o'zlashtirish va suiste'mol qilinishini oldini olish.

Taftishning asosiy vazifalari tekshiruv obyektiga qarab farqlanadi.

Taftish obyektlari:

-davlat va hududiy hokimiyat va boshqaruv organlari, ularning tarkibiy bo'linmalari;

-ishlab chiqaruvchi tijorat va aksiyadorlik korxonalari va davlat ishtirokidagi tashkilotlar;

-byudjet mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan yoki dotatsiya, subvensiya, transfert, ssuda ko'rinishida davlatdan yordam oluvchi har qanday mulk shaklidagi korxona, tashkilot va muassasalar;

-nodavlat jamoat tashkilotlari va muassasalari;

-byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalar;

-davlat tomonidan manzilli moliyaviy yordam, soliqlar to'lash va davlat tomonidan boshqariladigan faoliyatni amalga oshirish borasidagi tadbirkorlik tuzilmalari va jismoniy shaxslarning faoliyati.

Taftishning asosiy vazifalari:

-moliyaviy intizomga rioya qilish;

-byudjet mablag'larini tejamli va maqsadli ishlatish;

-byudjetning daromadlar bazasi va soliqlar yig'ilishining o'sish imkoniyatlarini aniqlash;

-moddiy va moliyaviy resurslarning saqlanishi va samarali ishlatilishi;

-byudjet jarayonining va smetali moliyalashtirishning barcha bosqichlari o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishini ta'minlash;

-buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'ri yuritilishini ta'minlash;

-xo'jasizlik, isrofgarchilik va boshqa turdagi huquqbuzarliklarning oldini olish.

Byudjet muassasalari nazorat qilinayotgan vaqtda smeta belgilash hisob-kitoblarining asoslanganligi, smetalarning ijrosi va mablag'larning maqsadli ishlatilishi, mablag'larning tejamli sarflanishi va saqlanishini ta'minlash, moliya-byudjet intizomiga rioya etilishi, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzish to'g'riligi, byudjetdan tashqari maxsus mablag'larni hosil qilish va ularni to'g'ri xarajat qilish qonuniyligi masalalari va boshqalar tekshiriladi. Nazorat o'tkazish vaqtida xo'jalik boshqaruvining barcha darajalarida ko'p tomonlama faoliyatning tekshirilishi munosabati bilan taftish turlarini aniq tasniflash, tasnif belgilarini ilmiy asoslangan holda tanlash zarurati tug'iladi.

13.2. Nazorat-taftish turlari, ularning o'zaro bog'liqligi

Taftishni tasniflashning quyidagi konsepsiyalari va belgilari mavjud:

-taftish qilinayotgan organlarning idoraviy mansubligi;

-taftish qilinayotgan obyekt faoliyatini qamrab olish darajasi;

-taftishni o'tkazishning chuqurligi;

-ma'lumotlarni qamrab olish darajasi;

-materialning xususiyati;

-taftishni o'tkazish rejasiga munosabat;

-bir xil hujjatlarni tekshirish tartibi.

Mazmuni bo'yicha taftishlar hujjatli va faktli taftishlarga bo'linadi.

Hujjatli nazorat birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari, byudjet tashkilotlari xarajatlar smetalari va unga qo'shimcha hisob-kitoblar va boshqalar asosida amalga oshiriladi. Uning asosiy usuli hujjatlarni formal va arifmetik tekshirish;

-hujjatlar va yozuvlarning qarama-qarshi tekshiruvi;

-amalga oshirilgan xo'jalik operasiyalarini yuridik, iqtisodiy va moliyaviy baholash;

-yalpi va tanlab nazorat qilish;

-teskari hisoblash usuli;

-iqtisodiy tahlil usullari (taqqoslash, balansli bog'lash va boshqalar);

-texnik-iqtisodiy hisoblar.

Hujjatli taftishning yetakchi usuli – hujjatlarni formal va arifmetik tekshirishda blanklar va hisob registrlarining aniq to'ldirilishi, ularda zarur bo'lgan rekvizitlarning mavjudligi va summalar hisoblanadi, ya'ni hujjatlarning va ularda aks ettirilgan xo'jalik operasiyalarining to'g'riligi aniqlanadi. Taftish davrida formal-arifmetik nazoratdan so'ng noaniqliklar va operasiyalarning qonuniyligiga shubha tug'ilish hollari ham yuzaga kelishi mumkin. Shunda hujjatlarning qarama-qarshi tekshiruvi amalga oshiriladi.

Bunda tekshirilayotgan tashkilotning hujjatlaridagi ma'lumotlar ushbu tashkilot xo'jalik faoliyatiga kirishgan boshqa tashkilotlardagi hujjatlarning ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Byudjet nazoratida me'yoriy tekshiruv hujjatli taftishning asosiy usullaridan biridir. Uning asosiy mag'zi faktik xarajatlarni me'yoriy (rejada belgilangan) xarajatlari bilan solishtirishdan iboratdir. Bu usul moddiy va pul me'yorlarini, byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetalarini, jamlanma tarmoq smetalari asosida xarajatlar smetalarining tuzilishini, xarajatlar moddalari bo'yicha xarajatlarni hisobdan chiqarishning to'g'riligini aniqlash uchun foydalaniladi.

Teskari hisoblash usuli taftish davrida korxona hisobida va omborida majud bo'lgan mablag'larni asossiz ravishda hisobdan chiqarish maqsadida moddiy va moliyaviy xarajatlarni ekspertiza usulida baholashga asoslanadi.

Yuridik, iqtisodiy va moliyaviy nuqtai nazardan amalga oshirilgan moliyaviy-xo'jalik operasiyalarni baholash, umumiqtisodiy va statistik tahlil usullari va o'tkazilgan operasilarni va taftish qilinayotgan korxonaning taftish davridagi faoliyatining qonuniyligi, maqsadga muvofiqligi, oqilonaligi va samaraliligini baholash masalalarning butun bir majmuini qamrab oladi. Hujjatli nazoratning bu usuli eng murakkkab va o'ta mehnattalab hisoblanadi, lekin faqatgina taftish organi uchun emas, balki birinchi navbatda (bozor iqtisodiyoti va raqobat sharoitida) korxona va tashkilotning o'zi uchun muhim va zarurdir.

Faktik taftishda nafaqat hujjatlar, balki pul mablag'lari va moddiy boyliklarning mavjudligi ham tekshiriladi.

Faktik nazorat usullariga quyidagilar kiradi:

-tovar-moddiy zaxiralarini va pul mablag'larini inventarizasiya qilish;

-mutaxassislar tomonidan bajarilgan ish va xizmatlarning faktik hajmi va sifatini, xomashyo, material va pul mablag'lari hisobdan chiqarilishining to'g'riligini, moddiy va pul mablag'lari kirimini rasmiylashtirishni ekspertiza usulida baholash;

-nazorat o'lchovi (ekspertiza usulida baholashning tarkibiy qismi sifatida);

-bino va ishlab chiqarish bo'linmalarini ko'z bilan kuzatib tekshirish (masalan, maktabda isitilayotgan maydonning nazorat o'lchovi va boshqalar);

-mehnat va moliyaviy intizomga rioya qilinishini tekshirish. Faktik nazoratning muhim jihati kutilmaganlik (to'satdan amalga oshirish) bo'lib, u kamchiliklarni va tashkilot moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi qoidabuzarliklarni o'z vaqtida aniqlashga yordam berishdan tashqari, pul mablag'lari va tovar-moddiy boyliklarining kamomadi va o'zlashtirilishini aniqlashga ham yordam beradi.

Taftishlarni nazorat dasturi mazmuni bo'yicha tasniflash birinchi darajali ahamiyatga egadir. Bu belgi bo'yicha taftishlar kompleks (yalpi) va mavzuviy taftishlarga bo'linadi.

Kompleks taftishlar ayniqsa keng tarqalgan va samarali bo‘lib, bunda taftish etilayotgan korxona (tashkilot) faoliyatining barcha jabhalari va tomonlari tekshiriladi.



13.1-rasm. **Moliya organlarining ish-faoliyatini nazorat-taftish qilish vaqtida tekshiriladigan vazifalar**

Korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati, moliyaviy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar, texnologiyalar va tovarlar (ishlar va xizmatlar) ishlab chiqarish bilan byudjet va byudjetdan tashqari jamg‘armalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarning butligi va ishlatilish samaradorligi, buxgalteriya hisobining holati va hisobotning ishonchliligi, soliq va moliya intizomiga rioya qilinishi va boshqa

masalalar taftish qilinadi. Zarurat holda maxsus masalalarni tekshirish uchun tegishli mutaxassislar: muhandislar, texnologlar, menejerlar va boshqalar jalb etiladi. Bu nazorat obyektini to'liq va har tomonlama tekshirishni amalga oshirishga va taftish samaradorligining oshishiga olib keladi.

Ayni bir masalalarni o'rganish navbatiga qarab taftishlar dastlabki va qayta bo'ladi. Dastlabki taftish rejaga binoan birinchi navbatda o'tkazilayotgan taftishdir.

Nazoratga va taftishga oid nashr etilgan adabiyotlarda kompleks taftish tushunchasining turli talqinlari uchrab, ular uning samaradorligi va afzalliklarini baholashga qarshi qo'yilgan. Mualliflarning ko'pchiligi bu taftishni o'tkazishda turli kasbdagi mutaxassislar ishtirok etishni mezon deb hisoblaydilar. Bizning Respublikamiz qonunchiligi bo'yicha bunday mezon bir vaqtda ikki va undan ortiq nazorat organlari tomonidan taftish o'tkazilishi hisoblanadi.

13.3. Nazorat-taftish bosqichlari, ularga tavsif

Taftishlar o'tkazish muddatlari va taftishchi guruhlar tarkibi har bir taftishning aniq vazifalari hamda taftish qilinayotgan muassasalarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan, oldinda turgan ishlar hajmini hisobga olgan holda belgilanadi.

Byudjet tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyatini taftish etishni rejalashtirish va tashkil qilish tartibi quyidagicha:

-taftish o'tkazish uchun nazorat organi buyrug'i va bir martalik tekshirish guvohnomasining mavjudligi;

-tekshiruvchining shaxstni tasdiqlovchi hujjatlari mavjudligi;

-nazorat organi tomonidan tasdiqlangan taftish dasturini mavjudligi;

-ushbu mavjud hujjatlar bilan korxona rahbarini tanishtirish;

-taftish dasturi asosida ko'rsatilgan har bir savollar bo'yicha tekshirish muddatini belgilab olish;

-tashkilotning moddiy javobgar shaxslar bilan tanishish va ularga tegishli ko‘rsatmalar berish;

-taftish qamrab oladigan muddat bo‘yicha byudjet tashkilotlari moliya-xo‘jalik faoliyatiga tegishli bo‘lgan barcha hujjatlarni talab qilish va uni taftishchi uchun ajratilgan xonaga olib kirish.

Taftishlar va tekshiruvlar o‘tkazish muddati chegarasi 30 kun miqdorida belgilangan.

Taftish jarayonining quyidagi bosqichlari farqlanadi, ammo ular ham o‘z

navbatida kichik bosqichlarga bo‘linadi:

1) taftishni o‘tkazishga tayyorgarlik;

2) taftishni o‘tkazish;

3) taftish materiallarini tizimlashtirish va rasmiylashtirish;

4) taftish materiallarini amalga oshirish .

Taftishni o‘tkazishga tayyorgarlik. Dasturga binoan taftishning asosiy masalalari ro‘yxati aniqlanadi, u nazorat-taftish organining rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Taftish dasturida taftish obyekti va o‘tkaziladigan davri qayd etiladi. Taftish dasturi tuzilishidan oldin tayyorgarlik davri bo‘lib, unda taftish ishtirokchilari taftish qilinishi rejalashtirilayotgan tashkilotning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq qonunchilik va me’yoriy-huquqiy hujjatlar, hisobotlar, statistik ma’lumotlar va boshqa ma’lumotlarni o‘rganishlari majburiydir.

Tashkilot moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining taftishini o‘tkazishda ta’sis, ro‘yxatdan o‘tkazish, reja, hisobot, buxgalteriya va boshqa hujjatlarni shakl va mazmun jihatidan tekshirish moliya-xo‘jalik operasiyalarining qonuniyligi va to‘g‘riligini tasdiqlash uchun amalga oshiriladi. Bunda blankalarni to‘ldirishda aniqlik nazorat qilinadi, barcha zarur rekvizitlarning mavjudligi tekshiriladi, hisobot ko‘rsatkichlari buxgalteriya hisobining birlamchi ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi, birlamchi hujjatlarning arifmetik tekshiruvi amalga oshiriladi, amalga oshirilgan operasiyalarning boshlang‘ich hujjatlarga mosligi, shu jumladan pul mablag‘lari, moddiy boyliklar, tugallanishi yaqin qolgan ishlar va xizmatlar bo‘yicha mablag‘larni olish nazorat qilinadi.

Taftish guruhi ishtirokchilari tekshiruv dasturidan kelib chiqib u yoki bu taftish faoliyati, usullari va metodlarini qo'llash imkoniyatlari va zaruratini aniqlaydilar. Bundan tashqari axborot olish usullari, tahlil tadbirlari, jami ma'lumotlardan dalil bo'la oladiganlarini ajratib olish masalalari hal etiladi.

Taftish natijasida aniqlangan moliya intizomini buzishlar va ishdagi kamchiliklar to'g'risida dalolatnoma tuzilib, unga guruh rahbari, tekshirilayotgan muassasa rahbari va bosh hisobchi imzo chekadilar.

Nazorat tadbir guruhi rahbari (nazoratchi-taftishchi) nazorat obyekti rahbariga tadbir boshlanishidan oldin xizmat guvohnomasi va uni o'tkazish huquqini beruvchi buyruq yoki guvohnomani taqdim etishi, nazorat tadbiri dasturi hamda guruh a'zolarini tanishtirishi lozim.

Kassa va unga bog'liq bo'lgan bank operatsiyalari ustidan o'tkaziladigan nazorat tadbiri, kassada oldingi inventarizatsiya o'tkazilgan kunidan boshlab joriy nazorat tadbiri boshlangan kunga qadar bo'lgan davrdagi hujjatlar quyidagicha qamrab olinadi:

- to'liq usulda - nazorat tadbiri dasturida kursatilgan davr yoki ketma-ket uch oydan kam bo'lmagan muddat;
- tanlov usuli bilan - nazorat guruhi rahbari (nazoratchi-taftishchi) xohishiga ko'ra nazorat davri tanlab olinadi, lekin oldingi inventarizatsiya o'tkazilgan kundan shu (mazkur) oyning oxirgi sanasigacha bo'lgan davr, shuningdek joriy nazorat o'tkazilayotgan oyning 1 sanasidan kassadagi pul mablag'larini inventarizatsiya o'tkazilgan kungacha bo'lgan davr majburiy tartibda qamrab olinadi.

Kassa operasiyalarini to'g'ri yuritilishini tekshirish.

Kassaga naqd pullarni kirimini tekshirish:

- chek daftarchasi bilan kassa kitobini solishtirib tekshirish;
- kassa kitobi bilan kassa hisobotini taqqoslab tekshirish;
- chek daftarchasi bilan kassa kirim orderlaridagi imzolar mavjudligini tekshirish;
- chek daftarchasi bilan kassa kirim orderlaridagi ko'rsatilgan maqsadlarning mosligini tekshirish;

- kassa kitobidagi kirim qilingan naqd pullarning jamini birlamchi hujjatlarga mosligini tekshirish;
- kassaga mahsulot sotish va xizmatlardan tushgan mablag'larni kirim qilinish asosini tekshirish;
- -kassaga kirim qilingan mablag'larni bosh kitob va balans bilan mosligini tekshirish.

Kassaga naqd pullarni chiqimini tekshirish:

- kassa kitobidagi summalarni qo'shib chiqib jamining to'g'riligini tekshirish;
- kassa chiqim orderlarini mavjudligini va imzolanganligini tekshirish;
- kassa chiqim orderi bilan to'lov qaydnomalari summalarini bir-biriga mosligini tekshirish;
- to'lov qaydnomalari mavjudligi va imzolanganligini tekshirish;
- to'lov qaydnomadagi summalarini qo'shib chiqib umumiy summaga to'g'ri kelishini tekshirish;
- to'lov qaydnomada ko'rsatilgan maqsadlarini va summalarini berilishi asosini tekshirish;
- naqd pullarni kirim qilinishida ko'rsatilgan maqsadlar bo'yicha chiqim qilinishini tekshirish;
- kassaga mahsulot sotish va xizmatlardan tushgan mablag'larning bankga to'liq va o'z vaqtida topshirilishini tekshirish;
- kassadan chiqim qilingan mablag'lar bo'yicha buxgalteriya provodkasining to'g'ri berilishini tekshirish;
- kassadan chiqim qilingan mablag'larning bosh kitob va balans bilan mosligin tekshirish;
- kassadagi mavjud naqd pullarning sanoqdan o'tkazish.

Nazorat tadbiri guruhi rahbari (nazoratchi-taftishchi) nazorat tadbiri jarayonida nazorat obyekti omboridagi va foydalanishdagi asosiy vositalar va tovar- moddiy boyliklar inventarizatsiyasini tashkillashtiradi va amalga oshiradi.

Inventarizatsiya qonunchilikda belgilangan tartib asosida

o‘tkaziladi. Tanlov yo‘li bilan o‘tkazilgan inventarizatsiya natijasida haqiqiy qoldiq bilan hisobot ma’lumotlari o‘rtasida farq aniqlangan holatlarda moddiy-javobgar shaxs zimmasidagi moddiy boyliklarni yoppasiga inventarizatsiyadan o‘tkazish tashkillashtiriladi. Nazorat tadbiri guruhi rahbari (nazoratchi-taftishchi) asosiy vositalar va tovar moddiy boyliklari inventarizatsiyasida, bajarilgan ishlarni nazorat o‘lchovidan o‘tkazishda, tovar-moddiy boyliklar tarkibi va sifatini o‘rganishsa, undan namuna va andozalar olishda hamda shunga o‘xshash boshqa harakatlarni amalga oshirishda moddiy-javobgar va boshqa mas’ul shaxslarning bevosita ishtirok etishlarini ta’minlash choralarini ko‘radi.

Qoraqalpogiston Respublikasining byudjeti va mahalliy byudjetlar tuzilishi va uning ijrosi yuzasidan o‘tkaziladigan kompleks nazorat tadbirlari Nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kompleks nazorat tadbirlariga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari mutaxassislari jalb etilishi mumkin.

Nazorat tadbiri davomida byudjetlarni tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan hokimliklarning qaror va farmoyishlari hamda moliya organlaridagi hujjatlarni o‘rganish asosida byudjetning asosiy ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish tartibi va muddatlariga rioya qilinishi, byudjet daromadlarining to‘g‘ri shakllantirilishi, byudjetlarni tuzishda umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari, yuqori byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning inobatga olinganligi tekshiriladi.

Byudjet ijrosi jarayonida hokimliklar tomonidan qabul qilingan qarorlarning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligi hamda byudjet daromad va xarajatlariga o‘zgartirishlar kiritishda qonunchilik talablariga rioya etilganligi ko‘rib chiqiladi.

Moliya organlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining byudjeti va mahalliy byudjetlarning daromadlar qismini rejalashtirish va bajarilishi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan o‘tkaziladigan nazorat tadbirida:

- byudjet daromadlarini rejalashtirishda hududning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va tushumlarning muddati va mavsumiyligini inobatga olinishi;
- daromad turlari bo‘yicha tushumlarning to‘liq byudjetga tushirilishi ta’minlanganligini hamda qo‘shimcha daromadlar tushirilishi yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar;
- mahalliy soliqlar bo‘yicha berilgan imtiyozlarning asosliligi;
- daromadlar rejasi bajarilmaslik sabablari tahlili yuzasidan hokimliklarga axborot kiritilganligini hamda ko‘rilgan chora-tadbirlar tahlil etilishi lozim.

Byudjetning xarajat qismi rejalashtirilishi yuzasidan o‘tkaziladigan nazorat tadbirida:

- byudjet xarajatlarining yoyilmasi tasdiqlangan tegishli byudjet ko‘rsatkichlarga muvofiq tuzilganligi;
- xarajatlar smetasida mehnatga haq to‘lash miqdorlari va shartlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxi va tariflari to‘g‘ri qo‘llanilganligini hamda iqtisod qilish tartibiga amal qilinganligi;
- byudjetdan mablag‘ oluvchilarning xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallarini ro‘yxatdan o‘tkazishda qonunchilik talablariga rioya etilishi;
- o‘tgan yildagi haqiqiy xarajatlarni hamda set va kontingent ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi tahlili, xarajatlarning mavsumiyligini hisobga olgan holda byudjet mablag‘larini taqsimlanishi;
- xarajatlar smetasini ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonida bo‘shab qolgan mablag‘larni byudjet xarajatlari yoyilmasining tegishli bo‘limida ko‘zda tutilganligi tahlil etilishi lozim.

Moliya organlarida Qoraqalpog‘iston Respublikasining byudjeti va mahalliy byudjetlarning xarajatlar qismi bajarilishi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan o‘tkaziladigan nazorat tadbirida:

- set, shtat va kontingentlar rejasi bajarilishi;
- byudjet mablag‘larini belgilangan muddatlarda ko‘zda tutilgan maqsadlarga yo‘naltirilishi;
- quyi byudjetlar tomonidan talab qilingan mablag‘larni

tegishli hisob-kitoblar asosida ajratilishi hamda ajratilgan mablag'larning maksadli ishlatilishi, ularning uz vaqtida va to'liq qaytarilishi;

- tegishli hokimliklar farmoyish va qarorlari asosida byudjetlarda ko'zda tutilmagan xarajatlarga qo'shimcha yo'naltirilgan mablag'larning qonuniyligi;
- byudjetdan mablag' oluvchilarga ajratilgan mablag'larni maqsadli va samarali ishlatilishi yuzasidan olib borilgan nazorat ishlari;
- mahalliy byudjetlar ijrosining hisobi yuritilishi va hisobotlarni to'g'ri tuzilishi nazorat tadbiridan o'tkazilishi lozim.

Dalolatnoma taftish davomida aniqlangan barcha kamchiliklar va qonunbuzarliklarni aks ettiruvchi asosiy hujjat bo'lib, uning asosida taftish qilingan tashkilotning faoliyati to'g'risida xulosalar chiqariladi, tegishli moliyaviy, ma'muriy-huquqiy qarorlar qabul qilinadi. Unga qo'yiladigan asosiy talablar – obyektivlik, aniqlik va ravonlik.

Taftish dalolatnomasi uch qismdan iborat: kirish (muqaddima), tavsifiy (asosiy) va yakuniy qism (xulosa).

Dalolatnomaning kirish qismi tarkibi: taftish mavzusining nomi; taftish dalolatnomasining tuzilish vaqti va joyi; taftish kim tomonidan va nima asosida o'tkazilganligi; tekshiruv davri va taftish o'tkaziladigan muddat; tashkilotning to'liq nomi; yuqori turuvchi tashkilotning nomi; kredit muassasalarida ochilgan barcha hisob raqamlarining hamda g'aznachilikda ochilgan shaxsiy hisob varaqlarning ro'yxati va rekvizitlari; tekshirilayotgan davrda kim birinchi imzo huquqiga ega bo'lganligi va kim bosh buxgalter bo'lganligi, avvalgi taftish kim tomonidan va qachon o'tkazilganligi va uning natijalari bo'yicha qanday choralar ko'rilgani haqida ma'lumotlar.

Taftish dalolatnomasining tavsifiy qismi taftish dasturida ko'rsatilgan savollarga javoblar tizimli ravishda va oldinma-ketin yoritilgan matndan iborat.

Dalolatnomani tuzishda obyektivlik va asoslilik shartlariga rioya qilinishi, matn aniq, lo'nda, sodda va izchil bayon qilinishi lozim.

Taftish natijalari hujjatlar, qarama-qarshi tekshiruvlarning natijalari, ekspertiza ma'lumotlari va boshqa hujjatlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar va faktlar asosida dalolatnomada yoritiladi.

Qonunbuzarlik faktlarining tavsifi quyidagi axborotni o'z ichiga olishi shart: qaysi qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar buzilgan; qonunbuzarliklar va kamchiliklar kim tomonidan, qaysi davrda amalga oshirilgan va ular nimada namoyon bo'lgan; keltirilgan zararning hujjat bilan isbotlangan summasi.

Dalolatnoma bo'yicha e'tiroz yoki boshqa fikrlar yuzaga kelgan holda, uni imzolagan rahbar va bosh buxgalter imzo yonida o'z fikri, qo'shimcha tushuntirishini yozadilar hamda dalolatnoma imzolangan kundan boshlab besh kundan kechiktirilmagan holda yozma ravishda tushuntirish xatini taqdim etishadi.

Dalolatnoma bo'yicha tekshirilayotgan tashkilotning taftish bilan aniqlangan faktlarida bevosita aybdor deb hisoblangan boshqa mansabdor shaxslari ham, zarur bo'lgan hollarda esa, ushbu tashkilotda ilgari ishlab ketgan rahbar va bosh hisobchi ham *(aniqlangan tartibbuzarlik ular ishlagan davrga tegishli bo'lsa) tushuntirish xati beradilar. Tushuntirish xatlarida bayon etilgan faktlarning to'g'riligi tekshirilishi va ular bo'yicha yozma ravishda xulosa berilishi kerak.

Aniqlangan faktlar bo'yicha tartibbuzarliklarni bartaraf etish yuzasidan, taftish muddati tugashini kutmasdan, zudlik bilan qaror qabul qilish yoki suiste'mollikda aybdor bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortish zarur, bunda alohida dalolatnoma tuziladi, mansabdor shaxslar esa, aniqlangan faktlar bo'yicha zarur bo'lgan tushuntirish xatlarini berishlari shart.

Oraliq dalolatnomalar kassalarni taftish qilish natijalari bo'yicha ham tuziladi. Bu dalolatnomalar tekshiruvchilar va tegishli mansabdor shaxslar hamda pul mablag'lari va moddiy boyliklarning saqlanishi uchun mas'ul bo'lgan moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzolanadi. Oraliq dalolatnomaning bir nusxasi tekshirilayotgan tashkilotning dalolatnomaga imzo chekkan mansabdor shaxsiga beriladi. Oraliq

dalolatnomada bayon etilgan faktlar taftish umumiy dalolatnomasiga kiritiladi.

IV BO'LIM BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Byudjet nazorati qanday maqsadlarda amalga oshiriladi?
2. O'zbekiston Respublikasida byudjet nazoratini amalga oshiruvchi organlar qanday vazifalarni bajaradi?
3. Byudjet intizomi qanday holatlarda buzilgan hisoblanadi?
4. Byudjetlararo munosabatlar deganda nimani tushunasiz?
5. Davlat byudjetining qo'shimcha manbalari nimalardan tashkil topadi?
6. Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi deganda nima nazarda tutiladi?
7. Xarajatlar smetasining qanday turlarini bilasiz?
8. Xarajatlar smetasida qanday xarajat guruhlari aks etgan?
9. Byudjet tashkilotlari xarajatlarini moliyalashning yangi tartibining mohiyati nimada?
10. Xarajatlar smetalarini ko'rib chiquvchi tashkilotlarning majburiyatlari nimadan iborat?
11. Xarajatlar smetalarini ko'rib chiquvchi tashkilotlarning majburiyatlari qanday?
12. Byudjet tashkilotlarida moliya-xo'jalik faoliyatini taftish etish qanday tashkil etiladi?
13. Byudjet tashkilotlari moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
14. Taftish o'tkazish tartibi qanday?
15. Taftish natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish qanday amalga oshiriladi?
16. Qanday taftish turlarini bilasiz?
17. Taftish dalolatnomasi qanday qismlardan iborat?

IV BO'LIM YUZASIDAN TESTLAR

1. Byudjet daromadlari va xarajatlarini chegaralash deganda nima tushuniladi?

a) Har bir darajadagi byudjetga kiritilishi lozim bo'lgan daromadlar va xarajatlar turlari va hajmini belgilash tushuniladi

b) Mahalliy darajadagi byudjetga kiritilishi lozim bo'lgan daromadlar va xarajatlar turlari va hajmini belgilash tushuniladi

d) Respublika byudjetiga kiritilishi lozim bo'lgan daromadlar va xarajatlar turlari va hajmini belgilash tushuniladi

e) Qonunchilikda belgilangan tartib va miqdorlardagi daromadlar va xarajatlar tushuniladi.

2. Byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bu ... dir.

a) Byudjet so'rovi

b) Byudjet loyihasi

d) Byudjet jarayoni

e) Byudjet transferti

3. Qanday hujjat kelgusi davr uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga bo'lgan ehtiyojni asoslashni nazarda tutadi?

a) Byudjet loyihasi

b) Byudjet hisoboti

d) Byudjet rejasi

e) Byudjet so'rovi

4. Byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, ijro etish ustidan nazorat ..... hisoblanadi.

a) Davlat moliyaviy nazorati

b) Mahalliy moliyaviy nazorat

d) Nodavlat moliyaviy nazorati

e) Ichki moliyaviy nazorat

5. Byudjetnoma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga xulosa taqdim etishi uchun qaysi muddatda kiritiladi?

a) Joriy yilning 10-sentyabriga qadar

b) Joriy yilning 20-sentyabriga qadar

d) Joriy yilning 20-sentyabr kuni

e) Joriy yilning 10-sentyabr kuni

6. Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi moliya yili mobaynida va qo‘shimcha vaqt davrida amalga oshiriladi. Ushbu qo‘shimcha davr o‘z ichiga qaysi muddatni oladi?

a) Keyingi yil yanvar oyining 10-sanasigacha bo‘lgan muddatni

b) Keyingi yil yanvar oyining 15-sanasigacha bo‘lgan muddatni

d) Keyingi yilning yanvar oyini

e) Keyingi yilning birinchi kvartalini

7. Quyidagi organlardan qaysi biri Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni har chorakda ko‘rib chiqadi?

a) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

b) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

d) O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi

e) O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi, DSQ, DBQ

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o‘tgan moliya yili uchun Davlat byudjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tashqi auditini o‘tkazish hamda baholash uchun qaysi organga yuboradi?

a) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga

b) O‘zbekiston Respublikasi Hisob Palatasiga

d) O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligiga

e) O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasiga

9. O‘zbekiston Respublikasining kelgusi moliya yili uchun mo‘ljallangan davlat byudjeti loyihasini tuzish tartibi va muddatlari qaysi qonun hujjatida belgilangan?

a) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida

b) Byudjet Kodeksida

d) “Soliq xizmati to‘g‘risida”gi qonunda

e) "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida

10. Davlat byudjeti ijrosini nazorat qilishda quyidagilardan qaysi biri tekshirilmaydi?

a) Byudjet taqchiligining YaIMga nisbati

b) Byudjet mablag'lari oluvchilardan byudjetdan ajratiladigan mablag'larning tushumi va sarfi to'g'risida olinadigan ma'lumotlar

d) Turli darajadagi byudjetlar ijrosi yakunlari

e) Turli darajadagi byudjetlarga mablag'lar tushumi to'g'risida soliq va bojxona organlaridan, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlardan olinadigan axborot

11. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga asosan smetalarning qanday turlari mavjud?

a) Individual smeta, daromadlar smetasi

b) Jamlanma smeta, vaqtinchalik smeta, xarajatlar smetasi

d) Xarajatlar smetasi, daromadlar smetasi, yakka smeta

e) Doimiy smeta, vaqtinchalik smeta

12. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida xarajatlar smetasiga qanday ta'rif berilgan?

a) Byudjet mablag'larini taqsimlovchi tomonidan o'z tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetalari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi

b) Byudjet tashkilotining yoki byudjet mablag'lari oluvchining xarajatlar smetasi tasdiqlanguniga va ro'yxatdan o'tkazilguniga qadar amal qiladigan hujjat

d) Byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan bir yilga tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat

e) Byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar xarajatlar moddalari bo'yicha aks ettiriladigan hujjat

13. Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasini tuzish va uni nazorat qilish tartibi qanday hujjatga asosan amalga oshiriladi?

a) Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risidagi" qaroriga asosan

b) Moliya vazirining "Byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" buyrug'iga asosan

d) Moliya vazirligining "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'i oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomi"ga asosan

e) Vazirlar Mahkamasining "Byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarning xarajatlar smetasini tasdiqlash to'g'risidagi nizomi"ga asosan

14. Byudjet tashkilotlari xarajatlarini hisoblab chiqarishda quyidagilardan qaysi biriga amal qilinmaydi?

a) Belgilangan tartibda tasdiqlangan byudjet tashkilotlari xarajatlarining normativlariga

b) Tovar va xizmatlarning bozor narxlariga

d) Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlari va tariflariga

e) Belgilangan tartibda tasdiqlangan ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish dasturlariga

15. Barcha tashkilotlar bo'yicha xarajatlar smetalarini tuzishda mehnatga haq to'lash miqdorlari va shartlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun narx va tariflar qanday hisobga olinadi?

a) Mazkur tashkilot faoliyat ko'rsatishni boshlagan oyning birinchi sanasi holatiga ko'ra

b) Mazkur smetalar tuzilayotgan moliya yilidan oldinggi yilning 1-yanvarida amalda bo'lgan shartlarda

d) Mazkur smetalar tuzilayotgan moliya yilining 1-yanvarida amalda bo'lgan shartlarda

e) Mazkur tashkilot faoliyat ko'rsatishi boshlangan oydan keyingi oyning birinchi sanasi holatiga ko'ra

16. Mavsumiy yoki moliya yili mobaynida yangidan tuzilayotgan tashkilotlar bo'yicha xarajatlar smetalarini tuzishda mehnatga haq to'lash miqdorlari va shartlari, tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun narx va tariflar qanday hisobga olinadi?

a) Mazkur smetalar tuzilayotgan moliya yilidan oldinggi yilning 1-yanvarida amalda bo'lgan shartlarda

b) Mazkur tashkilot faoliyat ko'rsatishi boshlangan oydan keyingi oyning birinchi sanasi holatiga ko'ra

d) Mazkur smetalar tuzilayotgan moliya yilining 1-yanvarida amalda bo'lgan shartlarda

e) Mazkur tashkilot faoliyat ko'rsatishni boshlagan oyning birinchi sanasi holatiga ko'ra

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagi 3231-son Qaroriga asosan qanday muassasalarda markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari tashkil etildi?

a) Ta'lim va madaniyat muassasalarida

b) Ta'lim va tibbiyot muassasalarida

d) Tibbiyot va sport muassasalarida

e) Barcha byudjet tashkilotlarida

18. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining vazifalari nimalardan iborat?

a) Markazlashtirilgan tartibda quyi muassasalarning xarajatlar smetasi tuzilishi va ijro etilishini, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobining yuritilishini ta'minlash

b) Markazlashtirilgan tartibda byudjet tashkilotlarining daromad va xarajatlarini hisob-kitobini yuritish

d) Markazlashtirilmagan tartibda quyi muassasalarning xarajatlar smetasi tuzilishi va ijro etilishini, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobining yuritilishini ta'minlash

e) Markazlashtirilmagan tartibda byudjet tashkilotlarining daromad va xarajatlarini hisob-kitobini yuritish

19. Xarajatlar smetalarini va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish paytida moliya organlari nimalarni tekshirishi lozim?

a) Byudjet tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar me'yorlarini

b) Iqtisod qilish tartibiga amal qilgan holda xarajatlar smetalarida talab etilmaydigan tadbirlar uchun mablag'lar ajratilishini

d) Ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan shtatlar jadvalini belgilangan namunaviy shtatlar jadvali va shtatlar normativlariga muvofiqligini

e) Alohida tadbirlarni o'tkazish muddatlari va ularni moliyalashtirish imkonini mavjud yoki mavjud emasligini

20. Xarajatlar smetasini tuzishda quyidagilardan qaysi biri hisobga olinmaydi?

a) O'zbekiston Respublikasi qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari

b) Soliq Kodeksidagi o'zgarishlar

d) Tovar va xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solinadigan baholari va tariflari

e) Byudjet tashkilotlarining belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar me'yorlari

V BO‘LIM. NODAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT

14-BOB. ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI MOLIYAVIY NAZORATNI SAMARALI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI

14.1. Ichki nazorat tizimining mohiyati va uni tashkil etish

Ichki nazorat - bu xo‘jalik yurituvchi subyektning rahbariyati tomonidan tashkil etilgan moliyaviy-xo‘jalik faoliyati nazorati hisoblanadi.

Nazorat usullarini yangi shakllaridan foydalanishning zaruriyati shundaki, nazorat organlari byudjet mablag‘lari xarajatlarining to‘g‘riligi va maqsadga muvofiqligini, tashkilot asosiy faoliyati xarajatlarini samarali foydalanish nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. Ushbu vazifalarni yechish uchun har bir tashkilot yoki tashkilotlarda ichki nazorat va ichki auditni yo‘lga yo‘yilgan mexanizmi ishlashi lozim.

Ichki nazorat tizimi rahbariyatga qonunda belgilangan me’yorlarga muvofiq tarzda korxonalarni yanada samarali boshqarishga yordam beradi.

Ichki moliyaviy nazorat tizimi aniq xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda byudjet tashkilotlari va muassasalarining rahbarlari va funksional tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan kundalik ish-faoliyatning ajralmas qismidir. Ushbu tizimning mohiyati asosan korxonalar, ularning ayrim tuzilmaviy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladigan ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z buxgalteriyasi, moliya bo‘limi va ayrim iqtisodiy xizmatlari tomonidan tekshirishdan iborat deb, u “ichki xo‘jalik nazorati” atamasi bilan belgilangan.[70]

---

[70] LI A.O‘zbekiston Respublikasi moliya huquqi: Yuridik oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. 2006. 69 bet.

"Ichki nazorat – bu jarayon kompaniya direktorlar kengashi, menejment va boshqa xodimlar tomonidan amalga oshiriladi va quyidagi vazifa va maqsadlarga erishish uchun yo'naltiriladi:

- kompaniya operasiyalarining samaradorligi va natijaviyligi;
- moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi;
-Tegishli qonunchilik, qonun osti akt va reglamentlariga rioya qilinishi".[71]

Odatda nazorat tadbirlari maqsadlariga erishishi uchun tekshirilayotgan subyektning buxgalteriya hisobi tizimi uning xo'jalik faoliyatini to'g'ri aks ettirishiga yetarlicha to'liq ishonch hosil qilish zarur. Ichki nazorat tizimi, uning miqyosi, rasmiylashtirish va tekshirilayotgan subyektning tarkibiga va uning faoliyati xususiyatlariga muvofiqlik darajasini o'rganish bunday ishonchni shakllantirishga ko'maklashishi mumkin. Ichki xo'jalik nazorati xo'jalik yurituvchi subyektlarning turli resurslari va potensialini saqlab qolish, ulardan samarali foydalanishda, ularning moliyaviy faoliyatida qonunchilik va intizomga rioya etilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi

Bu nazorat xo'jalik yurituvchi subyektlar, umuman byudjet tashkilotlari, muassasalari va ularning ayrim tuzilmaviy bo'linmalari moliyaviy faoliyati ustidan xo'jalik yurituvchi subyektlar, byudjet tashkilotlari, muassasalarining o'z maxsus xizmatlari (buxgalteriya, moliya bo'limlari) tomonidan moliyaviy munosabatlarda qonunchilik va intizomga rioya etilishi masalalari bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruvdan iborat.[72]

Ichki nazorat xizmati tashkilot yoki muassasaning ichida tashkil qilinsa, tashqi tekshiruv xizmati tekshirilayotgan muassasaning tashkiliy tarkibiy qismi hisoblanmaydi. Oliy nazorat organi tashqi nazorat organi hisoblanadi.

Ichki nazorat xizmati qaysi tashkilotda tashkil etilgan bo'lsa, o'sha idora rahbariga bo'ysunishi kerak. Ba'zida, u tashkiliy struktura tarkibida funksional va tashkiliy jihatidan mustaqil bo'lishi mumkin.

---

[71]Ibragimov A.K., Sugirbaev B.B. Byudjet nazorati va auditi: O'quv qo'llanma.

[72] I.I A. O'zbekiston Respublikasi moliya huquqi: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 2006 yil.70 bet

Oliy nazorat organi tashqi tekshiruv xizmati sifatida ichki nazorat tizmini samaradorligini tekshiradi. Agar ichki nazorat xizmati samarali deb baholansa, ichki nazorat xizmati va oliy nazorat organi o‘rtasida vazifalarni taqsimlash va hamkorlik qilish uchun oliy nazorat organi qolgan tekshiruvlarni o‘tkazmasligi mumkin.

Ichki moliyaviy nazorat tizimida asosiy bo‘g‘in bosh hisobchi hisoblanadi. Bosh buxgalter kamomad hosil bo‘lishi, pul mablag‘lari va tovar-moddiy boyliklarning noqonuniy sarflanishi hamda moliyaviy va xo‘jalik qonunchiligi buzilishining oldini olishga doir chora-tadbirlarni tayyorlashda faol ishtirok etishi lozim.

Pul mablag‘lari, tovar-moddiy boyliklarni qabul qilish va berish uchun asos bo‘lgan hujjatlar hamda kredit va hisob-kitob hujjatlari rahbar va bosh buxgalter yoki buning uchun vakolat berilgan boshqa shaxslar tomonidan imzolanadi.

Bosh buxgalter qonunchilikda belgilangan operasiyalar va pul mablag‘lari, tovar-moddiy boyliklar va boshqa boyliklarni qabul qilish, saqlash va xarajat qilish bo‘yicha belgilangan tartibga zid bo‘lgan hujjatlarni ijro uchun qabul qilishi va rasmiylashtirishi man etiladi.

Bosh buxgalter o‘ziga qarashli xodimlarning xizmat vazifalarini belgilaydi. Boshqa bo‘linmalar va xizmatlarning buxgalteriya hisobi, hisob yuritish va hisobot masalalari bilan shug‘ullanuvchi xodimlari bosh buxgalterga bo‘ysunadilar.

O‘z funksiyalarini bajarish uchun bosh buxgalterga tegishli huquqlar berilgan. Xususan, u bank rahbaridan buxgalteriya hisobi va nazoratning to‘g‘ri tashkil etilishini ta’minlash, tarkibiy bo‘linmalarda pul mablag‘lari, tovar-moddiy boyliklar va boshqa qimmatliklarni qabul qilish, kirim qilish, saqlash va sarflash bo‘yicha belgilangan tartibga rioya etilishini tekshirish va h.k. yuzasidan choralar ko‘rilishini talab qilishi mumkin.

Shunday qilib, bosh buxgalterga qonunchilik va moliya intizomining buzilishini o‘z vaqtida aniqlash, ogohlantirish va bunga yo‘l qo‘yilmasligi uchun yetarli bo‘lgan vakolatlar berilgan.

Tashqi tekshiruvchilar uchun ichki nazorat natijalaridan foydalanish ham yaxshi asos bo‘lishi mumkin. Biroq, uning

samaradorligi va natijaviyligini to‘g‘ri baholash, shaxsiy nazorat tadbirlarini rejalashtirishda, Zaruriy tekshiruvlarning turi, vaqti va hajmini aniq belgilash uchun ular tekshirilayotgan obyektda ichki nazorat tizimining ishini, uning natijalarini hisobga olishni yetarli darajada tushunishi zarur.

Tekshirilayotgan obyektning ichki nazorat tizimini baholash muayyan nazorat tadbirlarini baholashga yoki ijobiy, yoxud salbiy ta’sir etish mumkin. Masalan, ichki nazorat tizimining samarasizligi isboti ma’lum moliyaviy hisobotni baholashda shubha uyg‘otishi mumkin. Va aksincha, ichki nazoratning samaradorligi tashqi tekshiruv obyektlarining sonini kamaytirishi mumkin.

Birinchi navbatda kelgusi tekshiruv uchun ichki nazoratning asosiy sohasini o‘rganish zarur.



14.1-rasm. **Xo‘jalik yurituvchi subyektning ichki nazorat tizimi**

Xo‘jalik yurituvchi subyektning ichki nazorat tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:[73]

-nazorat muhiti;

-buxgalteriya hisobining mavjud tizimi;

[73] Родионова В.М., Шлейников В.И. Финансовой контрол.Учебник.-М.:ИД. ФБК.-ПРЕСС,2002.-155стр

- aktivlarning saqlanganligi ustidan nazorat;

-qonun va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish ustidan nazorat.

Nazorat muhiti, ichki nazorat tizimini belgilash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tekshirilayotgan obyekt rahbariyatining amaliy harakati va ma'lum qilishi tushuniladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- boshqaruvning asosiy tamoyillari va usullari;

- tashkiliy tuzilma;

- mas'uliyat va vakolatni taqsimlash;

- xodimlar siyosati;

-tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotni tayyorlash;

- ichki hisobotning ichki boshqaruv hisobi va tayyorlanishi;

- amaldagi qonunchilik talablariga xo'jalik faoliyatining muvofiqligi.

Nazorat tadbirlari maqsadlari uchun ichki nazoratning ahamiyatini aniqlashda, xususan tekshirilayotgan subyektning nazorat vositalari quyidagi maqsadlarga erishiga ishonch hosil qilish zarur:

-xo'jalik operasiyalari butun hamda muayyan vaziyatlarda rahbariyatni ma'qullash bilan bajariladi;

- barcha operasiyalar buxgalteriya hisobida to'g'ri summalarda, buxgalteriya hisobining tegishli hisoblarda, to'g'ri davrda, xo'jalik yurituvchi subyektda qabul qilingan hisob siyosati bilan muvofiqlikda belgilanadi va to'g'ri buxgalteriya hisoboti tayyorlash imkoniyatini ta'minlaydi;

- aktivlardan foydalanish muvofiq rahbariyatning ruxsati bilangina mumkin;

- buxgalteriya hisobida belgilangan va haqiqatda mavjud aktivlarga muvofiq holda rahbariyat tomonidan belgilangan davriylikda va rahbariyatning tafovuti holatlarida tegishli harakatlar qabul qilinadi.

Undan tashqari, tekshirilayotgan obyektda bunday tadbirlarni qo'llashda quyidagilarga ishonch hosil qilish kerak:

-buxgalteriya yozuvlarining to'g'riligini arifmetik tekshirish;

- hisob-kitoblar qiyosini o'tkazish;

-rahbar xodimlarning hujjat aylanmasi to'g'riligi va ruxsat yozuvlarini mavjudligini tekshirish;

- belgilangan davriy rejalar tartibiga muvofiq holda va kassadagi naqd pullar, jiddiy hisobot blanklari, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va haqiqiy naqd pullarning muvofiqligini aniqlash uchun qimmatli qog'ozlar va tovar-moddiy boyliklarni tasodifiy inventarizasiyasini o'tkazish;

- mazkur xo'jalik subyektidan tashqarida joylashgan manbalardan ma'lumotlardan nazorat maqsadlari uchun foydalanish.

Biroq, ichki nazorat tizimini tahlil qilishda u ma'lum ehtimoliy daraja bilan yaratilgan va unga erishilgan maqsadlarni tasdiqlash mumkin. Buning sababi ichki nazorat tizimining quyidagi mavjud cheklovlari hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyektning rahbariyati, ichki nazoratga xarajatlari ular keltirgan iqtisodiy foydadan kam bo'lishi uchun tabiiy talab;

- ichki nazoratning ko'pgina mablag'larining maqsadi noodatiy hisoblanganlarini emas, balki zarur bo'lmagan xo'jalik operasiyalarini aniqlashdir;

-parishonxotirligi, noto'g'ri fikrlashi yoki instruktiv materiallarni tushunmasligi tufayli parvosizligi bo'yicha adashishi ishchining xususiyatlaridir;

- ichki nazoratga mas'ul bo'lgan rahbariyat vakillari tomonidan suiste'mollikka yo'l qo'yish oqibatida ichki nazorat tizimini buzish.

Xo'jalik yurituvchi subyektning ichki nazorat tizimini baholash uch bosqichda o'tkazilishi lozim:

- ichki nazorat tizimi bilan umumiy tanishish;

-ichki nazorat tizimining ishonchliligini dastlabki baholash;

-ichki nazorat tizimini baholashning to'g'riligini tasdiqlash.

Nazorat tadbirlarini rejalashtirish bosqichida tekshirilayotgan subyekt faoliyatining o'ziga xosligi va miqyosi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lish bilan bir vaqtda ular tomonidan tatbiq etilgan ichki nazorat tizimi va uning buxgalteriya hisobi tizimi bilan umumiy tanishuv o'tkazish kerak. Bunday dastlabki tanishuv natijalari bo'yicha nazorat tadbirlarini o'tkazish jarayonida tekshiriladigan ichki nazorat tizimi subyektiga tayanish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Agar tekshiriladigan ichki nazorat tizimi subyektiga umuman tayanish shart emasligi to‘g‘risida qaror qabul qilinsa, uning xulosalariga ushbu tizimga ishonishga asoslanmaydigan tarzda nazorat tadbirlarini rejalashtirish zarur.

Agar tekshiriladigan ichki nazorat tizimi subyekti bilan tanishish natijalari bo‘yicha nazorat tadbirlarini o‘tkazish davomida unga tayanishga harakat qilish qarori qabul qilingan, bo‘lsa, uning ishonchliligi bo‘yicha dastlabki baholash o‘tkazish zarur.



14.2-rasm. **Ichki nazorat tizimini belgilash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choralar**

Ichki nazorat tizimining ishonchliligini dastlabki baholash tadbirini o‘tkazish nazorat guruhlari ishtirokchilari mustaqil ishlab chiqadigan usul va uslublarga asoslangan.

Bunda ular quyidagilarni e’tiborga olishi lozim:

- butun hisobot davri uchun tekshirilayotgan obyektning buxgalteriya va xo'jalik hujjatlarini nazorat qilish vositalarining ishonchliligini tekshirish kerak;

- tekshirishda butun davr uchun xos bo'lgan faoliyatga nisbatan xususiyat yoki farqlarga ega bo'lgan faoliyat davrlariga katta e'tibor qaratish zarur;

- butun ichki nazorat tizimi yoki alohida nazorat vositalarining ishonchliligini baholash o'rta yoki yuqori sifatida boshqa alohida nazorat vositalarining ishonchliligini baholash imkoniyatini istisno qilmaydi.

Agar ichki nazorat tizimining ishonchliligini dastlabki baholash natijalari bo'yicha quyi sifatida baholansa, buni kelgusida muvofiq tarzda nazorat tadbirlarini o'tkazishni rejalashtirishni ta'kidlash zarur.

Agar dastlabki baholash tadbirlari natijalari bo'yicha ichki nazorat tizimi va (yoki) alohida nazorat vositalariga ishonch to'g'risida qaror qabul qilinsa, u holda nazorat tadbirlarini o'tkazish davomida ushbu baholashning to'g'riligi tasdiqlash tadbirlarini o'tkazish zarur.

Agar ishonchlilikni dastlabki baholanishi davomida butun ichki nazorat tizimi yoki biror bir uning alohida vositalarini baholash birlamchi baholash davomida olingandan past ekanligi ma'lum bo'lsa, muvofiq tarzda nazorat tadbirlarini o'tkazish natijalari bo'yicha xulosalarning to'g'riligini oshirish uchun boshqa nazorat tadbirlarini bajarish qoidalarini tuzatish zarur.

Aktivlarning saqlanganligi nazorati. Ichki nazoratning muhim sohalaridan biri - aktivlarning saqlanganligi nazorati hisoblanadi (saqlanganlik ustidan nazorat). Ushbu nazorat xo'jalik yurituvchi subyektning aktivlariga ruxsatsiz ega bo'lish, foydalanish yoki taqsimlashni vaqtida aniqlash yoki bartaraf etishga qaratilgan.

Aktivlarning saqlanganligini nazorat qilish, tuzilmagan bitimlarni bartaraf etish yoki vaqtida aniqlash bilan hal etilmagan xarajatlar yoki investisiya qo'yilmalarini qabul qilish, asoslanmagan majburiyatlar, tovar-moddiy zaxiralarini o'g'irlash yoki aktivlarni shaxsan foydalanishga berilishi bilan bog'liq.

Nazoratning bunday tizimi aktivlardan foydalanish rahbariyatning ruxsati bilan o'tkazilishini kafolatlash uchun yaratiladi. Ularga kreditlarni berish va nazorat qilish bo'yicha talablarga rioya qilish va belgilash, investisiyalar va shu bilan bog'liq hujjatlar bo'yicha qarorlar qabul qilish kiradi.

Aktivlarning saqlanganligini nazorat qilish tizimi yetishmovchiliklarni barataraf etish yoki aniqlash bilan cheklanmaydi. U aktivlardan ruxsatsiz foydalanish yoki ega bo'lish natijasi bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa muhim yo'qotishlarni bartarf etish va aniqlashga yordam beradi. Ichki nazorat tashqi taftish organi tomonidan amalga oshiriladigan nazoratdan farq qiladi Bu nazoratning integrallashgan tizimi bo'lib tashkilotga moslashtirilmagan. Natijada, ichki nazorat ko'pincha boshqaruv nazorati sifatida tushuniladi.

Ichki nazorat tizimi hech qachon taftishning muhimligini pasaytirmaydi. Odatda taftish funksiyasi davlat mablag'larini noqonuniy o'zlashtirish, suiste'molchilik, kamomad, qallobliklarga qarshi samarali himoya vositasini bajaradi. Lekin ichki nazorat bilan rahbariyat tomonidan har qanday ichki audit o'rnini qoplash(kesishish)ni amalga oshirilishi mumkin emas.

14.2. Ichki audit xizmatini tashkil etish

Ichki nazorat asosan ichki auditdan farqli tomoni shundan iboratki, u rahbarlikning barcha darajasida amalga oshiriladi. Bundan farqli ravishda, ichki audit mustaqil auditorlar tomonidan amalga oshiriladi, ular faqat tashkilot rahbariga hisob beradi va ichki nazorat tizimini to'g'ri tuzilganligini ham tekshiradi.

Ichki nazorat tizimi samarali ichki audit funksiyasi uchun dastlabki shartlardan hisoblanadi.

Ichki audit funksiyasi organ (maxsus tuzilgan ichki tarkibiy bo'linma) tomonidan amalga oshiriladi, uning tomonidan rahbariyatga ichki nazorat tizimi samarali faoliyat yuritmoqda va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishga nazorat tizimining hissasi bo'yicha tavsiyalar beradi.

Ichki auditmaqsadi – bu tavsiyalarni tuzish, rahbariyat tomonidan hisobga olinadigan majburiy tadbir hisoblanadi. Kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish rahbariyat javobgarligi hisoblanadi.

Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

-kuzatuvchi kengashni ishonchli axborot bilan ta'minlash va ichki audit amalga oshirilishi natijalari bo'yicha korxona faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash;

-ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan korxona boshqaruv organlariga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish.

Quyidagilar ichki audit xizmatining asosiy funksiyalari hisoblanadi:

- har yili korxonaning kuzatuvchi kengashi tomonidan tasdiqlanadigan rejaga muvofiq tegishli tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan ichki auditni amalga oshirish (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo'yicha);

- tuziladigan xo'jalik shartnomalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o'tkazish;

- buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda korxonaning tarkibiy bo'linmalariga metodik yordam berish, ularga moliya, soliq, bank qonunlari va boshqa qonun hujjatlari masalalari bo'yicha maslahatlar berish;

- texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, tashqi auditorlik tashkilotlarining takliflarini baholashda hamda auditorlik tekshirishlarini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalarni tayyorlashda korxonaning kuzatuvchi kengashiga ko'maklashish.

Ichki audit xizmati quyidagi huquqlarga egadir:

- ichki auditni amalga oshirish davomida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha korxonaning hujjatlarini (rahbarning buyruqlari, farmoyishlari, boshqaruv organlari qarorlari, ma'lumotnomalar, hisob-kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari va boshqa hujjatlarni), korxona mansabdor va mas'ul shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish;

-ichki auditni o‘tkazishga ko‘maklashish uchun korxonaning tegishli mutaxassislarini jalb etish.

Ichki audit xizmati quyidagilarga majbur:

-moliya va statistika hisoboti ko‘rsatkichlarining ishonchliligini tekshirish;

-ichki auditni amalga oshirishda olingan axborotning maxfiyligiga rioya qilish;

-korxonaga uning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan zarar yetkazilganidan dalolat beruvchi holatlar aniqlangan taqdirda bu haqda darhol korxonaning kuzatuvchi kengashiga xabar berish va auditorlik hisobotida tegishli yozuvni qayd etish;

-aktivlarni xatlovdan o‘tkazishda va qonunda belgilangan tartibda uning o‘z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilishda ishtirok etish.

Ichki audit xizmati qonun hujjatlariga va korxonaning ta’sis hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Ichki audit xizmati xodimlari quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

- auditorning malaka sertifikatiga ega bo‘lish;

- O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida, yoxud O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasidagi ta’limga tengligi e’tirof etilgan xorijiy davlat muassasasida olingan oliy ma’lumotga, oxirgi o‘n yilning kamida ikki yilida buxgalteriya hisobi, audit, moliya yoki soliq nazorati sohasida amaliy ish stajiga (shu jumladan, o‘rindoshlik bo‘yicha) ega bo‘lish.

Ichki audit xizmati xodimlari soni ichki audit maqsadlariga samarali erishish va uning vazifalarini hal etish uchun yetarli bo‘lishi kerak.

Ichki audit xizmati shtatida quyidagilar bo‘lishi kerak:

• aktivlarining balans qiymati 1 mlrd so‘mdan 10 mlrd so‘mgachani tashkil etadigan korxonalarda - kamida ikki nafar sertifikatsiyalangan auditor;

• aktivlarining balans qiymati 10 mlrd so‘mdan 50 mlrd so‘mgachani tashkil etadigan korxonalarda - kamida uch nafar sertifikatsiyalangan auditor;

• aktivlarining balans qiymati 50 mlrd so'mdan ortiqni tashkil etadigan korxonalarda - kamida to'rt nafar sertifikasiyalangan auditor.[74]

Quyidagilar ichki audit xizmati mustaqilligining asosiy shartlari hisoblanadi:

-ichki audit xizmati rahbarini va uning xodimlarini lavozimga tayinlash va egallab turgan lavozimidan ozod etish, korxona kuzatuvchi kengashining qarorlari bo'yicha ularga ish haqi miqdorini va boshqa to'lovlarni belgilash;

-korxona kuzatuvchi kengashiga bevosita bo'ysunish.

Ichki audit:

-tasdiqlangan biznes-reja bajarilishini;

-korporativ boshqarish tamoyillariga rioya qilinishini;

-buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini;

-soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishini;

-moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya etilishini;

-aktivlarning holatini;

-ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borish yo'li bilan faqat ichki audit xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kuzatuvchi kengash tomonidan korxona ixtisosidan kelib chiqib qonun hujjatlariga muvofiq tekshirishni o'tkazishning boshqa yo'nalishlari belgilanishi mumkin.

O'tkazilgan tekshirishlar natijalari bo'yicha bevosita uni o'tkazgan xodim (xodimlar) tomonidan imzolanadigan tegishli hisobotlar tuziladi.

Bunda:

a) biznes-reja bajarilishini tekshirish natijalari to'g'risidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- uning bajarilishining miqdor va sifat ko'rsatkichlari tahlili;

- uning bajarilishi ta'minlanmagan taqdirda aybdor mansabdor shaxslar shaxsan ko'rsatilgan holda aniqlangan sabablar bayoni.

---

[74] "Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida "NIZOM Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qarori

b) korporativ boshqarish tamoyillariga rioya qilishni tekshirish natijalari to‘g‘risidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

-korxona boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning samaraliligi, uning qatnashchilari (muassislar)ning qonuniy huquq va manfaatlariga rioya etilishi tahlili;

-korporativ boshqarish sohasida qonun hujjatlari buzilishi holatlari bayoni (ta’sis hujjatlariga rioya qilish, umumiy yig‘ilishlar va korxona boshqaruv organlari majlislari o‘tkazilishi, dividendlar to‘g‘ri hisoblanishi va o‘z vaqtida to‘lanishi va hokazolar).

d) korxonaning buxgalteriya hisobi va moliya hisoboti holatini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

-buxgalteriya hisobini yuritish va moliya hisobotini tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;

-aniqlangan buxgalteriya hisobotini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibi buzilishining tavsifi.

e) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘ri hisoblanishi va to‘lanishini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan soliqlar va majburiy to‘lovlar hisob-kitobi to‘g‘riligini baholash;

-soliqlar va majburiy to‘lovlarni hisoblash va to‘lashning belgilangan tartibi buzilishi holatlarini, soliq solinadigan bazani belgilashda chetga chiqishlarni bayon qilish.

f) moliya-xo‘jalik operasiyalarini amalga oshirishda korxona tomonidan qonun hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

-korxona tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo‘jalik operasiyalarining qonun hujjatlariga muvofiqligini baholash;

-ichki audit davomida aniqlangan korxona tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo‘jalik operasiyalarining qonun hujjatlariga nomuvofiqligini bayon qilish.

g) ichki nazoratning holatini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

-ichki nazorat tizimini va uning faoliyat ko'rsatishidagi mavjud kamchiliklarni bayon etish;

-korxona tarkibiy bo'linmalaridagi ijro intizomining holati to'g'risidagi ma'lumotlar, uning aniq xodimlari ishidagi mavjud kamchiliklar.

Aktivlarning holatini tekshirish natijalari aktivlarni xatlovdan o'tkazishning asoslanishini hamda ularning harakati, amalda mavjudligi va saqlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

Shuningdek o'tkaziladigan tekshirishlar bo'yicha barcha hisobotlarda korxona ijro etuvchi organi va uning tarkibiy bo'linmalari faoliyati baholanishini, aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etishga doir tavsiyalarni, tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga oladigan yakuniy qism bo'lishi kerak.

O'tkazilgan ichki audit yakunlari bo'yicha, ichki audit rahbari tomonidan imzolanadigan yig'ma hisobot tuziladi.

Yig'ma hisobot:

-tahliliy qism;

-yakuniy qism;

-tasdiqlaydigan hujjatlarning to'liq paketini o'z ichiga olishi kerak.

Yig'ma hisobotning tahliliy qismi ichki audit xodimlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijalari to'g'risidagi umumlashtirilgan axborotni o'z ichiga olishi kerak.

Hisobotning yakuniy qismi:

-korxonaning ijro etuvchi organi va tarkibiy bo'linmalari faoliyatiga, shuningdek likvidligiga umumiy baho;

-aniqlangan chetga chiqishlar va qonunni buzishlarni bartaraf etish bo'yicha ichki audit xizmatining tavsiyalarini hamda korxonaning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga, korporativ boshqarishni takomillashtirishga doir umumlashtirilgan takliflarni o'z ichiga olishi kerak.

Yig'ma hisobot ichki audit yakunlangandan keyin 10 kun mobaynida tugallanishi zarur. Yig'ma hisobotlar bevosita korxonaning kuzatuvchi kengashiga uning ko'rib chiqishi va keyinchalik tasdiqlashi

uchun taqdim etilishi kerak. Hisobotlar nusxalari tasdiqlangandan keyin korxona ijro etuvchi organiga taqdim etilishi kerak.

Ichki audit natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rishi shart.

Ichki audit xizmati tekshirish davomida aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish, shuningdek umuman faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning o'z vaqtida va zarur darajada bajarilishi ustidan nazorat o'rnatishi kerak.

Ichki audit faqat ichki audit xizmati xodimlari tomonidan tekshirish va monitoring o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ichki nazoratning holatini tekshirish va ularning monitoringini olib borish yo'li bilan faqat ichki audit xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

14.3. Byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etish

Mamlakatimizda davlat moliyasini boshqarish hamda nazoratini takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shular jumlasidan byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo'ysunuvidagi muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas'uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e'tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo'li bilan byudjet qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish va profilaktikasiga qaratilgan davlat moliyaviy nazoratining rolini tubdan qayta ko'rib chiqish belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil-21 avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PQ-3231-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasida, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmasida, viloyatlar xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmalarida hamda Toshkent shahar Xalq ta’limi, Sog‘liqni saqlash bosh boshqarmalari va O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi boshqarmasida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlari tashkil etildi. Aytish mumkinki qonunchilik tartibida byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini yo‘lga qo‘yish belgilandi.

Tashkil etilgan xizmatlarning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi[75]:

a) markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining — markazlashtirilgan tartibda quyi muassasalarning xarajatlar smetasi tuzilishi va ijro etilishini, ish haqining hisoblanishi va to‘lanishini, tovar, ish va xizmatlarning xarid qilinishini, byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobining yuritilishini ta’minlash, shuningdek, ularning faoliyati profili bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan tushadigan daromadlar monitoringini yuritish;

b) respublika darajasidagi hamda hududiy ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarining — byudjet mablag‘larining noqonuniy sarflanishi va talon-toroj qilinishi holatlarining quyidagi yo‘llar bilan profilaktikasini ta’minlash va ularning oldini olish:

-bo‘ysunuvidagi muassasalarda xarajatlar smetasini rejalashtirish va uning ijrosi, byudjet hisobining yuritilishi, tender (tanlov) savdolarining o‘tkazilishi va shartnomalar tuzilishi ustidan monitoring qilish;

-bo‘ysunuvidagi muassasalar va markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlari rahbarlariga byudjet hisobi va hisoboti tizimini

---

[75] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagi “Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PQ-3231-son qarori

takomillashtirish, asossiz debitor va kreditor qarzdorliklarga yo'l qo'ymaslik, byudjet intizomini mustahkamlash, byudjet mablag'laridan foydalanish, shu jumladan tovarlar, ish va xizmatlarni xarid qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarining xodimlari tarkibini mustahkamlash masalalari bo'yicha tavsiyalar tayyorlash;

-qonunni buzish holatlarini, ularni sodir etishga imkoniyat yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida quyi muassasalarga bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish.

Byudjet tashkilotlarida, ichki audit – tashkilot tomonidan smetalarni tuzish hamda ijrosini amalga oshirishni qonunchilik hujjatlariga rioya qilinishini tekshirish hamda monitoring olib borish yo'li nazorat qilish, moliyaviy hisobot ma'lumotlarini ishonchliligini ta'minlash, byudjet - smeta intizomiga rioya qilish, mablag'larni maqsadli va oqilona sarflanishga yo'naltirilgan faoliyatdir. Byudjet kodeksi qabul qilinishi va natijadorlik tamoyilini joriy qilish bilan bog'liq, ichki auditni tashkil etish shu kunning eng dolzarb masalalaridan bo'lmoqda.

Byudjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatini keng joriy qilishining zaruriyati quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Hisobini yuritishda ma'sul xodimlarni tegishli me'yoriy – huquqiy hujjatlar haqida yetarlicha xabardor emasligi, buxgalteriya bo'limi xodimlari tarkibini tez-tez o'zgarib, yangilanib turishi, ya'ni kadrlar qo'nimsizligi, buxgalteriya bo'limi xodimlari o'zaro bir - birlari bajaradigan ishlarini nazorat qilish mexanizmi yetarli darajada shakllantirilmaganligi natijasida xatoliklar hamda moliyaviy tartibbuzarliklar kuzatilmoqda;

2. Davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan rejali tekshirishlar o'tkazilganda mablag'lardan maqsadsiz foydalanish, moliyaviy kamomadlar, byudjet intizomiga rioya qilinmaganligi holatlari aniqlanmoqda;

3. Byudjet tashkilotlarida ichki moliyaviy nazorat tizimi faoliyati yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi natijasida hisobni yuritishda turli yondashuvlar bo'lmoqda hamda xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda;

4. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritilishi hisob kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirilishi va hisobot topshirishga qaratilmoqda;

5. Byudjet tashkilotlari moliya xo'jalik faoliyati samaradorligini baholash tizimi mavjud emas.

Yuqorida keltirilgan muammolarni yechimi byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyatini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Aytish mumkinki byudjet hamda byudjetdan tashqari mablag'lardan maqsadli va oqilona foydalanishni ichki nazorati ko'p jihatdan ichki audit tizimini samarali tashkil etishga bog'liq bo'ladi.

Ichki auditorlarning xalqaro instituti ichki auditni tashkilotning manfaatlari uchun uning faoliyatini tekshirishi va baholash bo'yicha mustaqil faoliyat sifatida ta'riflaydi.

Ichki audit xizmati tashkilotning ichki nazorat tizimini tashkil etuvchi tarkibiy elementlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ichki audit xizmati ichki nazorat tizimining turli bo'g'inlari (elementlari) ustidan samarali nazoratni amalga oshirishga yordam berish uchun mo'ljallangan faoliyat sifatida e'tirof etish mumkin.

O'z maqsadlariga muvofiq holda ichki audit xizmati byudjet tashkilotlarida quyidagi funksiyalarni bajarishi lozim:

- ichki nazorat tizimi (byudjet tashkiloti rahbariyati va xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan davlat funksiyasini bajarish bo'yicha operatsiyalar natijasi, ishonchli hisobotlar bilan ta'minlash va qonunchilik hamda boshqa normativ – huquqiy akt va reglamentlarga rioya qilish)ni baholash, aniqlangan kamchiliklarni bartafar etish bo'yicha tavsiyalar va takliflarni ishlab chiqish;

- faoliyatning samaradorligini baholash, byudjet-smeta intizomiga rioya qilish bo'yicha asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish va taqdim etish;

- moliyaviy hisobotdagi axborotlarni ishonchliligini ta'minlanishi bo'yicha tegishli takliflarni ishlab chiqish.

- har yili tasdiqlanadigan rejaga muvofiq tegishli tekshirishlar o'tkazish yo'li bilan ichki auditni amalga oshirish (har chorakda va hisobot yili yakunlari bo'yicha);

- davlat moliyaviy nazorati organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijalariga ko'ra aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish chora tadbirlar rejasini ishlab chiqish va uni bajarilishini nazorat qilish;

- tuziladigan xo'jalik shartnomalarining qonun hujjatlariga muvofiqligi yuzasidan ekspertiza o'tkazish;

- buxgalteriya hisobini yuritishda va moliyaviy hisobotni tuzishda buxgalteriya va reja-moliya bo'limlariga metodik yordam berish, ularga moliya, byudjet-soliq qonunlari hamda boshqa qonun hujjatlari masalalari bo'yicha maslahatlar berish;

- me'yoriy hujjatlar va ichki nizomlar, hisobot bo'yicha qoidalar, shartnomalar majburiyatlari, hisob - kitob – to'lov intizomiga amal qilishini, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar bilan hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish, birlamchi hisob hujjatlarini rasmiylashtirish tartibiga amal qilinishi va aniqlangan xato hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qarorlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish va boshqalar.

Ichki audit xizmati bo'limiga byudjet tashkilotlarida buxgalterlik lavozimida ko'p yil ishlagan katta amaliy tajribalarga ega xodimlarni shuningdek ichki audit malaka sertifikatiga ega bo'lgan shaxslar jalb etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ichki audit xizmati bo'limining xodimlari, xarajatlar smetalari hamda shtatlar jadvali tuzishdan boshlab ularni ijrosi yakunlariga oid moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonlarini monitoringini olib borilishini nazorat qilishlari - maqsadga

muvofiq bo‘ladi. Ichki audit xizmati bo‘limining xodimlari faoliyati ichki lavozim yo‘riqnomalari bilan belgilanadi.

Ichki audit xizmati bo‘limi tomonidan o‘rganilgan obyektlar bo‘yicha oylik, choraklik hisobotlarni taqdim etib borilishi lozim. Bunda ichki audit xizmatining vazifalari quyidagilarni ta’minlash hisoblanadi:

- rahbariyatni ishonchli axborot bilan ta’minlash va ichki audit amalga oshirilishi natijalari bo‘yicha moliya - xo‘jalik faoliyatini takomillashtirishga doir takliflarni tayyorlash;

- ichki audit jarayonida aniqlanadigan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan rahbariyatga tavsiyalarni tezkorlik bilan kiritish, ularning bartaraf etilishini nazorat qilish.

Byudjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatini amalga oshirish rejalashtirish, faoliyatni amalga oshirish va natijalari bo‘yicha hisobot shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Ichki auditni o‘tkazishning boshlang‘ich bosqichi, uni rejalashtirish bo‘lib, hisoblanadi. Auditning rejasida ishning kutilayotgan hajmi, audit o‘tkazishning jadvali va muddatlari, tekshirilayotgan obyekt to‘g‘risida obyektiv va har tomonlama asoslangan fikrlarni shakllantirish uchun zarur bo‘ladigan auditorlik amallarining hajmi, turlari va ketma-ketligi ko‘rsatib o‘tilgan auditorlik dasturi belgilanib o‘tilishi lozim.

Auditorlik tekshirishlarning umumiy rejasi har hisobot yili boshlangunga qadar tuziladi. Uni tuzishda quyidagilar ko‘zda tutiladi:

- har bir aniq obyektlar bo‘yicha tekshiruvchilarni ularning professional xususiyatlari va lavozim darajalariga muvofiq taqsimlash;

- ishchi hujjatlashtirishni olib borish;

- amalga oshirilgan ishni hujjatli ravishda rasmiylashtirish va uni tekshirilayotgan obyektning ma’sul shaxslari bilan muhokama etish.

Umumiy reja audit dasturini amalga oshirishda qo‘llanma sifatida xizmat qilishi lozim. Audit dasturi – bu o‘rnatilgan shaklda hujjatli ravishda, rasmiylashtirilgan ichki auditning usullari va uslublari majmuidir. Audit dasturi mazkur auditorlik tekshiruvida qo‘llaniladigan

auditorlik amallari, shuningdek, ularning tavsifi, muddatlari, hajmlari va aniq bir ijro etuvchilarini o‘z ichiga oladi. Auditorlik tekshiruvini o‘tkazishdan oldin auditorlik tanlovining hajmini aniqlab olish lozim bo‘ladi, shuningdek, tekshirilayotgan obyektda mavjud bo‘lgan auditorlik hujjatlar bilan tanishib chiqilishi zarurdir.

Ichki auditning usullari moddiy va moliyaviy resurslardan foydalanishning samaradorligini o‘rganish, aktivlarning saqlanishi va majburiyatlarning o‘z vaqtida qaytishini ta’minlash, xo‘jalik operatsiyalarining qonuniyligi, haqqoniyligi va maqsadga muvofiqligini ta’minlab berish, shuningdek, ushbu operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan boshlang‘ich hujjatlar bilan rasmiylashtirilishini o‘rganish maqsadida uning moliyaviy –xo‘jalik faoliyatini tekshirish bo‘yicha moliyaviy, iqtisodiy, tashkiliy, texnik va haqiqiy uslub hamda choralarining majmuasidan iboratdir.

Ichki auditni o‘tkazish amaliyotda nazoratning quyidagi turlaridan foydalanish bilan amalga oshiriladi:

- inventarizatsiya qilish;
- ko‘zdan kechirish;
- o‘rganib chiqish;
- nazorat tariqasidagi o‘lchovlar o‘tkazish;
- hujjatli nazorat qilish, huquqiy tekshiruvlar va tahliliy amallarni qo‘llagan holda o‘tkazish;
- kuzatish, qiyoslash va taqqoslash;
- o‘zaro uchrashuvli tekshirishlar va boshqalar.[76]

Ichki audit xizmati tekshiruv obyektlari bo‘yicha ishchi hujjatlar shakllantirib olinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ichki auditorlar tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar natijalari hisobotlar shaklida rasmiylashtirilishi lozim. U auditorlik ma’lumotnomalari, auditorlik xulosasi, bildirish xati, auditorlik

---

[76] X. Qosimov, L. Yugay, A. Xoshimova, B.Pardayev, B.Abdinazarov. Auditorlik faoliyati bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar to‘plami. infoCOM.Uz T.: 2010. 316 b.

tekshiruvi to‘g‘risidagi hisobot, taftish (audit) dalolatnomasi va shunga o‘xshagan bo‘lishi mumkin. Bizningcha hisobot shakllari tuzilishi belgilab olinishi maqsadga muvofiq.

Tashkilotning moliyaviy holatini tekshirish natijalari to‘g‘risidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- byudjet-smeta intizomiga rioya qilinishi holatini baholash;
- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotini tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;
- buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibi buzilishining tavsifi va boshqalar.

Xulosa qilib aytish mumkinki byudjet tashkilotlarida ichki audit faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish byudjet hamda byudjetdan tashqari mablag‘larni maqsadli va oqilona sarflanishi ta’minlanishi mustahkamlanadi

15-BOB. AUDITORLIK NAZORATINING MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISHDAGI AHAMIYATI

15.1. Auditorlik nazoratining mazmun-mohiyati

Auditorlik nazorati nodavlat moliyaviy nazoratining yangi turi bo'lib, u mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda ham paydo bo'ldi. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor tizimiga o'tilishi va turli tijorat tizimlarining paydo bo'lishi bilan ularning moliyaviy ishonchliligiga, shuningdek ular moliyaviy holatini obyektiv baholashga nisbatan talablar keskin oshirildi.

Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari buxgalterlik va moliyaviy hisobotning ishonchliligini hamda amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operasiyalarining amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash, tekshirilayotgan iqtisodiy subyektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda 2000-yil 26-mayda qabul qilingan bo'lib,[77] unga 2009-yil 9-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining 216-son qonuni bilan o'zgatirishlar kiritilgan edi. 2018-yil 19-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3946-sonli qarorining qabul qilinishi ushbu qonunga bir qator o'zgartirishlar kiritilishiga sabab bo'ldi. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni loyihasi e'lon qilindi.[78]

---

[77] Avvalgisi 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan edi.

[78] ushbu qonun 2020 yil 1 yanavardan kuchga kiradi.

O‘tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta’minlashga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda, xususan[79]:

• birinchidan, auditorlik tashkilotlariga ishonch darajasi past, shuningdek, auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma’muriy tartib-taomil sifatida qaralmoqda;

• ikkinchidan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo‘yicha mavjud cheklovlar va tanlovlar o‘tkazish amaliyoti ko‘p hollarda insofsiz, shu jumladan narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda;

• uchinchidan, auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo‘lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zaruriy darajasini, shu jumladan auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta’minlamayapti, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda;

• to‘rtinchidan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta’sir choralari cheklangani sharoitida sifatsiz auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xatti-harakatlariga nisbatan tezkor chora ko‘rish imkonini bermayapti;

• beshinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume’tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to‘liq mos emas, bu esa

[79] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3946-sonli qarori, 19.09.2018 y.

xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamayapti.

Auditorlik faoliyati auditorlik tashkilotlarining auditorlik xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatidir.

Auditorlik tashkiloti esa ma'lumotlari maxsus vakolatli davlat organining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan, auditorlik tashkilotlari reyestriga kiritilgan, shuningdek, auditorlarning respublika jamoat birlashmasi a'zosi hisoblangan tijorat tashkilotidir.

Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyati bilan bog'liq quyidagi turdosh xizmatlarni ko'rsatishi mumkin:

✓ buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish;

✓ moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga muvofiq tuzish;

✓ yuridik shaxs taftish komissiyasining (taftishchisining) vazifalarini amalga oshirish;

✓ soliq qonunchiligini qo'llash va hisoblar va deklaratsiya tuzish masalalari yuzasidan maslahat berish;

✓ moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va moliyaviy rejalashtirish, iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv maslahat berish;

✓ buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish masalalari bo'yicha maslahat berish;

✓ buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tuzish, soliq solish, auditorlik xizmatlari ko'rsatish, moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va moliyaviy rejalashtirish bo'yicha seminarlar, konferensiyalar o'tkazish;

✓ buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzishni avtomatlashtirish, moliyaviy ma'lumotlarning axborot va kiberxavfsizligi, avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobini va moliyaviy hisobot tuzishni o'qitish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

✓ auditorlik xizmatlari ko'rsatish, moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish va moliyaviy rejalashtirish, buxgalteriya hisobini yuritish va

moliyaviy hisobotni tuzish bo'yicha uslubiy materiallar va tavsiyalar ishlab chiqish;

✓ auditorlik faoliyati sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va ularning natijalarini tarqatish.

Qonunchilikka muvofiq auditorlik faoliyati mustaqillik, xolislik, halollik, professional malakalilik va mahfiylik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.



15.1-rasm. **Auditorlik faoliyatining asosiy tamoyillari**

Auditorlar farazlarga asoslanib fikr bildirishdan holi bo'lishi va obro'sini tushirishi mumkin bo'lgan omillarga yo'l qo'ymasligi lozim. Auditorlik tashkilotining mustaqilligiga to'sqinlik qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, auditorlik tashkiloti auditorlik xizmatlarini ko'rsatishdan voz kechishi kerak.

Auditorlar xolis bo'lishi va manfaatlar to'qnashuvi yoki boshqa shaxslar tomonidan bosimlar sababli o'z professional mulohazasini riskka qo'ymasligi lozim.

Auditor professional burchiga va ahloqiy talablarga sodiq bo'lishi, shuningdek, auditorlik tashkiloti obro'siga ta'sir ko'rsatadigan holatlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

Auditor qonun talablariga amal qilishi, auditorlik tashkiloti tarkibida sifatli auditorlik xizmatlarini ko'rsatish uchun yetarli bo'lgan bilim va ko'nikmalarni ushlab turishi lozim.

Auditorlik tashkilotlari auditorlari va ishchilari auditorlik xizmatlarini ko'rsatish jarayonida ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni auditorlik xizmati ko'rsatilgan shaxsning yozma roziligisiz oshkor etmasligi lozim, korrupsiyaga qarshi kurashish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

Auditorlik tashkilotlari o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir.

Auditorlik tashkilotlari vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari hamda boshqa davlat va xo'jalik boshqaruv organlari tomonidan tuzilishi mumkin emas.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlanadigan boshqa shaxslar auditorlik tashkilotlarining muassislari bo'la olmaydilar.

Auditorlik tashkilotlari aksiyadorlik jamiyati ko'rinishidan tashqari, qonun hujjatlarda nazarda tutilgan istalgan tashkiliy-huquqiy shaklda tuzilishi va o'z faoliyatini quyidagi majburiy shartlarga rioya etgan holda amalga oshirishi mumkin:

- auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi hisoblangan auditorlarning eng kam soni kamida to'rt nafar shtatdagi auditordan iborat bo'ladi;
- ustav kapitali auditorlik tashkiloti faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan mol-mulkdan, shu jumladan, pul mablag'laridan shakllantiriladi;
- auditorlar (auditorga) ustav kapitalidagi ulushi mazkur auditorlik tashkilotida asosiy ish joyi bo'lganda ularning ustav kapitalidagi ulushi yuz foiz bo'lishi kerak (auditorlik tashkiloti - chet el auditorlik tashkilotining filiali yoki sho'ba xo'jalik jamiyatlari tuzilgan hollar bundan mustasno);

➢ auditorlik tashkilotiga faqat mazkur auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi bo'lgan auditor rahbar bo'lishi kerak;

➢ boshqa auditorlik tashkilotining muassisi (ishtirokchisi) bo'lmaydi.

Auditorlik tashkiloti quyidagi huquqlarga egadir:

➢ auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sis hujjatlari hamda buxgalteriya hisobi hujjatlari va moliyaviy hisobotlar bilan oldindan tanishib chiqish;

➢ auditorlik tekshiruvi o'tkazish shakllari va usullarini mustaqil belgilash, hamda axborotlar tizimi va texnologiyalarini qo'llash;

➢ auditorlik tekshiruvi o'tkazilayotganda xo'jalik yurituvchi subyekt amalga oshirayotgan moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq hujjatlarni to'liq hajmda olish, shuningdek ushbu hujjatlarda hisobga olingan har qanday mol-mulkning amalda mavjudligini hamda har qanday majburiyatlarning amaldagi holatini tekshirish;

➢ auditorlik tekshiruvini o'tkazish davomida yuzaga kelgan masalalar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektning boshqaruv vazifasi yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshiradigan shaxs va boshqa moddiy javobgar shaxslaridan og'zaki va yozma tushuntirishlar olish hamda auditorlik tekshiruvi uchun zarur bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni olish;

➢ uchinchi shaxslar tomonidan yozma tasdiqlangan axborotni xo'jalik yurituvchi subyektdan olish;

➢ auditorlik xulosasini tuzish uchun zarur bo'lgan axborot xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan taqdim etilmagan taqdirda auditorlik tekshiruvi o'tkazishdan bosh tortish;

➢ auditorlik tekshiruvini o'tkazishda ishtirok etishga ekspertlarni belgilangan tartibda jalb etish;

➢ auditorlik tekshiruvi bilan qamrab olingan davrda xo'jalik yurituvchi subyektga turdosh xizmatlar ko'rsatish, bunda buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, tiklash, yuritish va moliyaviy hisobot tuzish, milliy moliyaviy hisobotni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga

o‘tkazish, xo‘jalik yurituvchi subyekt taftish komissiyasining (taftishchisining) vazifalarini amalga oshirish mutasno.

15.2. Auditorlik tekshiruvining mohiyati va shakllari

Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to‘g‘riligi va qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini hamda u bilan bog‘liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.

Auditorlik tekshiruvi hisobot davri moliyaviy hisoboti va u bilan bog‘liq moliyaviy axborotning buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga mosligini aniqlash uchun moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlarning ishonchliligi to‘g‘risida auditorlik tashkilotining xolis fikrini bildirish maqsadida o‘tkaziladi.

Ishonchlilik deganda xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati va moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari haqida holis fikirga ega bo‘lish imkonini beradigan moliyaviy hisobotdagi ma’lumotlarning aniqlik darajasi tushuniladi.

Quyidagi hollarda auditorlik tashkilotlari tomonidan auditorlik tekshiruvi o‘tkazish taqiqlanadi:

- mazkur auditorlik tashkilotining kreditorlari, sug‘urtalovchilari bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan, shuningdek ushbu auditorlik tashkilotlari va auditorlar ularga nisbatan ta’sischilar, ishtirokchilar, aksiyadorlar bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan;
- ta’sischilari, ishtirokchilari, aksiyadori shuningdek rahbarlik funksiyasini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish funksiyasini amalga oshirayotgan shaxs ayni bir paytning o‘zida ushbu auditorlik tashkilotining xodimi bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektga nisbatan;
- mazkur xo‘jalik yurituvchi subyektga auditorlik tekshiruvi qamrab oladigan davrda moliyaviy hisobotlarni moliyaviy hisobning xalqaro standartlariga muvofiq tuzish, yuridik shaxs taftish

komissiyasining (taftishchisining) vazifalarini amalga oshirish hamda soliq qonunchiligini qo'llash va hisoblar va deklaratsiya tuzish masalalari yuzasidan maslahat berish kabi turdosh xizmatlar ko'rsatganda;

- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning ta'sischilari, ishtirokchilari yoki rahbarlik funksiyasini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish funksiyasini amalga oshirayotgan shaxslar bilan yaqin qarindosh bo'lgan ishchilariga;
- manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga yoki bunday to'qnashuv yuzaga kelishiga xavf tug'diradigan holatlar.

Auditorlik tashkiloti aynan bir xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini ketma-ket yetti yildan ortiq auditorlik tekshiruvidan o'tkazishga haqli emas.

Auditorlik tekshiruvi 2 xil shaklda o'tkaziladi.

Majburiy auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi xo'jalik yurituvchi subyekt bo'ladi. Auditorlik tashkilotini tanlash xo'jalik yurituvchi subyekt mulkdori, shuningdek qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishi bilan kelishib olinadi.



15.2-rasm. **Auditorlik tekshiruvining shakllari**[80]

Quyidagilar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi kerak:

[80] O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda 2000 yil 26 may

- ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotlar;
- hisobot yili yakuni bo'yicha quyidagi shartlardan bir vaqtning o'zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari:

➢ aktivlarning balans qiymati eng kam ish haqining 100 ming barobar miqdoridan ortiq bo'lsa,

➢ mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushum eng kam ish haqining 200 ming barobar miqdoridan ortiq bo'lsa,

➢ xodimlarning o'rtacha yillik soni 100 kishidan ortiq bo'lsa;

- aktivlarning balans qiymati, tushumi va xodimlar sonidan qat'iy nazar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotlar:

➢ aksiyadorlik jamiyatlari;

➢ banklar va boshqa kredit tashkilotlari;

➢ sug'urta tashkilotlari;

➢ investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilar;

➢ manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning badallari bo'lmish xayriya, ijtimoiy va boshqa fondlar;

➢ ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat unitar korxonalari;

➢ fond va tovar birjalari;

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotlarda majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotlari reyestrida kiritilgan va quyidagi talablarga javob beradigan auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkazishga ruxsat beriladi:

- auditorlik tekshiruvi o'tkazish tajribasi uch yildan kam bo'lmagan;
- xalqaro buxgalter sertifikati yoki kamida ikki nafar kishida milliy professional buxgalter sertifikati mavjud auditorga ega bo'lgan;
- kamida bir nafar xodimi soliq maslahatchisi malaka sertifikatiga ega bo'lgan;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazish bo'yicha tuzilgan shartnomada oxirgi uch yilda auditorlik tashkilotlari ishining sifati tashqi nazorati

natijalariga muvofiq auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini buzmagan.

Banklarni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish Markaziy bankning banklarda auditorlik tekshiruvini o‘tkazish huquqini beruvchi sertifikati mavjud bo‘lgan auditorlik tashkilotlari tomonidan o‘tkaziladi.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar auditor xulosasi nusxasini, majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tgandan so‘ng o‘n besh kun mobaynida, lekin keyingi hisobot yilining o‘n beshinchi iyunidan kechiktirmasdan, soliq organlariga taqdim etadilar.

Qonun hujjatlariga muvofiq o‘tkaziladigan majburiy auditorlik tekshiruvidan bosh tortish xo‘jalik yurituvchi subyektning mansabdor shaxsiga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Xo‘jalik yurituvchi subyektga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin kalendar yil tugaguniga qadar majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tmaslik xo‘jalik yurituvchi subyektdan eng kam oylik ish haqining yuz baravari miqdorida jarima undirishga sabab bo‘ladi. Jarimaning to‘lanishi xo‘jalik yurituvchi subyektni majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishdan ozod qilmaydi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi xo‘jalik yurituvchi subyekt, uning mulkdori, shuningdek ustav kapitalida o‘n foizdan kam bo‘lmagan miqdordagi ulushga ega qatnashchilar va aksiyadorlar, nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlardir.

Auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko‘ra auditorlik tashkiloti va ushbu organlar o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida o‘tkaziladi hamda unga mazkur shartnoma asosida haq to‘lanadi. Ushbu talablar asosida aynan bir auditorlik tashkiloti aynan o‘sha xo‘jalik yurituvchi subyekt tekshiruvida qayta jalb qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi o‘tkazish bo‘yicha ishlarga haq to‘lash auditorlik tekshiruvini o‘tkazishga tashabbus ko‘rsatgan shaxs hisobidan amalga oshiriladi.

Auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyekt auditorlik tashkilotidan quyidagilarni olish huquqiga egadir:

➢ auditorlik xulosasi;

➢ auditorlik xulosasida bayon etilgan fikr bo'yicha tushuntirish va auditorlik tashkiloti fikriga asos bo'ladigan me'yoriy huquqiy hujjatlar haqida ma'lumot;

➢ buxgalteriya hisobini yuritish tartibi, moliyaviy hisobot tuzish, va aniqlangan kamchilik va qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha maslahat.

Auditorlik tekshiruvidan o'tkazilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

✓ auditorlik tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilangan muddatlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorga kerakli sharoitlarni yaratib berishi, unga zarur hujjatlarni taqdim etishi;

✓ auditning xalqaro standartlariga va auditorlik xizmatlari ko'rsatish to'g'risida tuzilgan shartnomadan kelib chiqadigan boshqa majburiyatlarga amalga qilish;

✓ auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan kamchiliklar va ular haqidagi yozma shakldagi ma'lumot natijalarini olgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechikmagan muddatda ko'rib chiqish;

✓ auditorlik tekshiruvi jarayonida aniqlangan buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotni tuzish va soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash tartibiga doir qoidabuzarliklarni bartaraf qilish.

Xo'jalik yurituvchi subyekt auditorlik tashkiloti bilan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida tuzilgan shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va zimmasida boshqa majburiyatlar bo'lishi mumkin.

15.3. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi va nazorati

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3946-son qaroriga

muvofiq Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi to'g'risidagi nizom" tasdiqlandi.[81]

2000 yil 22 sentyabrdagi "Auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun auditorlik tashkitlotlariga litsenziya berish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan auditorlik tekshiruvlari turiga qarab litsenziya talablari tabaqalashtirilgan edi, bugungi kunga kelib ushbu tartib-qoidalar davr talabidan kelib chiqib o'zgarganligini ko'rih mumkin .

15.1-jadval

Auditorlik tekshiruvlari turiga qarab litsenziya talablarining tabaqalanishi

Ko'rsatkichlar	Ustav kapitali hajmi	Shtatdagi auditorlar	Xalqaro sertifikatiga ega bo'lgan auditorlar soni
Faqat tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari	kamida 1500 EKIX	kamida 2 ta	**shart emas**
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda (ustav kapitali 500 mln so'mdan ortiq bo'lgan ochiq turdagi aksiyadorlik kompaniyalari, banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari) tashabbus va majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari	kamida 3000 EKIX	kamida 4 ta	**kamida 1ta**
Barcha turdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari	kamida 5000 EKIX	kamida 6 ta	**kamida 2ta**

Auditorlik faoliyati maxsus ruxsatnoma, ya'ni litsenziya asosida amalga oshiriladi. Auditorlik tashkilotlariga auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya maxsus vakolatli davlat organi - O'zbekiston

[81] O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 218-son Qarori, 13.03. 2019-y.

Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan auditorlik tashkilotining arizasiga ko‘ra beriladi.

Litsenziyalovchi organning litsenziyani berish, berishni rad etish, litsenziyaning amal qilishini tugatish, o‘n ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatga to‘xtatib turish yoki tiklash, shuningdek, uni bekor qilish to‘g‘risidagi qarori O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi va auditorlik tashkilotiga yozma yoki axborot tizimi orqali elektron shaklda, qaror qabul qilingan kundan boshlab uch kun mobaynida yetkaziladi.

Litsenziya olish uchun ariza barcha zarur hujjatlar bilan birga litsenziyalovchi organ tomonidan ko‘rib chiqiladi. Auditorlik tashkilotining hujjatlarini ko‘rib chiqish va litsenziya berish yoki berishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qilish muddati litsenziya olish uchun ariza va zarur hujjatlar kelib tushgan kundan boshlab o‘n besh kalendar kunni tashkil etadi.

Litsenziya olish uchun arizani litsenziyalovchi organ tomonidan ko‘rib chiqishi uchun eng kam oylik ish haqining (litsenziyalovchi organga litsenziya olish uchun ariza taqdim etilgan kundagi) bir baravari miqdorida yig‘im undiriladi.

Auditorlik faoliyatini amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish;
- ustav kapitalida auditorlarning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ulushiga ega bo‘lishi;
- ustav kapitalini auditorlik tashkiloti faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan mol-mulkdan, shu jumladan pul mablag‘laridan shakllantirish;
- faqat auditorlik faoliyatini amalga oshirish;
- auditorlik tashkiloti mas’uliyatini sug‘urta qilish polisiga ega bo‘lish;

- auditor tomonidan auditorlik faoliyatini faqat bitta auditorlik tashkilotida amalga oshirish;
- shtatdagi auditorlar soni mazkur Nizomda nazarda tutilgan miqdorda bo'lishi;
- auditorlik tekshiruvi o'tkazishda olingan axborotlarning sir saqlanishini ta'minlash;
- auditorlik xizmatlari ko'rsatishda shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish;
- auditorlik tashkiloti rahbari lavozimiga faqat ushbu auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi hisoblangan auditorni tayinlash;
- auditorlik faoliyatini amalga oshirishda mustaqillikni ta'minlash;
- auditorlik faoliyati standartlariga muvofiq auditorlik hisobotini va auditorlik xulosasini tuzish;
- auditorlik tashkilotlarida ichki standartlarning mavjud bo'lishi;
- o'z pochta manzili o'zgargani to'g'risida litsenziyalovchi organni o'n kun muddatda xabardor qilish;
- auditorlik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni bir yilda bir marta, belgilangan shaklda litsenziyalovchi organga taqdim etish, shuningdek, litsenziyalovchi organning talabiga ko'ra auditorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq boshqa axborotlarni taqdim qilish;
- auditorlar ishi sifatining nazoratini ta'minlash;
- auditorlarning bir yilda bir marta malaka oshirish kurslaridan o'tishini ta'minlash;
- auditorlik tashkiloti rahbari almashganligi va (yoki) auditorlar tarkibi o'zgarganligi to'g'risida litsenziyalovchi organni besh kun muddatda xabardor qilish;
- auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirishda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklovlarga rioya qilish;

➢ o‘zining veb-saytida yoki auditorlarning respublika jamoat birlashmasining veb-saytida o‘tkazilgan majburiy auditorlik tekshiruvlari haqidagi axborotni e’lon qilish.

O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi auditorlarning respublika jamoat birlashmalari bilan birgalikda har uch yilda kamida bir marta auditorlik tashkilotlari ishining sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazadi.



15.3-rasm. **Litsenziyaning amal qilishini tugatish uchun asos bo‘lib hisoblanadigan litsenziya talablari va shartlarini bir marta qo‘pol ravishda buzish holatlari**[82]

[82] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 218-son Qarori, 13.03. 2019-y.

Qonunchilikda litsenziyaning amal qilishini tugatish uchun asos bo‘lib hisoblanadigan litsenziya talablari va shartlarini bir marta qo‘pol ravishda buzish holatlari belgilab qo‘yilgan.

Auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazoratdan o‘tkazishda qonun hujjatlarini buzish yoki litsenziya talablari va shartlarining buzilganligi aniqlanganda, shuningdek, litsenziyalovchi organning aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish to‘g‘risidagi qarori auditorlik tashkiloti tomonidan bajarilmagan taqdirda litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish mumkin.

Litsenziyaning amal qilishi quyidagi holatlarda ham tugatiladi:

✓ auditorlik tashkiloti litsenziyaning amal qilishini tugatish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilganda;

✓ auditorlik tashkiloti tugatilganda;

✓ auditorlik tashkilotining faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda, bundan u qayta o‘zgartirilgan, shuningdek, yangidan vujudga kelgan auditorlik tashkiloti davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sanasida qo‘shib yuborilayotgan auditorlik tashkilotlarida litsenziya mavjud bo‘lgan holatlar mustasno;

✓ auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziya bitimida nazarda tutilgan litsenziya talablari va shartlari muntazam ravishda yoki bir marta qo‘pol tarzda buzilganda;

✓ litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turishga sabab bo‘lgan holatlar auditorlik tashkiloti tomonidan litsenziyalovchi organ yoki sud belgilagan muddatda bartaraf etilmaganda;

✓ litsenziyalovchi organning litsenziya berish to‘g‘risidagi qarorining noqonuniyligi aniqlanganda.

Quyidagi holatlarda esa litsenziya bekor qilinadi:

➢ auditorlik tashkiloti litsenziyani bekor qilish to‘g‘risida ariza bilan murojaat qilganda;

➢ litsenziyaning qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi aniqlanganda;

➢ agar auditorlik tashkiloti litsenziya berish haqidagi qaror qabul qilinganligi to‘g‘risida xabarnoma yuborilgan (topshirilgan) paytdan boshlab uch oy davomida litsenziyalovchi organga davlat boji to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etmagan bo‘lsa, yoxud litsenziya bitimini imzolamagan bo‘lsa.

O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirligi litsenziyaning amal qilishini o‘n ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatga to‘xtatib turishga yoxud o‘n ish kunidan ortiq muddatga to‘xtatib turish, yoki tugatish to‘g‘risida sudga murojaat qilishga haqlidir. Sudning litsenziyaning amal qilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qarori auditorlik tashkilotiga va litsenziyalovchi organga qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda yetkaziladi.

15.4. Auditorlik hisoboti va xulosalari

Auditorlik hisoboti - auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi mufassal ma’lumotlardan, shuningdek auditorlik tekshiruvi o‘tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariga, mulkdoriga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig‘ilishiga yo‘llangan hujjat. Auditor hisobotida aniqlangan chetga chiqishlar va qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar, shuningdek xo‘jalik yurituvchi subyektning moliya-xo‘jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar va takliflar mavjud bo‘lishi kerak.

Agar auditorlik tekshiruvi xo‘jalik yurituvchi subyekt qatnashchilari (aksiyadorlari) yoki nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qilish organlari topshirig‘iga binoan auditorlik tashkiloti tomonidan o‘tkazilayotgan bo‘lsa, auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvi topshirig‘iga binoan o‘tkazilayotgan shaxsga ham taqdim etiladi.

Auditorlik hisobotidagi axborot maxfiy hisoblanadi va oshkor qilinishi mumkin emas. Ushbu axborotdan foydalangan shaxslar axborotni oshkor qilganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Auditorlik hisobotining har bir beti auditorlik tekshiruvini o'tkazgan auditor (auditorlar) tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

Auditorlik hisobotining shakli va mazmuni auditorlik faoliyatining milliy standartlari bilan belgilanadi.

Moliya vazirining 2016-yil 9-noyabrdagi 85-son[83] buyrug'i bilan O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatining milliy standarti (70-son AFMS) "Moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi" yangi tahrirda tasdiqlangan va 2017-yil 6-martdan kuchga kirgan.

Auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoida buzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek auditorlik tekshiruvini o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotlardan iborat bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga, mulkdoriga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishiga yo'llangan hujjatdir.

Auditorlik hisobotining tarkibi kirish, tahliliy va yakuniy qismlar ("Auditorlik hisoboti" hamda "Auditorlik tashkiloti hisoboti" nomlari teng ahamiyatli) nomlaridan iborat bo'lishi kerak. Buyurtmachi bilan kelishgan holda hisobot qo'shimcha qismlarga ega bo'lishi mumkin. Hujjatda auditorlik hisobotining har bir qismi saqlashi kerak bo'lgan ma'lumotlar va axborotning tuzatishlar kiritilgan ro'yxati keltiriladi.

Auditor hisobotida aniqlangan chetga chiqishlar va qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar va takliflar mavjud bo'lishi kerak.

---

[83] O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016 yil 9 noyabrdagi 85-son buyrug'i bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligida 2016 yil 1 dekabrda 2844-son bilan ro'yxatga olingan

Agar auditorlik tekshiruvi xo'jalik yurituvchi subyekt qatnashchilari (aksiyadorlari) yoki nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qilish organlari topshirig'iga binoan auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkazilayotgan bo'lsa, auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvi topshirig'iga binoan o'tkazilayotgan shaxsga ham taqdim etiladi.

Auditorlik hisobotidagi axborot maxfiy hisoblanadi va oshkor qilinishi mumkin emas. Ushbu axborotdan foydalangan shaxslar axborotni oshkor qilganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Auditorlik hisobotining har bir beti raqamlangan, auditorlik tekshiruvini o'tkazgan auditor (auditorlar) va auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan bo'lishi shart. Auditorlik hisoboti asosida auditorlik xulosasi tuziladi.

Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotning to'g'riligi va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablariga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjatdir.

Auditorlik tashkiloti auditorlik tekshiruvi natijalariga ko'ra quyidagilarga baho berishi lozim:

- auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq fikr bildirish uchun yetarli va lozim darajadagi dalillar olinganligiga;
- alohida-alohida yoki umumiy birgalikda olinganda tuzatilmagan buzib ko'rsatishlar auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq muhim hisoblanishiga;
- qabul qilingan hisob siyosatining asoslanganligiga va uning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligiga;
- moliyaviy hisobotda aks ettirilgan axborotning ishonchli, qiyoslanuvchanli, tushunarli va o'rinli ekanligiga;

• moliyaviy hisobotning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tuzishga doir normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligiga.

Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan hujjatdir.

Auditorlik xulosasi auditor (auditorlar), auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan, auditorlik tashkiloti muhri bilan (muhr mavjud bo'lgan taqdirda) tasdiqlangan va auditorlik tashkilotining fikri ifoda etilgan moliyaviy hisobot ilova qilinishi kerak. Auditorlik xulosasining barcha betlari, jumladan ilovadagi moliyaviy hisobot yagona hujjat hisoblanadi.

Auditorlik xulosasining shakli va mazmuni auditning xalqaro standartlari bilan belgilanadi.

Auditorlik xulosasida auditorlik tashkilotining ijobiy yoki modifikatsiyalangan fikri ifodalanishi mumkin.

ijobiy fikr

- Xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisoboti barcha muhimlilik munosabatlarida uning moliyaviy ahvolini, moliyaviy natijalarini haqqoniy aks ettirsa va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kelgan hollarda

modifikatsiyalangan fikri

- olingan auditorlik dalillari asosida umumiy holda ko'rilayotgan moliyaviy hisobot muhim buzib ko'rsatishlarga ega bo'lsa;
- umumiy holda ko'rilayotgan moliyaviy hisobot muhim buzib ko'rsatishlarga ega emasligini aniqlash uchun yetarli darajadagi tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyati bo'lmasa

15.4-rasm. **Auditorlik xulosasida ifodalanishi mumkin bo'lgan auditorlik tashkilotining fikrlari**

Modifikatsiyalangan fikr bir nechta turga bo'linadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotida ahamiyatli buzib ko'rsatishlar mavjud bo'lsa va ularning xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan bartaraf etilmasligi, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itishi mumkin bo'lgan hollarda salbiy fikr bildirilgan auditorlik xulosasi tuziladi.

Shuningdek, quyidagi holatlarda ham salbiy fikr bildiriladi:

- xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik operatsiyalari moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilgan, lekin ular qonun hujjatlari talablariga muvofiq kelmaganda;
- xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati aniqlangan buzib ko'rsatishlarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritishga rozi bo'lmaganda.

Izohlar bilan fikr bildirilgan auditorlik xulosasi quyidagi hollarda tuziladi:

✓ agar auditorlik tashkiloti yetarli darajadagi auditorlik dalillarini olib, alohida-alohida yoki umumiy holda ko'rib chiqilayotgan buzib ko'rsatishlarning ta'siri muhim hisoblanib, biroq moliyaviy hisobotning ko'pchilik muhim elementlariga ta'sir qilmaydi degan xulosaga kelganda;

✓ agar auditorlik tashkiloti o'z fikrini asoslash uchun yetarli darajadagi auditorlik dalillarini olish imkoniyatiga ega bo'lmaganda, biroq u aniqlanmagan buzib ko'rsatishlarning ta'siri moliyaviy hisobot uchun muhim bo'lishi mumkin, lekin moliyaviy hisobotning ko'pchilik muhim elementlariga ta'sir qilmaydi degan xulosaga kelganda.

Auditorlik tashkiloti fikr bildirishi uchun zarur bo'lgan yetarli darajadagi auditorlik dalillarini olish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, fikr bildirishni rad etishi mumkin. Bu holda fikr bildirish rad etilgan auditorlik xulosasi tuziladi.

Auditorlik tekshiruvini o'tkazmay tuzilgan yoxud auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha tuzilsada, lekin auditorlik tekshiruvi davomida auditor (auditorlar) tomonidan olingan va o'rganilgan

xo'jalik yurituvchi subyekt hujjatlari mazmuniga muvofiq bo'lmagan auditorlik xulosasi qasddan soxta tuzilgan hisoblanadi.

Qasddan soxta tuzilgan auditorlik xulosasi sud qaroriga asosan tan olinadi. Qasddan soxta tuzilgan auditorlik xulosasi auditorlik tashkilotining auditorlik tashkilotlari reyestridan chiqishiga, auditorlik tashkiloti rahbari va auditorlik tekshiruvida qatnashgan auditorlarning Sertifikatini amal qilishi to'xtatilishiga, hamda aybdor shaxsga nisbatan ma'muriy javobgarlikka tortilishiga olib keladi.

Auditorlik xulosasining tarkibiy tuzilmasi quyidagi qismlardan iborat:

- ✓ auditorlik xulosasining nomi;
- ✓ adresati;
- ✓ kirish qismi;
- ✓ qayd etish qismi;
- ✓ yakuniy qismi;
- ✓ auditorlik xulosasini berish sanasi;
- ✓ auditor (auditorlar) va auditorlik tashkiloti rahbarining imzosi, auditorlik tashkilotining muhri (muhr mavjud bo'lgan taqdirda).

Auditorlik tashkiloti modifikatsiyalangan fikr bildirgan taqdirda u majburiy elementlarga qo'shimcha ravishda alohida maxsus qismni kiritishi shart va u yakuniy qismdan oldin joylashtiriladi. U qo'shimcha tushuntirish qismini kiritishi mumkin va u yakuniy qismdan keyin joylashtiriladi.

Auditorlik xulosasi yozma ko'rinishda tayyorlanishi kerak. Auditorlik xulosasiga unga nisbatan fikr bildirilgan, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sanasi ko'rsatilgan va imzolangan moliyaviy hisobotning nusxasi ilova qilinadi.

Auditorlik xulosasining nusxasi miqdori auditorlik tashkiloti va buyurtmachi o'rtasidagi kelishuvga muvofiq belgilanadi va ular moliyaviy hisobot nusxasi ilova qilingan auditorlik xulosasidan kamida bir nusxadan olishlari kerak.

Auditorlik xulosasi tegishli moliyaviy hisobot bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan e'lon qilinishi mumkin.

Ko'rsatilishicha, auditorlik tashkiloti auditorlik hisobotlari va auditorlik xulosalarining nusxalarini, shu jumladan ushbu hujjatlarning elektron versiyalarini, kamida besh yil muddatda ishonchli saqlanishini ta'minlashi kerak.

V BO'LIM BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Ichki moliyaviy nazorat nima?
2. Ichki moliyaviy nazoratni samarali tashkil etishda qanday ahamiyatga ega?
3. Bosh buxgalterni ichki moliyaviy nazoratni olib borishdagi roli qanday?
4. Tashqi tekshiruvchilar uchun ichki nazorat qanday ahamiyatga ega?
5. Ichki audit bilan ichki nazorat o'rtasida qanday farq mavjud?
6. Ichki audit natijalari qanday rasmiylashtiriladi?
7. Yig'ma hisobotning tarkibi qanday?
8. Auditorlik faoliyatining asosiy vazifalarini bilasizmi?
9. Auditorlik tashkilotlari qanday professional xizmatlarni ko'rsatadi?
10. Auditorlik tashkiloti qanday huquqlarga ega?
11. Auditorlik nazoratining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
12. Auditorlik tekshiruvining qanday shakllari mavjud?
13. Majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bo'yin tovlaganlik uchun jarima miqdori qancha miqdorda belgilangan?
14. Auditorlik tekshiruvi buyurtmachisi qanday huquqlarga ega?
15. Auditorlik faoliyatini litsenziyalash qanday tartibda amalga oshiriladi?
16. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi auditorlik faoliyatini litsenziyalash bo'yicha qanday funksiyalarni bajaradi?

17. Auditorlik tashkiloti auditorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziya olish uchun litsenziyalovchi organga qanaqa hujjatlarni taqdim etadi?

18. Auditorlik faoliyatini amalga oshirishda litsenziya talablari va shartlari qaysilar?

19. Litsenziyaning amal qilishi qanday hollarda to'xtatiladi?

20. Auditorlik tekshiruvlari turiga qarab litsenziya talablarining tabaqalanishi qanday?

21. Litsenziyaning amal qilishini to'xtatish uchun asos bo'lib hisoblanadigan litsenziya talablari va shartlarini qanday hollarda buzilgan hisoblanadi?

22. Auditorlik hisoboti va xulosalari nima?

23. Auditorlik tashkiloti qanday holatlarda ijobiy fikr bildiradi?

24. Auditorlik tashkiloti qanday holatlarda modifikatsiyalangan fikr bildiradi?

V BO'LIM YUZASIDAN TESTLAR

1. 1. Ichki audit ...

a) Korxonalarda moliya-xo'jalik faoliyatini takomillashtirish, to'g'ri va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ko'maklashish hamon minimal mavjud resurslardan foydalangan holda maksimal foydalilik va rentabegillikni ta'minlashga qaratilgan faoliyatdir

b) Uchinchi shaxs nazorati bo'lib, tekshirilayotgan savol doirasida asosiy nazorat obyekti bilan bog'liq faqat o'zaro munosabatlar savollarini qarab chiqishga qaratilgan faoliyatdir

d) Aniq davr bo'yicha hamma masalalar bo'yicha nazorat obyektlarini tekshirish, faoliyatini baholash va korxonalarda moliya-xo'jalik faoliyatini takomillashtirish, to'g'ri va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ko'maklashishdir

e) Auditorlar tomonidan olib boriladigan faoliyat bo'lib, bunda korxonalarda moliya-xo'jalik faoliyatini takomillashtirish, to'g'ri va

oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ko'maklashish, rentabegillikni ta'minlash nazarda tutiladi

2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-iqtisodiy xizmatlari tomonidan subyektning moliyaviy faoliyatini, jumladan pul mablag'larining harakatini buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishni, korxonalarning likvidlik darajasini, moliyaviy barqarorligini nazorat qilish ... dir.

a) Moliyaviy faoliyat tahlili

b) Xo'jalik tekshiruvi

d) Xo'jalik ichki moliyaviy nazorat

e) Xo'jalik ichidagi kuzatuv nazorati

3. Quyidagilardan qaysi biri ichki nazorat tizimining ishlash tamoyili hisoblanmaydi?

a) Ichki nazorat tizimi barcha ishtirokchilarining hisobdorligi

b) Doimiy rivojlanish va takomilashtirish

d) To'xtovsiz ishlash

e) Xizmat vazifalarini faqat ma'sul shaxslarga yuklatish

4. Ichki moliyaviy nazorat tizimida asosiy bo'g'in ..... hisoblanadi.

a) Korxona rahbari

b) Korxona ombori mudiri

d) Bosh hisobchi

e) Kassir

5. Nazorat muhiti deganda ..... tushuniladi.

a) Amaldagi qonunchilik talablariga xo'jalik faoliyatining muvofiqligi va ichki nazorat tizimini belgilash

b) Ichki nazorat tizimini belgilash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tekshirilayotgan obyekt rahbariyatining amaliy harakati

d) Tashqi foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotni tayyorlash va ichki nazorat tizimini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy harakati

e) Bosh buxgalterga qonunchilik va moliya intizomining buzilishini o'z vaqtida aniqlash, ogohlantirish

6. Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarning samarali

boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida "gi 215-son qarori bilan ....

a) "Korxonalardagi ichki nazorat xizmati to'g'risida Nizom" qabul qilingan

a) "Korxonalardagi majburiy nazorat xizmati to'g'risida Nizom" qabul qilingan

d) "Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom" qabul qilingan

e) "Korxonalardagi majburiy audit xizmati to'g'risida Nizom" qabul qilingan

7. Ichki audit xizmati ....

a) Korxona Kuzatuvchi kengashining qarori bilan tashkil etiladigan tarkibiy bo'linmadir

b) Korxonaning ichki nazoratini ta'minlovchi bo'linmadir

d) Korxona rahbari tomonidan tashkil etilgan nazorat bo'linmasidir

e) Korxona Kuzatuvchi kengashining qarori bilan tashkil etiladigan korxonaning ichki auditni amalga oshiradigan tarkibiy bo'linmadir

8. Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki auditni tashkil etishga qo'yiladigan yagona talablar qaysi me'yoriy hujjatga asosan belgilangan?

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 27-sentyabrdagi «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ–475-son qaroriga asosan

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi "Ustav fondida davlat ulushi bo'lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida "gi 215-son qaroriga asosan

d) "Korxonalardagi ichki audit xizmati to'g'risida Nizom"ga asosan

e) "Korxonalardagi majburiy audit xizmati to'g'risida Nizom"ga asosan

9. O‘tkazilgan ichki audit yakunlari bo‘yicha ichki audit rahbari tomonidan imzolanadigan ..... tuziladi.

a) Hisobot

b) Hujjatlarning paketi

d) Yig‘ma hisobot

e) Dalolatnoma

10. Ichki nazorat qachon tekshiruv olib oradi?

a) DMNBB bilan birgalikda

b) Muntazam ravishda

d) Soliq inspeksiyasi buyrug‘iga ko‘ra

e) Har oyning oxirida

11. Ichki nazorat qanday tartibda moliyalashtiriladi?

a) Tekinga

b) Rahbar tomonidan

d) Rezerv fonddan

e) Davlat tomonidan

12. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq belgilangan subyektlar qaysi muddatda majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishlari lozim?

a) Hisobot yili boshlangunicha

b) Hisobot yilining dastlabki 1-oyida

d) Hisobot yilining dastlabki 3-oyida

e) Hisobot yilining 1 mayiga qadar

13. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahrirda qachon qabul qilingan?

a) 1996-yil 16-avgustda

b) 2000-yil 26-mayda

d) 2002-yil 26-martda

e) 1996-yil 3-sentyabrda

14. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni birinchi marta qachon qabul qilingan?

a) 1992-yil 9-dekabrda

b) 1998-yil 16-avgustda

d) 2000-yil 26-mayda

e) 2002-yil 26-martda

15. Auditor –

a) Davlat maslahatchisi bo'lgan mustaqil buxgalter-taftishchi, moliya, hisob va nazorat sohasidagi yuqori malakali mutaxassis

b) Davlat tashkilotiga tegishli buxgalter-taftishchi, moliya, hisob va nazorat sohasidagi yuqori malakali mutaxassis

d) Davlat maslahatchisi emas, balki mustaqil buxgalter-taftishchi, moliya, hisob va nazorat sohasidagi yuqori malakali mutaxassis

e) Kadrlarni tayyorlash ko'maklashuvchi nazorat sohasidagi yuqori malakali mutaxassis

16. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni 3-moddasida auditorlik faoliyatiga qanday ta'rif berilgan?

a) Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish borasidagi faoliyati tushuniladi

b) Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyati tushuniladi

d) Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotining professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyati tushuniladi

e) Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotining barcha turdagi tekshiruvlarni o'tkazish va xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyat tushuniladi

17. Auditorlik nazoratining mohiyati nimada?

a) Byudjet mablag'larining to'g'ri sarflanishini, amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligini shartnoma asosida nazorat qiladi

b) Balans ma'lumotlarining maqsadga muvofiqligini, amalga oshirilgan operatsiyalarning doimiyligini shartnoma asosida nazorat qiladi

d) Byudjet xarajatlarining to'g'ri sarflanishini, amalga oshirilgan operatsiyalarning doimiyligini shartnoma asosida nazorat qiladi

e) Balans ma'lumotlarining to'g'riligini, amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligini shartnoma asosida nazorat qiladi

18. Quyidagilardan qaysi biri auditorlik nazoratining vazifasi hisoblanmaydi?

a) Taftish o'tkazish

b) Korxona faoliyatiga obyektiv baho berish

d) XYuSlar faoliyatini samarasini oshirish uchun konstruktiv takliflar ishlab chiqish

e) Moliyaviy hisobotni tahlil qilish

19. Auditorlik nazoratining asosiy vazifalarini ko'rsating.

a) Tekshirilayotgan iqtisodiy subyektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini taftish qilish

b) Tekshirilayotgan korxona va tashkilotlarning rejalarini, hisobotlarini, soliq to'lovlarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tahlil qilish

d) Tekshirilayotgan korxona va tashkilotlarning rejalarini, hisobotlarini, soliq to'lovlarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarini tekshirish

e) Tekshirilayotgan iqtisodiy subyektlarning to'lov-hisobot hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majbu-riyatlarini tekshirish

20. Auditorlik tekshiruvlarining qanday shakllari mavjud?

a) Davlatning majburiy auditorlik tekshiruvi va korxonaning ixtiyoriy auditorlik tekshiruvi

b) Majburiy auditorlik tekshiruvi va tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi

d) Majburiy auditorlik tekshiruvi va ixtiyoriy auditorlik tekshiruvi

e) Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi va ichki auditorlik tekshiruvi

21. Majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishi lozim bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining auditorlik tekshiruvi bo'yicha xulosa nusxasini qaysi muddatda tegishli soliq organiga taqdim etadi?

a) Auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 10 kunlik muddat ichida

b) Auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 5 kunlik muddat ichida

d) Auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 15 kunlik muddat ichida

e) Auditorlik tekshiruvi o'tkazilish sanasidan qat`iy nazar 15-mayda

22.... moliyaviy hisobotning to'g'riligi va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablariga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiqbo'lgan hujjatdir.

a) Auditorlik xulosasi

b) Auditorlik hisoboti

d) Ijobiy xulosa

e) Salbiy xulosa

25. .... har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi kerak bo'lgan tashkilotlardan biri hisoblanadi.

a) Siyosiy partiyalar

b) Xususiy korxonalar

d) Aktsiyadorlik jamiyatlari

e) Tijorat korxonalari

26. Quyidagilardan qaysi biri qonunchilikka muvofiq har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tmaydi?

a) Aksiyadorlik jamiyatlari

b) Banklar va boshqa kredit tashkilotlari

d) Sug'urta tashkilotlari

e) Byudjet tashkilotlari

27. Eng oxirgi O'zbekiston Respublikasi auditorlik faoliyatining milliy standarti (70-son AFMS) qaysi muddatdan kuchga kirgan?

a) Moliya vazirining 2016-yil 9-noyabrdagi 85-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va 2017 yil6-martdan kuchga kirgan

b) Moliya vazirining 2014-yil 20-dekabrda 80-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va 2015 yil 1-yanvardan kuchga kirgan

d) 2016-yil 1-yanvardan kuchga kirgan

e) 2015-yil 1-yanvardan kuchga kirgan

28. Auditorlik xulosasida qanday fikrlar ifodalaniladi?

a) Ijobiy fikr, salbiy fikr

b) Salbiy fikr, modifikatsiyalangan fikr

d) Umumiy fikr, salbiy fikr

e) Ijobiy fikr, modifikatsiyalangan fikr

29.Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti barcha muhimlilik munosabatlarida uning moliyaviy ahvolini, moliyaviy natijalarini haqqoniy aks ettirsa va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kelgan hollarda auditorlik xulosasida....

a) Fikr bildirish rad etiladi

b) Izohlar bilan fikr bildiriladi

d) Ijobiy fikr bildiriladi

e) Salbiy fikr bildiriladi

VI BO'LIM. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLIYAVIY NAZORAT

16-BOB. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI

16.1. Jahon hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish

BMTning taftish organini moliyaviy nazorat faoliyati jahonning turli davlatlarida joylashgan. Tashkilot faoliyatini tekshirishga ma'sul 3 kontenentning ishtirokchilarini o'z ichiga oladi.

BMT byudjetidan har yili 8 mlrd AQSh dollaridan ortiq mablag' turli dastur va loyihalarni moliyalashga ishlatiladi. Uning xarajatlari jahonda tinchlikni saqlash, ilmiy izlanishlarga, narkotik moddalarni tarqalishini oldini olishga, ma'muriy xarajatlarga to'g'ri keladi.

BMT personali maslahatchilari bilan birga 50 000 kishini tashkil etadi. BMTning byudjeti 180dan ortiq davlatlarning reglament badallari hisobidan shakillanadi. BMTning tashqi nazorat tizimini birinchi galda taftish kengashi tashkil etadi.

Taftish kengashiga BMT a'zosi bo'lgan 3ta davlatning 3 a'zosi kiradi.

Ular 3 yillik muddatga Bosh Assambleya tomonidan saylanadi.

Taftish kengashiga a'zolik davlatlar o'rtasida bir maromda taqsimlanishi kerak. Tashqi moliyaviy nazorat tizimiga Boshqaruv kengashi bilan birga maxsus taftish bo'limlari kiradi.

Ular quyidagilar:

- Korxona va oziq – ovqat xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha BMT;
- YUNESKO;
- Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti;
- Butun jahon oziq – ovqat dasturi;

Sovetning moliya-xo'jalik faoliyatining obyekti bo'lib, uning tarkibidagi tashkilotlar va BMT bo'limlari kiradi:

-N'yu Yorkdagi BMTning sekretariati, hamda uning Jeneva va Venadagi bo'limlari;

-BMTning hududiy iqtisodiy komissiyalari;

-BMT personalining pensiya fondi;

-BMTning maxsus hamda tinchlikni saqlash messiyasi;

-BMTning rivojlantirish dasturi;

-BMTning qochoqlar masalalari bo'yicha komissariati;

-BMTning bolalikni himoya qilish Fondi;

-BMTning atrof – muhitni muhofaza qilish dasturi;

-Xalqaro savdo markazi;

Dunyo mamlakatlaridagi moliyaviy nazorat tizimlari tahlil etilganda, ularning aksariyati bir-biriga o'xshamaydigan ekanligini ko'rish mumkin. Ammo rivojlangan mamlakatlarning moliya tizimlarini o'rganish o'ziga xos ahamiyatga ega. Sababi ulardagi iqtisodiy(moliyaviy) rivojlanishga moliyaviy nazorat tizimining to'g'ri tashkil etilganligi, moliya mexanizmining amal qilishining samarali ekanligi ham aytish mumkinki o'z ta'sirini ko'rsatgan. Umuman olganda, moliyaviy nazorat tizimining rasional(optimal) tashkil etilishi moliya tizimining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday ekan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun taraqqiy etgan mamlakatlar moliyaviy nazorat tizimini puxta o'rganish va ularning ilg'or tajribasini o'zlashtirish zaruriy ehtiyoj sanaladi.

BMTning taftish organini moliyaviy nazorat faoliyati jahonning turli davlatlarida joylashgan. Tashkilot faoliyatini tekshirishga ma'sul 3 kontenentning ishtirokchilarini o'z ichiga oladi.

BMT byudjetidan har yili 8 mlrd AQSh dollaridan ortiq mablag' turli dastur va loyixalarni moliyalashga ishlatiladi. Uning xarajatlari jaxonda tinchlikni saqlash, ilmiy izlanishlarga, narkotik moddalarni tarqalishini oldini olishga, ma'muriy xarajatlarga to'g'ri keladi.

BMT personali maslahatchilari bilan birga 50 000 kishini tashkil etadi. BMTning byudjeti 180 dan ortiq davlatlarning reglament

badallari hisobidan shakillanadi. BMTning tashqi nazorat tizimini birinchi galda taftish soveti tashkil etadi.

Taftish sovetiga BMT a'zosi bo'lgan 3 ta davlatning 3 a'zosi kiradi.

Ular 3 yillik muddatga Bosh Assambleya tomonidan saylanadi.

Taftish sovetiga a'zolik davlatlar o'rtasida bir maromda taqsimlanishi kerak. Tashqi moliyaviy nazorat tizimiga Boshqaruv soveti bilan birga maxsus taftish bo'limlari kiradi.

Ular quyidagilar:

- Korxona va oziq – ovqat xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha BMT;
- YUNESKO;
- Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti;
- Butun jahon oziq – ovqat dasturi.

Sovetning moliya-xo'jalik faoliyatining obyekti bo'lib, uning tarkibidagi tashkilotlar va BMT bo'limlari kiradi:

- Nyu Yorkdagi BMTning sekretariati, hamda uning Jeneva va Venadagi bo'limlari;
- BMTning hududiy iqtisodiy komisiyalari;
- BMT personalining pensiya fondi;
- BMTning maxsus hamda tinchlikni saqlash messiyasi;
- BMTning rivojlantirish dasturi;
- BMTning qochoqlar masalalari bo'yicha komissariati;
- BMTning bolalikni himoya qilish Fondi;
- BMTning atrof – muhitni muhoofaza qilish Dasturi;
- Xalqaro savdo markazi.

Xorij mamlakatlarida moliyaviy nazorat faoliyatini olib boruvchi asosiy tashkilotlar audit tashkilotlari hisoblanadi

Davlatlarda moliyaviy nazorat tizimida hal qiluvchi tashkilot shubhasiz, oliy nazorat organlari(ONO) hisoblanadi. ONO turli mamlakatlarda turlicha ataladi.

Rivojlangan davlatlar moliya tizimini o'rganish, ularning tashabbusi bilan qabul qilingan xalqaro moliyaviy nazorat qoidalari, umume'tirof etilgan tartiblar, tamoyil va me'yorlarni o'rganishni taqozo etadi. Moliyaviy nazoratning xalqaro amaliyotida ISSAI tushunchalari

mavjud. ISSAI bu (International Standards of Supreme Audit Institutions) oliy nazorat organlari (ONO)ning (ular faoliyatining) xalqaro standartlaridir.

Mamlakatlar	**Oliy moliyaviy nazorat organi**	**Mas'ul shaxs**
AQSh	Kongressning Bosh nazorat boshqarmasi	Bosh nazoratchi
Yaponiya	Nazorat-taftish boshqarmasi	Nazorat-taftish bosh-qarmasi boshlig'i
Kanada	Milliy taftish kengashi	Bosh nazoratchi
Buyuk Britaniya	Milliy taftish kengashi	Bosh taftishchi
Hindiston	Davlat korxonalari, byudjet va davlat hisoboti bo'yicha parlament qo'mitasi	Qo'mita raisi
Belgiya	Hisob Palatasi	HP raisi
Fransiya	Hisob Sudi (Суд счетов)	Sud prezidenti

16.1-rasm. **Ba'zi mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etishning oliy organlari**

Moliyaviy nazoratni tashkil etish amaliyotida tub burilish INTOSAI tashkilotining tashkil etilishi va uning doirasida LIMA deklarasiyasining qabul qilinishi natijasida yuz berdi.

INTOSAI tashkiloti 1953-yilda mamlakatlar oliy nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish uchun tashkil etilgan. A'zolari: 193 (188Q1Q4)ta bo'lib, ulardan 188ta davlat (O'zbekiston INTOSAI a'zoligiga kirmagan) va 1ta Yevropa Auditorlar Sudi a'zo bo'lib, Fransuz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar oliy nazorat organlari tashkiloti, Portugal tilida so'zlashuvchi mamlakatlar oliy nazorat organlari tashkiloti, Ichki Auditorlar Instituti va Jahon Banki qo'shimcha a'zolar hisoblanadi. INTOSAI shtab-kvartirasi Venada

joylashgan tashkilot bo‘lib, yig‘ilishlarini har uch yilda bir marta o‘tkazadi. Tarkibida nazoratni rivojlantirish xalqaro markazi faoliyat yuritadi. INTOSAInıng Afrikada AFROSAI, Osiyoda ASOSAI, Karib dengizi havzasida CAROSAI, Arab davlatlarini birlashtirgan ARABOSAI, Lotin Amerikasida OLACES, Yevropada EUROSAI kabi mintaqaviy bo‘limlari faoliyat ko‘rsatadi.

Yevropada moliyaviy nazorat tizimi samarali tashkil etilganligi e’tirof etiladi.

Yevropada umuman olganda quyidagi nazorat tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi:

- Barcha darajadagi hukumatlar bo‘lib, ular umumiy nazoratni olib boradilar, huquqiy bazani mustahkamlaydilar, nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradilar.
- EUROSAI, oliy nazorat organlari(ONO) faoliyatini mintaqada muvofiqlashtiradi.
- Xalqaro moliya institutlari. Ular ko‘pincha moliya sektorini nazorat qilib, ular uchun me’yorlarni belgilaydilar.
- GRECO. Bu tashkilot xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash tashkiloti bo‘lib, CPI (Corruption Perpections Index) ko‘rsatkichini e’lon qilib boradi. Bu moliyaviy chalkashliklar, korrupsiyani yo‘qotish uchun nazorat olib boradi.
- Reyting agentliklari. Ular xo‘jalik subyektlari yoki hukumatlarning faoliyatini nazorat qilib borib, ularni ma’lum ko‘rsatkichlar asosida baholab boradi.

1977 yil Oliy nazorat organlari xalqaro tashkiloti (INTOSAI)ning Limada bo‘lgan 9 kongressida deklaratsiya qabul qilingan bo‘lib, unda davlat nazorati uchun tekshiruv organlari faoliyatining tamoyillari ishlab chiqilgan. Quyida biz ushbu deklarasiya mohiyati bilan tanishib chiqamiz.

Oliy nazorat organi ishining maqsadi eng muhim hisoblangan pul va moddiy resurslarni boshqarishning qonuniyligi, to‘g‘riligi va tejamkorligi hisoblanadi.

Lima deklorasiyasida Oliy nazorat organi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni turli xildagi tekshiruv organlaridan mustaqil va ularning

aralashuvlaridan himoyalangan bo‘lgandagina obyektiv va samarali amalga oshirishi mumkinligi keltirilgan.

Garchi umumiy hukumatning bir qismi sifatida oliy davlat organlari davlatdan mutlaq mustaqil bo‘lmasalarda, oliy nazorat organi o‘z vazifalarini bajarish uchun tashkiliy va funksional mustaqillikka ega bo‘lishi kerak.

• Oliy nazorat organining mustaqilligi bevosita uning a’zolarining mustaqilligiga bog‘liq. Oliy nazorat organlarining a’zolari qaror qabul qiluvchi va bu qarorlar uchun uchinchi shaxs oldida javobgar bo‘lgan kimsalardir.

• Oliy nazorat organlari a’zolarining mustaqilligi ham konstitusiya bilan kafolatlangan bo‘lishi kerak. Ayniqsa, ularning mustaqilligiga zarar yetkazmaydigan tarzda a’zolarini yollash jarayoni ham konstitusiyada aniqlashtirilishi kerak. Oliy nazorat organi a’zolarining egallab turgan lavozimiga tayinlash yoki undan ozod qilish o‘sha mamlakatning konstitusion tuzilmasiga bog‘liq.

• Oliy nazorat organlari taftishchilarining xizmat lavozimlari bo‘yicha harakati tekshiruv organlariga bog‘liq bo‘lmasligi kerak.

• Oliy nazorat organlari o‘z vazifalarini bajarishi uchun kerak bo‘ladigan moliyaviy resurslari bilan ta’minlanishi kerak.

• Oliy nazorat organi mamlakat byudjeti to‘g‘risida qaror qabul qiluvchi davlat tashkilotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarur moliyaviy resurslarni ajratish talabi bilan chiqishga haqli.

• Oliy nazorat organi byudjetning alohida satrida o‘zi uchun ajratilgan pul resurslarini o‘z vakolatlari doirasida ishlatish huquqiga ega.

• Konstitusiya va qonunlarda belgilangan oliy nazorat organining mustaqilligi unga parlament rahbarlariga chiqish va tekshirishlar o‘tkazishda ham yuqori darajadagi tashabbusli va avtonom ishlashiga sharoit yaratadi. Oliy nazorat organi va parlament o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar mamlakat talablari va sharoitlaridan kelib chiqib, milliy konstitusiyada aniq belgilanishi kerak.

• Oliy nazorat organi hukumat, uning organlari faoliyatini tekshiradi, ammo bu uning hukumatdan ustunligini bildirmaydi. Xususan, hukumat to'liq o'z faoliyati va kamchiliklari uchun javob beradi hamda oliy nazorat organlari ekspertlarining tekshiruv natijasidagi xulosalari oldida o'z javobgarligidan voz kecholmaydi.

• Oliy nazorat organi maqsadli tekshirishlarni o'tkazishda qaysi tekshirish bevosita mahalliy tekshiruv organlari tomonidan va qaysi biri oliy nazorat organining o'zi tomonidan o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilishi kerak.

• Tekshiruvchi organlar oliy nazorat organiga tekshirish natijasida qabul qilingan chora-tadbirlarni ko'rsatgan holda, xulosalarini qonunda belgilangan yoki oliy nazorat organi tomonidan ko'rsatilgan muddatlarda taqdim etilishlari shart.

• Oliy nazorat organiga shakllantirilgan xulosalar rasmiy asoslangan ko'rinishda taqdim etilmasa, oliy nazorat organi kerakli zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish talabi bilan muqobil organlarga murojaat qilishi va aybdorlarni jazoga tortishi mumkin.

• Oliy nazorat organi tekshiruvlarni ma'lum dastur asosida o'tkazishi kerak. Tekshirishlar kamdan-kam hollarda obyektni to'la hajmda qamrab oladi. Oliy nazorat organi qoida tariqasida, tanlanma usuldan foydalanadi. Odatda obyektni tekshirish muayyan model asosida olib boriladi. Moliyaviy va moddiy resusurslarni boshqarishning to'g'riligi va sifati haqida xulosa qilish uchun tanlanayotgan obyekt to'plami yetarlicha katta bo'lishi kerak.

• Oliy nazorat organlarinning a'zolari va hamkorlari o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarini sifatli bajarish uchun kerak bo'ladigan malaka va haqqoniylikka ega bo'lishi shart.

• Oliy nazorat organiga nazoratchini ishga yollash tanlovida uning nazariy tayyorgarligi, ishga qobilligi va mutaxassisligi bo'yicha ish tajribasiga e'tibor qaratilishi kerak.

• Yuqori malakali kadrlarni tanlab olish uchun ularga to'lanadigan ish haqi ham ularga qo'yilgan malaka talablariga mos bo'lishi kerak.

Agarda oliy nazorat organining hamkorlari ma'lum tekshirishni o'tkazish uchun zarur bo'ladigan bilimlarga ega bo'lmasa, bunday tekshirishlarga boshqa ekspertlar jalb qilinishi mumkin.

Oliy nazorat organlarining xalqaro tashkiloti doirasida g'oyalar va tajribalarni xalqaro almashish oliy nazorat organiga o'z vazifalarini bajarish uchun samarali yordam vositasi hisoblanadi.

Bu maqsadga BMT va boshqa tashkilotlarni jalb etgan holda kongresslar, seminarlar o'tkazish, mintaqaviy ishchi guruhlarning yig'ilishini o'tkazish va maxsus jurnal chop etish orqali erishiladi. Oliy nazorat organi har yili o'tkazilgan tekshirishlarning natijasi va xulosalarini o'z hisobotida parlament yoki boshqa muqobil davlat organiga yo'llashi kerak. Bu hisobot chop etilishi kerak. Bu keng ma'lumot hisoblanib muhokamaga sabab bo'ladi va shu tariqa oliy nazorat organining tavsiya va xulosalarini amalga oshirish uchun qulay muhit yaratadi.

• Oliy nazorat organi yillik hisobotlarni taqdim etish muddatlarini kutmasdan, alohida muhim ishlar va ularni yakunlash chora-tadbirlari to'g'risida parlamentga o'z hisobotlarini kiritishi kerak.

• Yillik hisobot oliy nazorat organining barcha faoliyatini yoritib berishi kerak.

• Hisobot aniq va obyektiv faktlar, ularning baholari va ishning ahamiyatli natijalarini o'z ichiga olishi kerak. Hisobot tili aniq va barchaga tushunarli bo'lishi kerak.

• Oliy nazorat organining asosiy nazorat vakolatlari konstitusiyada belgilanishi kerak, boshqa masalalar qonun bilan mustahkamlanishi mumkin.

• Nazorat vakolatlarining aniq holati davlatning sharoitlaridan kelib chiqib belgilanadi.

• Davlat moliyasini boshqarishning barcha organlari davlat byutjetiga tegishliligidan qat'iy nazar, oliy nazorat organi nazoratining obyekti bo'ladi.

• Davlat moliyasining respublika byudjetidan alohida bo'lgan qismlarini boshqarish oliy nazorat organi nazorati ostida degan xulosani bermaydi.

Soliqlarni to'lash ustidan nazorat

• Oliy nazorat organi maksimal imkoniyat darajasida soliqlar to'lanishini nazorat qilish vakolatiga ega bo'lishi kerak.

• Soliqlar to'lanishini nazorat qilish asosan, uning to'g'riligi va qonuniyligini tekshirish bilan bog'liq. Shuningdek, oliy nazorat organi soliqlarning yig'ish to'g'risidagi qonunni tekshirib, soliq xizmati ishini tashkillashtirishning va soliqlarni kelib tushish rejasi bajarilishining iqtisodiy samaradorligini o'rganishi kerak va zarur bo'lsa, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha taklif kiritishi lozim.

Davlatdan subsidiya oladigan tashkilotlarni tekshirish

• Oliy nazorat organi davlat fondlaridan taqdim etiladigan subsidiyalardan foydalanadigan tashkilotlarni tekshirish vakolatiga ega.

• Agar subsidiya miqdori ahamiyatli hajmga ega bo'lsa, yoki subsidiyalangan tashkilot kapitali katta bo'lsa, bu korxonada moliyaviy resurslarni boshqarishga dahldor barcha masalalar tekshiriladi.

• Subsidiyalardan noto'g'ri foydalanish aniqlangan taqdirda subsidiyani cheklash talab qilinadi.

Xalqaro va ko'pmillatli tashkilotlarni tekshirish

Xarajatlari a'zo mamalakatlarning a'zolik badallaridan qoplanadigan xalqaro va ko'pmillatli tashkilotlarni tashqi mustaqil tekshirishdan o'tkazish talab qilinadi. Garchi tekshirish tashkilotlarning maqsadi va tuzilishini hisobga olib o'tkazilsada, tashkilotga a'zo mamlakatlarda yuqori darajadagi taftish o'tkaziladi. Bunday tekshirishlarni mustaqilligini ta'minlash uchun tashqi nazorat komissiyasi a'zolari oliy nazorat organlarining asosiy shaxslari bo'lishi kerak.

16.2. Rossiya federatsiyasi davlat moliyaviy nazorat organlari vakolatlari

Moliya sohasidagi nazorat funksiyasini Rossiya davlatida ko'pchilik vazirliklar va idoralar amalga oshiradi. Hozirgi paytda Rossiyada faqatgina federal darajada davlat moliyaviy nazorati masalalari bilan 10tadan ortiq organlar shug'ullanadilar va bu organlar Hisob palatasidan tashqari Fedarasiya subyektlarida o'zlarining hududiy bo'linmalariga ega. Bugungi kunda davlat moliyaviy nazorati tizimi – bu vazirliklar, idoralar, muassasalar majmuasidir. Har bitta nazorat organi boshqalariga qaram bo'lmagan holda nazorat chora-tadbirlarini mustaqil ravishda rejalashtiradi va amalga oshiradi.

Ayni paytda Rossiya Federatsiyasida 150 mingdan ortiq asosiy boshqaruvchilar, boshqaruvchilar va faqatgina federal byudjet mablag'larini oluvchilar mavjud. Turli mavqedagi byudjetlardan mablag' oluvchilar va o'z faoliyatida davlat mulkidan foydalanuvchi xo'jalik subyektlarining umumiy soni taxminan 3.5 mlnni tashkil etadi. Aktiv iqtisodiy faoliyatni 2 mlndan ortiq soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan iboratdir. Byudjetdan mablag' oluvchilar, davlat mulkini boshqaruvchilar va soliq to'lovchilarning bunchalik ko'p bo'lishi, shuningdek mamlakat iqtisodiyoti uchun bir xil ahamiyatga ega emasligi nazorat organlarining miqdorini oqlaydi, biroq ana shu organlarning bir-birining ishini takrorlamagan holda birgalikda harakat qilishini va ularning funksiyasini chegaralashni taqozo etadi.

Har bitta organ o'zining muayyan vazifalarini bajarishi, o'zining tekshiriladigan obyektlariga ega bo'lishi va yagona uslubiy hamda tashkiliy tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatishi lozim. Bir paytning o'zida davlat moliyaviy nazorat tizimini yaratish ularning mustaqilligini ta'minlagan holda barcha organlarning faoliyatini birlashtirishga va muvofiqlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

RF BKsining 151 moddasiga ko'ra |2] davlat moliyaviy organlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: RF Hisob Palatasi (RF Federal Yig'ilishi

tomonidan tashkil qilinadi); ijro etuvchi hokimiyatning nazorat va moliyaviy organlari; RF subyektlari qonun chiqaruvchi (vakolatli) organlarining nazorat organlari. Ko'rib turibmizki, davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish demokratik davlatda hokimiyatni tashkil qilishning bosh tamoyili hisoblanmish hokimiyatni taqsimlash tamoyiliga asoslanib quriladi, Rossiya esa Konstitusiyaga asosan ana shunday davlat hisoblanadi.

Odatda, ijro etuvchi hokimiyat tomonidan tashkil etilgan moliyaviy nazorat ichki, vakolatli hokimiyat tomonidan tashkil etilgan moliyaviy nazorat tashqi nazorat hisoblanadi. RF BKsining 268 moddasiga muvofiq RF Moliya vazirligi asosiy boshqaruvchilar, boshqaruvchilar va byudjet mablag'larini oluvchilar tomonidan byudjet mablag'larining sarf qilinishi ustidan ichki nazoratni amalga oshiradilar; RF BKsining 265 moddasida qonun chiqaruvchi organlari tomonidan tashkil etiladigan nazorat-hisobot organlarining byudjetning tashqi auditini olib borishi to'g'risida so'z yuritiladi; RF BKsi 272 moddasiga muvofiq vakolatli organlarning nazorat qiluvchi organlari tomonidan byudjetning bajarilishi to'g'risidagi hisobotning tashqi auditi olib boriladi; RF Hisob palatasi tomonidan federal byudjetning bajarilishi to'g'risidagi hisobotni tashqaridan tekshirish to'g'risida RF BKsining 277 moddasida aytib o'tilgan.

1977 yilda oliy nazorat organlarining xalqaro tashkilotining IX Kongressida qabul qilingan nazoratning boshqaruvchi tamoyillarining Lima Deklarasiyasi deb nomlanuvchi xalqaro hujjat mavjud bo'lib (1 Ilova), unda ana shu ikki tushuncha aniq belgilab berilgan". Ichki nazorat xizmatlari alohida idoralar va muassasalar ichida tashkil etiladi, shu bilan birgalikda tashqi taftish xizmatlari tekshiruvchi muassasalarning tarkibiy qismi hisoblanmaydi (Deklarasiyaning 3 moddasi).

Demak, ichki nazorat – ijro etuvchi hokimiyat tomonidan davlat resurslarini boshqarishni samarali tashkil etish maqsadida o'z tarkibiy tuzilmalari faoliyati ustidan nazoratni anglatadi, ya'ni ijro etuvchi

hokimiyat ichidagi amalga oshiriladigan nazoratni, o‘z-o‘zini nazorat qilishni anglatadi. Tashqi nazorat – davlat mablag‘lari va davlat mulkini sarf qilish masalasida ijro etuvchi hokimiyatning faoliyati ustidan unga to‘be bo‘lmagan qonun chiqaruvchi organlarining nazoratini nazarda tutadi. Davlat moliyaviy nazoratining bunday tashkil etilishi davlat mablag‘larini obyektiv baholashga imkon beradi va xalqaro tajribaga mos keladi. Nazorat organlari vakolat me’yorlari ularning huquqiy darajalarini aniqlash masalalarining kaliti hisoblanadi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, davlat moliyaviy nazorat organlarining vakolatlarini aniq yo‘nalishlarga realizasiyasini tartibga solish ko‘p darajada, boshqa masalalarga nisbatan huquqiy me’yorlardan foydalanishga bog‘liq bo‘ladi. Ular mos davlat organining huquqiy faoliyat shakli va tartibini o‘rganadi. Shu bilan birgalikda, ular bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan uchta vazifani hal etish uchun har qanday holatda ham uchta bosh maqsadni kuzatib boradi. Birinchidan, kam vaqt va mablag‘ sarflash orqali yuqori natijalarni ta’minlovchi, ularning maksimal mahsuldorligi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi samarali shakllarini mos organlarga kiritish ishini tashkil etadi. Ikkinchidan, huquqiy kafolatlar va ularga rioya etishga sharoit yaratib, jarayonda qatnashuvchilarni huquqlari va qiziqishlarini ta’minlaydi. Uchinchidan, shunday tartib va shunaqangi ish shakllarini bog‘lab qo‘yiladiki, ular orqali ko‘rilayotgan masalaning to‘g‘ri yechimi va tahlilini chuqur va har tomonlama biri ikkinchisini to‘ldirib boruvchi shakllarini ta’minlash bilan birgalikda, bir tomonlama subyektivizmga asoslangan ko‘rinishlardan hamda shoshilinch asoslanmagan qarorlarni qabul qilinishi holatlaridan ogohlantiradi.

Vakolat me’yorlari aloqalarida umumdavlat darajasida tashqi moliyaviy nazorat organi sifatida nazorat hisob organlari o‘rnini alohida ko‘rsatib o‘tish lozim.

Samarali moliyaviy nazorat uchun, nazorat-hisob organlariga to‘la nazorat vakolati zarur hisoblanadi. Davlatning barcha moliyaviy faoliyati, uning davlat byudjetida yoritilishidan qat’iy nazar nazorat-

hisob organlari tomonidan nazorat qilinishi kerak. Byudjet doirasida kiritilgan har qanday mablag‘ nazoratdan tashqarida qolmasligi kerak. Bundan tashqari davlatning o‘ziga qarashli bo‘lgan korxona va muassasalar (doimo davlat dotasiyasiga qaram) ham, garchand ular davlat mablag‘laridan foydalanishlariga qaramasdan mablag‘lardan foydalanish va soliqlar masalasida nazoratdan chetda qolmaydilar.

Nazorat obyektlari ustidan umumiy boshqaruvni davlat amalga oshirar ekan, ko‘p hollarda bu faoliyatda uning ijroiya organlaridagi mansabdor shaxslar ishtirok etadilar. Davlat moliyaviy nazorati shuningdek, qonunda aniqlangan holatlarda prezident apparati tuzilmasi, huquq targ‘ibot organlari va mahalliy o‘z- o‘zini boshqarish organlari moliyaviy faoliyatiga ham tadbiq qilinadi. Nazorat obyekti bo‘lib davlat mablag‘laridan foydalanuvchi va ommaviy faoliyatni amalga oshiruvchi xususiy korxonalar ham bo‘lishi mumkin.

Byudjet hisoblarini va byudjetni bajarilishini nazorati har doim nazorat-hisob organlarining asosiy vazifasi sifatida qarab kelinadi. Ko‘p hollarda nazorat organlari to‘g‘risidagi qonunlar davlat mablag‘lari hisobiga faoliyat ko‘rsatadigan hamda davlatdan qandaydir maqsadlarni amalga oshirish uchun mablag‘ oladiganlari uchun nazorat vakolatlarini aniqlaydi.

Rossiya federatsiyasi Hisob palatasining moliyaviy nazoratni olib borishi

RF Hisob palatasi nazorat vakolati Rossiya federatsiyasining barcha davlat organlariga jumladan, davlat apparati va muassasalariga hamda byudjetdan tashqari federal fondlariga ham tadbiq etiladi.

Shuningdek Hisob palatasining nazorat vakolati federal byudjet mablag‘laridan foydalanuvchi, oluvchi va byudjetga mablag‘lar o‘tkazuvchi, federal mulkni boshqaruvchi, undan foydalanuvchi hamda federal qonunchilik asosida yoki davlatning federal organlari tomonidan soliq, bojxona yengilliklari hamda ustuvorliklar berilgan korxonalar, muassasalar, banklar, sug‘urta kompaniyalari va boshqa moliya-kredit muassasasalariga mulkchilik shaklidan qatiy nazar tadbiq etiladi.

Ushbu vakolat jamoatchilik birlashmalariga, nodavlat fondlariga va notijorat massasasalariga Hisob palatasi tomonidan yuqoridagi holatlarda qo'llaniladi.

Hisob palatasi Rossiya federatsiyasining ichki va tashqi qarzining holati, ichki va tashqi qarz uchun kredit resurslaridan foydalanish va uni boshqarish, RF davlati tomonidan olingan qarzlar va chet el kreditlaridan foydalanish samaradorligi hamda qonuniyligini, davlat tomonidan joylashtirilgan markazlashgan moliyaviy resurslar va qaytarishlilik sharti bilan davlat tomonidan ajratilgan kreditlar, hamda qaytarib bermaslik sharti bilan chet mamlakatlarga va xalqaro fondlarga berilgan mablag'lar ustidan nazorat o'tkazishga vakolatlidir.

Hisob palatasi byudjetdan tashqari federal qoidalarni va RF hukumati ixtiyoridagi valyuta mablag'larini shakllantirilishini va ishlatilishini nazorat qiladi.

Mulkiy aloqalar sohasida Hisob palatasi davlat mulkidan (sh.j mulkni xususiylashtirish va sotish) hamda federal mulk obyektlarini boshqarishdan federal byudjetga tushadigan mablag'larni nazorat qiladi.

Bank tizimi sohasida Hisob palatasi RF Markaziy banki, uning tuzilmaviy tashkilotlari va federal byudjetga xizmat qiluvchi hamda RF Markaziy Bankining RF davlat qarziga xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi boshqa bank va moliya-kredit muassasalari faoliyati ishi ustidan nazorat o'rnatadi.

Federal byudjetni bajarilishi nazoratning asosiy obyekti hisoblanadi. Byudjet Hukumat, Moliya vazirligi, Davlat Dumasi va RF Hisob palatasi tomonidan boshlang'ich, joriy va davomiylik asosida nazoratga olinadi.

Boshlang'ich nazorat bosqichi – byudjet jarayonining eng murakkab va muhimi hisoblanadi. Byudjet Kodeksi Davlat Dumasida kelgusi moliya yili uchun federal byudjet to'g'risidagi qonunni ko'rib chiqish bo'yicha davlat organlari vazifalarini taqsimlaydi. Kelgusi moliya yili uchun federal byudjet loyihasi o'rnatilgan talablarga rioya qilingan holda RF Hukumatiga kiritilgan uch kun muddat ichida Davlat

Dumasi Soveti tomonidan, agarda parlament ta'tilda bo'lsa Davlat Dumasi Raisi tomonidan Federatsiya Sovetiga, Davlat Dumasi qo'mitalariga va kamchiliklar hamda takliflar kiritish huquqiga ega bo'lgan boshqa qonunchilik subyektlariga shuningdek RF Hisob palatasiga xulosa uchun yuboriladi.

RF Hisob palatasi, RF Hukumati nazorat organlari va RF Moliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan nazoratlar natijasida federal byudjetda mablag'larni maqsadsiz va samarasiz foydalanishlari aniqlanganligi tasdiqlansa yoki federal byudjetni subyektlar tomonidan samarasiz va maqsadsiz yo'nalishlarga ajratilayotganligi aniqlansa, ushbu xarajatlarni qisqartirish yoki blokirovka qilish borasida takliflar kiritilsa, RF Konstitusiyasiga asosan federal byudjet loyihasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi, tartibga soluvchi daromadlarni RF byudjet tuzilishi darajalari o'rtasida taqsimlash, shuningdek RF federal byudjeti xarajatlari klassifikasiyasiga o'zgartirishlar kiritiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, byudjetni bajarilishini qanday bosqichda bo'lishidan qatiy nazar byudjetni bajaruvchi yoki davlat moliyasi nazorati organlari tomonidan byudjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanish holatlari aniqlansa byudjet xarajatlari blokirovka qilinadi, ya'ni byudjet limitlari qisqartiriladi yoki aniqlangan miqdordagi byudjet mablag'lari qabul qilingan byudjet ajratmalaridan kamaytiriladi.

Byudjet nazoratining yakunlovchi bosqichi bo'lib, byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobotni tayyorlanishi, ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishini davomiy nazorati hisoblanadi.

RF Byudjet Kodeksi byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobotni ko'rib chiqishda RF hukumatining ijroiya organlari subyektlarida va o'zini-o'zi boshqarish organlarida taqdim etilgan hisobotni ichki nazorati amalga oshirilishi mumkin. Byudjetni bajarilishini ichki nazorati RF Moliya vazirligi tomonidan RF hukumatining ijroiya organlari subyektlari yoki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan tuzilgan kelishuvlar asosida amalga oshiriladi.

Vakil qilingan organ byudjetni bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotni ko‘rib chiqishdan oldin tashqi tekshirish o‘tkazadi. Byudjetni bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotni tashqi nazorati mos nazorat organlari vakil qilgan organlari tomonidan amalga oshiriladi. Vakil qilingan organ mos nazorat organi tomonidan o‘tkazilgan hisobot nazorati natijalari olinganidan keyin byudjetni bajarilishi to‘g‘risidagi hisobot bo‘yicha qaror qabul qiladi.

RF Hisob palatasi federal darajada federal byudjetni hisobot moliyaviy yili uchun bajarilishi to‘g‘risidagi hisobotini ko‘rib chiqadi va tekshirilgan material va natijalardan foydalanib RF Hukumati tomonidan federal byudjetni bajarilishi to‘g‘risidagi hisobot taqdim etilgan vaqtdan boshlab 4,5 oy ichida Davlat Dumasiga hisobot bo‘yicha xulosa tayyorlaydi.

RF Hisob palatasi RF Hukumatiga federal byudjetni bajarilishi bo‘yicha xulosalar o‘z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

-Rossiya federatsiyasi byudjeti xarajatlari klassifikasiyasi har bir bo‘lim va paragraflari bo‘yicha va federal byudjetning mablag‘larini har bir bosh taqsimlovchisining byudjetning mablag‘laridan aniqlangan maqsadsiz foydalanish summalari, byudjet mablag‘laridan maqsadsiz foydalanish to‘g‘risida qaror qabul qilgan mansabdor shaxslar hamda federal g‘aznachilik bo‘limida yuqoridagi to‘lovlarni amalga oshirishga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslar to‘g‘risida xulosa;

-Rossiya federatsiyasi byudjeti xarajatlari klassifikasiyasi har bir bo‘lim va paragraflari bo‘yicha va byudjet mablag‘laridan o‘rnatilgan me’yorlardan ortiqcha sarflagan yoki byudjet ajratmalaridan ortiq byudjet imzosini amalga oshirish bo‘yicha qaror qabul qilgan har bir byudjet taqsimlovchisi bo‘yicha davlat hokimiyat raxbarlarini yoki byudjet mablag‘larini oluvchilar ko‘rsatilgan holda hamda ushbu to‘lovlarni amalga oshirilishiga yo‘l qo‘ygan federal g‘aznachilik bo‘limidagi mansabdar shaxslar to‘g‘risida xulosa;

-Federal byudjet to‘g‘risidagi qonunda yoki byudjetda ko‘zda tutilmagan xarajatlarni moliyalashtirish holatlari aniqlanganda, bunday

moliyalashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilgan Davlat organi rahbarlari yoki byudjet mablag‘i oluvchilar ko‘rsatilgan holda va bu qarorlarni qabul qilinishida ishtirok etib yuqoridagi to‘lovlarni amalga oshirgan federal g‘aznachiligidagi mansabdor shaxslar to‘g‘risida xulosa;

-Byudjet kreditlari va byudjet ssudalarini ochish hamda yopish bo‘yicha tahlil, byudjet kreditlari va byudjet ssudalarini ochish vaqtida qonunchilik talablari buzilishi bo‘yicha aniqlangan faktlar bo‘yicha xulosa;

-Davlat kafolatlari va ularni bajarilishi bo‘yicha majburiyatlarni taqdim etilishi tahlili, davlat kafolatlarini taqdim etish vaqtida qonunchilik talablarini buzilishi bo‘yicha aniqlangan faktlarga va byudjet mablag‘lari hisobidan ta’minlangan davlat kafolatlarini bajarilishini har bir holati bo‘yicha olib borilgan tekshirishlarga xulosa;

-Byudjet investisiyalarini taqdim qilish bo‘yicha tahlil, davlat ahamiyatiga molik tuzilgan shartnomalarni ta’minlanishi tahlili, qonunchilik talablari buzilishi hisobiga amalga oshirilgan byudjet investisiyalari bo‘yicha aniqlangan faktlarga xulosa;

-Davlat xizmatlarini taqdim qilish bo‘yicha reja topshiriqlarini bajarilishi va davlat xizmatlarini taqdim qilish borasida moliyaviy sarflar va me’yorlarga rioya qilinishining tahlili.

Hisob palatasi xulosasi Davlat Dumasi yoki federatsiya soveti aniqlagan qarorlar asosida yana qo‘shimcha ma’lumotlardan ham iborat bo‘lishi mumkin.

Federal byudjetni bajarilishi to‘g‘risidagi hisobot hukumat tomonidan Davlat Dumasi va RF Hisob palatasiga joriy yilning 1 iyunidan kechikmay taqdim etiladi. Hisobot bilan bir vaqtda federal g‘aznachilikning federal byudjetni bajarilishi jarayonida ko‘rib chiqilgan ishlari va byudjet qonunchiligi buzilganligi holatlari uchun ko‘rilgan choralar to‘g‘risidagi hisoboti topshiriladi.

Davlat Dumasi RF Hisob palatasidan federal byudjetni bajarilishi to‘g‘risidagi hisobot xulosasini olganidan keyin 1,5 yil mobaynida ko‘rib chiqadi. Davlat Dumasi federal byudjetni bajarilishi to‘g‘risidagi

hisobotni ko'rib chiqish vaqtida majburiy tartibda Hisob palatasi Raisi xulosasi va RF Bosh prokurorini byudjet qonunchiligiga rioya qilinishi to'g'risidagi ma'ruzasini tinglaydi. Shuningdek Davlat Dumasi Raisi taklifiga ko'ra yoki o'z tashabbuslari asosida RF Konstitusion Sudi Raisi, RF Oliy Arbitraj Sudi Raisi, RF Oliy Sudi Raisi moliya hisobot yilida byudjet me'yorlari va byudjet qonunchiligiga bog'liq ko'rib chiqilgan qoida buzarliklar tahlili to'g'risida ma'ruza qilishlari mumkin.

RF Byudjet Kodeksida Davlat Dumasiga ko'rib chiqish uchun federal byudjetni bajarilishi bo'yicha topshirilgan hisobotda noaniq bo'lgan faktlar va to'la bo'lmagan ma'lumotlar aniqlansa ularning oqibati og'ir bo'lishi ko'rsatilgan. Agarda, RF Hisob palatasi auditorlari va rahbarlari aybi bilan xulosalarda ishonchli va to'la bo'lmagan faktlar aniqlangan holatlarda Davlat Dumasi yoki Federatsiya Soveti tomonidan ular shu vazifalarga qo'yilgan bo'lishiga qaramasdan Hisob palatasi to'g'risidagi RF federal qonuni talablari asosida vazifalaridan ozod qilinadilar. Boshqa mansabdor shaxslar Davlat Dumasiga byudjet jaryonida qatnashuvchi sifatida ishonchli va to'la bo'lmagan xulosalarni RF qonunchiliklari asosida federal byudjetni bajarilishi to'g'risidagi hisobot to'g'risida qaror qabul qilishi uchun topshirilganlikda ayblanib javobgarlikka tortiladilar.

Byudjetni daromad va xarajat qismlarini nazorat qilish o'rtasida katta farq mavjuddir.

Byudjet daromadlari soliqlar va yig'imlarni o'z vaqtida va to'la tushumiga hamda soliqsiz daromadlar bo'yicha rejali topshiriqlarni bajarilishiga asoslanib nazorat qilinadi. Soliqsiz daromadlar o'z navbatida davlat mulkini xususiylashtirish, sotish, ijaraga berish, xo'jalik jamiyatlarida davlat ulushini boshqarish, davlat unitar korxonalarini moliyaviy faoliyati natijalari asosida davlat mulkini boshqarish jaryonida shakllanadi. Soliqli tushumlar bevosita soliqlar va yig'imlar Vazirligi tomonidan nazorat qilinadi. Soliqsiz tushumlar amaliyotida faqat RF Hisob palatasi tomonidan nazorat qilinadi.

Soliqlar to‘lanishi nazorati asosan ularni qonuniyligi, to‘g‘riligi va muddatliligi bilan bog‘liqdir. Shunga qaramasdan soliqqa tortishda qo‘llaniladigan qonunlar iqtisodiy samaradorlikka va soliq xizmati ishini tashkil qilishga shuningdek, byudjetga rejalashtirilgan daromadlarni haqiqiy tushumini ta’minlash bilan birgalikda zarur hollarda harakatdagi qonunlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Byudjet xarajatlari yuqorida ko‘rsatilgan organlardan tashqari federal g‘aznachilik, Moliya vazirligining nazorat-taftish xizmati, joriy nazoratni amalga oshiradigan yuqori tashkilotlar tomonidan ham nazorat qilinadi. Tekshirishda boshqaruv organlari va boshqa muassasalar tomonidan byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligi va qonuniyligi, shuningdek davlat dasturlari kesimi asosida hududiy tashkiliy tuzilmalarni moliyaviy faoliyati ko‘rib chiqiladi.

Byudjet ustidan nazorat – moliyaviy nazoratning yuqori darajadagi ishlab chiqilgan shaklidir.



16.2-rasm. **Rossiya federatsiyasi Hisob palatasining vazifalari**

Qonun asosida Hisob palatasi federal byudjet va federal byudjet fondlari byudjetini o‘rnatilgan ko‘rsatkichlardan farq qilgan holatlari aniqlanganda ularni tahlil qiladi. Ularni aniqlashtirish borasida va

byudjet jarayonini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi. RF Markaziy banki hamda Rossiya federatsiyasidagi vakillik banklari va boshqa moliya-kredit muassasalarida federal byudjet fondlari mablag'larini qonuniy va o'z vaqtida harakat qilishi ustidan nazorat bo'yicha barcha vazifalar ham Hisob palatasi zimmasiga yuklatiladi.

Hisob palatasi o'tkazilgan nazorat, taftish va tekshiruvlar doirasida Federatsiya Sovetiga va Davlat Dumasiga federal byudjet bajarilishi borasidagi va o'tkazilgan tadbirlar natijalari to'g'risida doimiy ravishda axborot berib boradi.

Hisob palatasining dastlabki funksiyasi bo'lib, federal qonun loyihasi, shuningdek federal byudjet mablag'lari hisobiga qoplanishi nazarda tutilgan yoki federal byudjetni va federal nobyudjet fondlarni shakllantirishi va ishlatilishiga ta'sir ko'rsatadigan davlat hokimiyati federal organlari me'yoriy- huquqiy aktlari bo'yicha moliyaviy ekspertiza o'tkazish hisoblanadi.

Hisob palatasining ko'plab vazifalari uning funksiyalarida aniqlashadi, ularga muvofiq Palata federal byudjetni bajarilishi yuzasidan quyidagilarni nazarda tutuvchi yagona nazorat tizimini ta'minlaydi:

- hisobot yilida federal byudjetni bajarilishi ustidan operativ nazorat tashkil qiladi va o'tkazadi;
- federal byudjet va federal nobyudjet fondlarning alohida bo'lim va moddalari bo'yicha kompleks taftishlar va tematik tekshiruvlar o'tkazish;
- federal byudjet loyihalari, Rossiya federatsiyasining xalqaro shartnomalari, qonunlar va boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar, RF moliyasi va federal byudjet masalalariga taalluqli federal dasturlar va boshqa hujjatlar ekspertizasi;
- byudjet jarayonida qoida buzarliklarni va o'zgarishlarni tadqiq va tahlil qilish, federatsiya Kengashiga va Davlat Dumasiga ularni to'g'irlash hamda byudjet qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash va kiritish;
- federal byudjetni va federal nobyudjet fondlar byudjetini bajarilishi bo'yicha federatsiya Kengashiga va Davlat Dumasiga xulosalar tayyorlash va taqdim etish.

O‘z navbatida, Hisob palatasi analitik-ekspert funksiyasini aniqlashda quyidagilar bo‘yicha ekspertiza o‘tkazadi va xulosa beradi:

- federal byudjet loyihasiga, uning daromad va xarajat moddalarini asoslanganligiga, federal byudjet kamomadiga, davlat ichki va tashqi qarzi miqdoriga;

- byudjet-moliya siyosati muammolariga va Rossiya federatsiyasi byudjet jarayonini takomillashtirishga;

- Davlat Dumasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etilgan byudjet-moliya masalalari bo‘yicha qonunchilik loyihalari va me’yoriy huquqiy hujjatlarga;

- Federal byudjet uchun huquqiy ta’sir ko‘rsatadigan, Rossiya federatsiyasining xalqaro shartnomalar loyihalariga;

- Federal byudjet mablag‘laridan foydalanish hisobiga moliyalashtiriladigan dastur loyihalariga.

Hisob palatasi o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijalarini tizimli ravishda tahlil qilib boradi, federal byudjet daromadlarini shakllantirish va mablag‘larni xarajat qilish jarayonida vujudga kelgan qoidabuzarliklar va aniqlangan chetga chiqishliklar sababi va oqibatini tadqiq qiladi hamda jamlaydi. Hisob palatasi olingan ma’lumotlar asosida Rossiya federatsiyasi byudjet-moliya tizimini rivojlantirish va byudjet qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan taklif ishlab chiqib, uni ko‘rib chiqish uchun Davlat Dumasiga taqdim etadi.

“Rossiya federatsiyasi Hisob palatasi to‘g‘risida”gi federal qonun va federatsiya subyektlarida nazorat-hisob organlari to‘g‘risidagi qonunlarda byudjet doirasida kiritilgan mablag‘lar va konsolidasiyalashgan nobyudjet fondlar ustidan nazorat ko‘zda tutilgan. Shuning uchun ham byudjet munosabatlaridagi kabi, nobyudjet fondlar bo‘yicha ham Hisob palatasi vazifalari mavjud bo‘lib, ular:

- federal nobyudjet fondlar byudjetini daromad va harakat moddalari bo‘yicha o‘z vaqtida bajarilishi, ularni hajmlari, tartibi va maqsadli yo‘naltirilishi ustidan nazoratni tashkil qilish va amalga oshirish;

- federal nobyudjet fondlarni federal mulkdan samarali va maqsadli foydalanishni aniqlash;

-federal nobyudjet fondlar byudjeti loyihasini daromad va xarajat moddalarini asoslanganligini baholash;

-federal nobyudjet fondlarni byudjetlarini shakllanishi va bajarilishiga ta'sir qiluvchi federal qonunlar loyihalarini, shuningdek davlat hukumati federal organlarining me'yoriy-huquqiy hujjatlarini moliyaviy ekspertizasi;

-federal nobyudjet fondlarda o'rnatilgan ko'rsatkichlarga nisbatan aniqlangan chetlashishlarni tahlil qilish va ularni to'g'rilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

-RF Markaziy banki va Rossiya federatsiyasi vakillik banklari yoki boshqa moliya-kredit muassasalarida federal nobyudjet fondlarni byudjet mablag'larini qonuniyligi va muddatlilik harakati nazorati hisoblanadi.

Shuningdek, Hisob palatasi federal nobyudjet fondlarini bajarilishi ustidan quyidagilarni nazarda tutadigan yagona nazorat tizimini ta'minlaydi:

-federal nobyudjet fondlarining alohida bo'limlari va moddalari bo'yicha kompleks taftish va tematik tekshirishlar o'tkazish;

-federatsiya kengashiga va Davlat Dumasiga federal nobyudjet fondlar bajarilishi bo'yicha xulosalar tayyorlash va taqdim etish.

"Rossiya federatsiyasi Hisob palatasi to'g'risida"gi federal qonunning alohida moddasida Hisob palatasini federal nobyudjet fondlarini mablag'lardan va RF Hukumati ixtiyoridagi valyuta mablag'laridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish ko'rsatib o'tilgan.

Nazorat obyektlari orasida asosiy e'tiborni davlat mulkini boshqarish va foydalanishdan tushadigan mablag'larga qaratish lozim, sababi daromadlarda ularning ulushi tobora ortib bormoqda, ular byudjetga va nobyudjet fondlarga tushumlarni ahamiyatli qismini tashkil etmoqda. Ushbu mablag'lar tushunchasiga xususiylashtirishdan, davlat mulkini ijaraga, garovga berishdan, davlat mulkini va federal mulk obyektlarini boshqarishdan tushumlar kiritiladi. Davlat daromadlarini ushbu qismini nazorat qilish yuridik jihatdan RF Hisob palatasiga biriktirilgan bo'lib, uni aniqlash vazifasi federal mulkdan foydalanishni samaradorligi va maqsadliligiga qaratilgan.

Qonunga asosan asosiy nazorat obyekti bo'lib qarz mablag'lari hisoblanadi. Shuning uchun ham bu borada RF Hisob palatasi quyidagilar ustidan nazorat o'rnatadi:

- Rossiya federatsiyasining ichki va tashqi qarziga xizmat qilish va boshqarish;
- RF hukumati chet el davlatlaridan olgan qarzlari hamda chet el kreditlaridan samarali foydalanishi va qonuniyligi;
- Qaytarib berish asosida berilgan markazlashgan moliyaviy resurslarni samarali joylashtirilishi:
- Xalqaro taqsimotlarga va chet el davlatlariga davlat kreditlarini berilishi, shuningdek qaytarib bermaslik sharti bilan berilgan mablag'lar bo'yicha.

Hisob palatasi, shuningdek, davlatning ichki va tashqi qarzi hamda federal byudjet kamomadi miqdori bo'yicha ekspertiza o'tkazadi va xulosalar beradi. RF subyektlaridagi nazorat hisob organlari ham administratsiyaning kreditlar va boshqa qarz mablag'lari bilan ishlashni nazorat qiladi.

Nazorat hisob organlarining faoliyatini muhim va murakkab yo'nalishi bo'lib davlat mablag'larini banklarga joylashtirish va pul muomalasi ustidan nazorat o'rnatish hisoblanadi. Qonunga asosan RF Hisob palatasi RF Markaziy banki, uning tarkibiy tuzilmalari, boshqa banklar va moliya-kredit muassasalarining federal byudjetga ko'rsatilayotgan xizmatlari, shuningdek RF Markaziy bankining Rossiya federatsiyasining davlat qarziga xizmat ko'rsatish faoliyati ustidan nazorat o'rnatadi. Bunday yo'nalish Hisob palatasining federal byudjet mablag'larini va federal nobyudjet fondlarni RF Markaziy bankida, Rossiya federatsiyasining vakillik banklarida va o'z vaqtida harakatini nazoratini ta'minlashni belgilash zaruriyati qonun asosida o'rnatilgan vazifasi bilan shartlanadi.

RF subyektlariga transfertlar, dotatsiya, subvensiya va kreditlar shaklida berilgan mablag'lar federal nazorat organlari hisoblangan RF Hisob palatasi, federal G'aznachilik, Moliya vazirligi va uning bo'limlari tomonidan nazorat qilinadi.

Rossiya federatsiyasining ko'pgina subyektlarida nazorat hisob organlariga ham bunday vakolat berilgan. Masalan, Moskvada yuqoridagi mablag'lar shahar byudjetlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni, nobyudjet fondlarni, investisiya yoki ijtimoiy tadbirlar nazorati shahar byudjet – moliya organlari va Moskva shahrining bosh nazorat – taftish boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan.

Amaliyotda mahalliy byudjetni boshqarishni mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organi vakil qilgan organ boshqaradi va ungi nazoratni qaysi shaklidan foydalanishini mustaqil hal qilishi huquqi berilgan bo'lishiga qaramasdan Rossiya Federatsiyasining ba'zi hududlarida nazorat to'g'risidagi qonunlarda RF subyektlari moliyaviy aloqalari nazorati hududiy administrativ birliklarga va munitsipal tuzilmalar zimmasiga yuklatilgan.



16.3-rasm. **Rossiya federatsiyasi Moliya vazirligining moliyaviy nazoratni tashkil etishdagi vakolatlari**

Rossiya federatsiyasi Moliya vazirligining moliyaviy nazoratni tashkil etishi.

Hukumatning ijro etuvchi moliyaviy organlari uchun byudjet nazorati ish faoliyatlarining muhim qismi himoblanadi. RF Moliya vazirligiga bu vazifa yuklatilgan.

Yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida RF Byudjet Kodeksi byudjetlararo aloqalarda va qarz siyosatida ham nazorat tizimini qo'llanishini aniqlaydi. Masalan, agarda byudjetni bajarish mobaynida RF subyektlari davlat qarzini ko'zda tutilgan miqdoridan oshirishga yo'l qo'yishsa, yoki munitsipal qarzni oshishiga yo'l qo'yilsa shuningdek, RF subyektlari va munitsipal qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari ko'zda tutilganidan ortib ketsa va RF subyektlari davlat qarzi bo'yicha majburiyatlarni xarajatlarini qoplashni ta'minlash holatida bo'lmasalar bu holda Rossiya Federatsiyasini vakillik organi quyidagi choralarni ko'radi:

- RF subyektlari byudjetlariga yoki mahalliy byudjetlarga byudjetni bajarilishi bo'yicha tekshirish tayinlash;

- RF subyektlari byudjetini bajarilishni RF Moliya vazirligi yoki mahalliy byudjetlarni Rossiya Federatsiyasining subyektlarini byudjetlarini bajaruvchi organ nazoratiga berish.

Rossiya Federatsiyasi davlat kafolati berilgan vaziyatlarda RF Moliya vazirligi yoki RF hukumati vakil qilgan hukumat ijroiya organi Rossiya Federatsiyasi davlat kafolatini oluvchining moliyaviy holatini tekshiruvdan o'tkazishga majburdirlar. Davlat kafolati RF subyektlariga yoki munitsipal kafolat berilgan holatlarda mos moliya organi bunday kafolat oluvchini moliyaviy holatini tekshirishga majburdir. Vakillik organi RF subyektlari yoki munitsipal tuzilmalarda davlat kafolati yoki munitsipal kafolat oluvchining moliyaviy holatini tekshirishni nazorat organiga topshirish mumkin.

RF Byudjet Kodeksiga asosan federal byudjetdan RF subyektlari byudjet ta'minotini minimal byudjet darajasiga tenglashtirish uchun moliyaviy yordam beriladi. Bunday yordamni amalga oshirish sharti bo'lib, RF Federal g'aznachiligi bilan RF subyektlari o'rtasida byudjetni bajarilishi bo'yicha tuzilgan shartnoma hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi vakillik organi federal byudjetdan moliyaviy yordam oluvchi RF subyektlari byudjetlarini tekshirish huquqiga ega. RF subyektlari o'z konsolidatsiyalashgan byudjetining xarajatlarining 50 foyizidan yuqori miqdorida moliyaviy yordam olsalar, unda RF subyektlari byudjetini majburiy tartibda tekshiruvdan

o‘tkazadi. RF subyektlari byudjetini Moliya vazirligi yoki RF Hisob palatasi tekshirishdan o‘tkazishlari mumkin.

O‘z navbatida RF subyektlari vakil qilgan davlat organi RF subyektlari mahalliy byudjetidan moliyaviy yordam olganlari tekshiruvdan o‘tkazish huquqiga ega. Munitsipal tuzulmalar byudjetini RF subyektlari hukumat ijroiya organlari va nazorat organlari tekshirishdan o‘tkazishlari mumkin. RF subyektlari nazorat organlari xulosasi RF subyektlari byudjet loyihasi qonunchilik organi tomonidan ko‘rib chiqilayotgan vaqtda oshkora qilinadi. RF subyektlari davlat organlari RF subyektlari byudjetidan mahalliy byudjetga kelib tushgan mablag‘larni xarajat qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

RF Byudjet Kodeksi davlat nobyudjet fondlarini daromadlari va bajarilishi ustidan nazorat to‘g‘risidagi umumiy tartibni o‘z ichiga oladi. Davlat byudjet fondlariga majburiy to‘lovlarni yig‘ilishi va ularni tushumi ustidan nazoratni, federal byudjetlarni yig‘ish va tushumini ta’minlovchi hukumatning ijrochi organlari zimmasiga yuklatilgan. Davlat nobyudjet fondlari byudjetini bajarilishi ustidan nazoratni Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimini mos darajasi byudjetini bajarilishini nazoratini ta’minlaydigan organ tomonidan mos byudjet uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Hisob palatasi tomonidan nazoratni tashkiliy-huquqiy shakli nuqtai nazaridan barcha organlar, tashkilot va muassasalar, agar ular davlatning moliyaviy va moddiy resurslaridan foydalansalar nazoratga tortiladilar, jumladan:

- byudjetdan moliyalashtirilganliklari sababli, davlat hukumati organlari;
- hukumatning tarmoqlar va hududiy tuzulmaviy ijroiya bo‘limlari, ular byudjet va nobyudjet fondlar mablag‘laridan, qarz mablag‘laridan va davlat mulkidan foydalanganliklari uchun;
- byudjet sohasining barcha tashkilot va muassasalari, hukumatning tarmoqlarga bo‘ysunuvchi va hududlardagi ijrochi organlari;
- xo‘jalik yuritish asosida davlat mulkini boshqaradigan unitar korxonalar;

- davlat buyurtmasini, kreditlarini, ssudalarini oluvchi, soliq va boshqa yengilliklarda ustuvor bo'lgan, davlat mulkini har qanday shaklda, jumladan ajratilgan mablag'lardan va o'rnatilgan yengilliklardan foydalanuvchi nodavlat xo'jalik birlashmalari, jamoatchilik birlashmalari;

- jamoatchilik birlashmalari, nodavlat fondlari va boshqa notijorat tashkilotlari yuqoridagi punktda ko'rsatib o'tilgan doirada va asosda;

- davlat moliyasidan foydalanib pul o'tkazmalar va pul qabul qilish bilan bog'liq operasiyalarni amalga oshiruvchi, davlat mulkini boshqarish va undan foydalanish, davlat qimmatli qog'ozlari muomalasi doirasidagi operasiyalarni bajaruvchi banklar, moliya-kredit muassasalarini.

RF Byudjet Kodeksiga kiritilgan hukumatning ijrochi organlarining nazorat vakolatlari ular tomonidan qonunga qo'shimcha hujjatlarda yanada mukammalroq aniqlanmoqda va taqsimlanmoqda. Jumladan Moliya vazirligi o'ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq o'z vakolati doirasida federal byudjetni bajarilishini nazorat qiladi va uni bajarilishini ta'minlaydi. Rossiya Federatsiyasini konsoldasiyalashgan byudjetini va federal byudjetlarni bajarilganligi to'g'risidagi hisobotni tayyorlaydi. U shuningdek federal byudjet mablag'larini maqsadli ishlatilishi ustidan nazorat o'rnatadi va federal mulkdan tushadigan daromadlarni aniqlashda qatnashadi va ularni tushumi ustidan nazorat o'rnatadi.

Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazorati Departamenti o'z vakolati doirasida federal byudjet mablag'larini tushumli va xarajatini ishlatilishini kompleks tahlil qiladi va tematik tekshiruvlar o'tkazadi. U shuningdek, huquq-targ'ibot organlari topshiriqlariga asosan mustaqil RF subyektlari bo'yicha bosh nazoratchi taftishchilarni jalb qilgan holda, tashkilotlarni moliyaviy-xo'jalik faoliyatini hujjatli taftishdan o'tkazadilar. Bundan tashqari Departament RF subyektlari bo'yicha bosh nazoratchi – taftishchilarni jalb qilgan holda davlat hukumat organlari va mahalliy o'zi-o'zini boshqarish organlari murojaatlari

bo‘yicha mustaqil ravishda taftish va moliyaviy tekshiruvlar tashkil etadi va o‘tkazadi.

RF Moliya vazirligi nazorat – taftish boshqarmasi vakolatiga RF subyektlarida hamda hududlarda navbatdagi moliyaviy nazoratni amalga oshirish kiradi:

-federal byudjetni mablag‘larini saqlanishi, o‘z vaqtida maqsadli, samarali foydalanishi, shuningdek, davlat nobyudjet fondlari va boshqa federal mablag‘larni navbatdagi nazoratini amalga oshiradi;

-o‘z vakolati doirasida federal byudjet mablag‘larini tushumi va xarajat qilinishi, nobyudjet mablag‘laridan foydalanishi federal mulkdan olinadigan daromadlar bo‘yicha taftish va tematik tekshiruv o‘tkazadi;

-huquq targ‘ibot organlari farmoyishlari asosida qanday mulkchilik shaklida bo‘lishidan qat’iy nazar korxonalarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini ustidan taftish va tekshiruvlar o‘tkazadilar;

-RF subyektlari davlat organlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari murojaatlariga muvofiq, o‘rnatilgan tartibda, shartnoma asosida mos byudjetlar va nobyudjet fondlarni tushumi, xarajati, ular mulkchiligidagi mulkdan daromadlar bo‘yicha taftish va moliyaviy tekshirishlar o‘tkazadilar.

Bunday taftish va moliyaviy tekshirishlar xarajatlari RF subyektlari davlat hukumati organlari va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan qoplanadi.

Ahamiyatli nazorat vakolati *Federal g‘aznachilik organlariga* topshirilgan. Byudjet intizomini mustahkamlash maqsadida ularga vazirliklarda, korxonalarda, tashkilot va muassasalarda, banklarda va moliya-kredit tashkilotlarida barcha turdagi mulkchlik shakllarida, shu jumladan qo‘shimcha korxonalarda pul mablag‘larini, buxgalteriya hisobi registrlarini, rejalarni, smeta va boshqa hujjatlarni agarda ular Rossiya Federatsiyasi respublika byudjetiga pul o‘tkazish va respublika byudjeti mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lsa tekshirish, hamda tekshiruv mobaynida paydo bo‘lgan savollar bo‘yicha ma’lumot olish huquqiga egadirlar.



16.4-rasm. **RF Moliya vazirligi nazorat- taftish boshqarmasining vakolatlari**

RF Moliya vazirligi davlat federal g'aznachilik boshqarmasi o'ziga biriktirilgan vakolatlar bo'yicha quyidagilarni amalga oshiradi:

-Rossiya federatsiyasi respublika byudjeti bilan davlat nobyudjet fondlari o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni tartibga soladi:

-Rossiya federatsiyasi respublika byudjetini bajrilishi, davlat federal nobyudjet fondlarni moliyaviy bajarilishi, federal nobyudjet fondlarni tushumi, foydalanishi jarayonlarida g'aznachilikni hududiy organlarida Rossiya federatsiyasinning xarakatdagi qonunlariga rioya qilinishi ustidan bevosita ishlarni tashkil etadi va o'tkazadi.

Hududiy g'aznachilik organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi kuchga egadirlar:

-Rossiya federatsiyasi respublika byudjeti mablag'lari bilan, davlat federal nobyudjet fondlar va federal nobyudjet mablag'lari, shuningdek Rossiya Federatsiyasi respublika byudjeti fondlarini ishlanilishi bo'yicha bo'ladigan operasiyalarni o'z muddatida amalga oshirilishini nazort qiladi;

-Hukumatning ijroiya organlari, soliq, huquq targ'ibot organlari va banklar bilan hamkorlikda nazorat funksiyasini amalga oshiradi.

Barcha darajadagi byudjetlarning daromad qismlarini nazorat rejasida joriy va davomiy nazorat vakolati *soliq organlariga* birkitilgan. Rossiya federatsiyasi soliq Kodeksi byudjetga va nobyudjet fondlarga majburiy to'lovlarni o'z muddatida, to'la va to'g'ri tushushini amalga oshirish mexanizmini o'rnatgan. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun soliq to'lovlari soliq organlariga zarur axborotlar va hujjatlarni taqdim etishga majburdirlar, soliq agentlari esa soliqlarni to'g'ri hisoblanishi, ushlanishi va o'tkazilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni o'zlari hisobda turgan soliq organiga taqdim etadilar.

Byudjet obyektlarini moliyaviy nazoratini, nazorat tadbirlarini tashkil qilishning alohidaligi va uni o'tkazishda foydalaniladigan usullar va chegaralar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin.

Dastlabki va navbatdagi nazoratni obyektlari bo'lib asosan hujjatlar hisoblanadi, jumladan:

-byudjet loyihalari, nobyudjet fondlar smetalari va ularni bajarilishi bo'yicha hisobotlar:

-moliyalashtirishda byudjet va nobyudjet fondlar mablag'lari foydalaniladigan davlat, tarmoqlar va hududiy dasturlar loyihalari va ularni realizatsiya bo'yicha yakuniy hujjatlari;

-byudjet – moliya masalalari bo'yicha qonunchilik va boshqa huquqiy me'yoriy hujjatlar loyihalari;

-davlat byudjeti va moliyaviy resurslarga tegishli bo'lgan shartnoma va kelishuvlar loyihalari.

Ko‘rsatilgan holatlarda nazorat asosan iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi va natijasi ekspert xulosasi shaklida taqdim etiladi.

Joriy nazorat avval ko‘rsatib o‘tilgan barcha obyektlarda nisbatan moliyaviy xo‘jalik qarorlari relizasiyasi mobaynida amalga oshiriladi. Joriy nazorat iqtisodiy taxlil bilan bir qatorda taftish, tekshirish va tadqiqotlarini nazorat obyektiga chiqib amalga oshirishini nazarda tutadi. Bunday holatlarda nazorat tadbirlari natijalari dalolatnoma va ma’lumotnoma shaklida rasmiylashtiriladi.

*RF Markaziy Banki*ning huquqiy maqomi 2002 yil 10 iyulda chiqarilgan 86-F3 sonli “Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Federal qonuni bilan belgilangan [14]. RF MBning asosiy funksiyalaridan biri bo‘lib tijorat banklari va boshqa kredit tashkilotlari ustidan nazorat hisoblanadi. Ana shu funksiyani Rossiya Banki quyidagicha amalga oshiradi: kredit tashkilotlari va korxonalarining davlat qaydnomasiga o‘tishi to‘g‘risidagi qarorni qabul qiladi, kredit tashkilotlariga bank operasiyalarini amalga oshirish uchun litsenziyani taqdim etadi, ularning harakatini to‘xtatib turadi va chaqirib oladi; kredit tashkilotlari va bank guruhlarining faoliyati ustidan nazorat o‘rnatadi (4 modda).

Rossiya Banki bank sohasidagi tartibga solishni va bank nazoratini amalga oshiruvchi organ hisoblanadi (56 modda). Bank kredit tashkilotlari va bank guruhlari tomonidan bank qonunchiligining bajarilishini, Rossiya banki me’yoriy aktlariga, Rossiya banki tomonidan o‘rnatilgan majburiy me’yoriy aktlariga amal qilish va ular tomonidan o‘rnatilgan majburiy normativlarga amal qilishini doimiy nazorat qilib turadi. Bank tizimini tartibga solish va nazorat qilishning bosh maqsadi bo‘lib Rossiya Federatsiyasi bank tizimining turg‘unligini saqlab turish, omonatchilar hamda kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Rossiya bankining nazorat va tartibga solish funksiyalari doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi organ – Bank nazorati

Qo‘mitasi yordamida amalga oshiriladi. Qo‘mita uning nazorat funksiyalarini amalga oshiruvchi tuzilmaviy bo‘linmalarini birlashtiradi.

Rossiya Banki kredit tashkilotlari va bank guruhlari uchun majburiy bo‘lgan bank operasiyalarini o‘tkazish, buxgalteriya hisob-kitobini olib borish, ichki nazoratni tashkil etish, buxgalteriyaga oid va statistik hisobotlarni, shuningdek federal qonunlar bilan ko‘zda tutilgan boshqa ma’lumotlarni tuzish va taqdim etish qoidalarini belgilaydi.

O‘zining bank tizimini tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini amalga oshirish uchun Rossiya banki kredit tashkilotlarining tekshiruvlarini o‘tkazadi, ularning faoliyatida aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish to‘g‘risidagi bajarish uchun majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalarni yuboradi va qonunbuzarlarga nisbatan sanksiyalar qo‘llaydi. Tekshiruvlar bankning vakolatli xodimlari tomonidan Direktorlar Kengashi yoki Direktorlar kengashi topshirig‘i bilan auditorlik tashkilotlari tomonidan belgilangan tartib bo‘yicha amalga oshiriladi.

Kredit tashkiloti tomonidan federal qonunlarini, me’yoriy hujjatlarini va Rossiya Banki ko‘rsatmalarining bajarilishini buzish, ma’lumotni taqdim etmaslik, to‘liq bo‘lmagan yoki ishonchli bo‘lmagan ma’lumotni taqdim etish hollari aniqlansa Rossiya Banki kredit tashkilotidan aniqlangan qonun buzilishlarini bartaraf etish, ustav kapitalining minimal miqdoridan 0.1%gacha bo‘lgan darajada jarima undirib olish yoki kredit tashkiloti tomonidan alohida operasiyalarning o‘tkazilishini olti oygacha bo‘lgan muddatga ta’qiqlab qo‘yishga haqi bor (74-modda).

Belgilangan muddatda kredit tashkiloti faoliyatidagi qonun buzilishlarini bartaraf etish to‘g‘risidagi Rossiya Bankining ko‘rsatmasini bajarilmagan holda, shuningdek ana shu qonun buzilishlari yoki kredit tashkiloti tomonidan amalga oshiriladigan bank operasiyalari hamda bank bitimlari uning kreditorlari (omonatchilari) manfaatlari uchun haqiqiy xavfni keltirib chiqargan holda Rossiya Banki quyidagilarga haqqi bor:

• kredit tashkilotidan to‘langan ustav kapitalining 1%igacha miqdorda, lekin ustav kapitalining 1%idan oshib ketmagan darajada jarima undirib olishga;

• kredit tashkilotidan kredit tashkilotining moliyaviy ahvolini sog‘lomlashtirishni, shuningdek uning aktivlari tuzilmasini o‘zgartirishni, kredit tashkiloti rahbarlarini almashtirishni kredit tashkilotini qaytadan tashkil etishni talab qilishga;

• kredit tashkiloti uchun belgilangan majburiy normativlarni o‘zgartirishga;

• kredit tashkiloti tomonidan bank operasiyalarini amalga oshirish to‘g‘risidagi unga berilgan litsenziyada ko‘zda tutilgan ayrim bank operasiyalarini amalga oshirishni bir yilgacha muddatga, shuningdek uning filiallarini ochishni bir yilgacha muddatga ta’qiqlab qo‘yishga;

• kredit tashkilotini boshqarish uchun olti oygacha muddatga vaqtinchalik ma’muriyatni tayinlashga;

• agar kredit tashkilotini qayta tashkil qilish oqibatida kredit tashkilotining bankrotligi to‘g‘risida ogohlantirish bo‘yicha federal qonunchilik tomonidan ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarni o‘tkazish uchun asos paydo bo‘lsa, ana shu qayta tashkil etishni ta’qiqlab qo‘yishga.

Rossiya Banki kredit tashkilotidan federal qonunchilikda ko‘zda tutilgan asoslar bo‘yicha bank operasiyalarini amalga oshirishga ruxsat beruvchi lisenziyani tortib olishga haqlidir. Rossiya Banki sudga murojaat etib, ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismida ko‘rsatib o‘tilgan ro‘yxatdagi qonunbuzarliklar aniqlanganligi to‘g‘risidagi akt tuzilganidan boshlab olti oydan kechiktirmay kredit tashkilotidan jarimalar undirib olishi yoki federal qonunchilikda ko‘zda tutilgan boshqa sanksiyalarni qo‘llanilishini talab etishi mumkin.

Shuningdek Rossiya Bankining nazorat funksiyasi mamlakatning va hududlar bo‘yicha umumiy iqtisodiyotining ahvolini, birinchi navbatda pul-kredit, valyuta-moliya va narx-navo munosabatlarini tahlil qilish va prognoz qilishda o‘z ifodasini topadi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, kredit tizimini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlarni amalga oshirish qonunchilik tomonidan RF Markaziy Bankiga yuklatilgan.

Davlat bojxona qo'mitasi (DBQ) tomonidan boshqariladigan bojxona organlari (RF prezidentining 1991 yil 25 oktyabridagi 2014-sonli Farmoni "Rossiya Federatsiyasi Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risidagi" [36]) Rossiya Federatsiyasining bojxona chegarasi orqali tovarlarning ko'chib yurishi vaqtida soliqlar va yig'imlarni undirib olish bo'yicha vakolatlarini bajarish jarayonida nazoratni amalga oshiradi. Bojxona qonunchiligida belgilangan tartib bo'yicha ular bojxona chegarasi bo'ylab tovarlarni ko'chirib yurish paytidagi soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchilikni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortadilar.

Shunday qilib xalqaro tajribadan va amaldagi Rossiya qonunchiligidan kelib chiqqan holda shunday xulosa qilish mumkin: tashqi nazoratni RF Hisob Palatasi hamda RF subyektlarining nazorat-hisobchi organlari amalga oshiradi. Xalqaro tajribada byudjet jarayoni ustidan tashqi moliya nazoratini amalga oshirish vakolati kiradigan organni ajratib ko'rsatish uchun yagona nom qo'llaniladi – Moliya nazoratining Oliy organi. Rossiyada moliya nazoratining oliy organi to'g'risidagi masala hali ochiq turibdi va faqatgina ayni paytda RF Prezidenti ko'rsatmasi bilan ishlab chiqilayotgan davlat moliya nazoratining Yagona tizimi konsepsiyasi qabul qilinganidan keyingina hal bo'lishi mumkin.

Ular faoliyatining mukammal tahliliga o'tishdan oldin, turli mualliflar tomonidan tashqi va ichki nazoratni baholash borasida kelib chiqqan bahslar ustida to'xtalib o'tamiz. Bunda tashqi nazorat roliga ko'pincha yetarlicha baho berilmaydi. Ba'zilar uchun qonunchilik hokimiyatining nazorat organlari institutining ahamiyatini tushunish va uning zarurligi o'z-o'zidan ravshan bo'lib tuyulmaydi. Masalan, deputatlar ijrochi hokimiyat organlariga zaruriy tekshiruvlarni o'tkazish

uchun topshiriq berishi mumkin (qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng). Agar ana shunday tekshiruvlarda nazorat mustaqilligi tamoyili muhim bo'lsa, mustaqil auditorlik firmalarini jalb qilish mumkin.

VI BO'LIM BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI

1. Oliy nazorat organlari xalqaro tashkiloti INTOSAIning tashkil etishdan maqsad nima?

2. Lima deklarasiyaning mohiyati nimada?

3. Rossiya federatsiyasi Hisob palatasining moliyaviy nazoratni olib borishidagi vakolatlarini ayting.

4. Rossiya federatsiyasi Moliya vazirligining moliyaviy nazoratni tashkil etishdagi o'rnini izohlang.

5. RF Moliya vazirligi nazorat- taftish boshqarmasi vakolatiga kiruvchi vazifalarni ko'rsating.

VI BO'LIM YUZASIDAN TESTLAR

1. Quyidagilardan qaysi biri BMT qoshidagi nodavlat tashkilot - Oliy Nazorat Organlarining Xalqaro Tashkilot (INTOSAI)ni tuzishga sabab bo'lmagan?

a) Ko'p millatli korporativ operatsiyalarning kengayishi

b) Jahon iqtisodiyotida baynalminallashish tendensiyalarining kuzatilishi

d) Jahon iqtisodiyotini barqarorlashtirish

e) Biznes va savdo-sotiqning rivojlanishi

2. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda davlatning bank nazorati sohasidagi asosiy maqsadlariga quyidagilardan qaysi biri kirmaydi?

a) Banklar orqali davlat byudjeti kassa ijrosini nazorat qilish

b) Iqtisodiyotdagi moliyaviy nobarqarorlikka barham berish

d) Pul taklifi ustidan nazorat o'rnatish

e) Banklarning foyda asosida faoliyat yuritishini ta'minlash

3. Yevropa Ittifoqi bank nazorati va MDH mamlakatlari bank nazoratlari qaysi nazorat tizimiga kiradi?

a) Xalqaro bank nazorati tizimiga

b) Mintaqaviy bank nazorati tizimiga

d) Jahon bank nazorati tizimiga

e) Milliy bank nazorati tizimiga

4. INTOSAI qanday tashkilot?

a) Oliy darajadagi xalqaro siyosiy tashkilot

b) Oliy darajadagi xalqaro nazorat organi

d) Oliy darajadagi xalqaro moliyaviy tashkilot

e) Oliy darajadagi xalqaro mustaqil tashkilot

5. INTOSAIni tashkil etishning maqsadini aniqlang.

a) Oliy nazorat organlari o'rtasida o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish va tajriba almashish

b) Oliy darajadagi xalqaro moliyaviy tashkilot davlatlar o'rtasida o'zaro moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish

d) Oliy darajadagi xalqaro siyosiy tashkilot siyosiy barqarorlikni o'rnatish

e) Oliy darajadagi xalqaro siyosiy tashkilot sifatida BMTga ko'mak berish

6. INTOSAIning xarajatlari nimalar hisobidan qoplanmaydi?

a) Jismoniy shaxslarning beg'araz yordamlari hisobidan

b) A'zolik badallari hisobidan

d) INTOSAI nashrlari hisobidan

e) Shaxsiy mablag'lar hisobidan

7. Quyidagi xalqaro tashkilotlardan qaysi biri INTOSAIning a'zosi hisoblanadi?

a) Jahon Banki guruhi va Ichki auditorlar instituti

b) Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki va GRECO

d) Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Jahon Banki guruhi

e) Faqat Jahon Banki guruhi

8. ISSAI bu...

a) Oliy nazorat organlarining xalqaro standartlari

b) Xalqaro moliyaviy nazorat organi

d) Janubiy Amerika mamlakatlari Nazorat organi

e) INTOSAIning Janubiy Amerikadagi filiali

9. Lima Deklaratsiyasi deb nomlanuvchi xalqaro hujjat qachon qabul qilingan?

a) 1977-yilda

b) 1991-yilda

d) 1998-yilda

e) 1957-yilda

10. Milliy nazorat-taftish boshqarmasi qaysi davlatning nazorat organi?

a) Rossiya Federatsiyasininig

b) Frantsiyaninig

d) Shvetsiyaninig

e) Buyuk Britaniyaninig

11. Rossiya Federatsiyasi Byudjet Kodeksida Moliya vazirligiga qanday vakolatlar berilmagan?

a) Byudjet mablag'larini oluvchilar shuningdek, byudjet ssudalari, byudjet kreditlari va davlat kafolatlari oluvchilar moliyaviy holatini tekshirish

b) Milliy valyutani emissiya qilish

d) Byudjetni bajarilishi ustidan dastlabki va joriy nazorat o'rnatish

e) Byudjet investittsiyalarini oluvchilarni, ular tomonidan ko'rsatilgan mablag'lardan samarali foydalanish shartlariga rioya qilinayotganligi ustidan nazorat qilish

12. Quyidagilardan qaysi biri RF Hisob Palatasining nazoratni tashkil qilish va amalga oshirishdagi vazifalariga kirmaydi?

a) Federal byudjet loyihasi va federal byudjet fondlar byudjetlari loyihasi, daromad va xarajat moddalari asoslanganligi ustidan nazorat qilish

b) Davlat mablag'lari xarajatlarini maqsadliligi va samaradorligi hamda federal mulkdan foydalanish ustidan nazorat qilish

d) Federal byudjetni daromad va xarajat moddalari bo'yicha bajarilishini, hajmi, tarkibi va maqsadli yo'nalishlarini tekshirish

e) Moliyaviy hisobotning to'g'riligini tekshirish

13. Quyidagilardan qaysi biri RF Hisob Palatasining nazorat obyekti hisoblanmaydi?

a) Hukumatning chet el davlatlaridan olgan qarzlari

b) Auditorlik tashkilotlari

d) Hukumatning ichki va tashqi qarziga xizmat qilish va uni boshqarish

e) Qaytarib berish asosida berilgan markazlashgan moliyaviy resurslarni samarali joylashtirilishi

GLOSSARY

I BO‘LIM. MOLIYAVIY NAZORATNING NAZARIY VA TASHKILIY ASOSLARI

«Moliyaviy nazorat» o‘quv fanining maqsadi (Цель учебной дисциплины «Финансовый контроль», Purpose of the discipline "Financial control") - kelgusida yuqori malakali iqtisodchi-mutaxassislar bo‘lib yetishadigan talabalar uchun moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda davlatning hozirgi davrdagi moliyaviy nazoratni olib borish siyosatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilishdan iborat.

«Moliyaviy nazorat» o‘quv fanining vazifalari (Задачи учебной дисциплины «Финансовый контроль», Tasks of the discipline "Financial control") - talabalarga moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy, huquqiy, tashkiliy asoslari haqida bilimlar berish, ularda moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlarning faoliyat yo‘nalishlarini o‘rgatishdan iborat.

Moliyaviy nazorat (Финансовый контроль, Financial control) - Moliyaviy tekshirish va u bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar harakatini va muomalasini majmui bo‘lib, xo‘jalik subyektlari faoliyatini va boshqarishni uziga xos usullar va shakllar yordamida tashkil etishdir.

Moliyaviy nazorat subyekti (Субъект финансового контроля, Subject of financial control) - nazorat o‘tkazuvchi tashkilot yoki shaxs hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat obyekti (Объект финансового контроля, Object of financial control) - barcha iqtisodiy subyektlar yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Moliyaviy nazorat predmeti (Предмет финансового контроля, Matter of financial control) - barcha iqtisodiy subyektlarning o‘zaro hamda davlat va davlat tashkilotlari o‘rtasida yuzaga keladigan

moliyaviy munosabatlari tashkil etadi.

Moliyaviy nazorat tamoyillari (Принципы финансового контроля, Principles of financial control) - qonuniylik, oshkoralik, rejalilik, layoqatlilik, mustaqillik va obyektivlik.

Moliyaviy nazoratning funksiyalari (Функции финансового контроля, Functions of financial control) - qonunbuzilishlarni va chetga chiqishlarni aniqlash, ularni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va subyektlarni huquqlarini himoya qilish.

Moliyaviy nazorat (Финансовый контроль, Financial control) - davlat tomonidan tashkil etilgan, nazorat o‘tilish vazifalari yuklatilgan davlat yoki mustaqil jamoat organlari tomonidan hukumat, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlashga qaratilgan nazorat tizimidir.

Davlat moliyaviy nazoratining maqsadi (цель государственного финансового контороля, The purpose of the state financial control) - davlat xazinasiga resurslarni tushirishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish.

Nodavlat moliyaviy nazoratining maqsadi (Цель негосударственного финансового контороля, The aim of the non-financial control) - joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasidagi ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirish.

Moliyaviy nazorat turlari (Виды финансового контроля, Types of financial control) - moliyaviy nazoratning amalga oshiruvchi suyektlariga ko‘ra umumdavlat, mahkamaviy, ichki xo‘jalik, jamoatchilik va mustaqil auditorlik nazorat turlari mavjud.

Mustaqil nazorat (Независимый контроль, Independent control) - mustaqil auditorlik tashkilotlari tomonidan qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida amalga oshiriladi.

Ichki nazorat (Внутренний контроль, Internal control) - xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ichki xo‘jalik bo‘linmalari yoki ichki audit xizmatlari tomonidan moliyaviy buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida amalga oshiriladi.

Jamotachilik nazorati (Общественный контроль, Public control) - nodavlat tashkilotlari yoki jamoatchilik tomonidan qonun hujjatlarining moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik maqsadida amalga oshiriladi.

Moliyaviy nazorat shakllari (Формы финансового контроля, Forms of financial control) - amalga oshirish reglamenti bo'yicha, o'tkazish vaqti bo'yicha, obyektlari va subyektlari bo'yicha tavsiflanadi.

Dastlabki nazorat (Предварительный контроль, Preliminariy control) - moliyaviy operatsiyalar bajarilguniga qadar g'aznachilik bo'linmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Joriy nazorat (Текущий контроль, Current control) - moliyaviy operatsiyalar bajarilishi jarayonida g'aznachilik bo'linmalari, moliya organlari va davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Yakuniy nazorat (Последующий контроль, The final control) - moliyaviy operatsiyalar bajarilganidan so'ng o'tkazilib, tekshirilayotgan hujjatlarni va obyektning butun moliyaviy holatini chuqur o'rganish bilan farq qiladi.

II BO'LIM. MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT ORGANLARINING AHAMIYATI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (Олий Мажлис Республики Узбекистан, Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan) - O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2 palatadan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palatasi) va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik (quyi) palatasidan iborat bo'lib, Pralament nazoratini olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (Президент Республики Узбекистан, President of the Republic of Uzbekistan) - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili

bo‘lib, davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (Кабинет Министров Республики Узбекистан, Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan) - O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma’naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta’minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Hisob palatasi (Счетная палата,Chamber of Accounts) - O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tashqi audit va moliyaviy nazoratning eng yuqori organi hisoblanadi.

Hisob palatasi faoliyatining maqsadi (Цель деятельности Счетной палаты, Purpose of the Chamber of Accounts) - O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg‘armalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga asosan tashkil etilgan boshqa jamg‘armalarga tushumlarni to‘liqligi, maqsadli va samarali shakllanishi va ijro etilishini, davlat aktivlari va passivlari holati va harakatini, oltin-valyuta zaxiralari hamda tashqaridan jalb qilingan mablag‘larni qayta to‘ldirilishi, boshqarilishi va tasarruf etilishi ustidan monitoring va davlat nazoratini amalga oshirish.

Hisob palatasi faoliyatining asosiy obyekti (Главный объект деятельности Счетной палаты , The main object of activity of the Chamber of Accounts) - Davlatga tegishli mablag‘lar, shu jumladan davlat byudjeti va davlatning maqsadli jamg‘armalari.

Hisob palatasining nazorat tadbiri (мероприятия контроля Счетной палаты, Measures of control of the Accounts Chamber) - O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarning maqsadga muvofiq va samarali ijro etilishi, shuningdek davlat mablag‘lari sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida tekshirish obyektlarining buxgalteriya, moliyaviy va boshqa hujjatlarini tekshirish.

Hisob palatasining ko‘rsatmasi (Указание Счетной палаты, Indication of the Accounts Chamber) - Hisob palatasining ijro etish majburiy bo‘lgan qarori turi, u nazorat tadbiri davomida aniqlangan qonun hujjatlarini buzishlarni bartaraf etish tadbirlari ro‘yxatini o‘z ichiga olib, tekshirish obyektiga va/yoki uning tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvidan yuqori organiga, shuningdek qonun hujjatlariga binoan Hisob palatasining tekshirishlari davomida aniqlanadigan zararni undirishni amalga oshirish vakolati yuklatilgan davlat organlariga yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (Министерство финансов Республики Узбекистан,Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan) - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi respublikaning markaziy moliya-iqisodiy organi sifatida O‘zbekiston Respublikasining moliyaviy narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi (Казначейство Министерства финансов Республики Узбекистан, Treasury of the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan) - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligi o‘zining hududiy bo‘linmalari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining g‘azna ijrosini amalga oshiradigan maxsus vakolatli moliya organi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorat bosh boshqarmasi (Главное управление Государственного финансового контроля министерства финансов Республики Узбекистан, Main Department of the State Financial Control of the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan) - moliyaviy huquqbuzarliklar profilaktikasini, byudjet tizimi byudjetlari mablag‘lari maqsadli sarflanishini, moliyaviy nazorat obyektlari tomonidan byudjet qonunchiligiga, shuningdek byudjet va smeta-shtat intizomiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat moliyaviy nazorat organi hisoblanadi.

Soliq nazorati (Налоговый контроль, Tax control) - soliqqa tortishning takomillashgan tizimini tashkil etish, soliq to‘lovchilar, banklar va boshqa soliqqa oid munosabatlar qatnashuvchilari o‘rtasida soliq qonunchiligini buzulishiga yo‘l qo‘ymaydigan soliq intizomini yaratish hisoblanadi.

Soliq nazoratining obyekti (Объект налогового контроля, The object of tax control) - yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan soliqlar va majburiy to‘lovlar hamda ularni hisoblash va to‘lash jarayonidagi moliyaviy munosabatlar hisoblanadi.

Soliq nazoratining predmeti (Предмет налогового контроля, The matter of the tax control) - soliqlar va majburiy to‘lovlarni hisoblash, undirish va to‘lash jarayonidagi moliyaviy munosabatlar.

Soliq nazoratining subyekti (Субъект налогового контроля, The subject of the tax control) - soliq nazoratinin amalga oshiruvchi organlar.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi (Государственный налоговый комитет Республики Узбекистан, The State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan) - soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoya qilinishini ta’minlash sohasidagi nazorat bo‘yicha respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

Soliq nazoratining shakllari (Формы налогового контроля, Forms of tax control) - mamlakatimizda soliq nazoratining shakllari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 67 moddasida keltirilgan soliq nazorati shakllari hamda soliq monitoringi amal qiladi.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish (Нарушения налогового законодательства, Violations of tax laws) - soliq va boshqa kodekslarda javobgarlik belgilangan soliq to‘lovchining qonunchilikka qarshi faoliyati hisoblanadi.

Qisqa muddatli tekshiruv (Краткосрочная проверка, Short-term control) - soliq to‘lovchining moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan, uning ayrim operasiyalarining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvidir.

Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshiruvi (taftishi) (Проверка финансово-хозяйственной деятельеости налогоплательщика, Audit of financial and economic activities of the taxpayer) - tekshiruvlarni amalga oshirishning nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan muvofiqlashtirish rejasi asosida o'tkaziladigan tekshiruvdir.

Bojxona nazorati (Таможенный контроль, Tax control) - O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasidagi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmuidan iborat.

Bojxona nazoratining shakllari (Формы таможенного контроля, Forms of tax control) - mamlakatimizda yuridik va jismoniy shaxslarning bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazorati bojxona organlari xodimlari tomonidan O'zbekiston Repsublikasi Bojxona Kodeksining 188 moddasida keltirilgan shakllarda o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi (Государственный таможенный комитет Республики Узбекистан, The State Customs Committee of the Republic of Uzbekistan) - o'z vakolatlari doirasida yagona boj siyosati o'tkazilishini, bojxona ishlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini, DBQ organlari tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish (Нарушения таможенного законодательства,Violations of customs laws) - bojxona va boshqa kodekslarda javobgarlik belgilangan yuridik va jismoniy shaxslarning qonunchilikka qarshi faoliyati hisoblanadi.

Sug'urta (Страхование, Insurance) - Yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shuningdek sug'urtalovchining boshqa mablag'laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi.

Sug'urtalovchi (Страховщик, Insurer) - tegishli turdagi sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovoni (sug'urta puli) to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs sug'urtalovchi deb e'tirof etiladi.

Sug'urta brokeri (Страховой брокер, Insurance broker) - sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs sug'urta brokeri hisoblanadi.

Sug'urta agenti (Страховой агент, Insurance agent) - sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta agenti hisoblanadi.

Sug'urta nazorati (Страховой контроль, Insurance control) - sug'urta bozori va uning ishtirokchilarini xatti harakatlarini qonunchilik talblariga mos bo'lishini ta'minlash hamda sug'urtalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarini himoya qilish.

Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi (Государственная инспекция по страховому надзору при Министерстве финансов Республики Узбекистан, State inspection for insurance supervision under the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan) - sug'urta nazorati davlat inspeksiyasi sug'urta munosabatlari barcha qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Resrublikasi hududida sug'urta tashkilotlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (Центральный банк Республики Узбекистан, The Central Bank of the Republic of Uzbekistan) - markaziy bank yuridik shaxs bo'lib, o'z sarf-xarajatlarini o'zining daromadlari hisobidan amalga oshiruvchi, iqtisodiy jihatdan mustaqil muassasadir.

Tijorat banki (Коммерческий банк, Commercial bank) - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir: yuridik va

jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish; to'lovlarni amalga oshirish.

Bank nazorati (Банковский контроль, Banking control) - Bank nazorati - bu hukumatning moliyaviy tizimni barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlari yig'indisidan iborat tizimli boshqaruv vositasi hisoblanadi.

Bank nazorati usullari (Методы банковского контроля, Methods of bank control) - markaziy bank tomonidan tijorat banklar faoliyatini masofadan turib, ya'ni ular taqdim etgan moliyaviy hisobotlarini tekshirish orqali nazorat qilish hamda banklarni joylarga chiqib inspeksiya qilish, ya'ni barcha moliyaviy hisobotlar va ularga tegishli qo'shimcha ma'lumotlar tijorat banklarining o'ziga borib tekshirish.

Iqtisodiy normativlar (Экономические нормативы, Economic standards) - Markaziy bank banklar uchun O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi qonunining 52-moddasida keltirilgan majburiy bo'lgan iqtisodiy normativlarni belgilaydi.

Markaziy bank qo'llaydigan choralar va sanksiyalar (Меры и санкции, применяемые Центральным банком, Measures and sanctions applied by the Central Bank) - Banklar va ularning filiallari iqtisodiy normativlarni belgilovchi banklarga oid qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, Markaziy bank ustav kapitalining eng kam miqdoridan 0,1 foizgacha jarima undirish yoxud ayrim operatsiyalarni o'tkazishni olti oygacha bo'lgan muddatga cheklab qo'yish huquqiga ega.

IV BO'LIM BYUDJET NAZORATI

Byudjet nazorati (Бюджетный контроль, Budgetary control) - byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarining byudjet nazorat obyektlari tomonidan buzilishini aniqlash, bartaraf etish va ularga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat moliyaviy nazorat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Byudjet jarayoni (Бюджетный процесс, Budget process) - davlat byudjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, ijro etish, ijrosi yuzasidan nazoratni olib borish, ijrosi bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash yuzasidan qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan jarayon.

Byudjet jarayoni ishtirokchilari (Участники бюджетного процесса, Participants in the budget process) - Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilar

Byudjet sohasidagi vakolatlar (Бюджетные полномочия, Budgetary powers) - byudjet jarayoni ishtirokchilarining byudjet munosabatlari sohasidagi vakolatlari.

Byudjet jarayoni tamoyillari (Принципы бюджетного процесса, Principles of the budget process) - byudjet jarayonida yagonalik, mustaqillik va metod tamoyillari qo'llaniladi

Moliya yili (Финансовый год, Fiscal year) - birinchi yanvardan o'ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oluvchi davr.

Byudjet jarayoning bosqichlari (Этапы бюджетного процесса, Stages of the budget process) - byudjet loyihasi tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash, ijro etish va nazorat qilish, ijrosi bo'yicha hisobot tayyorlash.

Byudjet so'rovi (Бюджетная заявка,The budget request) - byudjet tasnifi bo'yicha tushumlarni shakllantirish va byudjetdan mablag' ajratish to'g'risidagi so'rov.

Byudjetni ijro etish (Исполнения бюджета, The execution of the budget) -byudjetning daromadlar va xarajatlar qismining bajarilishi

Byudjet tashkiloti (Бюджетная организация, Budgetary organization) -zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun Davlat byudjetidan mablag' ajratish nazarda tutilgan va bu mablag' moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo'mitasi, idora, davlat tashkiloti.

Xarajatlar smetasi (Смета расходов, Expenditure estimate) - byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan

byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar xarajatlar moddalari bo‘yicha aks ettiriladigan hujjat.

Shtat jadvali (Штатное расписание, Staff list) - doimiy xodimlar lavozimlari va bo‘sh o‘rinlar nomlarining soni va lavozim maoshlarining miqdorlari ko‘rsatilgan ro‘yxatni o‘z ichiga oladigan, byudjet tashkiloti tomonidan tuziladigan hujjat.

Xarajatlar smetasini ro‘yxatdan o‘tkazish (Регистрация смет расходов, Registration of expenditure estimate) - byudjet tashkilotlarini xarajatlar smetasini moliya organlaridan ro‘yhatdan o‘tkazish jarayoni.

Byudjet tashkilotlarining smeta ijrosi (Исполнение смет расходов, Financing process of expenditure estimate) -Byudjet tashkilotlarini xarajatlar smetasini moliyalashtirish jarayoni.

Byudjet tashkilotlarining smeta ijrosini jarayoni nazorati (Контроль за исполнением смет расходов, Control during financing process of expenditure estimate) - byudjet tashkilotlarini xarajatlar smetasi asosida moliyalashtirish jarayonida moliya organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

Yuridik majburiyatlar (Юридические обязательства, Legal obligations) -Tuzilgan shartnomalar, shuningdek tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlari asosida byudjet tashkilotlarida va byudjetdan mablag‘ oluvchilarda yuzaga keladigan majburiyatlar.

Moliyaviy majburiyatlar (Финансовые обязательства, Financial obligations) - byudjet tashkilotlarida va byudjet mablag‘lari oluvchilarda ularga pul mablag‘larini o‘tkazish majburiyatini yuklovchi hujjatlar, shu jumladan ijro hujjatlari asosida yuzaga keladigan majburiyatlar.

Byudjetdan mablag‘ ajratish (Выделения средств из бюджета, The allocation of funds from the budget) - qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat byudjetidan byudjet tashkilotlariga hamda boshqa byudjet mablag‘lari oluvchilarga ajratiladigan pul mablag‘lari.

Smetali moliyalashtirish (Финансирование по смете, Estimated at financing) - bunda korxona yoki tashkilot o‘z daromadlariga ega bo‘lmasdan davlat byudjetining mablag‘lari hi-sobidan to‘liq saqlanadi.

Taftish (Ревизия, Revision) - Taftish moliyaviy nazoratning ancha

keng tarqalgan metodi sanalib, nazoratning haqiqiy va hujjatli usullarini qo'llash yordamida amalga oshiriladigan korxona, tashkilot va muassasalar moliya-xo'jalik faoliyatini o'zaro bog'langan kompleks tekshiruvidan iboratdir.

Dalolatnoma (Акт ревизии, Act of revision) - tekshirish va taftish natijalari asosida uziladigan hujjat

V BO'LIM. NODAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI

Ichki moliyaviy nazorat (Внутренний финансовый контроль, Internal financial control) - xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki xo'jalik bo'linmalari yoki ichki audit xizmatlari tomonidan moliyaviy buzilishi hollarini aniqlash, bartaraf etish va unga yo'l qo'ymaslik maqsadida amalga oshiriladi.

Ichki audit (Внутренний аудит, Internal audit) - xodimlarning o'z vazifalarini samarali bajarishlarida yordam berish maqsadida bank faoliyatini tekshirish va baholash uchun korxona ichida doimiy asosda tuzilgan mustaqil ekspertiza.

Ichki audit xizmati (Служба внутреннего аудита, Internal audit service) -korxona kuzatuvchi kengashining qarori bilan tashkil etiladigan korxonaning ichki auditni amalga oshiradigan tarkibiy bo'linmasi.

Audit (Аудит, Audit) - muayyan vakolatlar berilgan shaxslar — auditorlar (auditorlar firmalari) tomonidan xo'jalik yuritayotgan subyektlarning moliyaviy hisobotlari to'g'riligini, ular amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalarining mamlakat qonunlariga muvofiqligini tekshirish maqsadlarida o'tkaziladigan nazorat.

Auditorlik faoliyati (Аудиторская деятельность, Audit activity) - auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

Auditorlik nazorati (Аудиторский контроль, Audit control) - mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisobotini yoki u bilan bog'liq moliyaviy axborotni ushbu hisobot yoki

axborotning qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiqlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishidir.

Auditorlik faoliyatining asosiy tamoyillari (Основные принципы аудиторской деятельности, Main principles of audit activity) - auditorlik faoliyati mustaqillik, xolislik, erkinlik, professional malakalilik va maxfiylik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Auditorlik faoliyati standartlari (стандарты аудиторской деятельности, Standards of audit activity) - Auditorlik faoliyati standartlari auditorlik tekshiruvini o'tkazish, professional xizmatlar ko'rsatish va auditorlar ishining sifatini nazorat qilish tizimini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Auditor (Аудитор, Auditor) - auditorlik malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir.

Auditorning malaka sertifikati (Квалификационный сертификат аудитора, Qualification certificate of auditor) - Auditorning malakasini tasdiqlovchi va auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik xizmatlari ko'rsatish huquqini beruvchi hujjat.

Auditorning yordamchisi (Помощник аудитора, Assistant of auditor) - auditor malaka sertifikatiga ega bo'lmagan va auditorlik hisobotida, auditorlik xulosasida auditorning ekspert xulosasida hamda auditorlik tekshiruvini o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan boshqa rasmiy hujjatda imzo chekish huquqiga ega bo'lmagan tarzda auditorning topshirig'iga binoan auditorlik tekshiruvida ishtirok etayotgan jismoniy shaxsdir.

Auditorlik tekshiruvi (Аудиторская проверка, Auditing) - iqtisodiy subyekt moliyaviy holatiga tegishli auditorlik dalillarini yig'ish, baholash va tahlili qilish hamda mavjud tekshiruv natijalari bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritishning to'g'riligi va buxgalteriya hisoboti ishonchliligiga fikr bildirish uchun zarur dalillarni yig'ish.

Auditorlik hisoboti (Аудиторский отчет, Audit report) - auditorlik teshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaivy qoidabuzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek, auditorldik tekshiruvi o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan

iborat bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbariga, mulkdorga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig‘ilishiga yo‘llangan hujjat.

Auditorlik xulosasi (Аудиторское заключение, Audit report) - moliyaviy hisobotning to‘g‘riligi va buxgalteriya hisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to‘g‘rsida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo‘jalik yurituchi subyekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo‘lgan hujjat.

VI BO‘LIM. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLIYAVIY NAZORAT

Lima deklaratsiyasi (Лимская декларация, Lima Declaration) - 1977 yilda oliy nazorat organlarining xalqaro tashkilotining IX Kongressida qabul qilingan nazoratning boshqaruvchi tamoyillarining Lima Deklarasiyasi deb nomlanuvchi xalqaro hujjat.

INTOSAI (ИНТОСАИ, INTOSAI) - Oliy nazorat organlarining xalqaro tashkiloti (INTOSAI) 1953 yilda mamlakatlar oliy nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida tashkil etilgan.

YEVROSAI (ЕВРОСАИ, EUROSAI) - Yevropa oliy nazorat organlarining xalqaro tashkiloti

ISSAI (ИССАИ, ISSAI) -Oliy nazorat organlarining xalqaro standartlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T., O'zbekiston, 2008.

2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996. 2-son.

3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995. 3-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007. 52 (I)-son

5. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013. 52-I-son

6. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016. 3(I)-son

7. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank to'g'risida"gi qonuni. 21.12.1995.

8. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni. 25.05.1996.

9. O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi 472-I-son qonuni, 29.08.1997.

10. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida" 474-i-son qonuni, 29.08.1997.

11. O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi 717-I-son qonuni, 24.12.1998 y.

12. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 26.05.2000.

13. O'zbekiston Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida" Qonuni, 5.04.2002.

14. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida"gi 525-II- sonli Qonuni, 29.08. 2003 y.

15. O‘zbekiston Respublikasining “Parlament nazorati” to‘g‘risida 403-sonli Qonuni, 11.04. 2016 y.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tekshiruvlarni tartibga solish va nazorat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish to‘g‘risida” №UP-1503 Farmoni, 8.08.1996 y.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni tekshirishlarning tashkil etilishini tartibga solish to‘g‘risida” №UP-2114 sonli Farmoni, 19.11.1998 y.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasini tashkil etish to‘g‘risida” PF-3093 Farmoni, 27.06.2002 y.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4848-son Farmoni, 5.10.2016 y.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 7.02.2017 y.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5116 sonli Farmoni, 18.07.2017 y.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5147-sonli Farmoni, 10.08.2017 y.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5177-sonli Farmoni, 2.09.2017 y.

24.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5296-son Farmoni, 9.01. 2018 yil

25.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “Budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5446-son Farmoni 23.05. 2018 y.

26.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat byudjetining g‘azna ijrosi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-594 – son Qarori, 28.02. 2007 y.

27.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-872 “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori, 21.05. 2008 y.

28.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2847-son Qarori, 18.03. 2017 y.

29.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3272-son Qarori, 13.09.2017 y.

30.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3802-son qarori, 26.06. 2018 y.

31.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”gi 374-son Qarori, 30.07.1997 y.

32.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Byudjet tashkilotlarini mablag‘ bilan ta’minlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 414-son Qarori, 3.09.1999 y.

33.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlari rolini oshirish to‘g‘risida» 365-sonli qarori, 22.09.2000 y.

34. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sug‘urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, 27.11.2002 y.

35. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Korxonalardagi ichki audit xizmati to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 215-son Qarori, 16.10.2006 y.

36. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 677-sonli Qarori, 28.08.2017 y.

37. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 870-son qarori, 24.10.2017 y.

38. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 488 b.

39. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 104 b.

40. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 56 b.

41. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 48 b.

42. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 22.12.2017, http://www.press-service.uz

43. Vahobov A., Malikov T. Moliya: umumnazariy masalalar. 2008.

44. Vahobov. A.V, Malikov. T.S: Moliya. Darslik. T.: Noshir 2011. 711 b.

45. Маликов Т.С. Moliya. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2018. 266 б.

46.Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya: chizmalarda: O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2010.

47.Nuritdinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat: O‘quv qo‘llanma. T.: 2014. 380 bet

48.G‘aybullaev O., O‘roqov. U. O‘zbekiston Respublikasida byudjet tizimi va jarayoni: O‘quv qo‘llanma. T.: Baktria press, 2015. 168 b.

49.Денисова, Т.В. Аудит: учебное пособие / Т.В. Денисова. – Челябинск: Издательский центр ЮУрГУ, 2015. – 38 с.

50.Самаруха В.И., Деревцова И.В., Государственный финансовый контроль в Российской Федерации (электронный ресурс): Учебное пособие. Иркутск: БГУ, 2018. 160 с. Lib-catalog@bgu.ru.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1.Васильева М.В. Оценка эффективности и результативности использования бюджетных средств при проведении финансового контроля // Финансовая аналитика, пробл. и решения. - М., 2011. - № 13. - С. 24-34.

2.Овчарова Е.В. Финансовый контроль в Российской Федерации. М.: Зерцало-М 2015. С. 224

3.Грачева, Е.У.; Толстопятенко, Г.П.; Рыжкова, Е.А. Финансовый контроль: М.: ИД КАМЕРОН 2013. - 272 с.

4.Лемеш, В.Н. Ревизия и аудит: практикум. Минск: Гревцова, 2012. 425 с.

5.Шатунова Г. А. Контроль и ревизия. М.: Рид Групп 2013. 464 с.

6.Mo‘minov R., Soliq nazoratini samarali va sifatli tashkil etish davr talabi. // Biznes-Ekspert №1(121)-2018

7. Alexandra Adam: Challenges of Public Finance Sustainability in the European Union // Procedia Economics and Finance. Volume 23, 2015, Pages 298 – 302. https://www.sciencedirect.com/

Internet manbalari

- http://www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali;
- http://www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari sayti;
- http://www.publicfinance.uz - O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi sayti;
- http://www.mf.uz - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti;
- http://www.cbu.uz - O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy;
- http://www.soliq.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi rasmiy sayti;
- http://www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasining rasmiy sayti;
- https://www.sciencedirect.com. – ommabop ilmiy jurnallar sayti;
- https://reader.elsevier.com. – ommabop ilmiy jurnallar sayti;
- http://www.scopus.com. – xalqaro maqola va anjumanlar sayti.

MINDARIJA

KIRISH..... 3

I BO'LIM. MOLIYAVIY NAZORATNING NAZARIY VA TASHKILIY ASOSLARI

1-BOB. "MOLIYAVIY NAZORAT" FANINING PREDMETI, OBYEKTI, METODI VA BOSHQA FANLAR BILAN O'ZARO ALOQADORLIGI..... 5

1.1. "Moliyaviy nazorat" fanining shakllanishi va rivojlanishi... 5

1.2 Moliyaviy nazorat" fanining obyekti, metodi, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi..... 7

2-BOB. MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI..... 10

2.1. Moliyaviy nazoratning mazmuni va ahamiyati..... 10

2.2. Takror ishlab chiqarishning turli bosqichlarida davlat moliyaviy nazorati tizimining elementlar..... 20

2.3. Davlat moliyaviy nazoratida metodik uslublar..... 23

2.4. Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tamoyillari 30

2.5. Moliyaviy nazoratni tashkil etishning huquqiy asoslari... 44

3-BOB. MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL QILISHNING TURLARI, SHAKL VA USULLARI..... 55

3.1. Moliyaviy nazoratni amal qilish sohalari va turlari..... 55

3.2. Moliyaviy nazoratning shakllari..... 62

3.3. Moliyaviy nazoratning usullari..... 67

I BO'LIM BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI..... 69

I BO'LIM BO'YICHA TESTLAR 70

II BO‘LIM. MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISHDA DAVLAT ORGANLARINING AHAMIYATI

4-BOB. UMUMDAVLAT NAZORAT ORGANLARINING MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHDAGI ROLI..... 79

4.1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati..... 79

4.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi ahamiyati..... 91

5-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HISOB PALATASI VA UNING MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHDAGI O‘RNI..... 98

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasini tashkil etishning maqsadi, vazifa va funksiyalari..... 98

5.2. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining tarkibiy tuzilishi..... 109

5.3. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan tekshirishlarni tashkil etish, o‘tkazish, tekshiruv materiallarini topshirish va davlat organlari tomonidan ko‘rib chiqish tartibi 112

6-BOB. MOLIYA ORGANLARI TOMONIDAN MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRILISHI..... 117

6.1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, uning vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari..... 117

6.2. Moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tarkibiy tuzilishi, vazifalari, huquq va majburiyatlari..... 131

6.3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘azna-chiligining byudjet ijrosini nazorat qilishdagi faoliyatining xususiyatlari 151

II BO‘LIM BO‘YICHA NAZORAT SAVOLLARI..... 159

II BO‘LIM BO‘YICHA TESTLAR 160

III BO‘LIM. DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TURLARI

7-BOB.	**SOLIQ NAZORATI**	171
7.1.	**Soliq nazoratining huquqiy asoslari**	171
7.2.	Soliq nazoratini amalga oshirish shakllari	173
7.3.	Soliq tekshiruvlarining mohiyati va turlari	181
7.4.	Soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi	186
7.5.	Davlat organlarining soliq nazoratini olib borishdagi vazifa va funksiyalari	195
8-BOB.	**BOJXONA XIZMATI NAZORATINI TASHKIL ETISH**	209
8.1.	Bojxona nazoratining mazmun-mohiyati va huquqiy asoslari	209
8.2.	Bojxona nazoratining shakllari	217
8.3.	Bojxona organlarini bojxona nazoratini olib borishdagi vazifalari	226
9-BOB.	**SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH**	233
9.1.	Sug'urta faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari	233
9.2.	Sug'urta faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning maqsad va vazifalari	237
9.3.	Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan sug'urta faoliyatini nazorat qilish tartibi	239
9.4.	Sug'urta nazorati davlat inspeksiyasining vazifalari, funksiyalar, huquqlari	247
10-BOB.	**BANK MUASSASALARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH**	252
10.1.	Bank nazoratining mohiyati va zarurligi	252
10.2.	Bank nazoratini amalga oshirish usullari	258
10.3.	O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank nazoratini amalga oshirishdagi roli va ahamiyati	263
10.4.	Tijorat banklarini litsenziyalash va davlat ro'yhatidan o'tkazish orqali nazorat qilish	271
	III BO'LIM BO'YICHA NAZORATSAVOLLARI	277
	III BO'LIM BO'YICHA TESTLAR	280

IV BO‘LIM BYUDJET NAZORATI

11-BOB.	**BYUDJET NAZORATINI TASHKIL ETISH.....**	392
11.1.	Byudjet nazoratning mohiyati, zaruriyati va vazifalari	392
11.2.	Byudjetni tuzish va ijro etish jarayonini nazoratni tashkil etish.....	301
12-BOB.	**BYUDJET TASHKILOTLARI XARAJATLAR SMETASINI REJALASHTIRISH VA BYUDJETDAN MOLIYALASHTIRISHDAGI MOLIYAVIY NAZORAT.....**	311
12.1.	Byudjet tashkilotlari xarajatlar smetasining mohiyati va ahamiyati	311
12.2.	Xarajatlar smetasini tuzish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayoni nazorati	318
12.3.	Xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalining tasdiqlanishi hamda ro‘yxatdan o‘tkazishning rasmiylashtirilishini to‘g‘riligini tekshirish	326
12.4.	Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari manbalarining shakllanishi, mablag‘larning ishlatilishi yuzasidan nazorat-iqtisodiy ishlarni tashkil qilish.....	332
13-BOB.	**BYUDJET TASHKILOTLARI MOLIYA-XO‘JALIK FAOLIYATIDA NAZORATNING AHAMIYATI.....**	340
13.1.	Nazorat-taftish - moliya organlari nazorat-iqtisodiy ishlarining asosiy usuli sifatida.....	340
13.2.	Nazorat-taftish turlari, ularning o‘zaro bog‘liqligi.	343
13.3.	Nazorat-taftish bosqichlari, ularga tavsif.	347
	IV BO‘LIM BO‘YICHA NAZORAT SAVOLLARI.....	355
	IV BO‘LIM BO‘YICHA TESTLAR	356

V BO‘LIM NODAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI TURLARI

14-BOB.	**ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI MOLIYAVIY NAZORATNI SAMARALI TASHKIL**	362

	ETISHDAGI AHAMIYATI	
14.1.	Ichki nazorat tizimining mohiyati va uni tashkil etish.....	362
14.2.	Ichki audit xizmatini tashkil etish.....	370
14.3	Byudjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkil etish.....	376
15-BOB.	**AUDITORLIK NAZORATINING MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISHDAGI AHAMIYATI**.....	384
15.1.	Auditorlik nazoratining mazmun-mohiyati.....	384
15.2.	Auditorlik tekshiruvining mohiyati va shakllari.....	390
15.3.	Auditorlik faoliyatini litsenziyalash tartibi va nazorati.....	394
15.4.	Auditorlik hisoboti va xulosalari.....	400
	V BO'LIM BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI.....	406
	V BO'LIM BO'YICHA TESTLAR	407

VI BO'LIM. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLIYAVIY NAZORAT

16-BOB.	**RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH**.....	415
16.1.	Jahon hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarda moliyaviy nazoratni tashkil etish	415
16.2.	Rossiya federatsiyasi davlat moliyaviy nazorat organlari vakolatlari.....	424
	VI BO'LIM BO'YICHA NAZORAT SAVOLLARI.....	449
	VI BO'LIM BO'YICHA TESTLAR	449
	GLOSSARIY.....	453
	FOYDALANILGAN ADABIYOYLAR RO'YHATI.....	467

V.SH. NURITDINOVA, M.A.SHARAPOVA

MOLIYAVIY NAZORAT

DARSLIK

Muharrir Z. Bozorova
Badiiy muharrir K. Boyxo'jayev
Kompyuterda sahifalovchi Z. Ulug'bekova

Nashr lits. AI¹ 305. Bosishga ruxsat etildi 06.09.2019.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i 27,6.
Hisob-nashr tabog'i 28,8. Adadi 100.
42-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60ª.

«DAVR MATBUOT SAVDO» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo'yliq, 4-mavze, 46.

ISBN 978-9943-13-842-1

